

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**“O'ZBEKISTONDA MADRASALAR
TA'LIM TIZIMI TARIXI
MANBASHUNOSLIGI”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
MATERIALLARI**

SAMARQAND-2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEKISTONDA MADRASALAR TA’LIM TIZIMI
TARIXI MANBASHUNOSLIGI”**

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY – AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI**

SAMARQAND – 2024

DASTURIY QO'MITA

Ismi sharifi	Vazifasi
B.E.Ergashev	Samarqand davlat universiteti Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası mudiri, a'zo
I.M.Saidov	Samarqand davlat universiteti Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası professori, a'zo
Sh.X.Voxidov	Samarqand davlat universiteti Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası professori, a'zo
D.N.Radjabova	Samarqand davlat universiteti Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası dotsenti, a'zo
O.Sh.Yarmatov	Samarqand davlat universiteti Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası o'qituvchisi (PhD), a'zo
X.B.Abriyev	Samarqand davlat universiteti Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası o'qituvchisi (PhD), a'zo
A.S.Yakubov	Samarqand davlat universiteti Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası o'qituvchisi (PhD), a'zo

Ma'sul muharrir

B.Ergashev – tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

I.Saidov – tarix fanlari doktori, professor

R.Xoliqulov – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Masalalarning xolisona yoritilganligi, keltirilgan dalil va ilmiy muomalaga kiritilgan ma'lumotlar ishonchliligi bo'yicha mas'uliyat mualliflar zimmasidadir. Maqolalarda ilgari surilgan fikr-mulohazalar konferensiya tahrir hay'atining nuqtai-nazari bilan hamohang bo'lmasligi mumkin.

MUNDARIJA

KIRISH 4-6 betlar

I. SHO'BA: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADRASALAR TARIXI

Rajapov Pirnazar Sardor o'g'li: Buyuk Saljuqiylar davri (1038-1157) da madrasa mudarrislarining jamiyat hayotida tutgan o'rni	10-17 betlar
Abriyev Hazratqul Bo'ronovich: Temuriylar davri Hirot madrasalari bunyod etilish tarixidan (Shohruh Mirzo, Gavharshod begim, Nig'matobod madrasalari misolida)	18-22 betlar
Amirkulov Jasur Baxtiyorovich: Ulug'bek madrasasining o'rganilishi va ta'mirlash borasidagi qilingan ishlar	22-27 betlar
Azizkulov A., To'g'izov N.: Temuriylar ta'lim tizimini Hindistonda joriy etilishi (yoxud Boburiylar saltanatida ta'lim islohotlari)	27-32 betlar
G'afforov Shokir Safarovich: Samarqand madrasalari tarixidan	32-43 betlar
Ибрагимова Меруерт Норжигитовна: Сочинения темуридов – источник по истории Ак Орды	43-52 betlar
Mamatqulova Farangis Orzukulovna: Islom tamaddunining dastlabki uch asrida Movarounnahrda madrasalarning tashkil topishi va ta'lim tizimi manbashunosligi	52-58 betlar
Mamatqulova Shaxnoza Rahmonqulovna: Amir temur – Ikkinchi renessans asoschisi	58-64 betlar
Mahmatqulov I.T., Raximov L.A.: O'rta Osiyo me'morchiligida qorixonalar va ularning arxitekturasini o'rganish va ilmiy tahlil qilish	64-67 betlar
Вафаева Джамия Бакиевна: К вопросу истории медресе Бибиханым	67-72 betlar
Maxmudov Toxir Isayevich: Temuriylar davrida Xuroson xonaqohlarining o'quv muassasasi sifatidagi ahamiyati	73-79 betlar
G'afforov Sh.S., Shotemirova A.: Temuriylar davri madrasalari faoliyatiga bir nazar	79-87 betlar
Berdiyev Rustam Boboxonovich: Kidan-Qoraxitoylar tarixi manbashunosligi	88-100 betlar
Amirqulova Nasiba Baxtiyorovna: Temuriylar davri ta'lim tizimida faoliyat yuritgan mudarrislar	101-105 betlar

II. SHO'BA: O'RTA OSIYONING XONLIKLAR DAVRI MANBASHUNOSLIGIDA YANGICHA YONDASHUVLAR

Вохидов Шодмон Хусейнович: <i>О системе обучения в медресах Бухары в середине XIX века</i>	105-118 betlar
Саидов Илхомжон Мухиддинович: <i>Наука и просвещение в Самарканде в средние века</i>	118-133 betlar
Ганиев Камалидин Ганиевич: <i>Место медресе и школ в духовно-культурной жизни Среднеазиатских ханств</i>	133-144 betlar
Imomov Ulug'bek Ismoilovich: <i>XVIII – XIX asrlarda Samarqand madrasalari tarixi manbashunosligi</i>	145-149 betlar
Irisqulov Olim Jahongirovich: <i>Shayboniylar davrida madaniy hayoti rivojida madrasalarning o'rni</i>	149-156 betlar
Qo'ldashev Sherali Temiraliyevich: <i>Chodak madrasasi tarixi</i>	156-164 betlar
Ro'zmatova Sharofatxon Toshmatjonovna: <i>Madrasalarda biologiya va zoologiya fanlarini o'qitishga oid ma'lumotlar</i>	165-169 betlar
Imomov Oybek Ismoilovich: <i>Ashtarxoniylar davri madrasalar me'morchiligi tarixi manbashunosligi</i>	169-176 betlar
Zaripboyeva Umida: <i>Xiva tumanidagi muqaddas qadamjolar</i>	176-180 betlar

III. SHO'BA: O'ZBEKISTONNING YANGI VA ENG YANGI TARIXI MANBASHUNOSLIGI

Ergashev Baxtiyar Ergashevich: <i>Nikolay Ostroumovning Turkiston o'lka madrasalari to'g'risidagi ma'lumotlari</i>	181-186 betlar
Ergashev B.E., Ergashev S.M.: <i>Turkiston ta'lim tizimi va adabiyotlari tahlili</i>	187-194 betlar
Mattiyev O'tkir Begmatdulobovich: <i>Turkiston – ta'lim o'chog'i (afg'on talabalari misolida)</i>	194-197 betlar
Temirov Farrux Umedovich: <i>Sadriddin Ayniyning Samarqand tarixiga oid ilmiy tadqiqotlari</i>	198-201 betlar
Мулладжанова Хосият Яздонкуловна: <i>Влияние Туркестанского отдела русско-географического общества на мусульманскую систему образования в Средней Азии</i>	201-204 betlar
Musaxonov Sayidmuhammad Yo'ldoshxon o'g'li: <i>Turkiston jadidlari tafakkurida yoshlar masalasini metodologik asosda o'rganish</i>	204-208 betlar
Ravshanov Sherbek Tursunovich: <i>XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilgan aholining ta'lim tizimi</i>	208-215 betlar
Ro'ziboyev Raximbergan Ixtiyorovich: <i>XIX – XX asr boshidagi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi maktab va madrasalar tarixi</i>	215-220 betlar
Xo'jayorov Asilbek Otabek o'g'li: <i>Qarshi shahri madrasalari ba ularda ta'lim jarayonlarining tashkil etilishi (XX asr boshlarida)</i>	220-227 betlar
Yarmatov Oybek Shaymanovich: <i>XIX asrda Turkistonda maorif tizimidagi o'zgarishlar</i>	227-230 betlar
Xasanova Zulhumor Djalolitdinovna: <i>XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshi Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat</i>	231-238 betlar
Qurbonov Bekjon G'ayrat o'g'li: <i>Mustaqillik yillarida yurtimizda xotin-qizlar madrasalari faoliyati va tarixi</i>	238-242 betlar
XULOSA	243-244 betlar

KIRISH

Qadim tarixdan ma'lumki, biz yashab kelayotgan makon madaniyat, ilm-fan va marifat o'chog'i sifatida butun dunyoga dong taratib kelgan. O'lkadagi ilm-fanning rivojlanishida ilm ma'rifat markazi hisoblangan madrasalarning roli beqiyos hisoblanadi.

Qadimgi va o'rta asrlar davrida bilim olish imtiyozi dastlab jamiyatning ma'lum bir qatlami, asosan ruhoniylar va oliy tabaqa vakillariga taalluqli bo'lsa, o'zining tadrijiy rivojida ta'limda madrasalar o'ziga xos xarakterga ega bo'lib bordi.

O'rta asrlar davri ta'limining taraqqiyoti tarixida o'lkaga islom dinining tarqalishi va mahalliy halqning turmush tarziga singib ketishi eng muhim omil sanaladi. Bu davrda musulmon madaniy shakllanishida madrasalar oliy ta'lim dargohi sifatida muayyan ahamiyatga ega bo'ldi. Bu Markaziy Osiyoda, xususan O'zbekiston hududida keng tarqalgan boshlang'ich *maktablar*, va oliy ta'lim muassasasi – *madrasalar* ko'rinishidagi ta'lim tizimining tashkiliy tuzilmasida namoyon bo'ldi. Ta'lim jarayonining bunday shakli uzoq davr mobaynida o'z samaradorligini saqlab qoldi. Buning isbotini dunyoviy va diniy fanlar sohasida ilmiy muassasalarning vujudga kelishi, jahon ilmiga buyuk olim va mutafakkirlarni yetkazib berganligida ko'rish mumkin.

O'rta Osiyoda madrasalar ikki tip – Madrasa va Madrasayi Ol'iyaga bo'linib, madrasalar boshlang'ich qismi, Madrasayi Oliyalar yuqori ilmiy dargoh hisoblanadi. Mintaqamizda bunday oliy dargohlardan Buxorodagi Farjak madrasasi, Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek madrasasi, Buxorodagi Mir Arab madrasasi, Buxorodagi Abdullaxon madrasasi, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi kabi bir qancha madrasalarni misol qilib aytishimiz mumkin.

Xususan, Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek madrasasi bunga yorqin misol bo'ladi. Madrasada 16 yillik ta'lim jarayonida diyarli barcha diniy va dunyoviy fanlar o'qitilganligini hisobga olib mazkur madrasani mintaqadagi dastlabki oliy ta'lim dargohi sifatida e'tirof etish mumkin.

XVI-XVII asrlarda madrasalarda 21 yillik va 18 yillik ta'lim jarayonlari shakllanishi zamirida madrasalarda dunyoviy ilm qisqarib diniy ilm asosiy o'rin egallashi natijasida IX – XII asrlar va Amir Temur va Temuriylar davrlaridagi ulkan ilmiy yutuqlar davom ettirilmay o'lkada ilm-fanda tushkinlik yuz berdi va g'arbdagi ilm-fan taraqqiyotidan ortda qola boshladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari O'rta Osiyo hududida ilm-fanda o'zgarishlar davri hisoblanadi. O'lkaning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va o'zga sivilizatsiya tizimining kirib kelishi Markaziy Osiyo ijtimoiy

hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatib, ko'p asrlar davomida shakllanib, qaror topgan hayot tarzi va aholi turmush-tarzida o'zgarishlar yuzaga keltirdi. Ushbu jarayonlarning yaqqol ifodasi ta'lim tizimida kuzatiladi. Mazkur tarixiy bosqichda o'lkada turli-tuman yondashuvlar, uslublar, o'quv dasturlari va maqsadli ko'rsatmalarga asoslangan ta'lim shakllari mavjud edi. Xususan, jamiyatning eskicha qarash tarafdorlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan masjidlar, boshqa diniy muassasalar huzurida va shaxsiy xonadonlardagi *an'anaviy musulmon maktablari*; mahalliy taraqqiyparvarlik harakati vakillari tomonidan tashkil etilgan, ilmiy yutuqlarni qo'lga kiritgan yevropa ta'lim uslublarini musulmon ta'limi elementlari bilan uyg'unlashtirgan *yangi usul maktablar*. Mustamlaka ma'muriyati tomonidan umumta'lim (*boshlang'ich maktab, gimnaziya, progimnaziya*) ochilgan, mahalliy aholi orasida boshqaruv tizimiga sodiq bo'lgan kadrlarni tayyorlovchi, o'z tamoyiliga ko'ra Rossiya imperiyasining boshqa hududlarida amalda bo'lgan o'quv jarayonlariga asoslangan *rus-tuzem maktablari*. Boshlang'ich ta'limning ushbu shakllari bilan bir qatorda o'quv dasturlari diniy ta'limga yo'naltirilgan *cherkovlar qoshidagi maktablar* va *yahudiy maktablari* ham faoliyat yuritgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'rta Osiyo mintaqasida faoliyat ko'rsatgan madrasalar va belgilangan yo'nalishdagi ta'lim muassasalari o'quv jarayonlar, o'quv-tashkiliy dasturlar va maqsadli auditoriyasi haqida shaxsiy qarashlarga ega edi. Bundan tashqari, ularning har biri u yoki bu ma'noda Rossiya mustamlaka ma'muriyati vakillari va mahalliy millat elitalarining ta'siri ostida bo'lib, jamiyatning rivojlanish yo'lida ularning pozitsiyalarini belgilab berardi. Shunday qilib, ta'lim tuzilmasi, o'quv jarayonlarining tashkillashtirilishi, o'quv materiallarining xususiyati va dasturlari, asosiy g'oyaviy yo'nalishlari jamiyatda sodir bo'layotgan siyosiy va ijtimoiy munozaralar va jarayonlarning yaqqol manzarasini namoyon etardi.

Umuman olganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'rta Osiyo ta'lim tizimi jiddiy transformatsiyaga uchradi, uning asosiy komponenti bo'lgan o'quv-ta'lim jarayonlarining tizimli tashkillashtirilishi, ta'limning shakl va usullarida fikrlarning bir tomonlamaliligi, ijtimoiy tenglik qarashlaridagi o'zgarishlar shular jumlasidandir. Ta'kidlangan o'zgarishlar bir tomondan, burilish davrida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar oqibati va mahsuli hisoblanib, taraqqiyotning asosiy yunalishini tanlash zaruriyati bilan to'qnash keldi.

Boshqa tomondan, ta'lim tizimi jamiyatning intellektual muhitini shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi va ma'lum ma'noda, o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning kelgusi yo'lini belgilab berdi.

Shu bilan birga, mazkur davrda o'quv-ta'lim jarayonlariga tatbiq etilgan –

dunyoviy fanlarning joriy qilinishi, o'g'il va qiz bolalarning birgalikda o'qitilishi, tan jazosi tizimining bekor qilinishi, uslubiy va didaktik qo'llanmalar va darsliklarni ishlab chiqilishi kabi yo'nalishlar XX asr davomida o'lkadagi ta'lim tizimi taraqqiyoti u yoki bu ma'noda rivojlantirildi.

Sovet davrida O'zbekistonga joriy qilingan bolsheviklarning ta'lim tizimi o'z mohiyatiga ko'ra zarbdor, ekspansion xususiyatga ega bo'ldi hamda mahalliy an'analar va islomga bog'liq bo'lgan barcha sohalarga qarshi g'oyaviy kurash olib bordi.

XX asrning 20 – 50 yillari xalqlar hayotida, hususan ta'lim tizimida rivojlanish davri bo'lsa-da, biroq u bir tomondan, qatag'onlari, to'xtovsiz fojealar, boshqa tomondan sovet hukumatining o'ylanmagan iqtisodiy islohotlari bilan olib borildi. Intellektual hayot va ta'lim tizimidagi yutuqlar, mantiqqa zid bo'lishiga qaramay, turg'unlikning kengayishi va chuqurlashuvi bilan birgalikda kechdi. XX asrning 80 yillaridagi islohotlar nafaqat ijtimoiy-madaniy jarayonlarni murakkablashtirdi, aksincha o'z mohiyatiga ko'ra, SSSRning to'liq tanazzuliga olib keldi.

**I. SHO‘BA: “AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADRASALAR
TARIXI”**

**BUYUK SALJUQIYLAR DAVRI (1038-1157) DA MADRASA
MUDARRISLARINING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI**

Rajapov Pirnazar Sardor o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islom tarixi va manbashunosligi yo‘nalishi ilmiy-tadqiqotchisi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: rajapovpirnazar@gmail.com

X asrdan Abbosiylar xalifaligida Islom ta’limoti asoslaridan uzoqlashib, hashamat va maishatga berilish holatlari kuzatilgan bo‘lsa-da, saljuqiylar dastlab Movarounnahrda, keyin esa Anadoluda musulmon ijtimoiy davlat an’anasini saqlab kelishdi. Saljuqiylar saltanati va keyinchalik undan ajralib chiqqan davlatlarning Islom sivilizatsiyasi tarixidagi eng katta xizmatlari, shubhasiz, To‘g‘rulbey davridan boshlab Islom diyorida masjid, madrasa, kutubxona, tibbiyot maktabi, kasalxona, zoviya va karvonsaroylar barpo etishgani hamda mazkur muassasalarga vaqflar ajratishgani bilan namoyon bo‘ladi.

Saljuqiylar sultonligi davri Islom olami ta’lim-tarbiya tizimida muhim burilish nuqtasi bo‘lgan. Dastlab olim-u fuqaholarga nafaqa ajratish, zohidlar uchun boshpanalar qurish orqali davlatga bog‘liq ma’naviy-ma’rifiy uyushmalar tuzish bilan boshlangan harakat yirik ilm-fan markazlari – madrasalar barpo etilishi hamda mazkur ilm-fan markazlarini mutaxassislar bilan ta’minlash uchun asos bo‘ldi. [1]

Saljuqiylar davridan boshlab butun Islom olamida madrasalar tashkil qilish jarayoni yanada jadallashib, madrasalar “davlat xizmatchilari sinfi”ni tayyorlaydigan rasmiy muassasalarga aylandi. [2] Madrasalar yuzaga kelguniga qadar ta’lim-tarbiya ishlari uchun muayyan joylar bo‘lmaganligi sababli ta’lim jarayonlari masjid, ulamolar uyi va kitob do‘konlarida olib borilgan. [3] Lekin madrasalar ochilishi bilan masjidlardagi ta’lim jarayonlari to‘xtab qolmagan.

Odatda masjid va madrasa bitta majmuada barpo etilgan va har ikkalasida ham ta'lim jarayonlari parallel ravishda olib borilgan.

Biroq madrasa ta'limi masjid ta'limiga qaraganda tizimliroq va standartlashgan edi. Madrasa va masjidlar orasidagi muhim farq madrasalarda ayvonlar, mudarris va talabalar uchun xonalar mavjudligi edi. [4]

Yangi madrasa tashkil qilinishi munosabati bilan o'ziga xos ochilish marosimi bo'lib o'tgan va unda madrasa mudarrisleri ma'ruza qilishgan. XI asr o'rtalaridan madrasalarda ochilish ma'ruzalari bo'lishi odatiy holga aylangan. Ochilish darslari faqat mudarrislar uchun bo'lmay, balki qozi, qozi ul-quzzotlar tayinlanishi munosabati bilan ham shunday yig'inlar o'tkazilardi. Ochilish ma'ruzasida endi lavozimiga tayinlangan kishi jamoat huzurida minbarga chiqar va uning ilk ma'ruzasida shaharning taniqli kishilari qatnashardi. [5]

Endi vazifasiga tayinlangan mudarris ochilish darsida turli mavzulardan so'z yuritib, chuqur bilimga egaligi va dunyoqarashi kengligini ko'rsatishga harakat qilgan. Ochilish darsidagi tinglovchilar soni mudarrisning qay darajada o'z maqomiga loyiqligini ham belgilab bergan. Ochilish darsida qatnashuvchilar soni yuqori bo'lishi mudarrisning e'tirofi bilan bog'liq edi. Ma'ruzaga yetarli darajada tinglovchilar kelmagani ma'ruza qiluvchining madrasa mudarrisligiga ma'qul ko'rilmaganini bildirgan. [6] Ba'zan ochilish darsida faqihlar, davlat arkoni va shaharning taniqli kishilari ham ishtirok etib, o'z mahoratini ko'rsatayotgan yangi mudarris og'ir sinovdan o'tardi.

Ilgari tarqoq va xususiy holda faoliyat yuritgan ta'lim muassasalari Sulton Alp Arslon hukmronligi davrida ilk bor tizimga solinib, davlat himoyasiga olindi. O'zida taniqli ulamolar va ziyolilarni jamlagan, mudarrislariga oylik maosh beriladigan, talabalar bepul ta'lim olish birga oylik stipendiya va oziq-ovqat bilan ta'minlanadigan, o'quv dasturlari va boy kutubxonalariga ega bo'lgan hamda oliy ta'lim muassasasi sifatida madrasa Islom olamida Sulton Alp Arslon tomonidan 459/1066-1067-yil Bag'dodda tashkil etilgan. [7]

Nizomiya nomli mazkur madrasa mashhur faqih Abu Is'hoq Sheroziy uchun qurilgan va u madrasaning ilk mudarrisi etib tayinlangan. [8] Madrasaga ko'plab bozor, karvonsaroy, hammom va bog'lar vaqf qilingan edi.

Hanafiylik va shofe'iylik fiqhi o'rgatilgan Bag'dod Nizomiya madrasasidan yetishib chiqqan yosh olimlar davlatning yuqori mansablariga tayinlangan. [9]

Zamonasining mashhur olimlaridan Abu Is'hoq She'roziy (vaf. 476/1083) va Imom G'azzoliy (vaf. 505/1111) Bag'dod, Imom al-Haramayn Juvayniy (vaf. 478/1085) Nishopur, Abdulkarim Shalusiyy (vaf. 465/1072) Omul, Muhammad Tamimiy Marvaziy (vaf. 468/1075-1076) Marv, Sadruddin Xo'jandiy (vaf. 483/1090) Isfahon, Abdulloh Tamimiy (vaf. 488/1095) Balh, Abu Bakr Shoshiy (vaf. 507/1114) Hirot va Abu Sa'd ibn Abu Yusuf Bushanj shahridagi Nizomiya madrasasida mudarrislik qilishgan hamda mazkur madrasalardan Imoduddin Kotib Isfahoniy (vaf. 597/1201) va Shayx Sa'diy She'roziy (vaf. 691/1292) kabi siymolar yetishib chiqqan. [10]

Sulton Alp Arslonning ilm-fan sohasidagi islohotlari o'g'li Malikshoh davrida ham davom ettirildi. Xususan, 480/1087-yilda yuqorida nomi tilga olingan Nizomiya madrasalaridan Hargird madrasasi qurildi. [11][12]

Sulton Malikshoh saltanat markazi Isfahonning Karron mahallasida hamda Bag'dodning Rasofa mahallasida ham madrasa qurdirgan. Uning ilm-fan sohasida amalga oshirgan ishlaridan vazir va amirlari ham o'rnak olib, turli shaharlarda madrasalar barpo etishdi. [13].

Sulton Sanjar (1118-1157) davrigacha madrasalar tizimlashgan holga kelib bo'lgan edi. Bu davrda ham bir qator madrasalar tashkil etildi hamda mavjud madrasalar faoliyati qo'llab-quvvatlandi. [14][15][16]

Madrasalarda o'qitish uslubi sodda edi. Madrasa ta'lim tizimidagi o'qitish metodlari vaqti-vaqti bilan o'zgarib turgan. Ilk kezlarda asosan Islomiy ilmlar o'qitilgani sababli talabalar darslarni yod olishgan. Biroq, vaqt o'tishi bilan tizim o'zgarib, yod olish o'rniga yozish metodiga o'tildi. Ko'pincha dars jarayonlari Qur'on tilovat qilib, Muhammad (s.a.v) ga salavot aytish bilan boshlangan. Dars

mobaynida mudarris kitobdan jummalarni baland ovozda qayta-qayta takrorlar yoki yozdirib borar hamda zarur o'rinlarda matnga sharh berib o'tar edi. U davrlarda kitoblar kamligi bois talabalar yangi mavzuga o'tish uchun mudarris dars o'tib berishini kutishgan. [17]

Madrasalardagi ta'limdan talabalarda fiqhdan dars berish, fatvo berish va bahs-munozaraga kirisha olish ko'nikmalarini shakllantirish maqsad qilingan edi. [18]

Saljuqiylar davrida arab tili ilm va ta'lim tili bo'lgani uchun kitoblar ham shu tilda yozilgan. Lekin mudarrislar hali arab tilini to'liq o'rganmagan yoshlarga matnlar mazmunini turk tilida sharhlab berishgan. [19]

Mudarrislar sulton yoki vazir tomonidan tayinlanardi. Har bir madrasada kamida bitta mudarris bo'lgan. Bag'dod Nizomiya madrasasi mudarrislari Shofe'iy mazhabidan bo'lishi shart edi. Mudarrislar odatda vafotiga qadar vazifasini ado etishgan. Ular yaxshi maosh oladigan va jamiyatda hurmat-e'tibori baland shaxslar edi. [20] Shuningdek, mudarrislar kezi kelganda imom-xatib va elchi vazifasini ham bajarishgan. [21] Mudarrislarga muidlar yordam berishgan. Muid talabalarga maslahat beruvchi va yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi edi. [22] O'tilgan darslarni yaxshi o'zlashtira olmagan talabalar bilan muid shug'ullangan. [23] Muidlar odatda mudarris tarafidan zehni o'tkir talabalar orasidan tanlab olingan va keyinchalik ularning orasidan ko'plab mudarrislar yetishib chiqqan. Jumladan, Imom G'azzoliy Bag'dod Nizomiyasida mudarris bo'lishidan oldin Nishopur Nizomiya madrasasida Juvayniyga muidlik qilgan. [24]

Shuningdek, Ilkiyo Harrosiy, Abul Muzaffar Havofiy kabi mashhur mudarrislar ham Juvayniyning muidlari bo'lishgan. Madrasa xodimi sifatida muidlikning shakllanishida Nizomiya madrasalarining ro'li katta. Abulma'oliy Juvayniy (419/1028-478/1085) Nishopurning Juvayn qishlog'ida tug'ilgan. Juvayniy saljuqiylar davrining mashhur kalom, usul va fiqh olimlaridan edi. U Fiqh ilmini otasi Abu Muhammaddan o'rgangan. [25]

Keyinchalik Imom Boqilloniya shogirdlik qilgan. Mo‘taziliy vazir Amidulmulkning tazyiqi natijasida Xurosonni tark etib, Hijozga borgan. Makka va Madina shaharlarida 4 yil mudarrislik qilgani sababli “Imom al-haramayn” nomini olgan. Nizomulmulk Saljuqiylar davlati vaziri bo‘lgach, uni Nishopurga chaqirgan hamda unga atab Nishopur Nizomiyasini qurdirgan. 456/1063-64-yildan vafotiga qadar ushbu madrasada mudarrislik qilgan.

Uning yetishtirgan 400 ga yaqin shogirdlari payti kelib o‘z davrining mashhur olimlariga aylangan. Juvayniy kalom, fiqh, tafsir va hadis ilmlariga oid 30 dan ortiq asar yozgan. [26] Juvayniy Xurosonda shofe’iylarning yetakchi diniy peshvolaridan biri edi. Shu sababli XI-XII asrlarda ko‘plab ahli ilmlar unga shogird bo‘lishni faxr deb bilishgan. Jumladan, Imom G‘azzoliy, Ilkiyo Harrosiy va Abulmuzaffar Havofiy uning shogirdlari bo‘lgan.

Saljuqiylar saltanatining ulug‘vorlikka erishgan davrdagi sultoni Malikshoh va Imom al-Haramayn Juvayniy orasida kechgan hodisa ulamolarning o‘sha davr jamiyatida yuqori mavqe tutganini ifodalash uchun ajoyib misol bo‘la oladi. Darhaqiqat, Malikshoh hilolni ko‘rishi bilan hayit kunini e‘lon qiladi. Ammo Juvayniy, aksincha, uning ertasi Ramazon hayiti kuni ekani va sulton hayit kuni deb e‘lon qilgan kunda esa ro‘za tutish lozimligi haqida fatvo beradi. Sulton ana shunday vaziyatda Juvayniyni saroyga taklif qiladi. Uchrashuv chog‘ida olim: “Saltanat ishlarida bizning vazifamiz sulton farmoniga itoat qilishdir, lekin fatvo masalalarida esa sulton bizga murojaat qilishi lozim”, deya javob beradi. Bu javobdan hayratlangan sulton fatvoga bo‘ysunadi va olimni hurmat bilan kuzatib qo‘yadi. [27]

Mashhur mutakallim, faqih va mutasavvif Imom G‘azzoliy (450/1058-505/1111) Xurosonning Tus shahrida dunyoga kelgan. U Islom ilmlarining deyarli barchasida so‘z sohibi bo‘lgan. G‘azzoliy yoshligida Nishopur Nizomiyasi bosh mudarrisi Juvayniydan mantiq, usul, fiqh va kalom ilmlari bo‘yicha tahsil olgan. U Islomning boshqa diniy e‘tiqod va falsafiy ta’limotlardan ustunligini isbotlashga harakat qilgani uchun “Hujjat ul-Islom” nomini olgan. [28] Imom G‘azzoliy 34

yoshida Bag'dod Nizomiyasiga mudir bo'lgan. Bir muddat Nishopur Nizomiyasida mudarrislik ham qilgan. [29] Hayotining so'nggi yillarini tug'ilgan joyi Tusda o'tkazgan. Uyi yaqinida takka va madrasa qurdirib, yana ta'lim berishda davom etgan. [30]

Abu Is'hoq She'roziy (393/1003-476/1083) She'rozning shimolidagi Feruzobod shahrida tug'ilgan. Olim Abu Abdulloh She'roziy, Abu Abdulloh al-Jallob, Abu Ahmad Bag'dodiy kabi olimlardan ta'lim olgan. [31]

Uni Bag'dod Nizomiya madrasasining ilk mudarrisi sifatida e'tirof etishgan. [32] Nizomulmulk Bag'dod Nizomiya madrasasini Abu Is'hoq She'roziy uchun qurdirgan edi. [33]

Abu Is'hoq She'roziy saljuqiylar davrining mashhur shofe'iy faqihlaridan hisoblanadi. Shuningdek, olim tabaqot kitoblarida zamonasining ilmi, zohid, ibodatgo'y, taqvodor va saxovatli shaxsi sifatida e'tirof etilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Saljuqiylar davrida madrasalarning davlat tomonidan bepul ilm oladigan ta'lim muassasalari sifatida tashkil etilib, ularga vaqflar ajratilishi natijasida butun Islom olamida ilm-fan sohasiga bo'lgan e'tibor va rag'bat yanada oshib, madrasalar tashkil qilish jarayoni jadallashib ketdi. Saljuqiy sultonlar, amirlar va beylar ilm-fan homiylari sifatida buyuk xizmatlar qilishgan. Ular orasida Buyuk Saljuqiylar davlatining ilk sultonlari, ayniqsa Malikshoh, Sanjar va vazir Nizomulmulklar o'zlarining ilmiy-madaniy sohadagi faoliyatlari bilan Islom sivilizatsiyasi tarixida sezilarli iz qoldirishdi.

Madrasa mudarrislarining aksariyati saljuqiylar sultonlarning homiyligida bo'lgan yohud ular vaqf etgan muassasalarda kun kechirish baxtiga muyassar bo'lishgan. Davlat arkonining madrasa mudarrislariga ko'rsatgan hurmat-ehtiromi, ularning faoliyat yuritishi uchun qurdirgan ijtimoiy muassasalari va qilgan xayr-ehsonlari nihoyatda hayratlanarli darajada bo'lib, madrasa mudarrislarining jamiyat hayotida katta o'rin tutganidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. İ.Kafesoğlu. Türk Dünyası El Kitabı. 1.cilt. – Ankara: Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü, 1992. 373-B.
2. Claude Cahen. Osmanlılardan Önce Anadolu'da Türkler (Çev. Yıldız Moran). – İstanbul: E-yayınları, 1979. 246-B.
3. M.R.Keleş. Ortaçağ İslam Dünyasında Medreselerde Açılış Dersi Geleneği: Kayseri Pervane Bey Medresesi Örneği // Humanitas, C.4, sayı 8, 2016. 159-B.
4. Altan Çetin. Türklerde Medreseler // Dini Araştırmalar, sayı 5, C. 2, 1999. 180-B.
5. G.Makdisî. Ortaçağda Yüksek Öğretim: İslam Dünyası ve Hristiyan Batı. (Çev. A.H.Çavuşoğlu ve H.T.Başoğlu). – İstanbul: Gelenek Yayınevi, 2004. 234-235-Betlar.
6. B. İ.Kafesoğlu. Türk Dünyası El Kitabı. 1.cilt. – Ankara: Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü, 1992. 373-B.
7. İ.Kafesoğlu. Büyük Selçuklu imparatoru Sultan Melikşah. – İstanbul: Milli Eğitim Basımevi, 1973. 257-B.
8. Aptullah Kuran. Anadolu Medreseleri, 1.cilt. – Ankara: Orta Doğu Teknik Üniversitesi Mimarlık Fakültesi, 1969.
9. Aptullah Kuran. Anadolu Medreseleri, 1.cilt. – Ankara: Orta Doğu Teknik Üniversitesi Mimarlık Fakültesi, 1969.
- 10.Zeki Atçeken, Yaşar Bedirhan. Selçuklu müesseseleri ve medeniyeti tarihi. – Konya: Eğitim, 2012. 437-441-Betlar.
- 11.H.D.Yıldız. Doğuştan Günümüze Büyük İslam Tarihi, C.7. – İstanbul: Çağ yayınları, 1989.
- 12.M.A.Köymen. Alp Arslan ve Zamanı II. – Ankara: Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih Coğrafya Fakültesi yayınları, 1983. 379-Betlar.
- 13.İ.Kafesoğlu. Büyük Selçuklu imparatoru Sultan Melikşah. – İstanbul: Milli Eğitim Basımevi, 1973. 158-161-Betlar.
- 14.Ramazan Şeşen. Salâhaddin Eyyûbî ve Devlet. – İstanbul: Çağ yayınları, 1987.
- 15.Ramazan Şeşen. Salâhaddin Devrinde Eyyûbîler Devleti. – İstanbul: Edebiyat Fakültesi Basımevi, 1983. 525-527-Betlar.
- 16.H.D.Yıldız. Doğuştan Günümüze Büyük İslam Tarihi, C.7. – İstanbul: Çağ yayınları, 1989.
- 17.S.Parladır. Medreseler Hakkında Pedagojik Bir Değerlendirme // Dokuz Eylül Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, sayı 4, 1987. 164-173, 164-173-Betlar.

- 18.G.Makdisî. Ortaçağda Yüksek Öğretim: İslam Dünyası ve Hristiyan Batı. (Çev. A.H.Çavuşoğlu ve H.T.Başoğlu). – İstanbul: Gelenek Yayınevi, 2004. 282-B.
- 19.Yahya Akyüz. Türk Eğitim Tarihi. – Ankara: Ankara Üniversitesi Eğitim Bilimleri Fakültesi Yayınları, 1989. 55-B.
- 20.Yahya Akyüz. Türk Eğitim Tarihi. – Ankara: Pegem Akademi Yayınları, 2008. 45-46-Betlar.
- 21.Zeki Atçeken, Yaşar Bedirhan. Selçuklu müesseseleri ve medeniyeti tarihi. – Konya: Eğitim, 2012. 140-B.
- 22.Yahya Akyüz. Türk Eğitim Tarihi. – Ankara: Pegem Akademi Yayınları, 2008. 45-46-Betlar.
- 23.S.Parladır. Medreseler Hakkında Pedagojik Bir Değerlendirme // Dokuz Eylül Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, sayı 4, 1987. 164-173,164-173-Betlar.
- 24.Abdurrahman Acar. Selçuklu Medreseleri ve İslam Kültür ve Medeniyetine Kazandırdıkları // Uluslararası Türk Dünyasının İslamiyete Katkıları Sempozyumu. – Isparta: Süleyman Demirel Üniversitesi İlahiyat Fakültesi, 2007. 361-B.
- 25.Cihan Piyadeoğlu. Büyük Selçuklular döneminde Horasan (1040-1157) // Doktora tezi. – İstanbul, 2008. 179-b.
- 26.Selim Özarlan. Selçuklularda kelam ilmi ve kelam alimleri // I.Uluslararası Selçuklu kültür ve medeniyeti kongresi, C.2. – Konya, 2001. 139-B.
- 27.Osman Turan. Selçuklular Tarihi ve Türk-İslâm Medeniyeti. – İstanbul: Turan, 1969. 253-B.
- 28.Selim Özarlan. Selçuklularda kelam ilmi ve kelam alimleri // I.Uluslararası Selçuklu kültür ve medeniyeti kongresi, C.2. – Konya, 2001. 140-B.
- 29.İ.Kafesoğlu. Büyük Selçuklu imparatoru Sultan Melikşah. – İstanbul: Milli Eğitim Basımevi, 1973. 165-166-Betlar.
- 30.Sevim Tekeli. Büyük Selçuklu İmparatorluğunun uygarlığa katkıları // Erdem, C.9, sayı 25, 1996. 396-B.
- 31.Bilal Aybakan. Bağdat Nizâmiye Medresesi İlk Müderrisi Ebu İshak eş-Şîrâzî // İslam Medeniyetinde Bağdat (Medînetü's-Selâm) Uluslararası Sempozyum. – İstanbul: 2017. 700-701-Betlar.
- 32.Bilal Aybakan. Şîrâzî Ebû İshak // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.39. – İstanbul: TDVY, 2010. 185-186-Betlar.
- 33.Murat Akın. Ebû İshâk eş-Şîrâzî'nin akâide dair iki eseri ve kelâmî görüşleri // Diyanet İlmî Dergi, C. 57, sayı 1, 2021. 354-B.

**TEMURIYLAR DAVRI HIROT MADRASALARI BUNYOD ETILISH
TARIXIDAN (SHOHRUH MIRZO, GAVHARSHOD BEGIM,
NIG'MATOBOD MADRASALARI MISOLIDA)**

Abriyev Hazratqul Bo'ronovich

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasi assistenti (PhD)*

E-mail: xazratqulabriyev25@gmail.com

Sharq me'morchiligi XIV-XV asr oxirlarida jahon me'morchiligining eng yorqin hodisalaridan biri bo'ldi. Bu hudud me'morchiligi O'rta asrlar va Yangi zamon davrida shakllanadi va ko'p asrlik an'analar va yangi rivojlanayotgan an'analarning bir kichik pog'onasiga o'xshaydi. Ushbu davrning badiiy madaniyati YUNESKOning ilmiy ekspertlari tomonidan Markaziy Osiyodagi sivilizatsiyalarni o'rganishda bir qator yetakchi muammolari o'zboshimchalik bilan kiritilmagan. Madaniyat XIV asr oxiri va XV asr boshlariga kelib xalqlarni ma'naviy birlashtirilishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Ya'ni, bu o'z-o'zidan hosil bo'lmagan ijodiy birlik, yuksak badiiy qadriyatlar teng ravishda tushunarli va barcha xalqlarga yaqinlashishiga olib kelgan, Amir Temur va Temuriylarning yuksak salohiyati va bunyodkorligi mahsuli edi. Uning yuksak ifodasi arxitektura obidalarini hisoblanadi. Arxitektura — bu chiroyli butunning garmonik shakllarida ishlab uslub va texnologiyasi sintez qilinadigan ibodatxonalar san'ati, ularning ko'pchiligi o'z vaqtining ruhiga va sharqning shaharlardagi quvonchli hayoti, bayram va kundalik hayotning umumiy ehtiyojlariga to'liq javob beradi. [1]

Temuriylar arxitekturasining yodgorliklari — bu o'zining yorqin, uzoq davrining ijtimoiy va madaniy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini, ijodiy intilishlarini va ijodiy qobiliyatini tasvirlaydi. "Temuriylar arxitekturasini", "Temuriylar tarixi" — bu atama adabiyotda ko'p vaqt sarflangan, garchi ular o'zlarining ma'lum shart-sharoitlariga e'tibor berishni talab qilmoqdalar. Badiiy madaniyatini rivojlantirishda hukmron sulolalarning roli faol, befarq, keskin salbiy bo'lishi mumkin, ammo hech qachon hal qiluvchi emas edi, chunki san'at

ko'pincha o'z qonunlariga ko'ra yashaydi, ko'pincha uni ushlab turganlarning qudrati bilan mos kelmaydi.

Ilmiy terminologiyada diniy xususiyatlar faqat tarixiy davrning bir turi sifatida qo'llaniladi va bu jihatdan Temur va Temuriylarning hukmronligi davrida (XIV-asrning oxirgi choragi — XVI asrning boshlanishi) xronologik asosga ega bo'lgan "Temuriylar madaniyati" Markaziy Osiyoning zamonaviy respublikalari, Afg'oniston va sharqiy Eronning hududlarini qamrab olgan Temuriylar mulkining asosiy hududiy tuzilishiga aylandi. [2]

Ushbu davrning siyosiy tarixining asosiy bosqichlari tarixda yorqin va rangsiz raqamlarning o'zgarishi bilan belgilandi. Madaniyatda esa falsafa, astronomiya, matematika, filologiya, musiqa nazariyasi oid asarlar ilm-fan rivojida ulkan yutuqlarga erishildi. Shoirlarning, olimlarning, qo'shiqchilarning, xattotlarning kundalik hayotida hukmron tabaqaning samimiy homiyligi bilan bog'liqdir. Urushlar, saroy muhiti, diniy harakatlarning kurashiga qarab, inson taqdiri murakkabligi va beqarorligi, ma'naviy madaniyatning yuksaklikka ko'tarilishi barcha-barcha jihatlar aynan sulola vakillarining qahramonligiga hamda homiyligiga bog'liq. Tarixda sharq renessansi nomini olgan (IX-XII va XIV-XV asrlar) davr, faqat yunon-rim dunyosini emas, balki butun o'rta va uzoq sharqni qamrab oladigan qadimiy madaniyatning buyuk davrlarini bildiradi. Shuni ham ta'kidlash joizki, G'arbda u Uyg'onish davri nomini oldi, Sharq uchun esa uning mazmunini ifodalovchi muddat hali tanlanmagan. [3]

Hirotda juda ko'plab inshootlar bunyod etilgan bo'lib, ular orasida madrasalar alohida ahamiyat kasb etadi. Madrasa musulmon dunyosining oliy ta'lim muassasasi hisoblanib, Hirotdagi madrasalar to'g'risida tarixiy manbalarda ko'plab ma'lumotlar mavjud. Temuriylar davrida Xurosonda ajoyib madrasalar qurilgan. Amir Temurdan so'ng Xurosonda hukmronlik qilgan Shohruh davrida ham bir qancha madrasalar bunyod etilgan. Hirot shahridagi ulug'vor madrasalardan hisoblangan Gavharshodog'o madrasasi bunyod etilishi borasida Abdurazzoq Samarqandiy shunday yozadi: "Quruvchilik va me'morchilikda zamona yaktosi va

asrlar nodirasi bo‘lgan ustod Quvomuddin me’mor Sheroziy sha’bon oyining boshida (17 yanvar, 1439) rixlat qildi. Uning nozik xotiri va o‘tkir fahmi me’morlik qilgan imoratlar jumlasidan biri mahdi ulyo Gavharshodog‘o madrasasidir.

Betakalluf aytish mumkinki, jahongashta kishilar bu madrasa go‘zalligiga teng keladigan yoki unga o‘xshaydigan imoratni ko‘rgan emaslar”. [4] Hirotda bunyod etilgan boshqa madrasalar to‘g‘risida esa shunday yozadi: “Amir Farmonshayx (vafoti 1439-yil 21-iyul) dan qolgan xayrli yodgorliklardan biri Xiyobon ko‘chasida Jo‘yi nav yaqinidagi madrasa bo‘lib, u bag‘oyat mukammal va ma’mur, mudarris va talabalar (dars) ifoda qilish va bilim olish bilan mashg‘ul va mashhurdirlar. [5] “XV asrda tarixiy vaziyatga qarab madrasalar ilm olishning asosiy markazi yoki diniy ibodat qilish bilan birga yashagan” – deb yozadi akademik Pugachenkova. [6]

Madrasaning mudarrislari nufuzli shayxlar, juda ma’rifatli olimlar, shoirlar bo‘lgan. Temuriylar davrida madrasa binolari arxitekturaviy tipologiyasini ishlab chiqilgan, garchi Yaqin Sharqda madrasalarning paydo bo‘lishi IX-X asrlarga to‘g‘ri kelsa-da, me’moriy yechimi sof musulmon an’analari negizida mahalliy islomgacha bo‘lgan an’analari bilan uyg‘unlashgan. Me’moriy yechimi XV asr madrasalari to‘rtburchak shaklda bo‘lgan. Madrasa tashqi devorlar bilan o‘ralgan, asosiy (odatda yagona) kirish joyi peshtoq bilan ajratilgan va bu yerdagi vertikal tirsak bilan bog‘langan, u hatto ochiq eshiklardan ham ichkariga kirmagan. Binoning tashkiliy asosi — kvadrat yoki to‘rtburchak hovli hisoblangan. Yirik madrasalar — Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi, Hirotdagi G‘iyosiy madrasalari odatda to‘rtburchak ayvon, ikki qavatli va hujralar, masjid binosi, kitob o‘qiydigan keng (Lavh turadigan) joy, to‘rt yoki olti gumbazli darsxona, to‘rt burchakda minoralardan iborat bo‘lgan. [7]

O‘rta va kichik madrasalarda faqat ikkita ayvon, hovlining uzunlamasına to‘g‘ri o‘qida ikkita darsxona va asosiy fasad bo‘ylab minoralar, bitta, kamdan-kam ikki qavatli hujralardan iborat edi (Samarqanddagi Muhammad Sulton

madrasasi, Buxorodagi Ulug'bek va G'ijduvondagi, Toshkentdagi Xoja-Ahror). [8] Yozma manbalarda bir qator ajoyib madrasalarning me'moriy qiyofasi haqida bugungi kungacha saqlanib qolmagan ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Shohruh madrasasi Hirot shahridagi Shohruh madrasasi, shahar qal'asining janubida xonaqoh bilan birga (aftidan "qosh" — ikkita qarama-qarshi bino) 1410/11 yilda qurilgan.

Qurilish hamda bezakli pardoqlash ishlarini taniqli hunarmandlar – Quvomuddin Sheroziy va Hoji Ali — Hofiz Tabriziy amalga oshirgan. Me'moriy ansamblida o'sha saroy me'mori Quvomuddin Sheroziy tomonidan qurilgan Gavharshod begim madrasasi (1432) undan kichikroq edi. Madrasa haybati to'g'risida Alisher Navoiy shunday yozgan edi: “Kimdan bu madrasaning koshinli qoplamasi keladi me'morlarning (Muallif-tarjimasi) aqli hayratga tushadi va zukko quruvchilarning zargarona ishlaridan boshini yo'qotadi. [9] Sultoni Husayn Boyqaro 1492/3-yilda barpo etgan muhtasham Nig'matobod madrasasi haqida esa “arki balandligi bilan jannat g'aznasiga yetib borgan va har bir gumbazi osmonning zangori g'aznasidan yuqoriga ko'tarilgan” – deb yozadi Alisher Navoiy. [10]

Hozirgi kunda bu madrasalar Afg'onistondagi 40-yildan ortiq davom etayotgan urishlar natijasida jiddiy zarar ko'rgan. Misol uchun Shohruh madrasasidan faqat minora va Temuriylar davri maqbarasi saqlanib qolgan bo'lsa, Gavharshod begim madrasasi va yaqinidagi madrasaning ko'p sonli minoralari balandligi va nozik nisbatlarida yuqolib ketmoqda. Nig'matobod madrasasining XX asrgacha arkni ham, gumbazlarni ham, devorlarni ham saqlamagan, faqat to'rtta juda baland ikki bo'g'inli burchak minora, uning bezaklari yetib kelgan bo'lsa, hozirda bu madrasa deyarli yo'q bo'lib ketish arafasida. Bu otishmalar me'moriy obidalarga naqadar ta'sirli bo'lganini aqlan tasavvur qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии. XV век. – Ташкент: 1976. – С.: 5.
2. Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии. XV век. – Ташкент: 1976. – С.: 7.
3. Буриев Омонулло. Темирийлар бунёдкорлиги давр манбаларда. – Тошкент: 1997. – Б.: 108.
4. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. 720-вароқ.
5. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. 738-вароқ.
6. Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии. XV век. – Ташкент: 1976. – С.: 69.
7. Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии. XV век. – Ташкент: 1976. – С.: 70.
8. Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии. XV век. – Ташкент: 1976. – С.: 71.
9. А.Навоий. Вакфоий. – Баку: 1926. – Б.: 78.
10. А.Навоий. Вақфнома. – Баку: 1926. – Б.: 78.

**ULUG'BEK MADRASASINING O'RGANILISHI VA TA'MIRLASH
BORASIDAGI QILINGAN ISHLAR**

Amirkulov Jasur Baxtiyorovich

Sharof Rashidov nomidagi SamDU tayanch doktoranti

E-mail: jasur.amirkulov@inbox.ru

Dunyoning qadimiy, hamisha navqiron, o'zining betakrorligi va jozibasi bilan dunyo sayyohlarini doimo o'ziga jalb qilib kelayotgan go'shalardan biri bu shubhasiz Samarqanddir. Samarqand qariyb o'ttiz asrlik tarixni o'z bag'rida saqlaydi. Uning qaysi bir go'shasiga nazar solmang, ulkan yaratuvchilik va bunyodkorlik ishlariga ko'zingiz tushadi. Samarqand hududlarida saqlangan va xalqimiz tomonidan asrlar davomida e'zozlanib kelinayotgan arxeologik yodgorliklar va tarixiy obidalarga ham qaytadan jon baxsh etildi. Yodgorliklarning katta qismi ta'mirlanib, ba'zilar yangidan bunyod qilindi.

Bugun nafaqat O‘zbekiston fuqarolari, balki dunyo hamjamiyati kelib ko‘rsa, ma’naviy ozuqa oladigan muqaddas qadamjolarga aylantirildi. Xalqimizning bunyodkorlik borasidagi boy an’ana va tajribalari, ilmiy salohiyati, asrlar osha dunyo ahlini hayratga solib kelayapti. Shu sababdan bu hududlarda ajdodlarimiz bunyod etgan tarixiy inshootlarning qurilishi, bezatilishi hamda arxitekturasini o‘rganish va tadqiq etishga qiziquvchilar yoki mahobatli inshootlar go‘zalligidan bahramand bo‘lishni xoxlovchilar azaldan Samarqand hududlariga intilishgan va bu oqim yildan yil ko‘payib bormoqda.

Samarqandning bunday mavqega erishishida shubxasiz uning qadimdan madaniyat, san’at hamda ta’lim markazi sifatida tan olinishi, bu mavqeni hozirgacha saqlab, davom ettirilayotganligi taxsinga sazovordir. Samarqandning bu darajaga erishishida bu yerda bunyod etilgan ta’lim muassasalari-madrasalarning o‘rni beqiyosdir. Ilm-fan homiysi sifatida tanilgan Mirzo Ulug‘bek topshirig‘iga ko‘ra, nafaqat Samarqandda balkim Buxoroda va Gijduvonda ham madrasalar qurildi. [1]

Samarqand o‘tmishining turli davrlarida bu yerda o‘nlab madrasalar faoliyat yuritgan. Quyida Ulug‘bek madrasasi bo‘yicha mulohaza qilinib, asosan uning tarixiy-me’moriy yodgorlik sifatida o‘rganilishiga urg‘u berilgan.

Shaxarda saqlanib qolgan madrasalardan, Samarqandning me’moriy ramzi bo‘lmish Registon maydonidagi Ulug‘bek, Tillakori va Sherdor madrasalari shaxar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi. Bu inshootlarning bunyod etilish jihatidan qadimiysi Ulug‘bek madrasasidir. Ulug‘bek madrasasi 1417-1420-yillarda Mirzo Ulug‘bek tomonidan barpo qilingan bo‘lib, shubxasiz Registon maydonidagi eng ulug‘vor me’morchilik obidasidir. 2001-yilda Samarqanddagi mavjud boshqa diqqatga sazovor joylar bilan birgalikda YuNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Madrasada temuriylar davrida shakllangan eng ilg‘or me’morchilik maktabining barcha xususiyatlari hamda ulug‘vorligi mujassam bo‘lgan. Abu Tohirxo‘janing “Samariya” asarida ushbu madrasaning bunyod etilishi borasida –

“Ulug‘bek xonligidan 16 yil so‘ng hijriy 823 da ushbu madrasani soldirdi” deyiladi. [2]

Madrasa kirish peshtoqida ham 820-yil yozuvi bitilgan. Bu ulug‘vor madrasani, Hirotdagi xon ansambllarining muallifi, Shoxrux Mirzoning me’mori Kavomiddin Sheroziy loyihalashtirgan. [3] Ulug‘bek bilan zamondosh bo‘lgan Vosifiy esa Ulug‘bek madrasasining me’mori sifatida Qozizoda Rumiyning shogirdi Kamoliddin Me’mor (Muhandis)ni ko‘rsatadi. [4]

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida: “Ulug‘bek mirzoning yirik imoratlaridan Samarqand qal’asining ichidagi madrasa va xonaqohdir. Xonaqohning gunbazi juda katta gumbazdir; olamda unchalik katta gumbaz yo‘q” – deb hisoblaydi. [5]

Abu Tohirxo‘janing ta’kidlashicha Ulug‘bek madrasasi ikki qavatli bo‘lib, o‘zbek xonlari davrida (Abulfayzxon) xavfsizlik maqsadida ikkinchi qavati buzib tashlangan. Bu fikr Komilxon Kattayev asarlarida ham uchraydi. [6]

Mazkur madrasa ruxoniylar tayyorlangan shunchaki bir muassasa emas, balki o‘quv yurti, o‘ziga xos dorilfunun edi. U joyning vaqfiga ko‘p yerlar, ekin maydonlarini va mashhur qishloqlar berilgan. Ulug‘bek madrasasi Markaziy Osiyoning eng yirik bilim dargohlaridan biri bo‘lgan. Bu ta’lim muassasi Ulug‘bek davrida boshqacha ahamiyat kasb etdi.

Madrasa nafaqat diniy, balki dunyoviy bilim beradigan maskan ham bo‘lgan. Madrasa va uning muddarislari to‘g‘risida tarixiy manbalarda ma’mulotlar mavjud bo‘lib, Mirzo Ulug‘bek madrasasi qurilishi haqida Fasih Ahmat Xavofiy o‘z asarida quyidagicha yozadi: Amirzoda Ulug‘bek ko‘ragon buyrug‘iga binoan Samarqandda qurilish boshlanishi. Qurilish ro‘parama-ro‘para joylashgan madrasa va xonaqohdan iborat edi. U joyning vaqfiga ko‘p yerlarni, ekin maydonlarini va mashhur qishloqlarni belgiladi. [7]

XV asrda Madrasa me’morchiligi uzining uzil-kesil qiyofasiga ega buldi - xovlining gir aylanasi talabalar istikomat kiluvchi xujralar egallagan, darsxonalar burchaklarda joylashgan, yoz kezlari darslar ochiq xavoda, ayvonlarda o‘tkazilardi,

bu yerda yana kundalik namozlarni o'qish uchun masjid ham bor edi. Yirik madrasalar ikki qavatli, xujralari xovliga qaragan tomonidan ravoqli ayvonlar bolgan. Madrasannng old tomonida gumbazli peshtoq, uning burchaklarida guldasta nomli kichik minoralar, yirik madrasalarda esa ikki-uch bo'g'inli baland minoralar qad ko'targan. Madrasa devorlariga koshin qoplangan, ayniqsa peshtoq va guldastalar chiroyli qilib bezatilgan. Madrasalar qurilishi yagona tizim bo'yicha rejalashtirilsa ham, asosiy shakllari, ularning o'zaro nisbatlari va bezaklariga ko'ra har biri o'z qiyofasiga ega edi.

XVI asr birinchi choragida Ubaydullaxonning taxtga kelishi va ko'p o'tmasdan poytaxtni Buxoroga ko'chirishi natijasida poytaxt maqomini yo'qotgan Samarqand tanazzulga yo'l tuta boshlaydi, ammo Ulug'bek madrasasi o' mavqeini yo'qotmagan holda Markaziy Osiyodagi eng mashhur ta'lim dargohlaridan bo'lib qolavergan. Yalangto'shbiy hokimligi davrida Registon maydonida katta qurilishlar amalga oshiriladi, hamda Ulug'bek madrasasi to'liq ta'mirlanadi. XIX asr boshlarida bo'lgan zilzila natijasida madrasa jiddiy shikastlanadi. XIX asr oxirlariga kelib chor rossiyasi ma'muriyati Samarqand me'moriy obidalarini o'rganish ularni saqlab qolish va ta'mirlash bo'yicha ba'zi sa'yi xarakatlarni olib borishgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy arxiv fondlarida saqlanayotgan xujjatlarda bu o'z aksini topgan.

1871-yilda Samarqand shaxri va uning atroflari rejasini olish uchun ikkita topograf Zarafshon okrugi rahbari tasarufiga yuborilganligi aytiladi. [8] 1891-yil Samarqand yodgorliklarini ta'mirlash, ularning nambardoshligini oshirish maqsadida Torjek shaxridan 300 pud silikat olib keltirilgan. [9] 1907-yilgi zilziladan keyin ham Samarqand yodgorliklari ko'rgan talofotni baholash uchun tuzilgan kommissiya xulosasida Ulug'bek madrasasiga bu zilzila katta ziyon yetkazmaganligi qayd etilgan. [10] 1914-yilda esa Samarqand yodgorliklari qarovchisi V.L.Vyatkin Ulug'bek madrasasi yaqinidan oqib o'tgan ariq zahi yodgorlikka zarar yetkazayotganligi, bu ariq yo'nalishini o'zgartirish kerakligini Samarqand uezdi ma'muriyatidan so'raydi. [11]

Sovet davrida Ulug‘bek madrasasini ta’mirlash ishlari 1920-yillarda boshlandi. V.G.Shuxov va M.F.Mauyerlar tomonidan 1932-yilda Ulug‘bek madrasasining shimoliy-sharqiy minorasini to‘g‘irlash bo‘yicha loyiha ishlab chiqiladi hamda amalga oshirildi. Ta’mirlash ishlari asosan 1950-1960-yillarda amalga oshirildi. Yer sathi ikki metrga tushirildi, asosiy peshtoq qayta tiklangan. 1965-yilga kelib muhandislar E.G.Mendel va Ye.O.Nelle tomonidan madrasaning janubi-sharqiy minorasi ham to‘g‘irlanadi. 90-yillarda madrasaning ikkinchi qavat hujralari qayta tiklanadi. Ulug‘bek yubileyiga 1992-yildan yodgorlikning qayta tiklash-ta’mirlash ishlari boshlandi. 2020-yilda Samarqand davlat universiteti ma’muriyati Qozon federal universiteti ilmiy jamoasi bilan hamkorlikda madrasaning ochilish munosabatiga 600-yilligi munosabati bilan xalqaro konferensiya o‘tkazadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temur va Temuriylar hususan, Mirzo Ulug‘bek ilm-fan, me’morchilik, san’at va boshqa sohalarda insoniyat tamaddunida uchmas iz qoldirdi. Shu bilan birga Mirzo Ulug‘bek tomonidan bunyod etilgan madrasa keyingi davrlardagi o‘zaro urushlar davrida qisqa uzilishlar bo‘lsada faoliyat yuritib keldi. Ulug‘bek madrasai oliyasi nafaqat Samarqand, balkim Markaziy Osiyo oliy ta’lim muassasalarining asosi sifatida ta’riflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Пугаченкова Г.А., Румпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. - Ташкент: 1958. - С.: 76; Шишкин К.А. Медресе Улугбека в Гиждуване. Материалы Узком стариса. Выпуск 23. – Ташкент: 1933.
2. Abu Tohirxoja Samarqandiy. Samariya. – Toshkent: 1991. – B.: 25.
3. Ртвеладзе Л., Ртвеладзе Э. Мусульманские святыны Узбекистана. – Ташкент: 1996. - С.: 49.
4. Zayniddin Mahmud Vosifiy. Badoe’ ul-vaqoe’. – Toshkent: 1979. – B.: 18-19.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: 2008. – B.: 56.
6. Komilxon Kattayev. Samarqandnoma. – Toshkent: 2017. – B.: 64.

7. Fasih Ahmad Havofiy. Majmali Fasihiy // Fors tilidan Dilorom Yusupova tarjimasi. – Toshkent: 2019. – B.: 245, 291.
8. O‘zRes MA. Fond I-1, ro‘yxat-16, ish-118.
9. O‘zRes MA. Fond I-1, ro‘yxat-13, ish-374.
10. O‘zRes MA. Fond I-18, ro‘yxat-1, ish-9044.
11. O‘zRes MA. Fond I-18, ro‘yxat-1, ish-7342.

**TEMURIYLAR TA’LIM TIZIMINI HINDISTONDA JORIY ETILISHI
(YOXUD BOBURIYLAR SALTANATIDA TA’LIM ISLOHOTLARI)**

Azizkulov A.

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti dotsenti

To‘g‘izov N.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU mustaqil tadqiqotchisi

Boburiylar sulolasi hukmronligi Markaziy va Janubiy Osiyo sivilizatsiyasida alohida o‘rin tutadi. Afg‘oniston, Hindiston va Pokiston tarixining muhim qismi sifatida e’tirof etiladigan bu sulola tarixi tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan sohaga aylangan. Hatto Buyuk Britaniya tarixi fanida boburshunoslik alohida tadqiqot obyektiga sifatida shakllangan. [1]

Bu Bobur Mirzoning Hindistonda yangi davlatga asos solishi va uning vorislari tomonidan tarqoq xalqlarni birlashtirib qudratli imperiya tashkil etilishi, o‘lkada ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishi hind tarixchilari tomonidan puxta o‘rganilgan. [2]

Hind tarixchisi L.P.Sharma boburiylarning Hindistonda ilm-fan va madaniyatni, shuningdek san’atning barcha turlarini rivojlantirishdagi hissalarini alohida ta’kidlaydilar. Avvalo Hindistonda ilm-fan rivojidadagi boburiylar xizmatini Sharma quyidagicha bayon etadi: “Boburiylar hukmronligi davrida rejali va bir xil tizimdagi ta’lim o‘choqlari tuzilgan bo‘lib, yoshlarni o‘qitish ishlari, asosan, yakka tartibda yoki madrasalarda olib borilardi. Mudarrislar va madrasalarga shahar sadrining tavsiyasiga ko‘ra davlat tomonidan moddiy yordam va mukofotlar berilardi. Musulmon bolalari maktab va madrasalarda, hind bolalari esa “patshala” (9 yillik maktab) va “vidyapist” (kollej)larda o‘qir edi. Shohlar (Boburiylar – A.A.)

o‘zlari yaxshi savodli bo‘lganliklari uchun maorif va madaniyatni rivojlantirishga katta e’tibor berar edilar. Ularning hammasi olim-u ulamolar fozil-u kiromlarni avaylab, ularga ko‘p g‘amxo‘rlik ko‘rsatardilar. Shuning uchun ham saltanatda olimlarga muhtojlik sezilmagan. Va ilmiy asarlar ham o‘sha davrda ko‘plab yaratilgan. Qolaversa, ilmiy, badiiy asarlar bir necha tillarda yaratilardi”. [3]

Markaziy Osiyoda ikkinchi Renessansga asos solgan, Samarqand va Hirotda ilmiy tadqiqot markazlari – akademiyalar tashkil etib ularni boshqargan temuriylardan bo‘lmish boburiy podshohlar Hindiston zaminida o‘z faoliyatlarini ilm-fan va madaniy taraqqiyotga homiylik qilishdan boshladilar. Movarounnahrda temuriylar davridagi ta’lim tizimi Hindistonda ham joriy etiladi. Buni hind tarixchisi quyidagicha bayon etadi: “Boburiy shohlarning birinchisi bo‘lmish Boburning o‘zi yirik olim edi. U Dehlida madrasa qurdirib, bu ilm dargohida geografiya, matematika, va astronomiya hamda diniy fanlar o‘qitilishi ta’minlandi. Uning o‘g‘li Humoyun ham Dehlida madrasa tikladi. Bu paytlarda diniy ilmlar, islom nazariyasi o‘qitilishiga ko‘proq e’tibor berilardi”. [4]

Hindistonni zabt etib nihoyatda qisqa muddatda, atiga 4 yil hukmronlik qilgan Bobur Dehlida madrasa qurdirib ham tabiiy ilmiy ham diniy bilimlar olishga imkon beradigan ta’lim maskanlarini barpo etadi. Boburning vorisi Humoyun hukmronligi davrida Hindistonda kechgan beqaror va tahlikali, qaltis vaziyatlarda ham ilm-fan rivojiga e’tibor susaymadi.

Boburning Hindistonda markazlashgan qudratli davlat tuzish orzusini nabirasi Akbarshoh amalga oshiradi. Hukmdor Akbarshohni hind tarixchilari buyuk imperiya barpo etgan qahramon sifatida e’tirof etadilar. Uning ta’lim tizimini isloh qilishga oid tadbirlarini tarixchilar quyidagicha bayon etadilar: “Akbarshoh davriga kelib faqat diniy fanlarga emas, balki dunyoviy fanlar ham o‘qitilishiga zarurligi sezilib qoldi. Shuning uchun ham u musulmon va hind maktab-madrasalarida barcha dunyoviy fanlarni, jumladan, matematika, geografiya, tarix, siyosatshunoslik va astronomiya kabi fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘ydi. Maorif tizimini takomillashtirishga ham ko‘p e’tibor berildi”. [5]

Akbarshoh nafaqat qudratli imperiya yaratadi, balki mamlakatda ta’lim sohasida eng muhim islohotlarni amalga oshiradi. “Akbarshoh shunday talab qo‘yar edi: “Talaba hamma narsani o‘zi tushunib olishni o‘rganishi, muallim esa uni bir ozgina yordam berib turishiga erishish lozim”. [6]

XXI asr maorif tizimida innovatsion ta’lim texnologiyasi deb ataladigan bu g‘oyani to‘rt yarim asr avval Hindistonda boburiy Akbarshoh qo‘llagan edi.

“Akbarshohning bu niyatlariga qay tarzda erisha olganiga u hukmron bo‘lgan davrda ko‘plab maktab va madrasalar ochilgani, jamiyatga ko‘plab olim-u ulamolar, fozil-u fuzalolar yetishtirib bergani, xalqning turmush faravonligiga va madaniyati boshqa davrlarga qaraganda ancha yuqori darajaga ko‘tarilganidan ham ishonch qilsa bo‘ladi”. [7]

Hind tarixchilarining mazkur xulosasi Akbarshoh tomonidan amalga oshirilgan ta’lim islohotlarining muvaffaqiyatni anglatadi. Ayniqsa, Akbar hukmronligi davrida madaniyatlararo integratsiya jarayoni uchun yaxshi muhit yaratiladi. Musulmon Sharq madaniyati bilan qadimgi hind madaniyatining o‘zaro bir biriga ta’siri, uyg‘unligiga zamin yaratiladi. “Bu davrda hindlarga ham fors tilini o‘rgatish yo‘lga qo‘yildi, musulmonlar esa qadimgi hind tilini (sanskrit)ni o‘rgandilar. Natijada ko‘plab sanskritda yozilgan tarixiy asarlar fors tiliga tarjima qilindi”. [8]

Ta’lim tizimidagi islohotlar Akbarshohning vorislari tomonidan davom ettiriladi. Barcha boburiy hukmdorlar mamlakatda ilm-fan taraqqiyoti va ta’lim tizimining ravnaqiga alohida e’tibor qaratganligini L.P.Sharma quyidagicha izohlaydilar: “Jahongir davrida ham hind va musulmon maktab, ta’lim-tarbiya o‘choqlari gurkirab rivojlandi. Avrangzeb davrida esa ko‘proq musulmon maktabi va madrasalariga e’tibor kuchaytirildi. Dehli, Agra, Fotehpur, Sekri, Laknov, Guvalyor, Kashmir, Allohubod, Lohur, Jonpur, Sialkot va boshqa shaharlar musulmonlarning asosiy ilm markazlariga aylantirilgandi. Maktab va madrasalarda o‘qitish ishlari fors tilida olib borilar edi. Ular orasida ayrim fanlarni o‘qitish borasida juda katta tajribaga ega bo‘lib, mashhur bo‘lib ketganlari ham oz emasdi.

Masalan, Laknovdagi Farajgi Mahal madrasasi qonunshunoslik ilmini o‘qitishda mashhur edi. Dehlidagi Shoh Valiulloh madrasasi mantiq ilmini, Sialkotdagi madrasa esa sarf-u nahv (grammatika) ilmini o‘qitish bo‘yicha tengi yo‘q sanalardi”. [9] Bu Movarounnahrda bo‘lgani singari Hindistonda ham boburiylar davrida oliy ta’lim tizimi – madrasalarda ixtisoslashishi jarayonini anglatadi. Mamlakatda mantiq, tilshunoslik, huquqshunoslik kabi fanlarga hamda musulmon va hind ilohiyotshunosligiga ixtisoslashgan ta’lim va ilm markazlari vujudga keladi.

Madrasalarning nufuzini bayon etar ekan hind tarixchilari shunday deydi: “Madrasaning shuhrati unda dars beradigan mudarris va muallimlarning obro‘si bilan o‘lchanar edi. U paytlarda imtihon olish odat tusiga kirmagan bo‘lib, o‘qishga qabul qilish va o‘qitish talabani ustoziga bog‘liq bo‘lgan. Talabani bilimi qaysi maktab yoki madrasada o‘qigani va qaysi muallim o‘qitgani bilan belgilangan. Madrasani bitiruvchilariga o‘qigan fani sohasiga qarab uch xil daraja berilardi. Mantiq va falsafa ilmini o‘rganganlarga “fozil” unvoni, diniy ilm o‘rganganlarga “olim” unvoni va adabiyot fanini o‘rganganlarga “qobil” unvoni berilar edi”. [10]

Boburiy hukmdorlarning ilm-fan va maorif sohasidagi islohotlari chin ma’noda Hindiston zaminida ma’naviy yuksalishga zamin bo‘ladi. Ular nafaqat musulmon fuqarolariga, balki hind bolalariga ham ta’lim tizimida qulay shart-sharoit yaratilishini qattiq nazorat qildilar. “Hind maktablarida sanskrit tili va adabiyotini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilardi. Bundan tashqari teologiya, geografiya, tibbiyot va grammatika fanlari o‘qitilardi. Banoras, Matura, Allohobod, Nodiya (Bengaliya), Mitila (Behor), Ayodhyaya, Srinagar kabi shaharlar hindlarni o‘qitish bo‘yicha asosiy markazlar hisoblanardi. Banoras maktablari din nazariyasi, sanskrit adabiyotini o‘qitishda katta obro‘ga ega bo‘lib, uni sayyohlar Gretsiyaning Afinadagi oliy maktablariga tenglashtirardi. Maktablar hatto qishloqlarda ham ochilib, bolalar unga besh yoshidan qabul qilingan va besh yil davomida bepul o‘qitilgan. Hind maktablarida o‘g‘il bolalar va qiz maktablarda alohida emas, balki

birga o'qitilardi. Hindlar qizlarining savodli bo'lishiga ko'proq e'tibor berishar edi. Biroq oliy ma'lumotni qizlar faqat uyda (imkoniyati bor oilalarda) olar edilar". [11]

Hattoki qizlarning ham ta'lim olishiga alohida e'tibor ma'rifatli boburiy hukmdorlarning diqqat markazida bo'lgan. Bu jarayonlarning barchasi boburiy hukmdorlarning mamlakatda ta'lim tizimidagi islohotlarining samarasi edi. Boburiylar saltanatida ta'lim tizimidagi taraqqiyot avvalo musulmon va hind bolalariga nisbatan bir xilda shart-sharoitlarning yaratilganligi bilan bog'liq bo'lib bu boburiy hukmdorlarning ma'rifatparvarligi va bag'rikenglik madaniyatining yuksakligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ma'rifatli shoh va shori Bobur zurriyotlari ham ma'rifatli bo'lib, Hindistonda madaniy taraqqiyotga katta hissa qo'shdilar. Natijada imperiyada ma'naviy va madaniy hayot gurkirab rivojlandi. Boburiylarning, xususan, Akbarshohning maorif tizimidagi islohoti hind madaniy taraqqiyotida nodir fenomen bo'lib qoldi. Shu bois hind tarixchilari boburiy hukmdorlarni milliy qahramon sifatida e'tirof etadilar. Vatandoshimiz Bobur va boburiylarni Hindiston tarixida bunday yuksak e'tirof etilishi, har birimizga yuksak iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sotimov G'. Shoh va shoir saltanati // Sharma L.P. Boburiylar saltanati. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – B.: 3-5.
2. Неру Джавахарлал. Открытие Индии. – Москва: Иностранная литература, 1955. - С.: 408.
3. Boburiylar saltanati / Ingliz tilidan G'.Sotimov tarjimasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – B.: 151.
4. O'sha asar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – B.: 152.
5. O'sha asar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – B.: 153.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – B.: 368.

7. Gulbadanbegim Zahiriddin Bobur qizi. Humoyunnoma: Zahiriddin Muhammad Boburning o‘g‘li – Humoyun podshohning ahvoli // Fors tilidan S.Azimjonova tarjimasi. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2016. – B.: 120.
8. Nizomiddinov N.G. Buyuk boburiylar tarixi (XVI—XIX asr). Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B.: 516.
9. Azizkulov A. “Khumoyunnoma” is a rare Gem of the scientific heritage of the baburids //Academicia Globe: Inderscience Research. – Indonesia: 2022. – Volume 3, Issue 4. – P.: 372-377.
10. Азизкулов А. Значение царства Бабури в индийских исторических источниках // Евразийский журнал академических исследований. - Москва: 2021. - Том 1. - № 9. - С.: 412-416.
11. Azizkulov A. Hind tarixchilari Bobur xususida // Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va merosini o‘rganish dunyo talqinida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. 2021-yil 12-fevral. II qism. – Toshkent: 2021. – B.: 136-138.

SAMARQAND MADRASALARI TARIXIDAN

G‘afforov Shokir Safarovich

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrası professori, tarix fanlari doktori*

Mamlakatimiz qadim ilm-ma’rifat, madaniyat markazlaridan biri sifatida o‘zining shonli tarixiga egadir. Shu sababdan yurtimizdan ko‘plab buyuk zotlarning, mutafakkirlarning yetishib chiqqani ham bejiz emas. Sababi yurtimizda qadimdan ilm-fan, madaniyat, ma’naviyatning shakllanishi uchun tarixiy asos mavjud edi. Jumladan, o‘quv maskanlari, madrasalarning faoliyati, ulardagi ta’lim tizimi, shakli hamda o‘quv jarayoni xususida ham shunday fikr bildirish mumkin. Biz masalaning shu jihatlariga alohida e’tibor qaratishni maqsad qildik. Sharqda, jumladan, O‘zbekiston hududlarida ta’lim tizimi bizgacha yetib kelgan manbalar asosida qator olimlar tomonidan tadqiq etilib, ularning natijalari turli tillarda nashr qilingan. [1]

Ba’zi madaniyat va ta’lim tarixiga oid asarlarda, islom o‘lkalarida madrasalarning vujudga kelishini X asrga tegishli bo‘lib, birinchi madrasalar Nishopurda bunyod etilganligi qayd qilinadi. Ammo tarixiy manbalarning,

jumladan Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” asarida keltirilishicha, X asrdayoq Buxoroda madrasalar bo‘lib, ulardan biri Farjak madrasasi 937-yilda sodir bo‘lgan yong‘in vaqtida ancha zarar ko‘rgan. [2]

Ta’lim tizimining muhim bosqichlaridan biri bo‘lgan madrasalarning diyorimizdagi ikki muazzam shaharda — Samarqand-u Buxoroda, islom dunyosida birinchilardan bo‘lib bunyod etilishi VIII asrning oxiri va IX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Ta’lim-tarbiya tizimi uch bosqich hamda uning uch muassasasi-ibtidoiy maktab, o‘rta yoki o‘rta maxsus ma’lumot beruvchi madrasa va madrasai oliyalardan iborat bo‘lgan. O‘rta maxsus ta’lim madrasalari "madrasatun harbiya" (harbiy bilim yurti), "madrasatun muallimin" (pedagogika instituti) shaklida, yuqori bosqich ilm maskani-universitetlar esa "madrasai ulum" ("ilmlar madrasasi"- dorilfunun) nomi bilan mavjud bo‘lgandir. [3] Bularning hammasi Vatanimiz hamda boshqa Turkiston xalqlari o‘tmishidagi ta’lim tizimi mukammal va yetuk bo‘lganidan va u o‘sha davr hayoti talabiga to‘la javob berganidan darak beradi.

Ta’lim tizimi tarixining eng porloq va takomilga yetgan bosqichi, shubhasiz buyuk sohibqiron Amir Temur va temuriylar davriga to‘g‘ri keladi. XIV asrning oxirida Movarounnahrda Amir Temur saltanati o‘rnatil-gach, mamlakatni birlashtirish va turli yurishlar uyushtirish bilan bir qatorda, poytaxt sifatida belgilangan Samarqandni obod qilish maqsadida turli xildagi qurilishlarni amalga oshirish, ta’lim tizimini yaxshilash, unga daxldor bo‘lgan bilim o‘choqlarini qurish sohasida ham keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida Samarqand atrofida Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida tasvirlagan 12 ta bog‘ va qasrlar, shahar Arki, jome’ masjidi, hazrat Muhammad payg‘ambarning amakilari Abbosning o‘g‘li Qusam – Qusam ibn Abbos maqbarasi (hozirda bu Shohi Zinda nomi bilan mashhur) va uning atrofida qator maqbaralar, Samarqand tosh qo‘rg‘oni — Chaqar mavzesida Oqsaroy kabilar Amir Temurning bevosita topshirig‘i bilan bino qilindi.

Natijada Amir Temurning xotinlari – malikalardan Saroymulixonim (madrasa), Tuman oqo (xonaqoh va kulohfurushon timi), amirlaridan Idigu Temur, Feruzshoh (madrasa), nabirasi Muhammad Sulton (madrasa), amaldorlaridan Samarqand sadri mavlono Qutbiddin (madrasa) va boshqalar tomonidan bir qator inshootlar, xususan madrasalar bunyod etildi.

Bu madrasalarning bunyod etilishi bejiz emasdi. Chunki Amir Temur saltanatiga asos solinib, u kengaytirilar ekan, uni yanada mustahkam idora etish uchun zarur bo'lgan amaldorlar, ziyolilarni yetishtirishga bo'lgan ehtiyoj ham paydo bo'ldi. Ikkinchidan esa, Amir Temur muhtasham imoratlar, bog'larni barpo etish bilan saltanatning ulug'vorligini, kuch-qudrati va iqtidorini namoyish etishni ham nazarda tutgan edi. O'zining bu maqsadlarini amalga oshirish uchun esa boshqa mamlakatlardagi mashhur olimlar, tabiblar, hunarmandlar, xullas iqtidorli mutaxassislarni o'z poytaxti Samarqandga olib kelardi. Shuning uchun Samarqandda Movarounnahr, Xuroson, Rum, Eron, Shom, Hindistonning turli shahar va kentlaridan bo'lgan mutaxassislar to'planib qolgan edilar.

Jumladan, olimlardan Sa'diddin Mas'ud Taftazoniy, Sayyid Sharif Jurjoni, Salohiddin Muso Qozizoda-i Rumi, Abu Sayid ibn Burhoniddin Sog'arjiy, mavlono Kamoliddin Keshiy; hunarmandlardan me'mor va muhandislar Fahri Ali, Olim Nasafiy, Muhammad ibn Mahmud Isfahoniy; naqqosh va xattotlar Yusuf Sheroziy, Muhammad bin Hoji Bandgir al-Tug'ro-i Tabreziy va boshqalar. Bu mutaxassislardan unumli foydalanish uchun esa barcha sohalarda, jumladan, ta'lim tizimini yanada jonlashtirish, yangi-yangi asarlar yozib, Amir Temur va temuriyodalar shuhratini yanada baland ko'tarish maqsadida madrasalar qurilishiga katta e'tibor qaratilgan edi.

Sohibqiron davrida qurilgan madrasalarning ayrimlari 20-25 tolibi ilmga mo'ljallangan bo'lsa (Muhammad Sulton madrasasi), ba'zilar 100 tagacha tolibi ilmga mo'ljallangan (Idigu Temur, Qutbiddin Sadr, Saroymulxonim madrasalari). Madrasalar ma'lum darajada ixtisoslashtirilgan ko'rinadi, jumladan, boshqaruv kadrlarni tayyorlash (Mavlono Qutbiddin sadr madrasasi), umumiy mutaxassislar

tayyorlash (ziyoli, imom, olim, maktab o‘qituvchisi) va boshqa sohalar (Idigu Temur, Saroymulixonim madrasalari) tarzida.

Madrasalarda darslar uch tilda – arab, fors va turkiy (o‘zbek) tillarda olib borilgan. Har bir madrasada uning vaqfnomasidan belgilangan daromadlarga hamda ixtisosiga qarab tolibi ilmlar soni – miqdori belgilangan. Shunga muvofiq tarzda ularda sadr-mutavvali, mudarris, mu’id, hofiz, imom, noqit, mujovir, farrosh, musdir va boshqalar soni ham belgilangan. Sadr-mutavvaliga mudarrislar va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, madrasani ta’irlab turish vazifalari ham yuklatilgan. [4]

Markaziy Osiyo xalqlari ta’lim tizimidagi “oltin asr”, shubhasiz, Mirzo Ulug‘bek (1409-1449) davridir. Ulug‘ olim va davlat arbobi, buyuk bobokaloni kabi ilm-fan va ma’rifat homiysi Mirzo Ulug‘bekning Movarounnahrda 40 yillik hukmronlik davrida mamlakat o‘sha davr dunyo sivilizatsiyasining eng peshqadam o‘rinlarida turar edi. Olim va hukmdorning sa’y-harakatlari tufayli Samarqand butun musulmon Sharqining ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi.

Mirzo Ulug‘bek Samarqandda to‘plangan ilmiy kuchlar, mohir muhandislar maslahati bilan mamlakatda, jumladan poytaxt Samarqandda ta’lim tizimi va ilmiy tadqiqotlarning samarali tarzda amalga oshirish maqsadida keng ko‘lamli qurilish ishlarini boshlab yubordi. Shunisi borki, bu ishlarni boshlashdan oldin, ta’lim tizimi va ilmiy tadqiqotlar uchun madrasa va madrasa majmualarining maqsadi, vazifasi, joyi, me’morlari hamda har bir inshootning o‘sha davrda qo‘lga kiritilgan tajribalar va nazariy jihatdan asoslangan bo‘lishiga katta e’tibor qaratilgan. Bu ishda esa muhandislar sultoni G‘iyosiddin Koshiy, mashhur me’mor va naqqoshlar Muhammad ibn Mahmud Isfahoniy, Ismoil bin Tohir bin Mahmud Isfahoniy, Yusuf Sheroziy, Muhammad bin xoji Bandgir va boshqalardan iborat guruh mavlono Salohiddin Muso Qozizoda-i Rumiy va Mirzo Ulug‘bekning bevosita rahbarliklarida istiqbolli rejalarni yaratdilar.

Abdurazzoq Samarqandiy (1413-1482) o‘zining “Matla’ us-sa’dayn va majma’ ul-bahrayn” asarida shunday yozadi: “(Mirzo Ulug‘bek) Samarqand

shahrining ichida, shaharning o‘rtasi va maydonining markazida, Arki Oliyga yaqin joylashgan Sar-i davonik deb atalgan mavzeda bir-biriga ro‘baro‘ madrasa va xonaqoh bino qildi”. Samarqanddagi madrasa o‘z ko‘lami va inshootlarining ko‘pligi tufayli 1417-1420-yillarda qurib bitkazilgan.

Madrasa me‘moriy jihatdan nihoyatda muhtasham bo‘lib, naqqoshlik xattotlik, toshyo‘narlik, yog‘ochkorlikning eng oliy namunasi. Madrasa egallagan maydon sathining tarhi 81x56 metr bo‘lib, uning old tomoni – peshtoqi kun chiqarga qaratilgan. Peshtoqda yulduzli osmon – ko‘k tasviri, kirish darvozasi yog‘ochda o‘ymakorlik san’ati asosida tayyorlangan. Old tomoni qismining janub va shimol tomonlarida uch qavatli ikkita guldasta minora, ularning yonlarida ikkita go‘zal gumbaz, madrasaning janubiy va shimoliy yon tomonlarida peshtoqli kirish darvoza va ayvonlar, madrasa hovlisi kun botar tomonining janub va shimolida esa yana ikkita guldasta-minora hamda ikkita gumbaz. Madrasaning ikki qavatida 55 ta hujra bor. Har bir hujra o‘z navbatida, ikki qavatdan iborat. Birinchisida qoznoq, va mutolaa, suhbat o‘rni joylashgan bo‘lib, ikkinchi qavat – yotoqxonadir. Bir hujra ikki kishining yashashi uchun mo‘ljallangan.

Madrasaning to‘rt tomonida to‘rtta darsxona, kun botar tomonida esa masjid mavjud. Mirzo Ulug‘bekning Samarqanddagi madrasa majmuasining boshqa madrasalardan farq qiluvchi xususiyati uning rasadxonani ham o‘z tarkibiga olganligida deb uqtirilgan edi. Shu fikrning tasdig‘i sifatida XVII asrda yashab ijod etgan shoir, adabiyotshunos va muarrix mavlono Mutribiy Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asaridagi ajoyib bir ma’lumot matnini keltirish o‘rinlidir. Mavlono Mutribiy shunday yozadi: (mazmuni) "Atorud fatinatli rasad bog‘lovchilar va Mushtariy xislat Qamar surat axtarshunoslar yetti iqlim va Yer ma’murasi suratini sultoni shahid Ulug‘bek Ko‘ragonning Samarqand-i firdavsmonanddagi madrasasini devoriga shunday tasvir etganlar (alohida betda yetti iqlim xaritasining bu surati berilgan)". [5]

Mavlono Mutribiyning yozganlariga ishonmoq kerak. Ulardan ko‘rinadiki, madrasada yetti iqlim xaritasi suratining chizilgani rasadxona ishga tushib, yetti

iqlim samtlari aniqlangandan so‘ng uning xaritasi tuzilgan hamda bu xarita nusxasining surati madrasa devoriga chizilgan. Madrasa davrlar o‘tishi bilan bir necha marta ta’mirlanganligi natijasida bu surat yo‘qolgan – ko‘chirilib ketgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda madrasa devorida chizilgan yetti iqlim xaritasi surati saqlanmagan.

Madrasa ish boshlaganda tolibi ilmlarning bilim saviyasi – darajasi aniqlanib, ular uch guruhga — a’lo (yuqori), avsat (o‘rta) va adno (past) ga ajratilgan. Bu o‘rinda shuni ham eslatish joizki, tolibi ilmning qaysi guruhga mansubligini bilish maqsadida, ular imtihon qilinganlar. Imtihonni mavlono Qozizoda Rumiylahbarligidagi maxsus hay’at o‘tkazgan. Tolib ilmlarni imtihondan o‘tkazish marosimida ba’zan Mirzo Ulug‘bek ham qatnashgan.

Madrasada o‘quv jarayoni yetti oy davom etgan. U mezon oyining birinchi kuni (21-sentyabr) boshlanib, hamal oyining birinchi kunigacha (21-mart) davom etgan. Hamal oyidan (21-martdan) mezon oyigacha (21-sentyabr) bo‘lgan muddat ta’til hisoblanib, tolibi ilmlar turli ishlar (dehqonchilik, hunarmandchilik, masjid imomligi va boshqalar) bilan shug‘ullanganlar.

Madrasada ta’lim olish muddati uch bosqichni – adno, avsat, a’lo nazarda tutgan holda 8 yil belgilanib, shu muddat ichida tolibi ilmga oylik va ulufa belgilangan. Madrasani xatm qilgan tolibi ilmlarga dars o‘qishi, ya’ni mudarrislik qilish mumkinligini bildiruvchi ijozatnoma – diplom berilgan. Ijozatnoma – diplomda tolibi ilm tomonidan o‘zlashtirgan ilm va o‘rgangan asarlar nomi yozilgan.

Ana shunday ijozatnoma – diplomlardan biri, ya’ni mirzo Ulug‘bek madrasasining bosh mudarrisi Salohiddin Muso Qozizoda Rumiylar tomonidan 1435-yil tarixi bilan berilgan ijozatnoma hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalari fondida saqlanmoqda.

Mirzo Ulug‘bek vafotidan (1449) so‘ng ham madrasa o‘z faoliyatini davom ettirdi. Mavlono Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asarida

(1487-yil) xabar berishicha, bu davrda (1487-yilda) Mirzo Ulug'bek madrasasida 100 dan ko'proq tolibi ilm tahsilni davom ettirgan. Bu tolibi ilmlarga esa Xoja Fazlulloh Abu Laysiy, Ali Qushchilar bilan birga Mir Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida yozilishicha, mavlono Xoja Xurd ham mudarrislik qilgan. Jumladan, Mir Alisher Navoiy Samarqandda bo'lib, ta'lim olgan vaqtdan (1465-1469-yillar) Mirzo Ulug'bek madrasasining bu mudarrisidan ham bahramand bo'lgan. Mir Alisher Navoiy yozadi: "Xoja Xurd — Samarqand taxtining yakkalama qozisi va Ulug'bek Mirzo madrasasining mudarrisidir. Bovujudi fazlu kamol aql va donish hullasi bila orastadur va bovujudi zuhdu tavqo husni ahloq zevari bila piyrostadur... Faqir (Mir Alisher Navoiy) ning "Vaqfiya"-sining tas'hehin qilurda"min vaqf-i Alisher" tarix topibdur". [6]

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki yurtimizda oliy ta'lim tizimining qadimiyligi va ular o'zining ajoyib an'analariga egaligi ta'riflangan. Shu fikrdan ham Turkistondagi ta'lim tizimining dunyoning boshqa hududlarida (aytaylik, Xitoy, Misr, G'arbiy Yevropa) hukm surib kelgan maorif tizimlaridan hech bir tarafdin ortda emasligi, balki ba'zi jihatlari (tillarni o'qitish, ta'lim jarayonini moliyaviy ta'minotini tashkillashtirish) nuqtayi nazaridan ulardan ustun ekanligi namoyon bo'ladi.

Turkistonning milliy maktablari hamda madrasalar tarixi xususida V.P.Nalivkin, A.P.Xoroshxin, K.E.Bendrikov qaydlari o'zining keng qamrovligi, aniqligi va dalillarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. "Samarqand, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlaridagi, — deydi V.P.Nalivkin o'z xotiralarida, madrasalarning umumiy soni 189 ta bo'lib, shundan Farg'onada 118 ta, Samarqandda 50 ta, Sirdaryo viloyatida esa 21 ta madrasa joylashgandir. Madrasalardan Qo'qonda 34 tasi, Marg'ilonda 25 tasi, Samarqandda 22 tasi, Andijonda 18 tasi, Namanganda 14 tasi, Toshkentda 14 tasi va 10 tasi Xo'jand shahrida bino etilgan". [7]

A.P.Xoroshxin o'zining "Turkiston o'lkasiga taalluqli maqolalar to'plami"da:[8] Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida taxminan 200 ta shunday madrasalar faoliyat ko'rsatganligini ta'kidlab o'tadi. Samarqand

viloyatining Gulxandoz va Nov qishloqlarida 1853-yili, Kattaqo'rg'on uyezdining Payshanba qishlog'ida 1891-yili, Panjikentda 1852-yili hamda 1877-yilgacha O'ratepa va Urgutda oltita madrasa ochilgan. Sirdaryo viloyatining — Abdiq volostida 1848-yilda, Bo'kada 1863, 1870-yillarda, Zangiotada 1835-yildan to 1850-yilgacha 3 ta madrasa ochilgan ekan. Chimkent uyezdida 1875-yilda, Toshkent uyezdining Kultepa qishlog'ida 1840-yilda, Pskentda va Turkiston shahrida 1821 va 1875-yillarda, Chinozda esa 1874-1878-yillarda yangi madrasalar faoliyatini boshlagan". [9]

1892-93 o'quv yili Samarqand viloyatining reviziyasiga ko'ra, viloyatda 58 ta madrasa mavjud bo'lib, ulardan 40 tasi shaharlarda va 18 tasi qishloqlarda joylashgan. Viloyat barcha madrasalarining o'rtacha yillik daromadi 28555 so'mni tashkil qiladi. Ularning ichida o'n ikkita madrasa 2000 so'mdan ortiq daromadga ega bo'lsa, yettita madrasa 100 so'mdan 2000 so'mgacha daromadga egadir. Shundan 9 ta madrasaning esa hech qanday daromadi yo'qdir". [10]

Keltirilgan dalillardan shu narsa ko'zga tashlanadiki, o'lkadagi madrasalar faoliyati ham iqtisodiy, ham ma'rifiy tomonlardan bir-birida keskin farqlangan. Ularning faoliyatiga o'qitish usuli va moliyaviy-moddiy ta'minlanish darajasi nuqtayi nazaridan nazar solsak, yana bir tarixiy haqiqat qaror topadi.

Endi an'anaviy maktablar va madrasalarning o'qitish jarayoni va dasturlari haqdagi S.M.Grameniskiyning qaydlari diqqatga sazovor. [11]

Maktab va madrasalarda dastlabki o'qish ishlari bolalarga harflarni o'rgatish bilan boshlangan. Harflar to'liq o'zlashtirilgach, arab tilida Haftiyak, keyin esa fors tilida Chor kitoblar yod olingan. Yuqori sinflar uchun esa Bedil, Hofiz Sheroziy, Sa'diy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor kabi klassik ijodkorlar asarlari mutolaasi o'rgatilgan. Senator K.K.Palen yuqorida nomini zikr etilgan kitobida madrasalardagi o'qish usuli uch bosqichga bo'ladi.

1. Birinchi bosqich — "Adno" deb yuritilib, bu bosqichda toliblar 2, 4, 5 yil o'qishgan. Darslar asosan arab, fors tillarida olib borilgan. Bu yillarda arab tili grammatikasi, fors tili o'rganilgan. Arab tilidagi "Zanjoni", "Ixlabi",

"Avomil", "Harakat", "Kofiya" (uning sharhi hisoblangan "Sharh — mulla" ham) va fors tilidagi "Avvali ilm" kabi asarlar mutolaa qilingan.

2. Ikkinchi bosqichda — tolibi ilmlar fiqh masalalari bilan mashg'ul bo'lib, islom qonunshunosligidan saboq olganlar.
3. Uchinchi bosqichda "Shamsiya" va uning sharhi hisoblangan "Hoshiya" hamda "Mushkulot" ni o'rganganlar.

Shuningdek, "Aqoid" (dogmatika), "Tahzib" (dialektika) "Hikmatul-ayn" va astronomiyaga oid asarlarni o'qiganlar, kosmografiyaga bag'ishlangan umumiy bilimlar olishgan. Mantiq faniga ham e'tibor qaratilib bu soha bo'yicha: "Tavzih", "Hadis", "Qiyos" va "Tavsifi qozi Boyzaviy" lardan ma'ru-zalar tinglangan. Fiqh o'rganuvchilar uchun esa ko'proq quyidagi kitoblar dastur vazifasini o'tagan: "Fiqhi Kaydoni", "Muxtasar ul-viqoya", "Hidoyai sharif" va boshqalar.

Toliblar ilmi hisob va tibbiyot bilan ham shug'ullanganlar. Ayniqsa klassik shoirlarning g'azallari va dostonlari qunt bilan o'qitilgan. O'quv yili oktyabrda boshlanib, aprelda tugagan. O'qish haftaning to'rt kuni: yakshanba, dushanba, seshanba va chorshanba kunlari olib borilgan. Ramazon va Qurbon hayitlarida ikki haftalik ta'tillar berilgan. K.P. fon Kaufman N.I.Ilminskiyga Turkistonga kelib mahalliy shart-sharoitlarni o'rgangandan so'ng, o'qitish ishlarining aniq bir reja yo'nalishini ishlab chiqishga da'vat etadi.

Ana shu taklifga binoan N.I.Ilminskiy 1868-yilning bahorida K.P. fon Kaufmanga bir qator xomaki reja va fikrlar bitilgan xatni yubordi. N.I. Ilminskiyning takliflarida O'rta Osiyodagi maorif ishlarini keng ko'lamda missionerlik yo'li bilan olib borish kerakligi uqtiriladi. Bundan ko'zlangan maqsad esa, mahalliy musulmon maktablarini ehtiyotkorlik bilan nasroniy tipidagi maktablarga aylantirish edi. Uni amalga oshirish uchun o'quv ishlariga boshchilik qilishga Qozon diniy akademiyasidan chiqqan, tatar va arab tillari, madaniyati bilimdoni I.S.Yastrebov tavsiya etiladi.

Biroq fon Kaufman I.S.Yastrebovni Turkistonga olib kelishga erisha olmaydi. Chunki I.S. Yastrebov o'sha yillar Rossiya hukumatining ma'sul lavozimlaridan

birida, ya’ni Rossiyaning Turkiyadagi konsulxonasida kotib vazifasida xizmat qilar edi. Shu bilan birga Turkistonda o‘quv ishlarini tashkil qilish bo‘yicha Kaufmanning qarashlari, Ilminskiyning taklifiga muvofiq kelmaydi. Fon Kaufmanning fikricha, mahalliy aholining diniy qarashlariga yetkaziladigan ozgina tazyiq ham mustamlakachilarga nisbatan mahalliy xalqning nafrat va dushmanligi uyg‘otish mumkin edi. N.I.Ilminskiy Turkistonda maorif tizimi rejalarini ishlab chiqib uni amaliyotga tatbiq etish mushkulligini his qiladi va 1869-yilning avgust oyida general-gubernator Kaufmanga rad javobi bildirilgan o‘z xatini yo‘llaydi. [12]

Shundan so‘ng, Turkiston ma’murlari bu ishni o‘z kuchlari bilan hal qilishga kirishadilar. 1870-yilda o‘quv ishlarini tashkil etish bo‘yicha alohida Komissiya tuzildi. Komissiya xulosasiga ko‘ra, o‘lkadagi xalq ta’limi Rossiya imperiyasining manfaatlariga bo‘ysundirilishi kerak edi. Shu bilan birga mahalliy diniy qarashlariga hech qanday tazyiq o‘tkazilmasligi ta’kidlanib, mahalliy musulmon maktablari rus hukumatining yordamiga umid qilmasligi nazarda tutildi. 1874-yilning 20-noyabrida Rossiya imperiyasi tarkibidagi barcha musulmon o‘quv yurtlarini Rossiya Xalq maorifi Ministrligi tasarrufiga o‘tkazish haqida qonun chiqarildi. Podshoning huzurida Turkistonni egallashda ko‘rsatgan xizmatlari uchun alohida vakolatlarga ega bo‘lgan general fon Kaufman Turkiston o‘lkasida bu qonunga amal qilmaslik haqida o‘zining buyrug‘ini chiqaradi.

Keyinchalik fon Kaufman bu buyruqni imperiya manfaati va xavfsizligi hisobga olib chiqarilganligi haqida podshoga izoh beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda keyingi yillarida ta’lim tizimida keskin o‘zgarishlar bo‘lyapti. Maktabgacha ta’lim tashkiloti, 11 yillik o‘rta maktablar, Prezident maktablari, ixtisoslashgan matematika maktablarining ochilishi, Ulug‘bek nomidagi xalqaro astronomiya olimpiadalarining o‘tkazilishi alohida ahamiyatga ega. Shu o‘rinda masalaning yana bir jihatiga to‘xtalib o‘tish joizdir. Yurtimiz dunyoning eng qadimiy oliy ta’lim tizimiga ega maskanlaridan biri ekan, biz ana shunday ta’lim tarixini o‘rganishimiz kerak va ularning tarixdagi

maqomini o'z o'rniga qo'yib, ularning tashkil topgan sanalarini yubiley darajasiga olib chiqish kerak. XV asr oliy ta'lim tizimidagi madrasalar, jumladan, Mirzo Ulug'bek madrasasi haqiqatan ham o'z davrining universiteti hisoblangan.

O'rta asrlarda Yevropa mamlakatlarida cherkovlar qoshida vujudga kelgan maktablarni universitetlar deb atadi. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida diniy va dunyoviy ilmlar o'qitilgan. Ushbu an'anaviy ilm dargohlari bo'lgan madrasalar XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida ham oliy ta'lim muassasasi sifatida faoliyat yuritgan. Yevropadagi universitetlar, jumladan, Varshava universiteti yuz yillab faoliyatini to'xtatgan. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi faqat XVIII asrning 20-30 yillarida jung'orlar hujumi davrida vaqtincha to'xtatgan. Keyin esa XVIII asrning 50-yillarida davom ettirib XX asrning 20-yillarigacha mavjud bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mez A. Die Renaissance des Islams. 1922. Bu asar D.Ye.Bertels tomonidan rus tiliga o'girilib, "Мусульманский ренессанс" nomi bilan "Наука" nashriyotida (Moskva: 1966) chop etilgan; В. В. Бартольд. Сочинения. ТП, Том II. — Москва: 1964; Абдуллаев В., Валиходжаев Б. Дыхание веков. — Самарканд: 1970; Ihsanog'lu E. Osmanli egitim muesseseleri. — Qr.: Osmanli devleti ve medeniyeti tarihi. 2 cilt. — Istanbul: 1998. — S.: 232-251.
2. Narshaxiy. Buxoro tarixi. — Toshkent: 1966. — B.: 84.
3. Valixo'jayev B.N. Temuriylar qo'rg'on madrasai oliyalar // Ma'rifat. — Toshkent: 2001.
4. Мукминова Р.Г. К истории аграрных атношений в Узбекистане XVI в. / Вакф-наме / - Ташкент: Наука, 1966. — С.: 66.
5. Mutribiy. Tazkirat ush-shuaro. Qo'lyozma. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi. Inv. 2253. 158 a-v betlar. Bu haqda qarang: Valixo'jayev B.N. Surati haft iqlim dar madrasai Mirzo Ulug'bek // Ovozi Samarqand. — Samarqand: 1992.
6. Alisher Navoiy. Majolis un — nafois. Ilmiy tanqidiy matni. — Toshkent: Fan, 1961. — B.: 182.
7. Наливкин В.П. Швеция о состоянии туземного медресе Сыр-Даринской области в 1890-91 учебном году. 1916. — С.: 49-60.

8. Хорошхин А.П. Сборник статей касающихся до Туркеста. край — СПб.: 1876. — С.: 41.
9. Бендриков К.Е. Очерк истории народного образования в Туркестанском крае. — Москва: 1961. — С.: 75.
10. Отчет по развитию Туркестанского края, произведённый по значительному повелению сенатором графмейстом. графом. К.К. Паленом. Учебное дело. — СПб.: 1910. — С.: 124-126.
11. Грамениский С.М. Положение инородческого образования в Сырдарьинской области... — Ташкент: 1916. — С.: 54.
12. Знаменский Н.Б. Участия Н.И. Ильминского в деле инородческого образования в Туркестанском крае. — Казань: 1900. Том 4. — С.: 113-114.

СОЧИНЕНИЯ ТЕМУРИДОВ – ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ АК ОРДЫ

Ибрагимова Меруерт Норжигитовна

*Докторант Самаркандского государственного университета
имени Шарофа Рашидова*

E-mail: ibragimova.meruert@mail.ru

В настоящее время многие ученые начали изучать историю своей страны в новом направлении. Сейчас открыт доступ к большому количеству важных сведений. В то же время существуют еще неизвестные источники. Произведения историографов династии Темура являются источником ценной информации об истории государства Белая Орда и его правителей. Несмотря на их односторонность эти сведения находят свое применение.

Историк темуридов Му'ин ад-дин Натанзи Сасы-Бука одним из первых предоставил множество сведений о правлении многочисленных потомков Орда Ежена, начинающих свое происхождение от Сасы-Буки. Он указывает, что правитель Белой Орды - Сасы-Бука является сыном Ногая. Однако ученые доказали тот факт, что Сасы-Бука – сын Баяна, а не Ногая. Му'ин ад-дин Натанзи считал, что в то время Сасы-Бука (1309-1315 гг.) был современником Тогрула, сына севшего на престол Золотой Орды Тохта хана. По данным из сочинений Низама ад-дин Шами, Шарафа ад-дин Йазди и

Улугбека, на престол Золотой Орды после Тохта хана воссел не Тогрул, а его сын Узбек хан. Ни в одном из указанных источников не встречается упоминаний о том, что Тогрул взойшел на престол. Лишь в произведении Му'ина ад-дин Натанзи дана информация о времени его правления. В труде Утемиса хаджи «Чингиз-наме» встречаются сведения о восхождении на престол после Тохта хана «некоего Бажыр Ток-Буга из племени уйгуров», вовсе не относящегося к потомкам ханов. В «Чингиз -наме» рассказывается о Тогруле, что он младший брат Тохта хана, убившего его из-за притязаний на престол [Өтеміс қажы, 2005: 172-176].[1]

Только Натанзи, опираясь на неизвестные источники, повествует о правлении Тогрула после Тохта хана. Но все другие источники указывают на восхождение на престол после Тохта хана Узбек хана и на основании этого до последнего времени написано большое количество научных работ.

Му'ин ад-дин Натанзи поведал, что Сасы-Бука по-прежнему сохранял подчиненное положение. На протяжении 30 лет правления он ни разу не пропустил приглашений Тогрул хана, и Узбек хана и скончался в 720 г.х. (1320-1321). Но годы, указанные по свидетельству Натанзи, противоречат другим источникам. Если Сасы-Бука умер в 720 г.х., то Ерзен должен был взойти на престол в этом же году. По сведениям некоторых исследований, в 1320 году к власти пришел не Ерзен, а Мубарак-ходжа. Босворт в своем исследовании отмечает, что после Сасы-Бука правил Ильбасан (1315-1320), после него Мубарак-ходжа (1320-1344) [Босворт К.Э., 1971: 204] [2], о приходе к власти Ильбасана пишет и ученый К. Салгараулы, считая Ерзена Мубарак-ходжой [Салғараұлы Қ., 1992: 37]. [3]

После кончины Сасы-Бука по приказу Узбек хана его место занимает сын Сасы-Бука – Ерзен. Об этом написано в «Мунтахаб ат-таварих-и Му'ини» следующим образом: «Он был царем крайне умным, праведным, превосходным, богобоязненным [Тизенгаузен В.Г., 1941: 129-130]». [4]

Наряду с этим Му'ин ад-дин Натанзи повествует, что Ерзен благоустроил Сыганак, построил много зданий в Отырапе, Сауране, Женте, Баршыкенте. Натанзи противоречит своим же данным, приводя сведения о том, что Узбек хан сел на престол Золотой Орды в 737 г.х. (1336-1337 гг.), а после 30 лет правления отшел в мир иной в 767 г.х. (1365-1366 гг.) [Тизенгаузен В.Г., 1941: 128]. [5]

Поскольку, по указанному нами выше свидетельству Натанзи, сын Сасы-Бука - Ерзен стал править по велению Узбек хана, даже приведенные им самим факты о том, что «Сасы-Бука на протяжении 30 лет правления ни разу не пропустил приглашений Тогрул хана и Узбек хана», и о правлении Узбек хана никак не соответствует 737 году хижры (1336-1337 гг.). В сочинении внука Амира Темура Мирзо Улугбека под названием «Тарих-и арба' улус» приведены сведения о том, что Узбек хан пришел к власти в Золотой Орде в 712 г.х. (1312 г.) и скончался в 750 г.х. (1350 г.). Если опираться на его данные, то «правление Султан Мухаммед Узбек хана составляло восемь лет в доисламский период, тридцать лет после прихода ислама» [Тизенгаузен В.Г., 1941: 226]. [6]

Следовательно, сложив все вместе, получим 38 лет правления. По нашему мнению, данные сведения более близки к истине. Безусловно, годы прихода к власти и дата смерти Узбек хана требуют отдельного исследования. Наша цель в данном случае – выяснить время правления ханов Белой Орды на основе сравнительного анализа приведенных фактов.

На место Ерзена пришел его сын Мубарак-ходжа. Если верить данным Му'ина ад-дин Натанзи, он правил всего лишь 6 месяцев и с его приходом к власти установились беспорядки, смуты. Привыкший к мирной жизни народ не стерпел его власти больше 6 месяцев. Так, Мубарак-ходже пришлось уйти от власти. Как рассказывал Му'ин ад-дин Натанзи, после этого еще «2 года и 6 месяцев он скитался на Алтае и в киргизских землях без дома, в итоге там и

нашел свою гибель». А по свидетельству Гафари, он умер после 6 месяцев правления [Тизенгаузен В.Г., 1941: 211]. [7]

Доктор исторических наук З. Кинаятулы, основываясь на сведениях Му'ина ад-дин Натанзи о 6 месяцах правления Мубарак-ходжи, писал: «Конечно, несмотря на то, что власть Мубарака-ходжи не продлилась долго, все же он стремился в столь короткое время довести до конца благие дела (самостоятельность К.З.), начатые в период правления своего. По сравнению с известным Урус ханом, который поставил своей целью - «завершить дело Мубарак-ходжи», деятельность Мубарак-ходжи в Белой Орде кажется более весомой» [Кинаятұлы З., 2004: 190]. [8]

Кроме того, З. Кинаятулы в труде "Аноним Искендера" пишет, что при Мубарак-ходже в Белой Орде началась разруха, возможно, это объясняется влиянием точки зрения историков династии Шибана, которые были против политики независимости Мубарака. Мы приходим к такому мнению на основании убедительного мнения о том, что, если при Мубарак-ходже в Белой Орде распространились беспорядки, то его младший брат Чимтай не смог бы самостоятельно править в течение 17 лет и не получил специального приглашения занять престол Золотой Орды» [Кинаятұлы З., 2004: 191]. [9]

Некоторые исследователи отрицают сведения Му'ина ад-дин Натанзи о 6 месяцах правления Мубарака-ходжи. Н.Н. Мингулов считает: «...Начиная с Мубарак-ходжи хана (1320-1344), правители Белой Орды полностью избавились от зависимости перед правителями Золотой Орды». Автор указывает 1320-1344 годы по данным Стэнли Лен-Пуля и денежно-монетных материалов [Мингулов Н.Н., 1981: 158]. [10]

З.Кинаятулы вполне обоснованно отмечает: «На основе исторических источников Ерзен умер в 1345 году. Поэтому, вероятнее всего, Мубарак-ходжа стал ханом в 1345 году. Вследствие древности вторая цифра в дате, выбитой на серебрянной монете в его честь, может быть прочтена искаженно. П.С. Савельев указывает годы ханства Мубарак-ходжи как «1344-

1345», имея на это основания: «Если это так, именно в эти годы Белая Орда после Ежена обрела подлинную независимость [Қинаятұлы З., 2004: 190]». [11]

Полностью разделяя данную точку зрения, считаем целесообразным годы правления Ерзена начать с указанного Натанзи выше года смерти Сасыбука – с 1320 года и закончить 1345 годом. Следовательно, Мубарак-ходжа правил не в 1320-1345, а в 1344-1345 годы. Так, опираясь на сведения Натанзи, можно определить, что после Сасы-Бука в Белой Орде Ерзен правил 24 года, а Мубарак-ходжа – 6 месяцев. К.Салгараулы отмечает: «...Говоря, что Золотая Орда поделилась на две части, мы имеем ввиду периода, когда в последующем Белая Орда обрела независимость и перестала подчиняться Золотой Орде. Такое разделение, по письменному свидетельству персидского историка Му'ина ад-дин Натанзи, кажется имело место еще при хане Золотой Орды Тохта. Годы его ханства – время между 1290 и 1312 годами. То есть, период освобождения Белой Орды от подчинения Золотой Орде и создания самостоятельного ханства нужно начинать с этого времени. Это доказывает и то, что Узбек хан насильно ставит своего сына Тыныбека правителем, чтобы вновь подчинить детей Орда-Ежена. Однако Тыныбек вскоре был убит, а дети Орда-Ежена возвращают себе власть», таким образом, ученый продлевает время обретения Белой Ордой независимости дольше годов правления Ерзена [Салғараұлы Қ., 1992: 36]. [12]

По свидетельству Му'ина ад-дин Натанзи, после Мубарака-ходжи на престол Белой Орды по приказу хана Джанибека сел сын Ерзена – Чимтай (1344-1361), который единолично был у власти на протяжении 17 лет [Тизенгаузен В.Г., 1941: 30]. [13]

Здесь можно заметить, что в описании Му'ина ад-дин Натанзи до хана Уруса ханы Белой Орды садились на престол по повелению ханов Золотой Орды. Следовательно, Белая Орда существовала как отдельное самостоятельное государство, начиная с Урус хана. В источниках нет

сведений об обстоятельствах смерти Чимтая. После смерти Чимтая к власти пришел его сын Урус хан. В темуридских источниках приведены более полные данные о жизни и политике Урус хана. В особенности, можно отметить более конкретные факты в сочинении Му'ина ад-дин Натанзи «Мунтахаб ат-таварих-и Му'ини». Урус хан в истории известен как основоположник династии казахских ханов. Он был сильным полководцем, государственным деятелем и могущественным правителем своего времени. Наряду с этим хан Урус внес большой вклад в развитие своего государства, в частности, в развитие культуры города Сыганак за счет строительства различных религиозных учреждений (мечетей, медресе). Согласно Му'ину ад-дин Натанзи, хан Урус характеризовался как «очень воинственный, сильный и могущественный царь» [Тизенгаузен В.Г., 1941: 131]. [14]

Му'ин ад-Дин Натанзи писал, что хан Урус – сын Чимтая, Чимтай – сын Ерзена, Ерзен – сын Сасы-Бука, Сасы-Бука – сын Ногая [Тизенгаузен В.Г., 1941: 129-130]. [15] В этих сведениях Сасы-Бука признан сыном Ногая. А согласно данным Рашида ад-Дина и других источников, Сасы-Бука – сын Баяна. Если продолжить генеалогию хана Уруса, приведенную в сочинении Му'ина ад-Дин Натанзи, по данным Рашида ад-Дина, то в Белой Орде правили до Сасы-Бука Орда (Орда-Ежен) – Сартакан (Сартак) – Куынжы (Коншы) – Байан [Тизенгаузен В.Г., 1941: 41-48 сс.]. [16]

Известно, что хан Урус активно участвовал в государственных делах уже в период правления своего отца Чимтая. Он агитировал отца завоевать Золотую Орду и присоединить её к Белой Орде. Однако, по словам Му'ина ад-Дин Натанзи, «Чимтай его не послушал» [Тизенгаузен В.Г., 1941: 131]. Придя к власти, он приступил к воплощению этого замысла. [17]. По мнению некоторых ученых, Урус хана «в 1361 году объявили ханом (посадив его на белую кошму) только кочевые племена одной части Дешта», а временем его полного признания в столице Белой Орды Сыганак и выпуска денег со своим именем является 1368 год» [Ускенбай К. М., 2000: 104]. [18]

Однако в «Истории Казахстана», используемой большинством читателей, указано лишь, что «Урус стал ханом Белой Орды в 1368 году». Отсюда вытекает вопрос: неужели после смерти Чимтая в 1361 году в течение семи лет в Белой Орде не было правителя? Авторы второго тома «Истории Казахстана» не дают объяснения тому, почему после смерти Шымтая в 1361 году только после семи лет, а именно в 1368 году хан Урус сел на престол. Помимо этого, «в 1368 году при поддержке оплота державы и дворцовой знати» хан Урус совершил нашествие на земли вдоль Волги» [Ускенбай К. М., 2000: 110]. [19]

Тогда выходит, что Урус хан, придя к власти, сразу собрался в поход. Но перед этим ему было необходимо подавить тока-темурский сепаратизм в стране, для чего требовалось много времени. Хан Урус в 1374-1375 годы взял Сарай, окружил Хажи-Тархан (Астрахань), подчинил себе земли булгаров Камы, названных в источниках «народом хана Уруса». Однако успехи хана Уруса длились недолго, поэтому он был вынужден в следующем году покинуть земли вдоль Волги. Хан Урус сбил с пути временного правителя Золотой Орды Мамай, достигшего при поддержке феодалов значительного влияния в западной части Золотой Орды в период внутренних междоусобиц.

Д.и.н. З. Кинаятұлы писал: «...известие Кадыргали Джалайыра о том, что хан Урус "скончался на севере в местности Кыштам" кажется более достоверным. Войска хана Уруса осенью 1377 года добрались до Саурана, были готовы воевать с Темуром-Токтамышем. Но длившиеся три месяца дожди, снежные бураны и пробиравшие до костей морозы не дали возможности повоевать. Судя по словам Му‘ина ад-Дин Натанзи "Из-за сильных морозов хан Урус повернул вспять", хан Урус, вероятно, уже здесь подвергся сильной болезни», - делает вывод [Кинаятұлы З., 2004: 138-139]. Таким образом, можно отметить, что есть полная вероятность того, что хан Урус скончался собственной смертью в 1377 году. [20]

В соответствии с сочинением «Муизз ал-ансаб» неизвестного автора, написанного во дворце династии Темуридов, от династии хана Уруса произошли ветви ханов 1) Токтакия, 2) Темур-Малик, 3) Куйыршык [Кляшторный С.Г., Султанов Т.И., 2004: 346]. [21]

От ветви Токтакия ведет свой род первый хан Казахского ханства Керей хан. От ветви Куйыршыка ведет свой род хан Барак. Начиная от Джанибека – сына Барака до Кенесары - сына Касыма вплоть до всех ханов, - все они потомки хана Куйыршыка. Таким образом, мы убедились в том, что историки темуридской династии оставили интересные и конкретные письменные сведения о значительном вкладе правителей Белой Орды в развитие государства, экономики и культуры. Нами было замечено, что сведения из произведений, посвященных Темуру и его потомкам, способствуют решению сложных вопросов, касающихся правителей Белой Орды. Тем не менее, требуется критическая оценка всех этих сведений. Как было указано выше, данные, приведенные Му‘ино ад-Дин Натанзи, которые до сих пор являлись единственным источником о государстве Белая Орда, противоречат друг другу. Поэтому всем известно, что прежде чем использовать какие-либо сведения, необходимо подвергать их источниковедческому анализу. Данная проблема ждет своего более глубокого изучения.

Список использованной литературы

1. Қазақстан тарихы туралы түркі дерктемелері. I том. Өтеміс қажы. Шыңғыс-наме. – Алматы: «Дайк-Пресс», 2005. – С.: 172-176.
2. Босворт К.Э. Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии. Пер.с англ. П.А.Грязневича. – Москва: «Наука», 1971. – С.: 204.
3. Салғараұлы Қ. Хандар кестесі. (Шығыс хандарының жылнамалық кестесі). – Алматы: «Жалын», 1992. – С.: 37.
4. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. – Ленинград: 1941, Том II. – С.: 129-130.

5. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. – Ленинград: 1941, Том II. – С.: 128.
6. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. – Ленинград: 1941, Том II. – С.: 226.
7. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. – Ленинград: 1941, Том II. – С.: 211.
8. Қинаятұлы Зардыхан. Қазақ мемлекеті және Жошы хан. – Астана: «Елорда», 2004. – С.: 190.
9. Қинаятұлы Зардыхан. Қазақ мемлекеті және Жошы хан. – Астана: «Елорда», 2004. – С.: 191.
10. Мингулов Н.Н. К некоторым вопросам изучения истории Ак Орды / Казахстан в эпоху феодализма (проблема этнополитической истории). – Астана: 1981. – С.: 158.
11. Қинаятұлы Зардыхан. Қазақ мемлекеті және Жошы хан. – Астана: «Елорда», 2004. – С.: 190.
12. Салғараұлы Қ. Хандар кестесі. (Шығыс хандарының жылнамалық кестесі). – Алматы: «Жалын», 1992. – С.: 36.
13. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. – Ленинград: 1941, Том II. – С.: 30.
14. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. – Ленинград: 1941, Том II. – С.: 131.
15. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. – Ленинград: 1941, Том II. – С.: 129-130.
16. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. – Ленинград: 1941, Том II. – С.: 41-48.
17. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. – Ленинград: 1941, Том II. – С.: 131.
18. Ускенбай К. М. Тынышпаев о некоторых спорных вопросах казахского средневековья и современная историография // Отан тарихы. – Астана: 2000. № 1-2. – С. 104.
19. Ускенбай К. М. Тынышпаев о некоторых спорных вопросах казахского средневековья и современная историография // Отан тарихы. – Астана: 2000. № 1-2. – С. 110.
20. Қинаятұлы Зардыхан. Қазақ мемлекеті және Жошы хан. – Астана: «Елорда», 2004. – С.: 138-139.

**ISLOM TAMADDUNINING DASTLABKI UCH ASRIDA
MOVAROUNNAHRDA MADRASALARNING TASHKIL TOPISHI VA
TA’LIM TIZIMI MANBASHUNOSLIGI**

Mamatqulova Farangis Orzukulovna

Sharof Rashidov nomidagi SamDU tayanch doktoranti

E-mail: mamatqulovafarangis@gmail.com

Movarounnahrda islom dini kirib kelishi bilan diniy ta’lim va u bilan bog‘liq ilmlar ham rivojlana boshladi. Ayniqsa, diniy va dunyoviy ilmlar uzviy holda taraqqiy etdi. Aynan shu davrdan boshlab hududlarda maktablar va madrasalar paydo bo‘la boshladi. Madrasalar qadimdan Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida alohida nufuzga ega o‘quv maskani sifatida katta obro‘-e’tibor qozongan. Ko‘hna Buxoro va Samarqand o‘zining ko‘p sonli madrasalari bilan nom taratgan. Islom tamaddunining tarqala borishi natijasida VIII-IX asrlardan boshlab uni o‘rganish va targ‘ib etishga loyiq kadrlarni tayyorlash ehtiyoji ham maydonga keldi. Shuning natijasida islomiy tamaddun joriy etilgan. Jumladan, O‘rta Osiyoda ham maktab, madrasa va madrasayi oliyalarning paydo bo‘lishiga katta e’tibor qaratildi.

Adam Mes asarida madrasalarning maydonga kelishi tarixi X asrga tegishli deb bilinib, birinchi madrasalar Nishopurda bunyod etilganligi haqida mulohazalar yuritilgan. Ammo tarixiy manbalarning, jumladan Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” asarida eslatilishicha, X asrning avvalidayoq Buxoroda madrasalar bo‘lib, ulardan biri madrasayi Farjak 937-yilda sodir bo‘lgan yong‘in vaqtida ancha zarar ko‘rgan ekan. Bas shunday ekan, ta’lim tizimining muhim bosqichlaridan biri bo‘lgan madrasalar Movarounnahrda VIII asr oxirlari va xususan somoniylar davrida maydonga kelib, faqat Buxorodagina emas, balki Samarqandda ham ularning bunyod etilishi VIII asrning oxiri va IX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi.

Chunki Samarqand tarixiga bag‘ishlangan jome kitobida yozilishicha, IX-X asrlarda Samarqandda o‘n yettita madrasa mavjud bo‘lgan. Bu madrasalar Samarqandning qaysi mavzeyida joylashgani, ularning ta’sischilari, madrasa nomlari, dasturlari, vaqfnomalari hamda ixtisos bo‘yicha yo‘nalishlari to‘g‘risida ma’lumotlar hozircha kam.

Ammo xuddi shu davrlarda yashab faoliyat ko‘rsatgan mashhur hadisshunoslardan biri bo‘lmish Abdulloh ibn Abdurahmon Dorimiy Samarqandiy (788-869y), “Kashf ul-maxjub”ning muallifi Abu Ali Fuzayl ibn Iyoda Samarqandiy (VIII-IX asrlar), Muhammad ibn al-yamin Abu Bakr al-Samarqandiy (IX asr), munajjim Abdulfath Sayyid ibn Xafif Samarqandiy (X asr), “Kitob ul usul” ning muallifi Ishoq ibn Ibrohim al-Shoshiy (X asr), Shayx Abu Mansur Motrudiy Samarqandiy (vafoti 945-946 yy), Abulqosiv Hakim Samarqandiy (vafoti 985-1003-yillar orasi) va boshqa ko‘p allomalar mazkur madrasalarda mudarrislik qilib, ulumi salosa (Qur’on, hadis, fiqh) va ulumi aqliya (dunyoviy fanlar)ning turli sohalaridan dars berganlar.

Movarounnahr diyoridagi dastlabki hijriy ilk uch asrda ta’lim maskanlari sifatida kuttob (maktab)lar, masjidlar, madrasalar, munozara majlislari, rabotlar va xonaqohlar faoliyat yuritgan. Ilk madrasalar vujudga kelgan geografik hudud milodiy to‘qqizinchi asr oxirlaridagi Xuroson va Movarounnahr hududiga to‘g‘ri keladi. Mazkur hududda madrasalarning paydo bo‘lishiga budda monastirlari (vixara)ning salmoqli ta’sir ko‘rsatgani taxmin qilinadi. Bu hududda ba’daviylik ta’siri ortib, bu dinga e’tiqod qiluvchilar azaliy an’analarga ega bo‘ldi. Monastirlar O‘rta Osiyoning islomiy an’analariga ikki jihatdan ta’sir ko‘rsatgan deb hisoblanadi: birinchisi, buddaviylik an’anasi ilk islom tasavvufi uchun namuna va ilhom manbai bo‘lib xizmat qildi, ikkinchisi esa, budda monastir va majmualarda qo‘llaniladigan ta’lim tizimining ilk musulmonlar uchun namuna bo‘lganidir. Musulmon din ahli yoki buddaviylikdan musulmonlikni qabul qilgan olimlar oldingi ta’lim tizimini tark etmasdan, ularni islomiyashtirib, ilk madrasalarni tashkil etganlar. [1]

Islom olamida madrasa darajasidagi o‘quv muassasalarining eng qadimgilari Buxoro va Samarqandda bo‘lgani taxmin qilinadi. Nizomulmulk Bag‘dodda mashhur Nizomiya madrasasini ta’sis etarkan, buyuk ehtimol bilan u Sharqda mavjud bo‘lgan ta’lim muassasasidan nusxa olgan edi. Sharq mintaqasidagi bu

muassasa aynan Buxoroda edi. Shu bilan birga, kuchli ehtimolga ko'ra, Buxoro madrasalarning vatani bo'lishi mumkin. [2]

Nizomulmulk Bag'dodda Nizomiya madrasasini milodiy XI asrning oxirlarida qurdirgan. Holbuki, Xuroson va Movarounnahr hududida madrasalar ushbu sanadan ilgari mavjud bo'lib, xurosonlik Nizomulmulk bu madrasalarni ko'rgan edi. Nizomulmulk Bag'dodda Nizomiya madrasasini qurdirmasidan oldin ham Makka, ham Madinada darslar bergani uchun Imomul Haramayn nomi bilan mashhur bo'lgan shofi'iy fiqhi olimi Abul Ma'oliy Abdulmalik ibn Shayx Abu Muhammad Abdulloh ibn Hayyuna uchun Sulton Alparslon hukmronligi davrida Nishopurda Nizomiya madrasasini qurdirgan edi. [3]

Nizomulmulkning madrasa qurdirgani haqidagi shuhrati Bag'dodda ham ilk buyuk madrasani qurishiga sabab bo'lgandi. Somoniylar davrida ham Movarounnahr hududida joylashgan Buxoro va Samarqand shaharlarida madrasalar mavjud bo'lgani va ularda ta'lim va tarbiya ishlari olib borilganini ko'rishimiz mumkin. Buxoroning Sarg' mavzesidagi masjidni Tug'rulbey buzdirib, masjid yog'ochlaridan Suvaykatul Baqqolin nomli joyda bir madrasa qurdirgan. Keyinchalik bu madrasa Gular Tekin nomi bilan ataldi. [4]

Somoniylar hukmdorlaridan Muzaffar ibn Ahmad ibn Nasr ibn Ahmad Samarqandda diniy ilmlar bilan bir qatorda tibbiyot, astronomiya, tabiiy fanlar va tarix sohasidagi olim Abu Hotim Muhammad ibn Hibbon Bustiy (vaf. 354/965) uchun bir ta'lim muassasasi qurdirgan. [5]

Mazkur bino ayniqsa, hadis ilmi ahli uchun ko'kalamzor bir madrasa bo'lgani ta'riflanadi. Somoniylar amiri Said Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil davrida (hij.325/mil.936) yilda Buxoroda katta bir yong'in yuz bergan. Bu yong'inida Bikor mahallasidagi Farjak madrasasi ham yonib ketgandi. [6]

Buxoroning Ja'joniya qishlog'idan bo'lgan faqih Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Horis, Imom Abu Bakr ibn Fazl Kimoriy madrasasida istiqomat qilgan edi. Bundan tashqari, Buxoroda Abu Hafs madrasasi ham mavjud bo'lib, Abu

Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Shohuvayh (vaf. 361/965) Buxoroga kelsa, shu madrasada qolib, dars berardi. [7]

Samarqanddagi Dorul Juzjoniya qozi Abu Nasr ibn Abdulloh ibn Ash'as Kushoniy tahsil oldi. Abu Nasr yuz o'n yoshida (hij.443/mil.1051) yilda vafot etdi.

Abu Ya'qub Yusuf ibn Muhammad Sog'arjiy (hij.502/mil.1108 yilda vafot etgan) Samarqanddagi Sikkatu Haiti Hayyon madrasasida ta'lim bergan. Bu madrasa Somoniylar tomonidan qurdirilgan deb taxmin qilinadi. Shuningdek, Samarqandda Ra'su Sikkati Amir madrasasi va Qusam ibn Abbos nomi bilan atalgan Qusam madrasasi faoliyat olib borgan.

Somoniylar davrida mavjud bo'lgan madrasalar bilan keyingi davrdagi madrasalar orasidagi asosiy farqlar ularning davrning mashhur olimlari tomonidan ma'ruza qilishlari uchun tashkil etilgani va fanning ma'lum bir sohasi bo'yicha ta'lim berish maqsadida qurilganida deyish mumkin. Shu bilan birga boshqa madrasalarda bo'lgani kabi Somoniylar davri madrasalari ham bir tartib va tizimga ega bo'lganini ko'rish mumkin. Abul Qosim Qurashiy talabalar madrasa darslariga g'usl, tahorat olgan va ro'zador holida qatnashganini alohida ta'kidlagan. Shu bilan birga, talabalar ustozlariga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lgani haqida keltirgan. [8]

Buxoro va Samarqand madrasalari ehtiyojlarini ta'minlash va talabalarning xarajatlarini qoplash maqsadida Vaqf muassasasi mavjud bo'lganini ko'rish mumkin. Buxoro qishloqlaridan biri Afshonaning yerlari tolibi ilmlarga vaqf qilib berilgan edi. [9]

Hijriy 1000-yilda vafot etgan Abu Is'hoq Ibrohim ibn Husayn Samarqandiy ham qiymatli mol-mulkini vaqf qilgan edi. Buxoroda vaqf qilingan yerlar masjid, madrasa yoki kasalxonalarning ehtiyojlarini qoplash uchun sarflanar edi. [10]

Madrasalarga vaqf sifatida birlashtirilgan mol-mulk, boyliklarning vaqfnomalarda qayd qilinishi qanchalik muhim bo'lsa, chunki u mazkur madrasaning maqomi (statusi)ni ham aniqlashga ko'maklashadi, unda vaqfnomada madrasadagi o'quv jarayonini tashkil etuvchi xodimlarning (mutavalli, mudarris,

notiq, muqri, farrosh) va tolibi ilmlarning soni ham belgilanadi. Ana shu jihatdan madrasalar tarixini yoritishda uning vaqfnomalari nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan rasmiy hujjatlardir.

Faqat vaqfnomalarning saqlanmaganligi uchun emas, balki o'sha davrda yaratilgan tarixiy, sayohatnoma yoki ilmiy asarlarda madrasalar haqidagi ma'lumotlarning hozircha noma'lum bo'lib qolishi tufayli biz madrasalarning tuzilishi, u bilan bog'liq bo'lgan binolar majmuasi, madrasalarda o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan binolar majmuasi, madrasalarda o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina masalalar (jumladan, ma'lum dasturi, kitoblari o'qitish uslubiyati, mudarris va talabalar mas'uliyati) haqida aniq tasavvurga, manbalarga asoslangan tushunchaga ega emasmiz. Ammo ularning borligi va ma'lum bir tizimga ega ekanligi shak-shubhasizdir. Shuning bilan birga bu madrasalarda o'ziga xos kutubxonalar bo'lib, ularda madrasalardagi o'quv jarayoni va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga Xizmat qiladigan qo'lyozma manbalar mavjud bo'lgan. O'sha davrdagi ilmiy, madaniy va adabiy hayotning holati undagi alloma va shoirlarning ilmiy-adabiy merosi va shu madrasalar faoliyatining hosilasi-mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, o'sha davrda Samarqandda mavjud bo'lgan o'n yettita madrasada islomiy mintaqalarda mashhur bo'lgan allomalar mudarrislik qilgan. Jumladan, Samarqand tarixiga bag'ishlangan jome' kitobda qayd qilinishicha, Samarqandning Raboti G'oziyon (Cho'ponotaning kun botar tomonida joylashgan bo'lib, hozir ham shu nom bilan ataladigan mavze) mavzesidagi madrasada kalom ilmining allomasi Muhammad ibn Fazl Balxiy (asli Balxdan bo'lib, Samarqandga kelib turg'un bo'lib qolgan va 913-yilda shu yerda vafot etgan. Ammo uning Samarqandning qaysi mozorida dafn etilgani haqida aniq ma'lumotga ega emasmiz) mudarris bo'lgan. Muhimi shundaki, alloma Muhammad ibn Fazl Balxiy kalom ilmining mashhur allomalari Shayx Abu Mansur Motrudiy (870-945-946 milodiy yillar) va Abulqosim Hakim Samarqandiyga (vafoti 953-yil) ustozlik qilgan.

Bu allomalar Raboti G‘oziyondagi madrasada Muhammad ibn Fazl Balxiydan kalom ilmi asoslaridan ta’lim olganlar. Shuning bilan bir qatorda Samarqand madrasalarida allomalardan Abu Bakr Ahmad Juzjoniy, Nusayr ibn Yahyo Balxiy, Muhammad ibn Muqotil Roziy kabilar ham mudarrislik qilganlar.

Xurosonlik mashhur mudarrislar bilan bir qatorda Samarqanddagi o‘n yettita madrasada islom olamida e’tirof etilgan “Kashf ul-Mahjub” nomli asar muallifi Abu Ali Fuzayl ibn Iyoda Samarqandiy (VIII asr ikkinchi yarmi IX asr birinchi yarmi) “Al- Raddiy ala al- karomita” asarining muallifi Muhammad ibn al-Yamin Abu Bakr as-Samarqandiy (IX asr), Faqeh Abu Lays Samarqandiy (vafoti 985-1003-yillar orasi) va boshqa ko‘plab allomalar mudarrislik qilganlar.

Aksar madrasalar ichida kutubxonalar mavjud edi. Bundan tashqari, kutubxonalar sultonlar tomonidan jamoat manfaatlarini uchun ham qurilgan edi. Buxoro amiri Nuh ibn Mansurga oid bir kutubxona ham mavjud bo‘lganini ko‘rish mumkin. Ibn Sino bu kutubxona haqida oldin uchratmagan kitoblarni mazkur kutubxonada ko‘rganini ta’kidlagan. U saroy kutubxonasining bir necha xonadan iborat bo‘lgani, har bir xonaning ma’lum bir ilm yoki san’at sohasiga doir qo‘lyozmalar bilan boyitilgani, kutubxonadagi qo‘lyozma asarlar sandiqlarda saqlangani haqida keltiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Demirci. O‘rta Asyada g‘alishen bilim ve d‘ush‘uncenin dinamikleri. – B.: 83-84; Bartold. O‘rta Osiyo turklari tarixi. – B.: 56; Kazıci. İslam Müesseseleri Tarihi. – B.: 231.
2. Frye. Bukhara. – B.: 189; Havansariy, Muhammad Bakir Isfahoniy. Ravzatul jannot fi ahvolil ulamoi vas sadat. Asadulloh Ismoilion tahqiqi. – Tehron: Maktabatul Ismoilion, 1390. Jild IV. – B.: 184.
3. Ibn Xallikon. Vafayot ul ayon... Ehson Abbos tahqiqi. – Bayrut: Doru Sadir, 1978. Jild III. – B.: 168.
4. Narshaxiy. Buxoro tarixi. – B.: 30.
5. Ibn Asokir. Tarixu Dimashq. Jild LII. – B.: 251.
6. Narshaxiy. Buxoro tarixi. – B.: 133-134.
7. Sam‘oniy. Ansob. Jild III. – B.: 394.

8. Qushayriy, Abul Qosim Abdulkarim ibn Havozin Nishopuriy. Abdulhalim Mahmud Sharif tahqiqi. – Qohira: Dorush shu’ab, 1989. – B.: 489-490.
9. Narshaxiy. Buxoro tarixi. – B.: 31.
10. Zaydon. Islom madaniyati tarixi. Jild III. – B.: 448-449.

AMIR TEMUR – IKKINCHI RENESSANS ASOSCHISI

Mamatqulova Shaxnoza Rahmonqulovna

Samarqand viloyati Samarqand tumani 1-maktab

O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

E-mail: amirbaxt@gmail.com

“Ikkinchi islom Renessansi” nomini olgan tarixiy davr, Amir Temur va temuriylar faoliyati davriga to‘g‘ri kelib, Markaziy Osiyo xalqlarining ko‘p asrlik tarixida asosiy o‘rin egallab, turkiy xalqlar tarixida muhim burilish bosqichi hisoblanadi. Temur va Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat rivojiga oid ko‘plab manbalar xozirga qadar saqlanib qolgan. Bu davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlari manbalarda o‘z aksini topgan. Hozirga qadar Temur va uning avlodlari davri tarixini yorituvchi G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy [1], Sharafiddin Ali Yazdiy [2], Muhammad Xavofiy [3], Ibn Arabshoh [4], Mirzo Ulug‘bek [5], Giyosiddin Koshiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Zahiriddin Muhammad Bobur [6], Alisher Navoiy [7], Xondamir [8], Mirzo Muhammad Haydar [9] va boshqa shu kabi tarixnavis olimlarning asarlari yetib kelgan.

O‘sha davrga aloqador deyarli barcha yozma manbalar hozirgi kunga kelib dunyoning ko‘plab tillariga tarjima etilgan, shu bilan birgalikda bunday asarlar xozirgachaa o‘z qadr qimmatini yo‘qotmay kelayotir. Ammo, ularda o‘sha davr ta’limi to‘g‘risidagi ma’lumotlar juda qisqa berilgandir. Buni Amir Temur va uning turli o‘lkalarlarda hukm surgan hamda ba’zilar keyinchalik Movarounnahr va Xurosonda podsholik qilishgan avlodlari nazdida turuvchi tarixnavislarning asosiy vazifalari siyosiy voqealar, harbiy yurishlar, diplomatik aloqalar, hukmdorlarning faoliyatini yoritish kabi ishlarni o‘zlarining asosiy vazifalari, deb bilarganlari bilan izohlash mumkin.

O'sha davrning ba'zi tarixchilari e'tirof etishlaricha, Amir Temurning o'zi, o'g'illari va nabiralari hamda harbiy sarkardalari tarixda harbiy qo'mondon sifatida qolishni xohlar edilar. Shu sababdan ko'plab tarixiy asarlarda ular o'zlarida qo'mondonlik ruhini shakllantirgan shaxs sifatida zikr etildilar.

Amir Temurning o'zi va uning ko'plab hukmdor avlodlari uchun shaxsiy matonat, shuhrat va qahramonlik yo'lida hatto o'zini fido etish hissiyoti oddiy holga aylangan edi. Podshoh saroyida, oliy majlislar vaqtida yo yurish va safarlarda qadimiy qahramonliklar haqidagi hikoyalar aytish udumga aylangan edi. Amir Temur saroyida maxsus "saroy tarixnavislari" mavjud bo'lib, ularning ishlari turli "bahodir"larning qiziqarli qahramonliklarini yoddan yoki o'qib berishdan iborat edi. Albatta bunday hikoyalarga, tez-tez bo'lib turadigan harbiy yurishlar asos qilib olinar edi.

Amir Temur hayoti va faoliyatini tasvirlash uchun uni ikki davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Birinchi davr, 1360-1386 yillar, bu davrda Amir Temur Movarounnahrni birlashtirish, kuchli, ozod va mustaqil davlat qurish uchun kurashgan. Ikkinchi davr, 1386-1402 yillar, bu vaqt orlig'ida sohibqiron o'zining uch yillik, besh yillik va yetti yillik harbiy yurishlarida o'z davlati hududini kengaytirgan va mustahkamlagan [9, 6-b]. [10]

Bu davrda u Hindiston, Eron, Iroq, Kavkazorti, Misr, Turkiya va Rusiyaning janubiy hududlarini egallab o'z davlatiga qo'shib olgan. Shu jihatdan, sobiq sovet tarixshunosligida Amir Temur shaxsiga salbiy, adolatsiz baho berishlar oddiy holga aylangan edi. Amir Temurning o'z davrining ziyoli odamlariga, bunyodkorlik hamda madaniyatiga munosabati orqali davlat ta'lim tizimiga baho berish mumkin. Ma'lumki, bu davrda ilmu fan taraqqiyoti boshqa tarmoqlar bilan bir xil tarzda olib borilgan. Bu, tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarning gullab-yashnash davri bo'lib, davrning har tomonlama rivojlanishiga turtki bergan.

Tarixdan ma'lumki, Amir Temur davlati va o'ziga qaram mamlakatlardagi olimu fuzalolarni qattiq hurmat qilardi. Ularning ko'plarini hatto o'zi bilan poytaxt Samarqandga keltirgan edi. Turli soha olimlari, tarixchilar, adabiyotchilar, shoirlar,

iqtidorli binokorlarga ijod etishlari uchun o‘ta qulay sharoit yaratib bergan edi. Temur, o‘zining “Tuzuklar”ida: “Sofdil kishilar, sayidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi” degan edi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temurning mashhur olim va kalomshunoslarni yig‘ib, ularga qarata aytgan ma’ruzasi to‘g‘risida keltirilgan qiziqarli ma’lumoti, Amir Temurning olimlarga munosabatini yuksakligini bildiradi [11, 321-322]. [11]

Temur davrida Markaziy Osiyoda shaharsozlik, me’morchilik, san’at, dinu-islom, madaniyat va ilmu-ma’rifat tengsiz rivoj topdi. Sohibqiron tomonidan ayniqsa, riyoziyot, ilmi handasa, ilmi hay’at, adabiyot, she’riyat, tarix, me’morchilik, musiqa sohalariga katta e’tibor berildi. Movarounnahr saroyida Abdujabbor Xorazmiy, Shamsuddin Munshiy, Abdulla Lison, Badriddin Ahmad, Nu‘moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Alouddin Koshiy kabi ko‘plab iste’dod sohiblari xizmat qilishgan.

Amir Temur davrida mudarris va shayxulislom Mavlono Abdulmalik, uning o‘g‘li, shayxulislom Isomuddin ibn Abdulmalik, uning amakivachchasi shayxulislom Xoja Abdulavval (ular Burhoniddin Marg‘inoniy avlodlari hisoblanib, birin-ketin shayxulislomlik lavozimiga kelishgan), No‘moniddin Xorazmiy, uning o‘g‘li Abduljabbor ibn No‘mon (Amir Temurning imomi), Eronlik muhaqqiq alloma Sa’duddin Taftazoniy, Sayid Sharif Muhammad Jurjoniy, qozi kalon Mavlono Qutbiddin, qorilar Mavlono Ubayd, Mavlono Faxruddin, Mavlono Domg‘oniy, Mavlono Asaduddin, Sharif Hofiz Husayniy, Mahmud Muhriq al-Xorazmiy, Jamoluddin Ahmad al-Xorazmiy, Mavlono Ahmad at-Termiziy, Mavlono Mansur al-Qog‘oniy, munajjim Mavlono Ahmad, mashhur tabiblar Fazlulloh va Jamoluddin Shomiy, muhaddis Alouddin at-Tabriziy, rumlik muhaddis Shayx Shamsiddin Muhammad al-Jazoriy, Xoja Muhammad az-Zohidi Buxoriy va boshqa shu kabi sohalarining yetuk mutaxassislari madrasalarda tolibi ilmlarga o‘z bilimlarini o‘rgatishgan.

Temur ilmu-fan rivojiga rahnamolik qilgan, o'zi esa tarix, jug'rofiya, tib ilmlarini yaxshi bilgan, adabiyot va shaxmatni sevgan. U ulamo va shoirlarni behad hurmat qilgan, e'zozlagan. Sababi uning o'zi ham o'z davrining olimi va donishmandi bo'lgan.

Temurning qayerga borsa, u o'sha yerdagi olimu ulamolar, shoirlar, san'atkorlar, me'morlar, hunarmandlarni yig'ib suhbat aylagan, osoyishta ijod, bunyodkorlik bilan shug'ullanishga imkoniyat yaratib, moddiy yordam berib xomiylik qilgan. Rumning Basra shahridagi eng katta kutubxonadagi nodir kitoblarini Samarqandga keltirib bu yerdagi kitoblar bilan qo'shib Ko'ksaroyda ulkan bilim maskani - kutubxona tashkil etadi. Bu kutubxona xazinasidan minglab kishilar bahramand bo'lgan, yetuk olimlar yetishib chiqqan. Poytaxt Samarqandga nafaqat kitoblar, balki Temur saltanati xududidagi eng nufuzli olimlar ham yig'ilgan edilar. Temurning bevosita homiyligida yuzlab olimlar ilmu-fanda ijod qilganlar. Ular qatorida Sa'uddin at-Taftazoniy, Mavlono Ahmad, Sayid Sharif Jurjoniy, Shamsiddin Muhammad ibn al-Jazariy, Xoja Muhammad al-Buxoriy, Xoja Abdulmalik Samarqandiy, Tojiddin as-Salmoniy, Mavlono Ubayd, Mavlono Abdujabbor, Ahmad Kirmoniy, Xofizu Abru, G'iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xujandiy va boshqalar edi. [12]

Amir Temur saltanatida zamonasining taniqli allomalari hisoblangan dunyoviy fanlarning hamma tarmoqlari hamda islom tasavvufchiligi bo'yicha 100 dan ortiq olimlar ilmiy-tadqiqotlari olib borgan. Samarqand o'sha davrda ana shunday buyuk zotlarning ijod markaziga aylangan edi. Bu iborani o'sha davrning guvohi bo'lgan Ibn Arabshoh shunday ta'riflaydi: «Temur har bir jonni (olimu-ulamolarni...) yig'ib, nimaiki narsa bo'lsa sarasini Samarqandga keltirdi. Natijada, Samarqandda har bir ajib fan ahli namoyondasidan va san'atlar g'aroyib uslubidan fazilati peshonasida nishona bo'lib, o'z tengqurlaridan ustun turgan o'z sohasida alloma kishilar yig'ilgan edi» [5, 87-b]. U davom etib: «Darhaqiqat Samarqand fozillar jam bo'lgan va fazilat ahlining kelib qunadigan joyi erdi». [5, 309-b]. [13]

Ushbu olimlar Temur tashkil etgan Ko‘ksaroy kutubxonasida ishlash va foydalanish xuquqiga ega edilar. Ular ilmu-fanning turli sohalarida ilmiy izlanishlar olib borib, Turoni-zamin ilmu-fan, madaniyatini jahon sivilizatsiyasi darajasiga ko‘tarib, Samarqandda o‘ziga xos ilmiy markazni tashkil etib, nevarasi Ulug‘bek davrida fanning keng taraqqiy etishiga, ilmiy laboratoriya va Samarqand fanlar akademiyasining vujudga kelishiga asos solgan edi.

A.Habibullaev Amir Temurning arab tarixchisi Ibn Xaldun bilan 1401 yilda bo‘lgan uchrashuviga atalgan tadqiqotlarida, Amir Temur Damashqni egallagach, uning eng avvalgi qilgan ishi – shaharning eng mashhur olimlari bilan uchrashuvi edi, deb ta’kidlab o‘tgan. Ibn Xaldun Mag‘rib hukmdoriga yuborgan xatida yozadi: “U (Amir Temur) o‘ta eruditsiyali, ma’suliyatli, chuqur bilimga ega, bahsni yoqtiradi”. Sohibqiron bilan bo‘lgan bir necha uchrashuvdan ta’sirlangan Ibn Xaldun «At-ta’rif bi Ibn Xaldun va rihlatuhu g‘arban va sharqan» (“Ibn Xaldun bilan tanishuv va uning Sharq va G‘arbga qilgan sayohat”) asarini yozib, unda Amir Temur bilan bo‘lgan suhbatlarini yoritadi. [3, 9-b]. [14]

Temuriyzoda sulton Mirzo Ulug‘bek davrida u asos solgan Samarqand astronomik maktabi hamda madrasasi qoshida o‘nlab alloma mudarrislar faoliyat ko‘rsatishgan bo‘lishib, Mavlono Xavofiy, Qozizoda Rumiy, G‘iyosuddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi va Mavlono Isomiddinlar oliygohning yorqin yulduzlari edilar. Bu davrda Fazlulloh Abu Laysiy ham faoliyat ko‘rsatgan. Alloma Abdurahmon Jomiy esa Samarqandga nafaqat ilm olish uchun keladi, balkim, Ulug‘bek madrasasida mudarrislik qilib, yoshlarga ta’lim bera boshlagan. [6, 24-b]. [15]

Yana bir qiziq holat shundan iboratkim, Xoja Ahror qurdirgan va So‘zangaron ko‘chasida joylashgan madrasaning janubiy devoriga chegaradosh bo‘lgan hovli Ulug‘bekning eng yaqin shogirdi Ali Qushchiga tegishli bo‘lgan. Mavlono Abdurahmoni Jomiy xatlarining o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, Ali Qushchi 1471 yilgacha, ya’ni Mirzo Ulug‘bek shahid bo‘lgandan keyingi o‘tgan 22 yil vaqt mobaynida Samarqandda turibgina emas, balki Xoja Ahror qurdirgan

madrasaning yonginasidagi uyida tinchgina yashagan. Vaholanki, oxirgi asr tarixshunosligida Ulug'bek rasadxonasi Xojaning fatvosi bilan vayron etilib, uning shogirdi Ali Qushchi esa o'sha yiliyoq shahardan quvilgan, degan fikrlar hukm surardi. Holbuki, Ulug'bek o'limidan yarim asr vaqt o'tgach, Samarqandga kelgan Bobur mirzo «uch oshyonalik rasadxonani» o'z ko'zi bilan ko'rgan. [7, 31-32 b]. [16]

Amir Temurning nafaqat diniy ilmlar, balki dunyoviy ilmlar hamda tabobat ilmini rivoj toptirishda ham hizmatlari katta bo'lgan. Sobiq sovet davlati tarixshunosligida Temuriylar davrida ilm-ma'rifat faqat Ulug'bek davridan boshlab rivoj topgan, deb tushunilar edi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, Amir Temur nevarasi Ulug'bekka qadar ham o'z saltanatida ilm-ma'rifat taraqqiyotiga alohida e'tibor bergan, Ulug'bek akademiyasidek ulkan ilm maskanining poydevoriga ham Temur davrida asos solingan deb aytsak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
2. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997.
3. Фасих Ахмад ибн Джалал ад-Дин Мухаммад аль-Хавафи. Муджмал-и Фасихи. - Ташкент: Наука, 1980.
4. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. – Toshkent: Mehnat, 1992. I va II tom.
5. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – Toshkent: Cho'lpon, 1994.
6. Захируддин Мухаммад Бабур. Бабурнаме. – Ташкент: Главная редакция энциклопедии, 1996.
7. Alisher Navoiy. Vaqfiya. Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 1998. XIV tom.
8. Юсупова Д. Ю. Жизнь и труды Хондамира. – Ташкент: Наука, 2006.
9. Komilxon Kattayev. Samarkand madrasalari va ilmu fan rivoji. – Samarqand: Zarafshon, 2003.
10. Муминов И. Роль и место Амира Тимура в истории Средней Азии: в свете данных письменных источников. – Ташкент: Наука, 1968.
11. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997.
12. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.

13. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). – Toshkent: Mehnat, 1992. I-tom.
14. Habibullaev A. Amir Temur va Ibn Xaldun. – Toshkent: 2004.
15. Komilxon Kattayev. Samarqand madrasalari va ilmu fan rivoji. – Samarqand: Zarafshon, 2003.
16. Komilxon Kattayev. Xoja Ahror va Mirzo Ulug‘ek muammolari. – Samarqand: Zarafshon. 2003.

O‘RTA OSIYO ME‘MORCHILIGIDA QORIXONALAR VA ULARNING ARXITEKTURASINI O‘RGANISH VA ILMIY TAHLIL QILISH

Mahmatqulov Ilhom Turdimurodovich

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti dotsenti
arxitektura fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: Maxmatqulov1@mail.ru

Raximov Laziz Abduazizovich

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti dotsenti
arxitektura fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

“Qorixona” so‘zi bir necha ma’noda tushunilib, uning keng tarqalgani Qur’on o‘qiladigan xona, ya’ni qiroatxonadir. Qorixona, shuningdek, ko‘zi ojiz qorilar uchun boshpana va qori tayyorlaydigan maktab ma’nolarini ham anglatgan. Qorixonalar O‘rta Osiyo shaharlari va qishloqlarida qarovsiz va boshpanasiz qolgan ko‘rlarga yordam berish, ularni ibodat va foydali ishlarga jalb qilish hamda savob maqsadida dindorlar va xudojo‘y mulkdorlar tomonidan qurilgan.

Qorixonalarning moddiy ta’minoti uchun ularning ta’sischilari o‘z mulklari hisobidan maxsus vaqflar belgilashgan. “Qori” arabcha so‘z bo‘lib, o‘qimoq, ya’ni Qur’onni ifodali tarzda yoddan o‘qimoq ma’nosini anglatgan. Qorilar o‘lgan kishilar ruhiga bag‘ishlab oyatlar ham o‘qishgan.

Qorixonalar O‘rta Osiyo me’morchiligida asosan ikki xil: ziyoratgohlar, masjidlar yoki xonaqohlar qoshidagi alohida birikkan xonalar ko‘rinishida; ushbu binolar qoshida alohida qurilgan imoratlar tarzida shakllangan. Farg‘onaning Rishton tumanida XVIII asrning ikkinchi yarmida xom g‘ishtdan qurilgan

me'moriy yodgorlik-Qorixona xonaqosi saqlanib qolgan. Bu erda ilgari darveshlar Qur'on o'qib va zikr tushib turishgan. [1]

Qorixona to'rt burchakli hovli tarzda bo'lib (20x24 m) hovlining ikki tomonidan qator hujralar qurilgan. Hovli to'rida tarhi kvadrat shaklli tuxumsimon baland gumbazli katta xona bo'lib, u jamoatxona va tamaddixonalar vazifalarini bajargan. Qorixona hujralari ham kvadrat shaklida (3x3 m) va gumbazlar bilan yopilgan. Hujralar va jamoatxona tosh o'choq bilan isitilgan. Hovlining janubiy tomonida shu erlik eshonning qabri bo'lib, uning ustiga ravoqli sag'ana qurilgan.

Qabrning yonida ikki metrcha chuqurlikda g'or bo'lib, u chillaxona vazifasini o'tagan. [2]

Qorixonalarni O'rta Osiyoda chang to'zonlar va qum bo'ronlari kuzatiladigan mintaqalarda ko'proq uchratish mumkin. Bu asosan Buxoro va Xorazm viloyatlaridir. Xivadagi mashhur Pahlavon Mahmud maqbarasi qoshidagi ziyoratgoh majmua hovlisida darvozadan chap tomonda ikki qavatli frontal kompozitsiyali qorixona joylashgan. U XX asr boshida Turkmaniston shaharlarida keng tarqalgan jamoat binolariga xos g'ishtin uslubda qurilgan. [3]

Qorixonaning me'moriy yechimi Pahlavon Mahmud maqbara ziyoratgoh arxitekturasidan keskin farq qilsa-da, har ikkala ushbu binolar yagona hovli orqali birikib yaxlit me'moriy turkumni tashkil qilgan. Qorixona arxitekturasini tashqi ko'rinishidan turar joy yoki mo'jaz bir madrasa binosini eslatadi, chunki uning tarzida har ikki qavat bo'ylab derazalar ishlangan. [4]

Qorixonalar Xorazmdagi birqator masjidlar tarkibiga ham kirgan. Masalan, XIX asr oxirida qorixona hujralari Xiva tumanida joylashgan Otajon-to'ra masjidi binosi tarkibida qurilgan. Tarixda P-shaklida ishlangan ushbu hujralar masjid binosiga birlashtirilib, umumiy ichki hovli atrofida joylashtirilgan. [5]

Qorixona hujralarining kattaligi turlicha bo'lib, ularda qorilarning bitta, ikkita va guruh tarzida joylashishi ko'zda tutilgan ko'rinadi. Hujralar o'zaro nafaqat hovli, balki ketma-ket joylashgan ichki eshiklar orqali ham bog'langan.

Xorazmning Xiva tumanida Ostona qishlog‘idagi XIII asrda qurilgan Shayx Muxtor Vali maqbara-ziyoratgohi tarkibida ham qorixona mavjud. Qorixona ikki qismdan: dahliz va qur‘on o‘quvchi qorilar xonasidan tuzilib, hovliga qaratilgan va bir ustunli yozgi masjid — ayvon bilan yonbosh qurilgan. [6]

XIX asr boshida Buxoroda bo‘lgan rus missioneri E.K.Meyendrof shahar masjidlaridan birining qoshida ko‘rlar uchun maxsus tashkil etilgan kichik hujralarda 50 ga yaqin o‘jizlar turganligini yozadi. [7]

E.K.Meyendrof ushbu qorixonani ko‘rlar uchun “kasalxona yoki monastir” bo‘lsa kerak, deb o‘ylaydi. Olima L.Yu.Mankovskayaning fikricha ushbu qorixona shaharning sharqiy qismida joylashgan Fathobod masjidi tarkibida qurilgan va hovlili kompozitsiyaga ega bo‘lgan. [8]

Tojikistonning O‘ratepa shahridagi Hazrati-Sho maqbarasining me‘moriy majmuasida ham 6 hujralik qorixona etilgan. [9]

Majmua tarkibiga qorixonadan tashqari maqbara, masjid, 20 ta mullabachchaga mo‘ljallangan madrasa va qiz bolalar uchun maktab kirgan. O‘ratepaning Masjidi Safed, Charmgari va Olkoron guzarlaridagi masjidlar qoshida ham qorixona va o‘g‘il bolalar uchun maktablar bo‘lgan.

Shunday qilib, qorixonalar shahar va qishloqlarda asosan diniy majmualar tarkibiga kirgan alohida xonalar guruhi, ba’zan esa jamoat binolari bilan turkum tarzida qurilgan alohida binolar ko‘rinishida shakllangan. Qorixonalar arxitekturasiga asosan ular tarkibiga kirgan me‘moriy majmualar arxitekturasiga uyg‘unlashtirilib, ularga bo‘ysundirilgan holda sodda ko‘rinishlarda yechilgan.

O‘rta Osiyoda o‘tmishda qurilgan qorixonalarni ijtimoiy nuqtayi nazardan hozirgi zamonaviy ko‘rlar jamiyati uylarining ko‘rinishlari tarzida ham qabul qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Maxmatqulov I.T., Sherqulova D.G. Symbolic Meanings and Characteristics of Patterns and Decorations in Central Asian Architectural Monuments in the XIV-XV centuries. Eurasian Journal of Academic Research. Volume 2(2), 2022. – P.: 744-749.
2. Azimov I. Farg‘ona vodiysi arxitektura yodgorliklari. – Toshkent: 1986. – B.: 40-41.
3. Uralov A., Yusupov R. O‘rta Osiyoning o‘tmishdagi ta’lim-tarbiya va ilm-fan maskanlari. – Samarqand: 2005.
4. Maxmatqulov I.T. Proposals for the Use of Historic Shopping Malls in Uzbekistan for Modern Purposes. Middle European Scientific Bulletin. Volume 21, 2022. – P.: 198-201.
5. Sultonov I.Z., Maxmatqulov I.T. Scientific Analysis of Monuments Included in the List of Cultural Heritage of the Islamic World in Bukhara. Journal of Architectural Design. Volume 15, 2023. – P.: 14-23.
6. Maxmatqulov I.T., Makhmatkulov T. M. Use of Ceramic and Brick Decorations in Cultural Heritage Objects in Samarkand. American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637). Volume 1(1), 2023. – P.: 12-16.
7. Мейендроф Э.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару (1826 г.). – Москва: 1975. – С.: 97.
8. Маньковская Л.Ю. Типологические основы зодчества Средней Азии (IX-конец XX вв.). – Ташкент: 1980. – С.: 93.
9. Мухтаров А. Гузары города Уратюбе. – Книга V: Материалы по истории городов Туркестана. – Душанбе: 1975. – С.: 14.

К ВОПРОСУ ИСТОРИИ МЕДРЕСЕ БИБИХАНЫМ

Вафаева Джамиля Бакиевна

Самаркандского государственного университета им. Шарофа Рашидова

Заведующий кафедрой Истории Узбекистана

кандидат философских наук, профессор

E-mail: vdjama@rambler.ru

В облике городов Центральной Азии особое место занимали здания культовой архитектуры. Большинство уникальных построек, где воплощены лучшие находки народных зодчих – это мечети, медресе и мавзолеи. Особой

славой отличаются архитектурные постройки эпохи Амира Тимура. Академик А.Ю.Якубовский, основательно исследовавший историю эпохи Амира Тимура, подчеркивал значение «гигантской строительной работы», которая в совокупности привела не только к подъёму архитектурного творчества, но и послужила основой появления качественно нового направления в архитектуре Центральной Азии, далеко распространяя славу и влияние «знаменитой тимуровской архитектуры», которые призывно произнесены с высоких минаретов Масжиди Джами (ныне известная под названием мечеть Биби ханым) Амира Тимура в Самарканде: «Поистине, дела наши указывают на нас». [1]

Об истории этого памятника и рядом построенного медресе, пойдёт речь в нашем докладе. Соборная пятничная мечеть Масжиди Джами (ныне называемая мечеть Бибиханум) города Самарканда была начата в 1399 году, после возвращения Тимура из индийского похода. Амир Тимур утвердил проект и торжественно заложил первый камень основания мечети. Об этом придворный историк Гиясиддин Али писал: «...знаменитые мастера и строители –архитекторы составили план этого величественного здания и в самый счастливый час заложили (его) основание, употребив на его фундамент и пилоны камень». [2]

Напротив, главного портала мечети тогда же было построено другое грандиозное сооружение, известное под названием медресе Бибиханым, от которого ныне сохранились лишь несколько рядов кладки фундамента, выявленные во время раскопок. У городских ворот Аханин два противоположных здания-мечеть и медресе организовали значительный ансамбль типа кош. [3]

Возглавить всю работу по строительству мечети Тимур проучил своему помощнику и руководителю одного из диванов Мухаммаду Джалду (по ибн Арабшаху) и Ходжи Махмуд Довуду (по Шарафиддину Язди). [4]

Возвращаясь после семилетнего похода в Малую Азию, победоносный Амир Тимур торопится увидеть воочию архитектурное чудо, каковым было задумано Масжиди Джами. И здесь произошло неожиданное: гневу Тимура не было предела. Несмотря на все старания, на главного зодчего обрушилась ярость «заказчика» и его тут же наказали –привязав к хвосту коня, прогнали по каменному двору мечети. В чём главная причина такого наказания?

Очевидец событий Ибн Арабшах указывает следующую причину: в отсутствие Тимура его жена Сараймулханым повелела построить медресе напротив мечети. «Меморы и люди хандасы сочли необходимым поставить портал медресе напротив (мукобил) здания (мечети), застраиваемой согласно приказу Тимура». [5]

Примерно то же самое повторяет Шарафиддин Язди: «Медресе Сараймулханым было построено напротив (мечети) Джами». Со слов Ибн Арабшаха и Шарфитдина Язди можно заключить, что идея сооружения медресе появилась в процессе строительства соборной мечети, начатой согласно утвержденному Тимуром проекту. Однако имеется и другое сообщение Ибн Арабшаха о том, что сам Тимур часто посещал строительную площадку и большую часть времени проводил в медресе Ханым и ханаке Туманага, находившейся поблизости. Следовательно, до отъезда Тимура в очередной поход медресе Ханым и ханак Туманага функционировали и даже стали место посещения и отдыха самого правителя. [6]

Так в чём же загадка истории? Учёными были высказаны различные мнения. Археологические раскопки на месте предполагаемого медресе, произведенные в конце 80-х годов XX века, позволили решить важный узел вопросов: действительно напротив портала мечети обнаружены остатки портала медресе Ханым. Однако противостояние двух зданий оказалось необычным, что нарушало гармонию застройки: портал медресе оказывается расположен не параллельно к portalу мечети, а имеет явно

видимый перекося. И это обстоятельство, по-видимому, стало основной причиной, вызвавшей гнев правителя. [7]

Теперь внимательно анализируем сведения очевидца событий. Клавихо пишет: “Мечеть, которую сеньор приказал построить в честь матери своей жены Каньо (Ханым), была почитаема в городе. Когда она была закончена, сеньор остался недоволен передней стенкой (портала), которая была (слишком) низка, и приказал сломать её. Перед ней выкопали две ямы, чтобы ерез них разобрать фундамент. И над постройкой работали день и ночь. Это строительство и (сооружение) улицы приостановили (только) из-за того, что пошёл снег”. [8]

Шарафиддин Язди более точно указывает: “Даргах мечети, который был воздвигнут в его отсутствие, для взора его достоинства показался малым и низким. Последовало высочайшее распоряжение разрушить даргах, заложить и устроить его обширнее и выше”. Слово “даргах” В.Л.Вяткиным было переведено как “портал”, что и послужило основанием для последующих заблуждений. Под словом “портал” примерительно к местной архитектуре принято понимать “пештак”, означающий значительную архитектурную форму свода с навешием и боковыми устоями, на самом деле “даргах” не портал, а всего-навсего “место двери”. Такое значение в контексте указывает на “преддверье” (Клавихо называет его “портада”), которое подлежало разборке и перестройке, чтобы заново расширить проход и увеличить высоту. При изучении остатков входной части внутри пештака мечети Джамии были обнаружены следы существенных изменений и переделок в архитектурном оформлении торжественного проёма и его обрамления.

Здание медресе Ханым почти не упоминается при темуридах. Захириддин Бабур характеризует мечеть Тимура как “очень высокое здание”, при этом надписи на портале настолько крупные, что их “можно прочесть на расстоянии одного куруха” (то есть около 2-3 км), а

медресе почему –то не упоминается. Малихо Самарканди (конец XVIII века) писал: «Одним из поступков Абдулахана (Шайбанида) в Самарканде было то, что он так разрушил медресе Ханым, находившееся против соборной мечети, построенной Амиром Тимуром Кураганом, что от него, кроме мовзолея Ханым, ничего не осталось». [9]

Другой очевидец событий, историк Хафиз Обру, долгие годы служивший при дворе Тимура, более конкретно указывает на другой объект, которым также был недоволен правитель, и за «небрежность в постройке максуры, соборной мечети» был наказан мубашир-меъмор (главный архитектор). Под словом «максура», здесь подразумевается главное здание комплекса –мечеть, где размещены мехраб (алтарь) и минбар (кафедра). [10]

Отметим существенные выводы:

Существующее до сегодняшнего дня название «мадраса Ханум» относится к зданию, основательно разрушенному еще при Тимуре (портальная часть) и Абдуллахане II (остальные строения). Поэтому нынешнее название «мечеть Биби ханым» является ошибочным. Следует называть здание мечетью Тимура или «мечетью Джами». Версия о существовании напротив комплекса Тимура огромного здания медресе отвечает исторической действительности. При Тимуре в некоторых медресе не только готовили кадры образованного духовенства, но и воспитывали юношей из аристократических семей, готовившихся к государственной карьере. В правлении Тимура это медресе пользовалось особой славой. В нем обучались более 1000 молодых людей. Медресе не уступало мечети своим великолепием. Современники отмечали необычайную роскошь и колоссальные масштабы здания. По свидетельству одного из них портал медресе даже превосходил размерами громадный портал мечети Биби-Ханым, что вызвало чрезвычайный гнев Тимура, который нигде и ни в чём не терпел соперничества.

Еще один важный вывод: несмотря на традиционное неравенство между мужчинами и женщинами в средневековье, женщины могли позволить строить здания (Биби-Ханым построила медресе в честь своей матери) при этом не просто культурный объект, а учебное заведение, где обучались молодые люди. Эпоха второго Ренессанса создавала условия для просвещения населения, пусть даже высшего круга. И женщины в этом процессе принимали участие.

Список использованной литературы

1. Захидов С.П. Архитектурное созвездие эпохи Темура. – Ташкент: «Шарк» 1996. – С.: 57.
2. Giyasaddin Ali. Diary of Timur's campaign in India. <https://www.vostlit.info/Texts/rus6/Gijasaddin/pred.phtml?id=341> – P.: 189-190.
3. Ахмедов Б.А. Источники истории Узбекистана. – Ташкент: 1999. – С.: 165-166.
4. Захидов С.П. Архитектурное созвездие эпохи Темура. – Ташкент: «Шарк» 1996. – С.: 57.
5. Ибн Арабшах. Чудеса судьбы в истории Тимура. Книга I и II. – Ташкент: 1992. – С.: 314.
6. Захидов С.П. Архитектурное созвездие эпохи Темура. – Ташкент: «Шарк» 1996. – С.: 58.
7. Захидов С.П. Архитектурное созвездие эпохи Темура. – Ташкент: «Шарк» 1996. – С.: 59.
8. Ryu Gonzales de Clavijo. The life and deeds of the great Tamerlane. https://www.vostlit.info/Texts/rus8/Klavicho_2/text1.phtml?id=11511 – P.: 135-136.
9. Захидов С.П. Архитектурное созвездие эпохи Темура. – Ташкент: «Шарк» 1996. – С.: 58.
10. Захидов С.П. Архитектурное созвездие эпохи Темура. – Ташкент: «Шарк» 1996. – С.: 59.

**TEMURIYLAR DAVRIDA XUROSON XONAQOHLARINING O‘QUV
MUASSASASI SIFATIDAGI AHAMIYATI**

Maxmudov Toxir Isayevich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: toxirmaxmudov2306@gmail.com

Movarounnahr va Xurosonda xonaqohlarning ta’lim tizimiga qo‘shgan hissasi nihoyatda kattadir. Temuriylardan ilgari va ularning davrida madrasalar bilan yonma-yon masjid va xonaqohlar qurilgan. Sho‘rolar mafkurasiga ko‘ra xonaqohlar ko‘pincha ilmiy asarlarda faqat darvish va qalandarlar, shayx va zohidlar zikr tutadigan maskan sifatida baholanib kelingan. “O‘zbek sovet ensiklopediyasi” davomida bu haqda quyidagicha izoh berilgan: “Xonaqoh – shayx va darvishlar zikr-u samo qiladigan xona, masjid. Darvishlar, ziyoratchilar uchun tunash joyi sifatida masjid, maqbaralarning bir qismi tarzida qurilgan. Darvishlar uyushmalarining markazi sifatida qurilgan yirik xonaqohlarning katta zallari, ularning atrofida ziyoratchilar uchun hujralar bo‘lgan”. [1]

Xonaqoh so‘zi forsa bo‘lib, “xona-uy” ma’nosini anglatadi. Dastlab taqvodor sufiylar va darvishlar yashaydigan boshpanalar xonaqoh deb atalgan. Xonaqohlar O‘rta Osiyo va Xurosonda IX asrdan qurila boshlangan. Xonaqohlar me’moriy qiyofasi va ijtimoiy vazifalarining rivojlanish cho‘qqilari asosan Temuriylar (XIV-XV asrlar) va Shayboniylar (XVI asr) davriga to‘g‘ri keladi. Temuriylar va keyinchalik Shayboniylar ham tasavvuf (sufiylik) jamoasi faoliyatining nazoratini butkul o‘z qo‘llariga oladilar va o‘zlari ham tasavvuf ahliga xayrixoh holda yangi xonaqohlar qurgan. [2]

Xonaqohlar ham madrasalar vazifasini bajargan. Ularda talabalar uchun bir necha hujralari, darsxonalari, kutubxona, mudarris va voiz uchun minbari bo‘lgan, unda turib talabalarga dars berilganlar. Yig‘in, munozara o‘tkazish uchun katta xona ajratilgan. Mirxondning nabirasi G‘iyosiddin Xondamir o‘zining “Xulosat al-axbor” asarida Alisher Navoiy qurdirgan Ixlosiya madrasasida va Xalosiya

xonaqohida dars bergan yigirmadan ortiq atoqli mudarrislarini nomini sanab o‘tadi va ular haqida qisqa ma’lumot keltiradi.

Jumladan, Mavlono Burhoniddin Atoulloh Nishopuriy va Amir Ibrohim Mashhadiy haqida quyidagi ma’lumot keltiradi: “Xulqining yaxshiligi, fahm-u farosatining tezligi bilan zamondoshlarida mumtozdir. Birmuncha vaqt xoqoni Said hazratlari Shohruxning madrasasida hamda Sulton hazratlarining yaqin do‘stining “Xalosiya” xonaqohida dars berish bilan mashg‘ul bo‘ldi. [3] Amir Ibrohim Mashhadiy “Sultoniya” madrasasida hamda fazilatli “Xalosiya” xonaqohida dars berish bilan mashg‘ul, talabalarning ko‘plari ul janobga mulozim bo‘lib, ko‘p bahra olmoqdalar. [4]

Temuriylar davrida bunyod etilgan Hirot me’moriy yodgorliklaridan biri Dor al-Xuffoz hisoblanadi. Ushbu xonaqoh nomi “Qur’on qiroatlari uyi” degan ma’noni anglatadi. [5] Dor al-Xuffoz masjidi Jome’ning shimoliy tomonida joylashgan bo‘lib, Sulton Husayn Boyqaro davrida qurilgan.

Agar madrasalarda dunyoviy, huquqiy va diniy ilmlar o‘rganilgan bo‘lsa, ular qoshida qurilgan xonaqohlarda (Samarqanddagi Muhammad Sulton, Mirzo Ulug‘bek, Hirotidagi Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy xonaqohlarida) talabalarning tasavvuf bobidagi mushohada va munozaralari, ulug‘ mashoyixlar, pir-u ustozlari bilan ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlari, ilmiy suhbatlari va bahslari o‘tkazilib turilgan. Bunday jonli suhbatlarga tasavvufchilarga e’tiqod qilgan hukmdorlar, ulug‘ shoirlar, nufuzli mehmonlar va sayyohlar ham tashrif buyurib turgan. Bunday xonaqohlarni boshqarish va ish yuritish uchun ularni ta’sis etgan homiylar o‘z davrining eng iqtidorli mudarrislarni tayinlagan. Ular esa xonaqohlarni boshqarishdan tashqari tasavvuf ilmiga intilganlarga dars berish bilan ham mashg‘ul bo‘ladi.

Xonaqohlar faoliyatini moddiy ta’minlashga juda katta vaqflar berilgan. Jumladan, XV asr boshlarida Samarqandda Mirzo Ulug‘bek barpo etgan Registon ansamblidagi Ulug‘bek xonaqosi, shahardagi Abullays xonaqosi, Hirotidagi Shohrux Mirzo, Sulton Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy va boshqa xonaqohlar

tasavvuf ta'lim maskanlari hisoblangan. Tasavvuf ilmining aksariyat akobirlari xonaqohlarda yashab avom xalqqa tasavvuf ziyosini tarqatganlar, sufiylik ilmi va ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullangan.

Xonaqohlarda istiqomat qiluvchilar soni 100 kishi va undan ham ko'p bo'lgan. Xonaqoh – biror darveshlar jamiyatining turadigan joyi. Undagi masjidga shu jamiyatning shayxi yoki piri imomlik qiladi. Xonaqohda darveshlar yotoqxonasi va kelib ketuvchi yoki safardagi darveshlar uchun xonalar ham bo'lgan. [6]

Hirotda va uning atrofidagi shaharlarda xonaqohlar nihoyatda ko'p edi. Ular nafaqat darveshlar yotoqxonasi va kelib ketuvchi yoki safardagi darveshlar uchun, balki, ko'pincha, ilohiyotdan dars beriladigan o'quv yurtidek xizmat ham qilgan. Xonaqohlar bir tomondan xalqning kambag'al qismiga katta ahamiyat berilganligi haqida dalolat beradi (oziq-ovqat, kiyim tarqatishi), ikkinchi tomondan xalqning orasida XV asrda din sohasida bilim tarqatish borasida ba'zi holatlarda ta'lim maskanlari sifatida xizmat qilgan.

Xonaqohlarning ba'zilar IX-X asrlarda qurilgan, lekin ular Temuriylar davrida ham o'z faoliyatini davom ettirgan. Ko'pchiligi esa Temuriylar davrida qurilgan va Alisher Navoiyning sa'yi-harakatlari bilan faoliyat ko'rsatib turgan. Hirot tevaragida va Xurosonning boshqa shaharlarida joylashgan xonaqohlar ayniqsa shuhrat topgan. Feruzshoh xonaqohi, Xalosiya xonaqohi, Shohruxiya xonaqohi va boshqalar shular jumlasidandir.

Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, xonaqohlarda o'sha davrning eng yetuk mudarrislari dars bergan, jumladan, Mavlono Shamsiddin Muxammad Tabadgoniy mozorining janubiy tomonida Alisher Navoiy qurdirgan xonaqohda mudarris Sulton Ag'oniyni, Xo'ja Abdulloh Ansoriy mozorida joylashgan xonaqohda esa Alisher Navoiy Mavlono Shamsiddin Muhammadni mudarris etib tayinlagan. Xonaqohlarda mashhur tarixchilar ba'zi lavozimlarda bo'lib turib, ijod ham qilgan. Jumladan, Abdurazzoq Samarqandiy o'zining “Matlai sa'dayn va matlai bahrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish

joyi”) asarini Shohruxiya xonaqohida shayxlik lavozimida bo‘lgan yillari (1467-1470 yy.) yaratgan. [7]

Mirxond Ihlosiya xonaqohida yashab o‘zining yetti jildlik “Ravzat as-safo fi sirat al-anbiyo va-l-muluk” (“Avliyolar, podshohlar va xalifalar hayoti haqida musaffolik bog‘i”) nomli asarini yaratgan. [8] Temuriylar davrida Xurosonda faoliyat ko‘rsatgan xonaqohlarni manbalar asosida yoritishga harakat qilindi.¹

Xoja Abdulloh Ansoriy mozoridagi xonaqoh [9] – chiroyli bino, ajoyib tabiat yonida tengi yo‘q tiniq va toza suv oqadi. Alisher Navoiy Ixlosiya madrasasida ta’lim olgan va o‘zining zamondoshlaridan ko‘p holatlarda o‘tib ketgan Mavlono Shamsiddin Muhammadni 1499-yil ushbu xonaqohga mudarris qilib tayinlagan. Bundan keyin u xonaqohda “Qur’on” o‘qishga yoqimli ovozga ega bir necha hofizlarni, shuningdek, muazzinlarni tayinladi. [10]

Amir Aloiddin Aleka Ko‘kaltosh xonaqohi –Hirotning ajoyib qurilishlaridan biri. Aleka Ko‘kaltosh 811/1408-1409-yillarda Hirotni boshqargan, adolatli amir bo‘lgan (vaf.1440-y.). Ushbu xonaqoh va Hirotni Jome’ masjidining xatibi va imomi, obro‘li shaxs –Nuriddin Nurulloh al-Xorazmiy (vaf. 1438-y.) mudarrislik qilgan. 1500-1501-yillarda esa unda ikki mudarris dars bergan. [11]

Hirotdagi Choxarsuk mavzesi yaqinidagi Dor as-saodat nomli xonaqohida har kuni uch-to‘rt ming kambag‘al va bemorlarga ovqat taqsimlangan. Ko‘pchilik yig‘ilgan kuni haftada bir marta –juma kuni ertalab shu yerda, seshanba kuni yesa Sultonning xonaqohida Mavlono Kamoliddin Voiz Koshifiy (vaf. 910/1505-y.) ma’ruza o‘qigan va foydali maslahatlar bergan. U ayniqsa, hadislarning mazmunini nuqsonsiz va sidqidildan tushuntirar edi. Ilohiyotdagi bilimlariga Xurosonda XV asrning oxiri -XVI asr boshlarida unga tengi yo‘q edi. [12] Ushbu xonaqohida manbalarda ismi keltirilmagan yana bitta mudarris dars bergan. Undan ko‘pchilik ta’lim olgan. [13] Jamoatxona xonaqohi. Xondamirning “Xulosat al-axbor” (“Ma’lumotlarning qaymog‘i”) asarida Mavlono Shamsiddin Muhammad

¹ Xonaqohlar deyarli bir vaqtda faoliyat ko‘rsatganligini inobatga olib, alohida tartibda joylashtirdik.

Tabodgoniy (vaf. 1486-y.) mozorining janubiy tomonida qurilgan xonaqoh haqida ma’lumot berilgan. Unda Sulton Afgoniy mudarrislik qilgan. [14]

Olimlarning fikricha, ehtimol, bu Alisher Navoiyning amri bo’yicha qurilgan Hirotidagi xiyobonda joylashgan Mavlono Shamsiddin Muhammadning qabri yonidagi jamoatxonaning xonaqohi bo’lsa kerak. [15] Alisher Navoiyning Ixlosiya [Xalosiya] xonaqohi. U Ixlosiya madrasasiga yaqin joylashgan edi. Ixlosiya madrasasida va Ixlosiya xonaqohida jami 11 kishi mudarrislik qilgan. [16] Shular qatorida uzoq vaqt Jaloliddin Otaulloh [17], Burhoniddin Otaulloh ar-Roziy (vaf. 1496-y.) va Amir Ibrohim Mashhadiylar mudarrislik qilganlar. Amir Nizomiddin Mashhadiy ushbu xonaqohda ta’lim olgan. [18] Hirot shimolidagi qal’aning janub etagida Shohrux qurdirgan (Shohruxiya) xonaqohi bo’lgan. Unga shayxlik mansabi olam mashoyixlarning rahbari Xoja Aloiddin Ali Chigitiyga topshirilgan edi. [19]

Shohrux Mirzo xonaqohga unumli yerlardan vaqflar tayinlab mudarrislar, imom, muazzin va boshqa xizmatchilarni moddiy jihatdan yaxshi ta’minlagan. Mavlono Jaloliddin Is’hoq Samarqandiyning o’g’li Mavlono Kamoliddin Abdurazzoq (1413-y. Hirotida tug’ilgan) o’z davrining mashhur adabiyotchi va tarixshunosi bo’lgan. Abdurazzoq Samarqandiy o’zining Temur va Temuriylar (Shohrux, Mirzo Ulug‘bek va Boysung‘urlar) tarixiga bag‘ishlab yozilgan mashhur “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilish joyi”) asarini ushbu Shohruxiya xonaqohida 1467-1470-yillar orasida yozib tugatgan edi. [20] Shohrux hukmronligi davrida u 1463-yilda Mirzo Shohruxning xonaqohida shayx lavozimiga tayinlangan va shu lavozimda umrining oxirigacha ishlagan. U 1483 vafot etgan. [21]

Amir Xovand Muhammad (Mirxond) – Xondamirning bobosi. Alisher Navoiy unga ko‘p iltifotlar qilib, o‘z kutubxonasi bilan foydalanishga ruxsat bergan hamda Ixlosiya xonaqohida unga xona ajratib berib, u yerda yashab yetti jilddan iborat “Ravzat as-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk” (“Avliyolar, podshohlar va xalifalar hayoti haqida musaffolik bog‘i”) nomli asarni yozib tahrir

qilishni buyurgan. Amir Xovand Muhammad 2 zulqa’da 903/22-iyun 1498-yil² Gozurgoh nomli joyda vafot etgan. [22]

Ixlosiya madrasasi va xonaqohida sayyidlar, ilohiyot mutaxassislari va olimlardan (XVI asr boshigacha) jami 11 kishi mudarrislik qilgan. Ushbu xonaqohda ta’lim olib, keyinchalik madrasalarda dars berganlarning ichida Mavlono Shamsalloh XV asr oxirlarida XVI asr boshida Nizomiddin Shayx Ali Suhayliy madrasasida dars bergan. [23]

Yuqorida xonaqohlar haqida keltirilgan qisqa ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, xonaqohlar ham ta’lim rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan. Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davri ta’lim tizimida xonaqohlar madrasa o‘rnida xizmat qilgan. Madrasa, xonaqohlarda xizmat qilgan mudarrislar doim kutubxonalardan foydalanishgan, ta’lim tizimining rivojida ularning xizmati nihoyatda katta bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbek sovet ensiklopediyasi. 12-jild. – B.: 356.
2. Xonaqoh haqida qarang: Uralov A.S., Saidov I.M. O‘rta Osiyo me’moriy yodgorliklari – vatanimiz tarixini o‘rganishning moddiy manbalari. – B.: 22-26.
3. Xondamir. Makorim al-axloq. Kembrij nashri. – B.:132, 142; O‘sha muallif. Xulosat al-axbor. Qo‘l. inv. № 2209. 484-488a-varaqlar.
4. Xondamir. Xulosat al-axbor. Qo‘l. inv. № 2209. 482a-varaq.
5. Mankovskaya L.Yu. Qo‘sh madrasa. – B.: 201.
6. Бартольд В.В. Настало время Улугбека. Волосы.Т.И. Ч. 2. С.423-454; Айни С. Воспоминания. - С.: 1071.
7. O‘rinboyev A. Kirish so‘z, - B.: 18 (q: Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn. II jild, I qism).
8. Юсупова Д. Ю. Жизнь и труды Хондамира. - С.: 95.
9. Abdulloh Ansoriyning mozorini qurilishi 829-yil muharram oyida (1425-yil, noyabr-dekabr) boshlanib, 830/1426-yil tugatilgan (Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn. II jild, II qism. – B.: 353; Yana q.: Yusupova D. Jizn i trudy Xondamira. – B.: 183-184).

² Tarixiy adabiyotlarda deyarli hammasida: 2-ramazon hijriy 903-yil.

10. Xondamir. Xulosat al-axbor. Qo‘l., inv. № 2209. 476ab-varaq; O‘sha muallif. Makorim al-ahloq. Kembrij nashri. 155a-varaq; Kobul nashri. – B.: 73.
11. Fasix Xavafi. Mujmal-i Fasixi. – B.: 209-218; Xondamir. Xulosat al-axbor. Qo‘l., inv. № 2209. 476a-varaq, 487b-varaq.
12. Xondamir. Ma’osir al-muluk. Tehron nashri. B.174; O‘sha muallif. Xulosat al-axbor. Qo‘l., inv. № 2209. 477b-varaq.
13. Xondamir. Ma’osir al-muluk. Tehron nashri. – B.: 174.
14. Xondamir. Makorim al-ahloq. Kembrij nashri. 145b-varaq, 158a-varaq.
15. Урунбаев А. Введение к «Письмо-автограф Абдурахмана Джамии». - С.: 21.
16. Xondamir. Ma’osir al-muluk. Tehron nashri. – B.: 175.
17. Xondamir. Xulosat al-axbor. Qo‘l., inv. № 2209. 484a-varaq.
18. Xondamir. Makorim al-ahloq. Kembrij nashri. V.484a; 484a-varaq.
19. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn. II jild, 1-qism. – B.: 155.
20. O‘rinboyev A. Kirish so‘z. B.18 (q.: Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn. II jild, 1-qism).
21. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn. II jild, 1-qism. – B.: 18.
22. Юсупова Д. Ю. Жизнь и труды Хондамира. - С.: 96.
23. Xondamir. Ma’osir al-muluk. Tehron nashri. - B.: 175.

TEMURIYLAR DAVRI MADRASALARI FAOLIYATIGA BIR NAZAR

G‘afforov Shokir Safarovich

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrası professori, tarix fanlari doktori*

Shotemirova Aziza

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston tarixi
kafedrası mustaqil tadqiqotchisi*

Ba’zi madaniyat va ta’lim tarixiga oid asarlarda, islom o‘lkalarida madrasalarning maydonga kelish tarixini X yuz yillikka tegishli deb, birinchi madrasalar Nishopurda bunyod etilgan, tarzida mulohaza yuritadi. Ammo tarixiy manbalarning, jumladan Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” asarida eslatilishicha, X yuz yillikning avvalidayoq Buxoroda madrasalar bo‘lib, ulardan biri madrasa-i Farjak 937-yilda sodir bo‘lgan yong‘in vaqtida ancha zarar ko‘rgan ekan. [1]

Demak, ta'lim tizimining muhim bosqichlaridan biri bo'lgan madrasalarning diyorimizdagi ikki muazzam shaharda – Samarqand-u Buxoroda, ehtimol, islom dunyosida birinchilardan bo'lib bunyod etilishi VIII yuz yillikning oxiri va IX yuz yillikning boshlariga to'g'ri keladi. O'lkamizda qadimda ta'lim-tarbiya tizimi uch bosqich hamda uning uch muassasasi-ibtidoiy maktab, o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumot beruvchi madrasa va madrasai oliyalardan iborat bo'lgan. O'rta maxsus ta'lim madrasalari "madrasatun harbiya" (harbiy bilim yurti), "madrasatun muallimin" (pedagogika instituti) shaklida, yuqori bosqich ilm maskani-universitetlar esa "madrasai ulum" ("ilmlar madrasasi"-dorilfunun) nomi bilan mavjud bo'lgandir. [2]

Bularning hammasi Vatanimiz hamda boshqa Turkiston xalqlari o'tmishidagi ta'lim tizimi mukammal va yetuk bo'lganidan va u o'sha davr hayoti talabiga to'la javob berganidan darak beradi. Vatanimiz ta'lim tizimi tarixining eng porloq va takomilga yetgan bosqichi, shubhasiz buyuk sohibqiron Amir Temur va temuriylar davriga to'g'ri keladi. XIV yuz yillikning oxirida Movarounnahrda Amir Temurning saltanati o'rnatilgach, mamlakatni birlashtirish va turli yurishlar uyushtirish bilan bir qatorda poytaxt sifatida belgilangan Samarqandni obod qilish maqsadida unga turli xildagi qurilishlarni amalga oshirish hamda ta'lim tizimini yaxshilash, unga daxldor bo'lgan bilim o'choqlarini qurish sohasida ham keng miqyosdagi faoliyat boshlab yuborildi.

Buning natijasida Samarqand atrofida Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"sida tasvirlagan 12 ta bog' va qasrlar, shahar Arki, jome' masjidi, hazrat Muhammad payg'ambarning amakilari Abbosning o'g'li Qusam – Qusam ibn Abbos maqbarasi (hozirda bu Shohi Zinda nomi bilan mashhur) va uning atrofida qator maqbaralar, Samarqand tosh qo'rg'oni — Chaqar mavzeida Oqsaroy kabilar Amir Temurning bevosita topshirig'i bilan bino qilindi. Xuddi shu davrda faoliyatni Amir Temurning oila a'zolari — xotini, nabiralari hamda amiru amaldorlari ham boshlab yuborib, ularning ko'pchiligi madrasa va savdo rastalarini (timlarni) qurdirishga kirishib ketdilar.

Natijada Amir Temurning xotinlari — malikalardan Saroymulixonim (madrasa), Tuman og'o (xonaqoh va qulohfurushon timi), amirlaridan Idigu Temur, Feruzshoh (madrasa), nabirasi Muhammad Sulton (madrasa), amaldorlaridan Samarqand sadri mavlono Qutbiddin (madrasa) va boshqalar tomonidan qator inshootlar, xususan madrasalar bunyod etildi.

Bu madrasalarning qurilishi bejiz emasdi. Chunki Amir Temur saltanatiga asos solinib, u kengaytirilar ekan, uni yanada mustahkamlash uchun zarur bo'lgan amaldorlar, ziyolilarni yetishtirishga bo'lgan ehtiyoji ham paydo bo'ladi. Ikkinchidan esa, Amir Temur muhtasham imoratlarni, bog'larni barpo etish bilan saltanatning ulug'vorligi, kuch-qudrati va iqtidorini namoyish etishni ham nazarda tutgan edi. Bu madrasalarni amalga oshirish uchun esa u qaysi mamlakat va o'lkada bo'lmasin u yerlardagi mashhur olim, tabib, hunarmand va iqtidori baland mutaxassislarni o'z poytaxti Samarqandga olib kelardi¹. Shuning uchun Samarqandda Movarounnahr, Xuroson, Rum, Eron, Shom, Hindistonning turli shahar va kentlaridan bo'lgan mutaxassislar to'planib qolgan edilar.

Jumladan, olimlardan Sa'diddin Mas'ud Taftazoniy, Sayyid Sharif Jurjoniyy, Salohiddin Muso Qozizoda-i Rumiyy, Abu Sayid ibn Burhoniddin Sog'arjiyy, mavlono Kamoliddin Keshiy; hunarmandlardan me'mor va muhandislar Faxri Ali, Olim Nasafiy, Zayniddiy Shams-i Tabrez, Muhammad ibn Mahmud Isfahoniyy; naqqosh va xattotlar Yusuf Sheroziyy, Muhammad bin Hoji Bandgir al-Tug'ro-i Tabreziyy va boshqalar. Bu mutaxassislardan unumli foydalanish uchun esa barcha sohalarda, jumladan, ta'lim tizimini yanada jonlashtirish, yangi-yangi asarlar yozilib, Amir Temur va temuriyzodalar shuhratini baland ko'tarish maqsadida madrasalarning qurilishiga ham katta e'tibor qaratilgan edi.

Sohibqiron davrida qurilgan madrasalarning ayrimlari 20-25 tolibi ilmga mo'ljallangan bo'lsa (Muhammad Sulton madrasasi), ba'zilar 100 tagacha tolibi

¹ Shahzoda Xalil Sulton Buyuk Sohobqironning vafotidan keyin Samarqand taxtiga o'tirgach, uning ilk farmonlaridan biri Turkiston shaharlariga joylashtirilgan olim, usta va hunarmandlarga o'z yurtlariga qaytishga javob berish haqida edi. Shukurki, ular o'z vatanlariga qaytganidan keyin ham mahalliy olim va hunarmandlar milliy madaniyatimiz va jahon sivilizatsiyasining betakror asarlarini yaratishni davom ettirdilar – Mualliflar jamoasi.

ilmga mo'ljallanganlar (Idigu Temur, Qutbiddin Sadr, Saroymulkxonim madrasalari). Madrasalar ma'lum darajada ixtisoslashtirilgan ko'rinadi, jumladan, boshqaruv kadrlarni tayyorlash (Mavlono Qutbiddin sadr madrasasi), umumiy mutaxassislar (ziyoli, imom, olim, maktab o'qituvchisi) tayyorlab (Idigu Temur, Saroymulkxonim madrasalari) berganlar.

Madrasalarda darslar o'qitiladigan ilmlar xususiyatiga ko'ra uch tilda – arab, fors va turkiy (o'zbek) tillarida olib borilgan. Har bir madrasada uning vaqfnomasidan belgilangan daromadlarga hamda ixtisosiga qarab tolibi ilmlar soni –miqdori belgilangan. Shunga muvofiq tarzda ularda-sadr-mutavvali, mudarris, mu'id, hofiz, imom, muqri, noqit, mujovir, farrosh, musdir va boshqalar soni ham belgilangan. Sadr-mutavvaliga mudarrislar va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, madrasani ta'mirlab turish vazifalari ham qaratilgan. [3]

Turkiston xalqlari ta'lim tizimidagi "oltin asr", shubhasiz, Mirzo Ulug'bek (1409-1449) davridir. Ulug' olim va davlat arbobi, buyuk bobokaloni kabi ilm-fan va ma'rifat homiysi Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda hukmronlik qilgan 40 yil davomida o'lka o'sha davr dunyo sivilizatsiyasining eng peshqadam o'rinlarini egallagan edi. Olim va hukmdorning sa'y-harakatlari tufayli Turkiston butun musulmon Sharqining ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi.

Buyuk jahongir Amir Temur o'z saltanatining madaniy-ma'rifiy va ilmiy qudratini oshirish uchun o'zgalar yurtidan olim-u hunarmandlarni ko'chirtirib keltirgan bo'lsa, Ulug'bek Mirzo davrida Arabu Ajam, Rumu Hindistonning tolibi ilmlari Turkistonga o'z ixtiyorlari bilan yopirilib keldilar. Tarixiy manbalarda Ulug'bek qurdirgan o'nlab madrasa-yu masjid, maqbara-yu xonaqoh, bozor-u hammomlar xususida ko'plab ma'lumotlar keltiriladi, buyuk olim qurdirgan madrasalar esa zamonlar osha bizning kunlarimizgacha yetib kelganki, suhbatning davomi shu xususda bo'ladi.

Mirzo Ulug'bekning Buxorodagi madrasasi 1417-yilda qurilgan bo'lib, uning me'mori Ismoil ibn Tohir ibn Mahmud Isfahoniydir. Madrasa hajmi jihatidan kichik (tarhi 50x40 metr) bo'lib, unda go'zal kirish peshtoqi, hovlida esa ikki qavat

hujralar, masjid, darsxona mavjud. Madrasaning kirish darvozasi o‘ng tabaqasining yuqoridagi peshtoqida mashhur hadis – "Ilm talab qilish (o‘rganish) barcha muslim va musulmalarga farzdir"-go‘zal nasta’liq xati bilan yozib qo‘yilgan. Bunday yozuv — hadisning Amir Temur tomonidan qurdirilgan Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasidagi (Yassi, hozirgi Turkiston shahrida) yozuvlar ichida ham borligi ma’lum.

Shu mazmunga uyg‘un bo‘lgan ikkinchi yozuv darvozaning birinjiy (bronza) halqasida bitilgan qo‘yidagi so‘zlar ham diqqatga sazovordir: “Kitobiy bilimga intiluvchilar uchun Alloh marhamatining eshigi hamisha ochiqdir”. Shuni aytish joizki, Mirzo Ulug‘bekning Buxorodagi madrasasi kirish eshigida ilm, bilimga tashviq va targ‘ib etuvchi bunday yozuvlarning bitilgani Mirzoning ta’lim tizimiga, uning o‘choqlaridan biri bo‘lmish madrasalarga alohida e’tibor qaratganidan dalolat beradi. Madrasa faoliyatiga doir ma’lumotlarning kamligi ko‘p madrasalar ustida aniq so‘z yuritishga imkon bermasa-da, ammo uning umumiy yo‘nalishdagi madrasa ekanligiga shubha qilmasa ham bo‘ladi.

Madrasa hozirgi kunda saqlangan. Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600-yilligi munosabati bilan 1993-1994-yillarda ta’mirlangan. Mirzo Ulug‘bek 1433-yilda shayx Abdulholiq G‘ijduvoni qabrining kun botar tomonida bir qavatli kichik bir madrasa (G‘ijduvon shahrida) qurdirdi.

Madrasa peshtoq, hovlida esa masjid, darsxona va xonaqohdan iborat bo‘lgan. Bu bejiz emas edi. Mirzo Ulug‘bek bu madrasani qurish bilan o‘zining xojagon tariqatining boniysi Abdulholiq G‘ijduvoniya nisbatan bo‘lgan hurmatini izhor etgan edi. Hozirgi kunda bu madrasa – xonaqohning peshtoqi va old qismi saqlanib qolgan. Keyingi yuz yilliklarda yozgi masjid binosi qurilib, unga yopishtirilgan hamda uning yonida kichik minora (Buxorodagi Minorai Kalonning kichik nusxasi) qurilgan.

Mirzo Ulug‘bek Samarqandda to‘plangan ilmiy kuchlar, mohir muhandislar maslahati bilan mamlakatda, jumladan poytaxt Samarqandda ta’lim tizimi va ilmiy tadqiqotlarning samarali tarzda amalga oshirish maqsadida keng ko‘lamli qurilish

ishlarini boshlab yubordi. Shunisi borki, bu ishlarni boshlashdan oldin, ta’lim tizimi va ilmiy tadqiqotlar uchun madrasa va madrasa majmualarining maqsadi, vazifasi, joyi, me’morlari hamda har bir inshootning o’sha davrda qo‘lga kiritilgan tajribalar va nazariy jihatdan asoslangan bo‘lishiga katta e’tibor qaratilgan. Bu ishda esa muhandislar sultoni G‘iyosiddin Koshiy, mashhur me’mor va naqqoshlar Muhammad ibn Mahmud Isfahoniy, Ismoil bin Tohir bin Mahmud Isfahoniy, Yusuf Sheroziy, Muhammad bin Hoji Bandgir va boshqalardan iborat guruh mavlono Salohiddin Muso Qozizoda-i Rumi va Mirzo Ulug‘bekning bevosita rahbarliklarida istiqbolli rejalarni yaratdilar. Ana shu asosda Buxoro (1417-yil) va G‘ijduvonda (1433-yil) madrasalar qurish, Samarqandda esa madrasa majmuasini (kompleksini) yaratish rejasi tasdiqlangan edi.

Abdurazzoq Samarqandiy (1413-1482) o‘zining “Matla’ us-sa’dayn va majma’ ul-bahrayn” asarida shunday yozadi: “(Mirzo Ulug‘bek) Samarqand shahrining ichida, shaharning o‘rtasi va maydonining markazida, Arki Oliyga yaqin joylashgan Sar-i davonik deb atalgan mavzeda bir-biriga ro‘baro‘ madrasa va xonaqoh bino qildi”. Madrasaning qurilishi Buxorodagi madrasa qurilishi bilan bir vaqtda boshlangan bo‘lsa-da, Buxoro madrasasi 1417-yilda qurilib bitkazildi. Samarqanddagi madrasa o‘z ko‘lami va inshootlarining ko‘pligi tufayli 1417-1420-yillarda qurib bitkazilgan.

Madrasa me’moriy jihatdan nihoyatda muhtasham bo‘lib, naqqoshlik xattotlik, toshyo‘narlik, yog‘ochkorlikning eng oliy namunasidir. Madrasa egallagan maydon sathining tarhi 81x56 metr bo‘lib, uning old tomoni – peshtoqi kun chiqarga qaratilgan. Peshtoqda yulduzli osmon – ko‘k tasviri, kirish darvozasi yog‘ochda o‘ymakorlik san’ati asosida tayyorlangan. Old tomoni qismining janub va shimol tomonlarida uch qavatli ikkita guldasta minora, ularning yonlarida ikkita go‘zal gumbaz, madrasaning janubiy va shimoliy yon tomonlarida peshtoqli kirish darvoza va ayvonlar, madrasa hovlisi kun botar tomonining janub va shimolida esa yana ikkita guldasta-minora hamda ikkita gumbaz.

Madrasada ikki qavatda 55 hujra bor. Har bir hujra o'z navbatida, ikki qavatdan iborat. Birinchisida qaznoq, va mutolaa, suhbat o'rni joylashgan bo'lib, ikkinchi qavat – yotoqxonadir. Bir hujra ikki kishining yashashi uchun mo'ljallangan.

Madrasaning to'rt tomonida to'rtta darsxona, kun botar tomonida esa masjid mavjud. Mirzo Ulug'bekning Samarqanddagi madrasa majmuasining boshqa madrasalardan farq qiluvchi xususiyati uning rasadxonani ham o'z tarkibiga olganligida deb uqtirilgan edi. Shu fikrning tasdig'i sifatida XVII yuz yillikda yashab ijod etgan shoir, adabiyotshunos va muarrix mavlono Mutribiy Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asaridagi ajoyib bir ma'lumot matnini keltirish o'rinlidir. Mavlono Mutribiy shunday yozadi: (mazmuni) "Atorud fatinatli rasad bog'lovchilar va Mushtariy xislat Qamar surat axtarshunoslar yetti iqlim va Yer ma'murasi suratini sultoni shahid Ulug'bek Ko'ragonning Samarqand-i firdavsmonanddagi madrasasini devoriga shunday tasvir etganlar (alohida betda yetti iqlim xaritasining bu surati berilgan)". [4][5] Mavlono Mutribiyning yozganlariga ishonmoq kerak. Ulardan ko'rinadiki, madrasada yetti iqlim xaritasi suratining chizilgani rasadxona ishga tushib, yetti iqlim samtlari aniqlangandan so'ng uning xaritasi tuzilgan hamda bu xarita nusxasining surati madrasa devoriga chizilgan. Madrasa davrlar o'tishi bilan bir necha marta ta'mirlanganligi natijasida bu surat yo'qolgan – ko'chirilib ketgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda madrasa devorida chizilgan yetti iqlim xaritasi surati saqlanmagan.

Madrasa ish boshlaganda tolibi ilmlarning bilim saviyasi – darajasi aniqlanib, ular uch guruhga — a'lo (yuqori), avsat (o'rta) va adno (past) ga ajratilgan. Bu o'rinda shuni ham eslatish joizki, tolibi ilmning qaysi guruhga mansubligini bilish maqsadida, ular imtihon qilinganlar. Imtihonni mavlono Qozizoda Rumiy rahbarligidagi maxsus hay'at o'tkazgan. Tolib ilmlarni imtihondan o'tkazish marosimida ba'zan Mirzo Ulug'bek ham qatnashgan.

Madrasada o'quv jarayoni yetti oy davom etgan. U mezon oyining birinchi kuni (21-sentyabr) boshlanib, hamal oyining birinchi kunigacha (21-mart) davom

etgan. Hamal oyidan (21-martdan) mezon oyigacha (21-sentyabr) bo'lgan muddat ta'til hisoblanib, tolibi ilmlar turli ishlar (dehqonchilik, hunarmandchilik, masjid imomligi va boshqalar) bilan shug'ullanganlar.

Madrasada ta'lim olish muddati uch bosqichni – adno, avsat, a'lo nazarda tutgan holda 8 yil belgilanib, shu muddat ichida tolibi ilmga oylik va ulufa belgilangan.

O'zining qobiliyati va iste'dodi bilan alohida ajralib turgan tolibi ilmlarga dars aytishga ijozatnomalar berilib, madrasaning o'zida mudarris sifatida olib qolganlar (masalan, Ali Qushchi, Abdurahmon Jomiyar). Madrasani xatm qilgan tolibi ilmlarga dars o'qishi, ya'ni mudarrislik qilish mumkinligini bildiruvchi ijozatnoma – diplom berilgan. Ijozatnoma – diplomda tolibi ilm tomonidan o'zlashtirgan ilm va o'rgangan asarlar nomi yozilgan. Ana shunday ijozatnoma – diplomlardan biri, ya'ni mirzo Ulug'bek madrasasining bosh mudarrisi Salohiddin Muso Qozizoda Rumiylar tomonidan 1435-yil tarixi bilan berilgan ijozatnoma hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalari fondida saqlanayotir.

Mirzo Ulug'bek vafotidan (1449) so'ng ham madrasa o'z faoliyatini davom ettirdi. Mavlono Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asarida (1487-yil) xabar berishicha, bu davrda (1487-yilda) Mirzo Ulug'bek madrasasida 100 dan ko'proq tolibi ilm tahsilni davom ettirgan. Bu tolibi ilmlarga esa Xoja Fazlulloh Abu Laysiy, Ali Qushchilar bilan birga Mir Alisher Navoiyning "Majolis un-nafoisi"da yozilishicha, mavlono Xoja Xurd ham mudarrislik qilgan.

Jumladan, Mir Alisher Navoiy Samarqandda bo'lib, ta'lim olgan vaqtdan (1465-1469-yillar) Mirzo Ulug'bek madrasasining bu mudarrisidan ham bahramand bo'lgan. Mir Alisher Navoiy yozadi: "Xoja Xurd — Samarqand taxtining yakkalama qozisi va Ulug'bek Mirzo madrasasining mudarrisidir. Bovujudi fazlu kamol aql va donish hullasi bila orastadur va bovujudi zuhdu tavqo husni ahloq zevari bila piyrostadur... Faqir (Mir Alisher Navoiy) ning "Vaqfiya"-sining tas'hehin qilurda "min vaqf-i Alisher" tarix topibdur". [6]

O'zbekiston Respublikasi istiqbolga erishgach (1991-yil), tarix va merosga yangicha munosabat boshlandi. Shuning natijasida Mirzo Ulug'bek madrasasini ham o'z holiga keltirish amalga oshirildi. Hozirgi kunda Mirzo Ulug'bek madrasasi Samarqand Registon maydonining shukuhli va azamat obidasiga aylanib qoldi. Shu o'rinda masalaning yana bir jihatiga to'xtalib o'tish joizdir. O'lkamiz dunyoning eng qadimiy oliy ta'lim tizimiga ega maskanlaridan biri ekan, biz nega bugungi kunda respublikamizdagi mavjud universitet hamda boshqa oliy o'quv yurtlarining boshlang'ichini 1917-yildan keyingi davrga olib borib bog'lashimiz kerak?

Akademik Botirxon Valixo'jayev juda haqli va o'rinli ta'kidlaganidek, jumladan, Samarqand Davlat universiteti Mirzo Ulug'bek madrasasining bevosita vorisi bo'lib, uning tashkil etilish tarixiga (1420-yil) borib tarqaladi. Bu gap barcha shaharlarda (Toshkent, Buxoro, Xiva) mavjud bo'lgan madrasai oliyalar va ularning vorislari bo'lmish universitetlarga ham taalluqlidir. [7]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent: 1966. – B.: 84.
2. Valixo'jayev B.N. Temuriylar qo'rg'on madrasai oliyalar // Ma'rifat. – Toshkent: 2001.
3. Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. / Вакф-наме / - Ташкент: Наука, 1966. – С.: 66.
4. Mutribiy. Tazkirat ush-shuaro. Qo'lyozma. O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi. Inv. 2253. 158 a-v betlar. Bu haqda qarang: Valixo'jayev B.N. Surati haft iqlim dar madrasai Mirzo Ulug'bek // Ovozi Samarqand. – Samarqand: 1992.
5. Valixo'jayev B. Surati haft iqlim dar madrasai Mirzo Ulug'bek // Ovozi Samarqand. – Samarqand: 1992.
6. Alisher Navoiy. Majolis un — nafois. Ilmiy tanqidiy matni. – Toshkent: Fan, 1961. – B.: 182.
7. Valixo'jayev B.N. Temuriylar qurgan madrasai oliyalar // Ma'rifat. – Toshkent: 2001.

KIDAN-QORAXITOYLAR TARIXI MANBASHUNOSLIGI

Berdiyev Rustam Boboxonovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Arxeologiya kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: berdievrustam94@gmail.com

Bugungi O‘zbekiston, Qirg‘iston, Tojikiston, janubiy Qozog‘iston va Xitoyning Shinjon viloyatlarida qariyb 100-yillarcha hukmronlik qilgan Qoraxitoylar sulolasi tarixini o‘rganishning muhimligi shundaki, ya’ni Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davlatchiligi siyosiy tarixini chuqur o‘rganishda ushbu davlat tarixini o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qoraxitoy davlatining parchalanganiga qariyb 800-yil bo‘lishiga qaramay bugungi O‘zbekiston va boshqa qo‘shni davlatlar hududida hozirgacha “qoraxitoy” yoki “xitoy” kabi geografik nomlar saqlanib kelmoqda. O‘zbekistonning ko‘pgina hududlarida Qoraxitoy, Xitoysoy, Qorasiyroq kabi etnotoponimlarning uchrashi bunga misol bo‘la oladi. Masalan: Toshkent viloyati Ohangaron tumanida Qoraxitoy posyolkasi, Samarqand viloyati Jomboy tumanida Qoraxitoy kishlog‘i, Xitoy poyon qishlog‘i, Narpay tumanida Qoraxitoy, Qorasiyroq qishloqlari, Kattaqurg‘on tumanidagi kidanlar yashagan joylardan birining nomi – Kadan ekanligi, shuningdek, Qoraqalpog‘istonning Xo‘jayli tumanida Kadan-Nayman kabilarni keltirish mumkin.

Biroq O‘rta Osiyo hududida istiqomat qilayotgan kidan va qoraxitoylarni alohida ajratib, ular kidanlarning avlodlari ham deb bo‘lmaydi, chunki bugungi kunda ular to‘laligicha o‘zbek xalqi tarkibiga singib, o‘zbeklashib ketishgan. Bugungi O‘zbekiston turli millatlar birligidan tarkib topgan va ulug‘ xalqining tarixi esa shonlidir. Shunday ekan ushbu tadqiqot mavzusining bosh maqsadi Qoraxitoylar davlatining Markaziy Osiyo tarixida va shuningdek o‘zbek davlatchiligida tutgan muhim o‘rnini o‘rganishdan iboratdir. Mavzuning dolzarbligi O‘zbekiston tarixining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotining ba’zi jihatlarini o‘rganishda kidan va qoraxitoylarning ham muhim rolini ko‘rsatib berishdan iboratdir.

Markaziy Osiyoda kidan va qoraxitoylar davri tarixi haqida dastlabki yozma ma'lumotlar turk, xitoy, arab va fors manbalarida keltiriladi. Shuningdek Qoraxitoylarning Markaziy Osiyodagi hukmronligi dastlabki qisqacha ma'lumotlar g'arb va rus olimlarining ilmiy ishlarida XIX asrlarda paydo bo'la boshlaydi.

Masalan 1888-yilda I.V.Bretshnayderni bir necha o'rta asrlarga oid sharq manbalarining ingliz tiliga tarjima qilingan 2 tomli asari nashr etildi. [1]

Bu tadqiqotning 30- "Lyao shi" va 121 - "Szin shi" nomli boblari bevosita Qoraxitoylar sulolasiga bag'ishlanadi. Yaqin kunlargacha bu qoraxitoylar haqidagi g'arb olimlari amalga oshirgan yagona ilmiy ish bo'lib kelgan. [2]

Mixal Biranning 2005-yildagi "The Empire of the Qara Khitai in Eurasian History: Between China and the Islamic World" ("Yevroosiyo tarixida Qorakitaylar imperiyasi: Xitoy va Islom olami o'rtasida"), va 2017-yildagi "Mo'g'ullar va ko'chmanchi o'ziga xoslik: Xitoyda Xitan ishi. Ko'chmanchilar, mo'g'ullar va ularning Yevrosiyo o'tmishdoshlari madaniy o'zgarishlar agentlari sifatida» nomli asarlarini chop etdi. Bu asarlarda Qoraxitoylar davriga oid bir qator masalalar to'plangan. Mixal Biran bunda Qoraxitoy imperiyasining nafaqat siyosiy tarixini, balki ularning Xitoy va Markaziy Osiyodagi tutgan o'rini ham belgilab berishga harakat qilgan. [3]

Keyingi yillarda aniqlangan arxeologik va numizmatik ma'lumotlar va kidan yozuvining deshifrovkasi ushbu sulola tarixining kamchiliklarini to'ldiradi. [4]

Shunday ekan 1124-1218-yillarda Markaziy Osiyoni o'z ta'sir doirasida ushlab turgan Qoraxitoylar hudud uchun kelgindi emas, balki ko'p asrlar davomida ularning alohida guruhlar mahalliy hukmdorlar bilan yaqin siyosiy-madaniy aloqada bo'lib kelganlar. Masalan Turk (552-745) va Uyg'ur (744-840) hoqonligi davrida kidanlar gohida ushbu davlatlar tarkibida bo'lgan va ularga boj to'lab kelgan. Shu tariqa kidanlar o'z davlatlarini tuzish arafasida hududning ichki siyosiy hayotida faol ishtirok etganlar va mahalliy hukmdon tabaqaga yaxshi tanish bo'lganlar. Shuning o'zi ular tuzgan hokimiyatning tezda mahalliy aholi tomonidan qonuniy tan olinishiga sabab bo'lgan.

Qoraxitoylar haqidagi dastlabki rus tilidagi tadqiqot sharqshunos olim V.V.Bartoldga [5] tegishlidir. Bundan tashqari 1938-1940-yillarda A.I.Bernshtam rahbarligidagi ekspeditsiya ilk bor Yettisuv hududida arxeologik qidiruv ishlarini olib bordi. [6] Natijada Qoraxitoylar davlatiga tegishli yangi ma’lumotlar to’plandi. Ammo sovet olimlari ko’proq sharqiy kidanlar haqida ilmiy tadqiqot olib borishgan. Faqat 1989-yilda G.G.Pikovaning “Западные кидани”, [7] (“G’arbiy kidanlar”) nomli asarida nafaqat xitoy, balki musulmon manbalari va so’nggi arxeologik manbalar asosida Qoraxitoylar tarixining ijtimoiy-siyosiy tomonlari ochib berildi.

Bugungi kunda xitoy manbalari asosida ushbu sulola tarixi bilan qirg‘istonlik olim K.D.Djusayeva shug‘ullanmoqda. 2003-yilda K.D.Djusayevaning qirg‘iz tilida “Кыргыздардын жана Кыргызстандын историческая книга” [8] nomli asari chop etildi. To’plamning 30 bobida xitoy tilidan qirg‘iz tiliga tarjima qilingan “Lyao shi” bo’limi qoraxitoylar haqida qiziqarli ma’lumotlarni beradi.

So’nggi yillarda chop etilgan tadqiqotlar orasida qozoq tarixchisi Raximgazy Kabdikarimning 2022-yilda nashr etilgan “Беликие каганаты и империи найманов: взлеты и падения” nomli asarining 35 sahifasida “Кидани-каракидани-каракитай-китай” lar haqida juda qiziqarli ma’lumotlar berilgan. [9]

Boshqirtistonlik tarixchi R.Kuzeev o’zining “Происхождение башкирского народа” nomli asarida “Kidanlar va Naymanlar – bu qon-qarindosh qabilalardir” deb qayd etadi. Qoraxitoylar tarixining ba’zi muammolari o’zbek olimlari K.Shoniyozov [10] va A.Asqarov [11] larning asarlarida ham ko’rsatib o’tilgan.

Karim Shoniyozovning keltirishicha VII asr oxiri – VIII asr o’rtalarida turk xoqonligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotining ayrim tomonlari haqida ma’lumot beruvchi muhim va ishonchli manbalardan biri Sibir yerlaridagi qadimgi turkiy tildagi qabrtosh bitiklari hisoblanadi. Bular: Qul-Tegin, Tunyuquq, Iltaras (Gudulu, Qutluq) va uning xotini Elbilga xotun, Mogilan, Quli-Chur (Magillanning ukasi) va uyg’ur xoni Moyan-Chur sharafiga qo’yilgan qabrtosh bitiklaridir.

Qabrtosh bitiklarida turk xoqonlarining ichki va tashqi kurashlari, Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy voqealar qatori ba'zi quyidagi etnonimlar ham tilga olinadi: o'g'uz, sakkiz-o'g'uz, to'qqiz-o'g'uz, o'n-o'g'uz, kengeres (kangar) qarluq, qipchoq, qirg'iz, az, o'z, tele, kidan, dulu, turkesh, turk va boshqalar. [12] Shunday ekan, qadimgi tosh bitiklar ham o'z navbatida turkiy xalqlarning tili va tarixini o'rganish borasida ham muhim manba hisoblanadi.

Tosh bitiklarida keltirilgan ma'lumotlarni Xitoy manbalari va o'rta asrlarga oid boshqa manbalar bilan taqqoslab o'rganilsa, Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi etnik tarkibiga singib ketgan kidan-qoraxitoylar haqida birmuncha aniqliklar kirgizish mumkin.

Etnograf olim K.Shoniyofovning ta'kidlashicha Chingizxon boshliq mo'ng'ullar Movarounnahrda bostirib kelmasdan oldin, bu hududda qorakidan (qoraxitoy) qabila ittifoqiga mansub ayrim etnik guruhlar yashagan. Qorakidan (qoraxitoy)lar bir necha asrlar davomida mahalliy xalqlar bilan yonma-yon yashab, ular bilan aralashib o'z tillarini deyarli unutib, shu darajada turklashgan edilar, ular XIV asrning o'rtalarida o'z tillarini batamom unutib turkiy tilda so'zlashar edilar. Qorakidanlarning Movarounnahrda ko'chib kelgan guruhlar asosan Zarafshon vodiysida, unga tutash dasht-cho'llarda, qisman Farg'ona vodiysida yashab chorvachilik, qisman dehqonchilik bilan ham shug'ullanganlar. Qorakidanlarning asosiy qismi XIV – XV asrlarda Yettisuvda va Dashtiqipchoqda yashab, chorvachilik bilan shug'ullanar edilar. [13]

Shu paytgacha Qoraxitoylar tarixiga bag'ishlangan ilmiy ishlarning kamsonligiga sabab bu borada xitoy tilidagi “Lyao shi” (XIV) dan boshqa yozma va arxeologik manbalarning yetishmasligida bo'lgan. Shunday qilib yuqorida eslatilgan manbalarni uch guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruhga xitoy manbalari kiradi. Bularga ilk “Vey shu” (“История династии Вэй”, VI в.), “Suy shi” (“История династии Суй”, VII в.), “Szyu Tan shu” (“Старая историческая династия Тан”, X в.), “Sin Tan shu” (“Новая историческая династия Тан”, XI в.), “Sidan go chji” (“История государства

киданей”, XII в.). Bu manbalarni o‘rganishda ularni rus tiliga tarjima qilishda N.Ya.Bichurin, N.V.Kyuner va V.S.Taskinlarning [14] xizmati katta e’tiborga molik.

Kidan va qoraxitoylar davri tarixi haqida arab va fors manbalari ikkinchi guruhni tashkil etadi. Masalan: Ibn al-Asirning “Al-Kamil fi-t-tarix” (XIII), Muxammada an-Nasaviyning “Sirat as-Sulton Djaloliddin Mangburni” (“Sulton Jaloliddin Menkburnining hayoti va faoliyati” (XIII), fors tilidagi Muxammada Ravandining “Raxat as-sudur va ayat as-surur” (“Наслаждение сердца и знаки радости” (XIII)), Abu Umar Minxojiddin Juzjoniyning “Taboqat-i Nosiri” (“Таблицы Насыри”), Juvayniyning “Tarixi-jaxongushay” (XIII), Rashid-ad-dinning “Jomi’-at-tavorix”, (“Собрание летописей” (XIV)), Mirxondning “Ravzat as-safa fi sirat al-anbiya va-l-muluk va-l- xulafa” (XV) kabi asarlari shular jumlasidandir. Ushbu asarlarda Qoraxitoylarning Markaziy Osiyoga yurishi, sharqiy va g‘arbiy Qoraxoniylar davlati, Saljuqiylar davlati bilan olib borgan janglari haqida ma’lumotlar mavjud. Bu manbalar ko‘pincha bir birini takrorlasada, biroq juda qiziq ma’lumotlar ham uchrab turadi. Masalan XII asrda yashagan Marvoziyning “Abvabu fi-s-sini va-t-turki va-l-xindi” nomli asarida bergan ma’lumotiga ko‘ra Kidan imperatori - Maxmud G‘aznaviyga elchilik missiyasini yuborgan. [15]

Tarixchi Alouddin Juvayniyning ma’lumot berishicha: “Qoraxitoylar xoni kidanlar avlodidan bo‘lib, o‘ziga hoqonlarning hoqoni ma’nosini anglatuvchi gurxon unvonini qabul qildi. Turkiy ellar kidan hukmdori bayrog‘i ostida birlasha boshlashdi.” Va shu tariqa Talas va Sirdaryo hududlarida yangi Qoraxitoylar hoqonligi – G‘arbiy Lyao (1125-1211) davlatini tuzib muqim bo‘lishdi.

Uchinchi guruh manbalarga arxeologik va numizmatik materiallar kiradi. Bunga misol qilib 1938-1941-yillarda Qirg‘istonning Chuy vohasida joylashgan kichik va katta Ak-Peshin shahar harobalaridan A.N.Bernshtam boshchiligidan olib borilgan arxeologik ekspeditsiya qoraxitoy madaniyatiga oid fragmentlarni hamda kidan-karakitaylarga tegishli numizmatik ma’lumotlarni topishdi. [16]

Kidanlarning kelib chiqishiga oid turli fikrlar bor. Kidanlar haqida ilk ma’lumotlar eramizning IV asrdagi xitoy manbalarida keltiriladi. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida keltirilgan ma’lumotga ko‘ra Kidanlar qadimda Ichki Mo‘g‘ulistonda ko‘chib yurganlar [17] deyilsa, boshqa bir manbada ular Xingan tog‘ tizmasidan sharqda va Shara-muren (mo‘g‘. - sariq daryo) daryosidan shimolda yashashganlar.

Tarixchi Ye.N.Andersonning aytishicha kidanlar Shimoli-Sharqiy Osiyoda IV asrdan boshlab paramo‘g‘ul tilida so‘zlashuvchi ko‘chmanchi xalqlar bo‘lganlar. Mo‘g‘uliston, shimoliy-sharqiy Xitoy va Rossiya Uzoq Sharqining zamonaviy qismlarida yashagan proto-mo‘g‘ullardan bo‘lgan xalq sifatida ular mo‘g‘ul tillari bilan bog‘liq bo‘lgan xitan tilida gaplashgan. [18]

Kidanlarning kelib chiqishi haqida XIV asrda tuzilgan rivoyatga ko‘ra- “ikki daryoning qo‘shilishida bo‘z ot minib ketayotgan erkak va kulrang ho‘kiz tortilgan aravaga mingan qiz uchrashib qolgan, bir-birlari bilan turmush qurishdi va shu tariqa Kidanlar paydo bo‘ldi. Ular sakkizta qadimgi qabilalarning ajdodlari edilar. Lyao tarixiga ko‘ra, oq otli “muqaddas odam” (shen-ren) va kulrang ho‘kiz tortilgan aravaga minib olgan “samoviy ayol” (tiannu) ning sakkizta o‘g‘li bo‘lib, ularning ittifoqidan tug‘ilgan sakkiz o‘g‘il sakkiz qabila bo‘ldi.” Ular uchrashgan joy - ya’ni erkak T’u daryosidan (hozirgi Lao Ha daryosi, Jilin, Manchuriya) va ayol Huang daryosidan (Ichki Mo‘g‘ulistondagi hozirgi Xar Moron (Shara-Muren) daryosi) edi. [19]

Boshqa manbada ular janubiy g‘arbiy Manjuriya va sharqiy Mo‘g‘ulistonda milodiy IV asrning ikkinchi yarmidan boshlab paydo bo‘lgan va Ku-mo-xi-dan sharqda yashashganlar. Ular lasso (sirtmoq) otishni juda yaxshi bilardi. Ko‘chmanchi xitanlar dastlab chorvachilik, baliqchilik va ovchilik bilan shug‘ullanganlar. Xitanlar ayniqsa, ocharchilik davrlarida Xitoy qishloqlari va shaharlarini hamda qo‘shni qabilalarni talon-taroj qilar, xitoy hunarmandchilik va oziq-ovqat mahsulotlari va qullar ular uchun foydali manba edi. Ular birinchi marta 390-yilda Tobalar tomonidan mag‘lub bo‘lishdi va keyingi yillarda Tobalar

uchun soliq olib kelishdi. Ular o'lpon sifatida otlarni berishadi. Ularning bir qismi Gavlida joylashadi. Ularning urf-odatlari Mo-Ho larnikiga o'xshaydi. Daraxt qabrlari bor. Ularning qabrlari daraxtlar ustida bo'lib, jasad uch yildan keyin kuydiriladi. O'lganlarga ov qilish uchun duo qiladilar. Ular tez-tez migrasiya qilishadi.

Ular 72 qabila. Ularning ot aravalari bor. Ular Dungh-hularga bo'ysunadilar. Ularning urf-odatlari Tu-Cyuyenikiga o'xshaydi. Ular o'lik bosh yoki cho'chqaning boshini chodirga yashirib, yordam berib sehr-jodu qiladilar... Har yili tog'larga, daryolarga va boshqalarga qurbonlik qilish uchun bayramlari bo'lgan. Xitanning har bir erkak a'zosi qish mavsumida kunduz kuni oq ot, oq qo'y va oq g'ozni qurbon qiladi. Urushdan oldin, bahor va kuzda ota-bobolariga oq ot, qora ho'kizlarni qurbon qiladilar. [20]

“Kidan”lar o'tmish turkiy va islomiy manbalarda qtoy, xitoy, qoraxitoy deb atalgan. Ruslarga “Kitay” atamasi o'zbeklarning ajdodlari orqali o'zlashgan bo'lsa, yevropa tillari Marko Poloning Xitoyga qilgan sayohati tufayli “kara-kidan” nomi bilan boyigan. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida xitoy urug'i haqida shunday deyiladi: “Xitoy, qtoy, kidan – turkiy urug'lardan biri. Ularning ajdodlari qadimgi kidanlar bo'lgan. [21]

VI asrdagi tarixiy jarayonlar tufayli kidanlarning asosiy qismi kuchmanchi turkiylarning tarkibiga kirgan, boshqa bir bo'lagi (10 ming oila) hozirgi Koguryo hududiga bosh olib ketgan. 644-yili kidanlar xitoy lashkari bilan birgalikda Koguryo qarshi kurashib zafar quchishgan.

Syue Szyuychjen tomonidan 974-yili yaratilgan “Besh sulolaning eski tarixi” [22] kitobida kidanlar turk (syunnu)larning bir bo'g'ini deyiladi. Mahmud Qashqariyning “Devonu lug'atit turk” [23] asarida “Turklar asli yigirma qabiladir... so'ng “xitoy.” deb, xitoy urug'ini turkiy el tarkibiga kiritadi. Yuqorida aytganimizdek, Kidanlar X asrda o'z davlatlarini tuzgunlariga qadar o'zoq vaqtlar Turk va Uyg'ur hoqonligi tarkibida bo'lib kelganlar va ularga ma'lum miqdorda o'lpon to'lab kelganlar. XI asrga kelib ularning Shimoliy Xitoydagi davlati

tugatilgach, bir qismi O‘rta Osiyoga ko‘chib o‘tgan. Manbalarda ularni qoraxitoy deb atashadi.

907-yilda Tan imperiyasini qulashi bilan Lyao davlati tashkil topdi. Shundan so‘ng Turfan idikutlari ham Lyao davlati ta’siri ostida qoldi va kidan imperatoriga o‘lpon to‘lay boshlashdi.

Qayta kuchaygan va qo‘shnilarini birin-ketin mag‘lub etgan kidanlar 916-yili Shimoliy Xitoyda “Kidan Qog‘onligi”, xitoy manbalarida “Lyao” (yoki “Buyuk Lyao” ma’nosi “Temir xonlik”) deb nomlangan kuchli davlatni (916-1124) tuzadilar. Kidan qog‘onligi 916-926-yillar orasida G‘arbiy Manjuriya, Boxay podsholigi, uyg‘urlar yeri, Xitoyning shimoliy-sharqiy va shimoliy yerlari hisobiga hududini kengaytirdi. Shimoliy xitoy sulolalari kidanlar ishtirokida hukumatga kelar edi. Janubiy xitoy davlati Uyue (893-978), Janubiy Tan (937-975), Koreys xonligi (918-1392), Tangut davlati G‘arbiy Sya (982-1227), Tibet o‘zlarini Kidan xonligining vassali deb bilishar edi. Kidan xonligi Sharqiy Osiyoda eng qudratli davlatga aylandi.

Ba’zi musulmon manbalariga ko‘ra Kidan davlatining tashkil topishi bilan aholining Markaziy Osiyoga qarab migratsiyasi boshlandi. Lyao davlatiga bo‘ysunishni istamagan ba’zi kidan qabilalari O‘rta Osiyoga qarab ko‘cha boshlashgan va Qoraxitoy davlati tashkil topgunga qadar bu yerlarga joylashib olishgan edi. [24]

Turkiston kidanlarga begona emas edi, xitoylashgan turkiylarni bu yerda qoraxitoylar deb atashardi. Ular Markaziy Osiyoga Xitoydagi xonligini qaytadan qaytarib olmoq uchun kuch va qo‘shin to‘plashga kelishdi, biroq Talas va Sirdaryo hududlarida yangi Qoraxitoylar hoqonligi – G‘arbiy Lyao (1125-1211) davlatini tuzib muqim bo‘lishdi. Shu bilan birga Ibn al-Asir bergan ma’lumotga ko‘ra 16 ming kidan oilasi Qoraxoniylar podshosi Arslonxon (1102-1130) tomonidan Movarounnaxrga davlat chegarasini himoyalash maqsadida ko‘chirilgan edi. Kidanlar sonining tez ko‘payib ketishidan cho‘chigan Arslonxon kidan ayollarini erkaklaridan alohida joylashtirishga bo‘yruq beradi. Shundan so‘ng kidanlar

Balasog'unga ko'chib o'tishadi va Arslonxon bilan bir necha bor to'qnashishadi. [25] Qizig'i shundaki Xitoy xronikasi "Lyao shi" da kidanlarning bu ko'chishi haqida ma'lumot mavjud emas. Shu sabab G.G.Pikov [26] o'zining "G'arbiy Kidanlar" asarida bu ko'chish kidan davlatining g'arbida yashashgan mo'g'ul va turk qabilalari tomonidan amalga oshirilgan – degan xulosaga keladi.

Xitoy xronikasi "Lyao shi" [27] da aytilishicha kidanlar Markaziy Osiy davlatlari bilan diplomatik munosabatlarni tiklagan va qirg'izlar 930, 952 va 975-yillarda kidan davlatiga o'z elchilarini yuborishgan. Xuddi shu manbada uyg'urlar elchiligi ham keltiriladi. 925-yilda kichik kidan yozuvi tuzilgan edi.

Kidanlar ham O'rta Osiyo davlatlari bilan diplomatik aloqalarni yo'lga quygan. 923-yilda Lyao Poso (Forslar yoki Somoniylar 875-999)ning elchisini qabul qilgan. Bir yildan so'ng bu yerga Abbosiylar elchilari kelgan. Tarixchi Marvoziyning bergan ma'lumotiga ko'ra xitoyliklardan farq qilgan holda xitanlar (kidan) va uyg'urlar turklar bilan aralashib, munosabat o'rnatganlar. 1027-yilda kidanlar sultoni Maxmud G'aznaviy (999-1030)ga elchi jo'natgan. Marvoziy kidan podshosining yuborgan xatini tarjimasini keltiradi. XII asr boshlariga kelib kidan davlati inqirozga uchraydi. Bundan foydalangan chjurchjenlarning tungus-manjur qabilalari Lyao davlatini tugatib, Szin davlatiga asos soldilar. Shundan so'ng kidanlarning siyosiy va harbiy hayotida Yelyuy Dashi faol qatnasha boshladi va keyinchalik Qoraxitoy davlatiga asos soladi. Musulmon manbalarida. [28]

Nushi Tayfun, Kushkin Tayfun yoki Kushkin nomi bilan atalgan Bayguning o'g'li Yelyuy Dashi 1087-yilda to'g'ilgan. "Lyao shi" [29] asariga ko'ra 1124-yilda u 38 yoshda bo'lgan. Ushbu manbalarga ko'ra Yelyuy Dashi Kidan davlati asoschisi Yelyuy Abaoszyning sakkizinchi avlodi bo'lgan. Ammo uning oxirgi Kidan podshosi Tyanszo (1102-1125) bilan qandaydir qarindoshligi bo'lganligi haqida ma'lumot uchramaydi. Yelyuy Dashi o'z davri o'lchamida yaxshi tarbiya va ma'lumot olgan edi. "Lyao shi" asarida keltirilishicha u nafaqat kidan tilini, balki xitoy tilini ham bilgan. Mohir chavondoz va mergan bo'lgan. 1115-yilda u szinshi (szinshi –unvoni konfutsiylik bo'yicha imtihondan o'tganlarga berilgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra Yelyuy Dashidan boshqa kidanlardan bu unvonni olgani bo‘lmagan) unvonini olgan. [30]

Yuqori layoqati uchun Yelyuy Dashi Xanlin akademiyasida “linya” [31] (“olim”) darajasini oladi. Shundan so‘ng uni Dashi Linya deb atashgan. 1115-yilda davlat ishlaridagi faol xizmatlari uchun Taychjou va Syanchjou viloyatlarining “sishi” (nozir) etib tayinlanadi. Keyinroq Dashi Lyaosin [32] provensiyasining “szyunszedushi” (general-gubernatori) bo‘ladi.

1115-yildan boshlab kidanlardan omad yuz o‘gira boshladi. Shu yili Lyao imperiyasiga tobe’ bo‘lgan chjurchjenlar (jurjanglar) Aguda (1068-1123) boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarishdi. Sun imperiyasi ularga yordam berdi, yengilishgan kidanlarning katta qismi Turkiston hududlariga siqib chiqarildi va shu bilan Lyao davlati tugatilishga yuz tutdi. Xitoyda kidanlarning o‘rniga hokimiyatni egallagan jurjanglar o‘zlarining yangi Szin (Chin) xonligini vujudga keltirishdi. 1124-yilda Yelyuy Dashi so‘nggi kidan hukmdori Tyanszo bilan kelisha olmay, o‘zining 200 otliq askarlari bilan imperator saroyini tark etdi va mustaqil faoliyat yuritib, o‘zini “Van” [33] deb e‘lon qildi. Shu tariqa kidanlar ikki bo‘lindi: Yelyuy Dashi boshqarivudagi shimoliy kidanlar hamda xitoy va boxay (tungus)lar bilan qolgan janubiy kidanlar.

Yelyuy Dashi Orxon (Mongoliya) daryosi bo‘yida Lyao davlatining shimoliy-g‘arbida joylashgan muhim strategik shaharlardan biri Keduneda qaror topdi. Shu davrdan boshlab kidanlar hayotining yangi davri – bo‘lajak Qoraxitoylar davlatining poydevori qaror topa boshladi. Bu jarayon 1124-yildan to 1143-yil Dashining vafotigacha davom etdi. Dashi bir necha yillar davomida faol harakat qilib o‘z qo‘shinini ko‘chaytirdi va jurjanglarga qarshi kurashish uchun ittifoqchilar qidirdi. 1130-yilda Sun va Tangut davlatlari jurjanglarning Szin davlati qaramog‘iga o‘tib ketgach, Dashi ittifoqchi qidirib Markaziy Osiyoga yo‘l oldi. Bu yerda qo‘shin to‘plab, orqaga qaytib Lyao davlatini qayta tiklamoqchi edi.

Markaziy Osiyoga kirib kelgan kidanlarni qoraxitoylar deb atay boshlashdi. Qoraxitoylar esa o‘zlarini Lyao Kidan deb atashardi. Bilamizki, hali Turk

hoqonligi davridanoq turkiy aholi “qora” so‘zini alohida ulug‘lab “buyuk” deb bilishadi. Masalan: “Qora budun” – “buyuk xalq”, yoki “qoraxon” – “buyuk xon” degan ma’nolarni bildirgan. Turkcha “qora” so‘zi “xura” so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, “xura” - kidan tilida “lyao” degan ma’noni bildiradi. Lyao Kidan – bu Buyuk Kidan demakdir.

Shu sabab “qoraxitoy” atamasi Lyao Kidan so‘zining mahalliy aholi tilida aytilishi bo‘lib, ularni qora kidan – qoraxitan - qoraxitoy deb atashga sabab bo‘lgan. Shunday qilib, qoraxitoy (turk.) – hura qidm (kid.) = Lyao Kidan – demakdir!

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zlarini Lyao imperiyasining davomchilari deb bilgan va kidan an’analarga sodiq qolgan qoraxitoylar o‘z hukmronligining oxirigacha (1211) islomni qabul qilishmadi va o‘z Vatanlariga qaytib, kidan imperiyasini qayta tiklash umididan voz kechishmadi. Qoraxitoylar davlati parchalangach, kidanlar keyinchalik turkiy xalqlar tarkibiga xitoy yoki qoraxitoy urug‘i nomi bilan kirdi. Qorakidan (qoraxitoy)lar bir necha asrlar davomida mahalliy xalqlar bilan yonma-yon yashab, ular bilan aralashib o‘z tillarini batamom unutib, XIV asrning o‘rtalaridan boshlab turkiy tilda so‘zlashar edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Клапрот Дж. Титул «Гурхана» // Азиатский журнал (далее – А.Дж.). - 1829. - Том. 27. - С. 42; Шотт В. Дас Рейх Карачатай или Си Ляо.
2. Менгес К.Х. Титулы и организационные термины Кытан (Ляо) и Кара-Кытай (Сы-Ляо) // Rosznik Orientalistyczny. - Львов, 1953.
3. Биран М. Империя Черного Китая в евразийской истории: между Китаем и исламским миром. - Издательство Кембриджского университета, 2005. - XVI + 279 стр. // Монголы и кочевая идентичность: случай киданей в Китае». Кочевники, монголы и их евразийские предшественники как проводники культурных изменений. Берлин, Бостон: Издательство Гавайского университета. ISBN 978-0-8248-4789-0. Дата доступа: 13 февраля 2018 г.
4. Кочнев Б.Д. Нумизматические памятники, связанные с каракитайским завоеванием Средней Азии // X Всероссийская нумизматическая

- конференция. Тезисы документов и сообщений. - СПб, 2001. - С. 50-52;
Настич В.Н. Загадочный узгендский "голодный" дирхам 610 гр.х. -
курите карахитайского гурхана? // Шестая Всероссийская
нумизматическая конференция. Тезисы документов и сообщений. - СПб,
1998. - С. 59-60.
5. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия / Соч. - М.:
Изд-во Восточной литературы, 1963. Т. 1. - 760 с.; Да. Двенадцать
лекций по истории исторических народов Средней Азии. Лекция №VII /
Волосы. - М.: Наука, 1968. Т. 5. - 757 с. Бернштам А.Н. Археологический
очерк Северной Киргизии. - Фрунзе: Изд-во ком. наук при СНК, 1941. -
110 с.
 6. Бернштам А.Н. Археологический очерк Северной Киргизии. - Фрунзе:
Изд-во ком. наук при СНК, 1941. - 110 с.
 7. Пиков Г.Г. Западные кидани. – Новосибирск: Изд-во Новосибирского
университета, 1989. – 195 с.
 8. Джусаева К.Д. «Кыргыздардын жана Кыргызстандын тарыхсы
булактары», Бишкек. 2003 г. Исторический сборник, 30 глав. Б. 82-86
 9. Кабдикаримов Р. «Великие каганаты и империи найманов: взлеты и
падения» Алматы. 2022 г. 35 ул.
 10. Шанизов К. Процесс формирования узбекской нации / Редколлегия:
Д.А. Алимова, Э.Х. Арифханова, У.С. Абдуллаев и др. - Т.: «Шарк»,
2001.
 11. Аскарлов А. Этногенез и этническая история узбекского народа. Учебное
пособие, издательство «Университет». Ташкент, 2007.
 12. Шанизов Карим. Процесс формирования узбекской нации /
Редакционная коллегия: Д.А. Алимова, Э.Х. Арифханова, У.С.
Абдуллаев и другие. – Т.: «Шарк», 2001. – 464 с.
 13. Шанизов Карим. Процесс формирования узбекской нации /
Редакционная коллегия: Д.А. Алимова, Э.Х. Арифханова, У.С.
Абдуллаев и другие. – Т.: «Шарк», 2001. – 464 с.
 14. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии
в древние времена. В 3-х т. - М-л., 1950. Т. 1. - 500 с., Т. 2. - 352 с., Т. 3. -
352 с.; Кунер Н.В. Китайский доклад о народах Южной Сибири,
Средней Азии и Дальнего Востока. - М., 1961. - 390 с.; Е Лунь Ли. Сидан
го чжи (История государства киданей) / Пер. ПРОТИВ. Таскина. - М.,
1979. - 602 с.
 15. Дутураева Д. Ш. Средняя Азия и период правления Каракитаева (Вторая
четверть XII - начало XIII вв.), Ташкент - 2010, стр-9.

16. Бернштам А.Н. Археологический очерк. - С. 87-105; Да. Новые эпиграфические находки в Семиречье // Эпиграфика Востока. - Л., 1948. Т. 2. - С. 107-113.
17. Национальная энциклопедия Узбекистана. Киданар «Государственное научное издательство», Ташкент. 2000.
18. Андерсон Й. Н. Еда и окружающая среда в раннем и средневековом Китае. Издательство Пенсильванского университета. ISBN 2014 978-0-8122-9009-7. 118 страниц
19. Байран, Михал. Монголы и кочевая идентичность: «Дело Ситаня» в Китае. Берлин, Бостон: 2017г. Издательство Гавайского университета. ISBN 978-0-8248-4789-0. Дата доступа: 13 февраля 2018 г.
20. Журнал огузско-туркменоведения. Университет Шейха Адебали в Билеке.
21. Собственный М.Э. (электронная версия, стр. 145. библиотека www.ziyouz.com).
22. Сюэ Сюйчэнь. Старые исторические пять династические (СЗЮ УДАЙ ШИ). Источник - <http://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/china.htm>
23. М. Кашкари. «Девону Лугатит Тюрк» 1 том, электронная версия, стр. 64.
24. Ибн аль-Асир. «Аль-Камиль фи-т-тарих». - С. 183-184.
25. Ибн аль-Асир. «Аль-Камиль фи-т-тарих». 244-245.
26. Пиков Г.Г. Западные кидани. - Новосибирск: Изд-во Новосибирского университета, 1989. - С-74.
27. Джусаева К.Д. «Кыргыздардын жана Кыргызстандын тарыхсы булактары», Бишкек. 2003 г. Исторический сборник «Ляо ши», 30 глав. Б. 82.
28. Рашид ад-Дин. Сборник летописей. Т. 1. Книга 2. - С. 78.
29. Джусаева К.Д. «Кыргыздардын жана Кыргызстандын тарыхсы булактары», Бишкек. 2003 г. Исторический сборник «Ляо ши», 30 глав. Б. 82.
30. Пиков Г.Г. Западные кидани. - Новосибирск: Изд-во Новосибирского университета, 1989. - С. 56.
31. «Линья» — (кит.-сюэси) — учёный.
32. «Ляо ши», 30 глав. Б. 82.
33. Ван - Древний Даван, в средневековом Китае и Когурё этот титул относился к королю или правителю.

**TEMURIYLAR DAVRI TA’LIM TIZIMIDA FAOLIYAT YURITGAN
MUDARRISLAR**

Amirqulova Nasiba Baxtiyorovna

Samarqand tumani 36-maktab tarix fani o‘qituvchisi

E-mail: amirbaxt@gmail.com

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan, madaniyat, sa’nat va maorifning yuksalishini ko‘ramiz. “Ikkinchi islom Renessansi” nomini olgan bu davr Markaziy Osiyo xalqlarining ko‘p asrlik tarixida asosiy o‘rin egallab, turkiy xalqlar tarixida muhim burilish bosqichi hisoblanadi. Amir Temur va temuriylar davrida ko‘plab madrasalar bunyod etilgan bo‘lib, bu madrasalarda faoliyat olib borgan mudarrislar yuksak qadlanganlar.

Amir Temur davrida mudarris shayxulislom Mavlono Abdulmalik, uning o‘g‘li shayxulislom Isomiddin ibn Abdulmalik, uning amakivachchasi shayxulislom Xoja Abdulavval, [1] No‘moniddin Xorazmiy, uning o‘g‘li Abduljabbor ibn No‘mon, eronlik alloma Sa‘diddin Taftazoniy, Sayyid Sharif Muhammad Jurjoniy, qozikalon Mavlono Qutbiddin, qozilar Mavlono Ubayd, Mavlono Faxriddin, Mavlono Domg‘aniy, Mavlono Asadiddin, Sharif Xofiz Husayniy, Mahmud Muhriq al-Xorazmiy, Jamoluddin Ahmad al-Xorazmiy, Mavlono Ahmad at-Termiziy, Mavlono Mansur al-Qozoniy, munajjim Mavlono Ahmad, mashhur tabiblar Fazlulloh va Jamoliddin Shomiy, faqih-muhaddis Aloiddin at-Tabriziy, rumlik muhaddis Shayx Shamsiddin Muhammad al-Jazoriy, tafsirchi, hofiz va muhaddis Xoja Muhammad az-Zohidi Buxoriy va boshqa shu kabi o‘z sohalarining ulug‘ mutaxassislari madrasalarda tolibi ilmlarga o‘z bilimlarini o‘rgatishgan.[2]

Ibn Arabshoh “Temur har bir foydali jonni yig‘ib, nimaiki narsa bo‘lsa, sarasini Samarqandga keltirdi. Natijada Samarqandda har bir ajib fan ahli namoyondasidan va san’atlarning g‘aroyib uslubidan fazilati peshonasida nishona bo‘lib, o‘z tengqurlaridan ustun turgan o‘z sohasida alloma kishilar yig‘ilgan edi” deb ma’lumot qoldirgan. [3]

Sa'diddin Mas'ud ibn Umar at-Taftazoniy – Amir Temur davrining mashhur musulmon olimi, fanning turli sohalarida obro'-e'tibor qozongan.

U asli Nisolik bo'lib, Saraxsdagi oliy maktabning o'qituvchisi bo'lgan. O'z davrining qomusiy allomasi. 1374-1375 yillarda Amir Temurning taklifi bilan Samarqandga keldi.[4] Idigu Temur madrasasida mudarris bo'lib, ko'pgina iqtidorli shogirdlarni yetishtirdi, jumladan: Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad al-Xizriy, Shoh Fathulloh ash-Shervoniy [5] va boshqalar. Shuning bilan birga Sa'diddin Mas'ud Taftazoniy “Miftoh al-ulum”, “Al-muxtasar al-maoniy”, “Al-mutavval”, “Sharhi risola al-shamsiya”, “Sharh al-Aqoid an-Nasafiya” asarlari muallifi hamdir. Taftazoniyda o'qigan va keyinchalik shu madrasaning mudarrisi bo'lganlardan biri – Ali ibn Muhammad Sayyid Sharif Jurjoniyydir. [6] Sa'diddin Mas'ud at-Taftazoniy Samarqandda yashagan davrida 1382-1383 yillarda “Maqoid” va “Sharh-i Maqoid” asarlarini yaratgan. [7] Uning vafot etgan yili haqida turlicha fikrlar mavjud: Ibn Arabshoh 1388-1389 yil Samarqandda vafot etdi deb bergan bo'lsa [8]; Xondamir 1394-1395 yil deb ma'lumot qoldirgan;

Bu davrda tibbiyot sohasida bir qancha mohir tabiblar, hozirgi hakimler yetishib chiqdilar, o‘z davrida “iftixor-ul-atib-bo” tabiblar iftixori unvonini olgan Muhammad Mazid, Hakim Shahrisabziy, jarroh (xirurg) mavlono Baqo, mavlono Rafe, 1541- yilda ilmiy tib va dori- darmonlar haqida asar yozgan Muhammad Husayn ibn Shirakas Samarqandiy ko‘z kasalliklarini davolashda nom chiqargan Shoh Ali ibn Sulaymon, o‘z zamonasining Suqroti nomini olgan Xoja Hakim (vaf.994/1585) va natijat ul-atbo laqabini olgan mavlono Abdulhakim ibn Mavlono Sulton Mahmud kabi hakimler shular jumlasidan hisoblanadi. Bu tabiblar

orasida, ayniqsa, mavlono Muhammad Mazid o‘zining ilmiy faoliyati bilan alohida ajralib turadi. Bu haqida Nisoriy shunday deydi: “Zamon tabiblarining aksariyati tib ilmini mavlono oldida o‘qidilar”. [10]

Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda mashhur hakim, tabiblar davolash ishlari bilan shug‘ullangan, davolash asboblari, har xil dorilar ixtiro qilish bilan ham shug‘ullangan. Katta markaziy shaharlarda dorush-shifolar faoliyat ko‘rsatgan. Dorixona va shifoxonalar xususiy bo‘lib, ulardan foydalanish uchun katta mablag‘ to‘langan. Shuning uchun ham undan foydalanish hammaga ham nasib qilmagan. Bunday dorush-shifo va dorixonalar Jo‘ybor xojalari ixtiyorida ham bo‘lganligi tarixiy manbalarda zikr etilgan. [11]

Bu davrda tibbiyot sohasi bilan birga rassomlik, naqqoshlik va xattotlik san’atlari ham rivojlangan. San’atning bir turi hisoblangan xattotlik kishilarga estetik zavq bag‘ishlagan; unga qiziqish kuchaygan. Bosmaxona haqida o‘ylash u yoqda tursin, hatto kitob nashr etish xayolga ham kelmagan bu davrda, xattotlik san’atiga ehtiyoj katta bo‘lishi tabiiy. Shuning uchun ham bu davrda bir qancha mashhur xattotlar yetishib chiqqan. Ularning mehnati tufayli ilm-fanning turli sohalariga oid ilmiy adabiy asarlarning aksariyati bizning davrlarimizga yetib keldi. [12]

Ayrim madrasalar alohida ixtisoslashgani bois ularda maxsus fanlar ham o‘qitilgan. Masalan, tabiblar tayyorlashga moslashgan Dorush-shifo madrasasida Abu Ali ibn Sino, Ar-Roziy, Abu Ali ibn Rizvon Misriy, kabi tabiblarning asarlari o‘rganilgan. Bundan tashqari 1511-yilda yozilgan, 101 betdan iborat Muhammad Yusufning “Tibbiy Yusufiy” deb nomlangan risolasi tibbiyotga taalluqli ma’lumotlar haqida bo‘lib, tabiblarni tayyorlaydigan madrasalarda darslik sifatida o‘qitilgan. O‘sha davrlarda mahalliy mudarrislar ta’lim- tarbiya ishlariga keng jalb etilgan bo‘lib, Zayniddin Vosifiy Toshkentda o‘zbek Navro‘z Ahmadxon huzurida muallimlik qilgan. Bu paytda bolalar 6 yoshdan maktabga qabul qilingan. Ularga alifbodan saboq berilib, yozuv-chizuvlar o‘rgatilgan. Bu davr madaniyatining xarakterli jihatlaridan biri o‘tmish falsafiy merosini o‘rganish, ilmiy-tabiiy

bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish bilan cheklanganlik, falsafa va adabiyot orqali insonparvarlik g'oyalarini ilgari surish bo'lgan. Bu davr madaniyatining yana bir muhim xususiyati tarixnavislik fanining rivojlanganligidir. [13]

Ta'limning asosiy o'choqlari bo'lgan madrasa, masjidlarda o'quv yakka yoki guruh tartibida olib borilgan. O'qish va yozishni bilgan ma'lumotli kishilar yuksak qadrlangan, natijada xalq orasida bilimga intiluvchilar soni orta borgan. Davlat hukmdorlari va saroy ayonlari bilim sharaf deb bilgan. Manbalarda ko'rinadiki, o'qitish tizimi o'sha davrlar mezonlariga muvofiq yaxshi yo'lga qo'yilgan. [14]

Fazlulloh ibn Ro'zbehxonning bergan ma'lumotlariga ko'ra Buxoro madrasalarida XVI asrda qiroat ilmiga alohida e'tibor qaratilgan va har talabadan Qur'onni to'liq yod olish va ma'nolarini tushunish talab etilgan.

Bu uslub garchi an'anaviy bo'lsa-da, bu davrga kelib talabalar uchun maxsus darsliklar yaratildi va oldingi uslubiy qo'llanmalar mukammallashtirildi. Shayboniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligida faoliyat ko'rsatgan asosiy o'quv inshootlari quyidagi tuzilishda bo'lgan: Yirik madrasalar, hujralar toqiravoqli, ichki-tashqi sahili, masjid, darsxona, tahoratxona, darvoza, hovuzli majmua va kichik madrasalar, odatda, faqat hujralardan iborat bo'lgan. O'quv inshootlarini qurilishda g'ishtin, sangin, ganch, chubin, xom g'isht kabi xomashyolar keng tarqalganligi tarixiy manbalarda qayd etib o'tiladi. [15]

Bu davrlarda Buxoro xonligida olib borilgan me'moriy qurilish ishlar ingliz sayyohi Antoni Jenkinsonning esdaliklarida ham saqlanib qolgan. Sayyoh shaharda qurilishlar avj olganligini va yangi qurilgan Mir Arab madrasasida 200 dan ortiq talaba ta'lim olishi to'g'risida ma'lumot bergan. [16]

XVI asr madaniy hayoti va ta'lim tizimi haqida gap ketganda, Buxoro xonligida yuksak mavqesiga ega bo'lgan Jo'ybor xojalarining o'rnini ta'kidlab o'tish kerak. Chunki Jo'yboriy shayxlar bu soha rivojiga xonlardan ham ko'proq hissa qo'shgan. Bu davr ijtimoiy- falsafiy va axloqiy qarashlarida islom dini va dinga munosabat masalasi asosiy o'rin tutadi. Jo'yboriy xojalardan ayniqsa, Xoja Islom va Xoja Sa'd qurdirgan binolar ahamiyatga molik. Xoja Islom tomonidan

bunyod etilgan Govkushon madrasasi uzoq yillar talabalarning bilim oladigan ma'rifat maskaniga aylanib keldi, u yerda asosan, a'lochi talabalar o'quv yili oxirida taqdirlanadigan marosimi ham o'tkazilar edi. Xoja Islom vafot etgach, o'g'li Xoja Sa'dning uning ishlarini davom ettirganligi, u ham ta'mirtalab binolarni tuzatishga mablag' ajratganligi tarixiy manbalarda keltirilgan.

Xullas, Shayboniylar ta'lim-tarbiyaning va ilm-ma'rifatning mamlakat taraqqiyoti uchun nechog'lik muhim ekanligini yaxshi anglab yetgan va bu soha rivoji uchun shart-sharoitlar yaratib berish bilan birga, avvalo, o'zlari ma'rifatli bo'lishga harakat qilgan. Shayboniylar davrda mamlakatda ta'lim sohasi, me'morchilik, xattotlik, naqqoshlik, adabiyot, tarixnavislik, tibbiyotning yuksak bosqichga ko'tarilganligida ko'rinadi. Ilm-ma'rifat hamma zamonlarda yuksak qadrlangan, ilimli kishilar esa ma'naviyat darg'alari hisoblangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bekchanov I. Xasanxoja Nisoriy Muzakkiri ahhob tazkirasi va XVI asr o'zbek adabiyoti. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertat. – Toshkent: 1993. – B.: 26.
2. G'oziyev S., O'tasheva Sh. XVI asrda Movarounnahrda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy hayot. – Toshkent: 2014. – B.: 44.
3. G'oziyev S., O'tasheva Sh. XVI asrda Movarounnahrda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy hayot. – Toshkent: 2014. – B.: 31.
4. Ibrohimov A. XVI asr O'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1976. – B.: 4.
5. Ma'naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – Toshkent: 1999. – B.: 262- 263.
6. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. – Toshkent: Sharq 2000. – B.: 133.
7. Valixo'jayev B.N. Samarqandda oliy ta'lim – madrasayi oliya. Universitet tarixidan lavhalar. – Samarqand: 2016. – B.: 133.
8. Bekchanov I. Xasanxoja Nisoriy Muzakkiri ahhob tazkirasi va XVI asr o'zbek adabiyoti. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi olish uchun yozilgan diss. –Toshkent: 1993. – B.: 35.
9. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусства Узбекистана берет свое начало с середины девятнадцатого века. – Москва: Искусство, 1965. – С.: 150-151.

10. Ibrohimov A. XVI asr O‘zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1976. – B.: 39.
11. Ibrohimov A. XVI asr O‘zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1976. – B.: 63.
12. Ibrohimov A. XVI asr O‘zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1976. – B.: 40.
13. Qoraboyev U., Soatov G. O‘zbekiston madaniyati. – Toshkent: 2011. – B.: 104.
14. Saliyeva M. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining shakllanishida ijtimoiy kommunikatsiyaning o‘rni (IX- XVI asrlar). – Toshkent: 2012. – B.: 47.
15. Jumanazar A. Buxoro ta’lim tizimi tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B.: 75.
16. Qandaxorov A. Buxoro xonligi va unda karmanalik shayxlar faoliyati. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2008. – B.: 40.

CHODAK MADRASASI TARIXI

Qo‘ldashev Sherali Temiraliyevich

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi

E-mail: sherali.kuldashev@mail.ru

Mustaqillik tufayli bugungi kunda mamlakatimizning haqqoniy tarixini o‘rganish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Jumladan, har bir qishlog‘-u shaharlarni tarixini ilmiy izlanishlar orqali o‘rganishga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Shu sababdan ham bugungi kunda tarixchilar oldiga ulkan mas’uliyatli vazifalar yuklatilmoqda. Ayniqsa respublika hududida ta’lim-tarbiyaning maskanlarini tashkil topishi tarix sovet mustamlakachiligi davrida atroflicha o‘rganilmagan edi. Natijada O‘zbekiston hududida shakllangan ta’lim-tarbiya tizimi to‘g‘risida haqqoniy tarixiy ma’lumotlar shakllanmadi.

Farg‘ona vodiysi barcha davrlarda ilm-fan taraqqiy etgan maskan sifatida mashhur bo‘lgan. Bu o‘lkada Markaziy Osiyo ilm-fan taraqqiyotida katta rol o‘ynagan tarixiy joy va maskanlar nihoyatda ko‘p. Shunday uzoq o‘tmishga ega bo‘lgan tarixiy maskan bu Pop tumanida joylashgan Chodak qishlog‘idir.

Chodak – O‘zbekistonning qadimiy va tabarruk go‘shalaridan biri hisoblanadi. Bu maskanda Movarounnahrning mashhur allomalaridan, Naqshbandiya tariqatining buyuk namoyandasi Mavlono Lutfulloh Chustiy (1485–1571) Chodakda dunyoga kelgan. [1]

Hatto, Burhoniddin Marg‘inoniyning amakisi Mavlono Husomiddin Chodakda yashagan. Burhoniddin Marg‘inoniy bir muncha vaqt Chodakda amakisilikda yashab, undan ta’lim olgan. Bu haqda Muhammad Mufti Ohangaroniy quyidagilarni yozadi: “Maxfiy qolmasinkim, Mavlonimiz Lutfulloh hazratlari o‘sha vaqtlarda arab va ajamda “mujtahidlar koni” va “oriflar sandig‘i” deb atalgan Farg‘ona diyorida dirlar. Taqvo ahli orasida bu diyor juda mashhurdir. Ul hazratning tug‘ilgan joylari Chodak bo‘lib, u qadimiy joydir. Chodak Axsikatdan besh farsax uzoqlikda, uning g‘arb tomonida, ikki tog‘ oralig‘i va daryo bo‘yida joylashgan. Ko‘p mashoyixlar va ulug‘ olimlar shu yerda kamol topganlar va dafn etilgandirlar.

Safed bulonda bo‘lib o‘tgan jangda mag‘lubiyatga uchragan bir guruh tobe‘inlar ham Chodakda dafn qilingan ekanlar. Shayxulislom va sohibi “Hidoya” Burhoniddin al-Marg‘inoniy ham shu joyda o‘z amakisi va ustozi bo‘lmish Mavlono Husomiddin qoshida zohiriy ilmlarni o‘rgangandir”. [2]

Buxoro xonligi tarixiga doir manbalarda Chodak xo‘jalariga tegishli biror ma’lumot uchramaydi. Chodak qishlog‘i tarixiga oid tadqiqotlarda ham u yerda istiqomat qilib kelayotgan xo‘jalar haqida batafsil ma’lumotlar keltirilmagan. Qo‘qon 1709-yili Buxoro xonligidan ajralib chiqib, mazkur mintaqada yangi xonlik tashkil topdi. Chodak xo‘jalari, ba’zi manbalarda ular naqshbandiya tariqati namoyandasi Mavlono Lutfulloh xo‘ja Chodakiy, ayrimlarida esa Mahdumi A‘zam Kosoniy avlodlari deyiladi. Manbalarda ta’kidlanishicha, ular Muhammad (s.a.v.) yoki uning to‘rt xalifasi avlodi bo‘lgani uchun Movarounnahr hukmdorlari tomonidan e‘zozlanib, turli boj-xirojlardan ozod qilingan. [3]

Farg‘ona vodiysida, o‘z davrida dunyoga tanilgan ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Bundan shuni anglash mumkinki, o‘lkada yuqori darajada ta’lim

tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lgan. Shu qatori, o'rta asrlarda Farg'ona vodiysida ko'plab ta'lim muassasalari, qorixonalar, madrasalar faoliyat yuritgan bo'lib, ularning qurilishi hamda obodonlashtirilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Qo'qon xonligining Namangan bekligida ham XVI-XVIII asrlarda bir qator ta'lim muassasalari, qorixonalar, madrasalar faoliyat yuritgan. Shunday oliy dargohlardan biri Namangan viloyati Pop tumanidagi Chodak qishlog'idagi Mulla Bohu oxund madrasasi hisoblanadi.

Hozirda madrasasi majmuasiga kiradigan masjid saqlanib qolgan. Masjid to'g'ri burchakli tarhda (37x11,2 m) bo'lib, ko'ndalang yoyilgan kompozitsiyadan iborat. Uning to'g'ri burchakli ustunli xonasi uch tomonli ayvon bilan mutanosib ravishda qurilgan. Xom g'ishtdan ishlangan qo'sh sinchli binoning poydevori toshdan terilgan. Ustunli-to'sinli konstruksiya masjid tomining tekis bo'lishiga xizmat qilgan. Namoz o'qishga mo'ljallangan bu binoning bezakli pardozi uni monumental me'morchilikning nodir yodgorliklari sarasiga kiritgan. [4]

Chodak din peshvolari yurti bo'lish bilan birga, bu yer xonlikdagi ilk ilmgohlardan biri vujudga kelgan ilm-fan va madaniyat markazidir. Manbalarda keltirilishicha, Chodak qishlog'ida 1578-yilda madrasa barpo etiladi. [5]

Ushbu madrasa Namangan bekligidagi eng qadimgilaridan biri bo'lib, u Chodak qishlog'ining bozori yaqinida joylashgan [6], bir necha asrlar davomida ilm-fan, madaniyat markazi sifatida faoliyat yuritgan. Manbalarda qayd etilishicha, ushbu madrasada 1888-yilda 19 nafar talaba o'qigan va ularga bir nafar mudarris dars bergan. [7] Farg'ona vodiysidagi ilk ilmgohlardan biri bo'lmish, Chodak madrasasi kim tomonidan qurdirilganligi ma'lum emas. Biroq shuni taxmin qilish mumkinki, madrasani barpo ettirgan shaxs Chodak xo'jalaridan bo'lgan bo'lishi mumkin.

Xonlikda barpo etilgan madrasalarning barchasi qayerda, kim tomonidan qurdirilganligi va ulardagi talabalar sonidan kelib chiqib alohida turlarga bo'lingan. Jumladan, ba'zi manbalarda Qo'qon xonligi hududida barpo etilgan madrasalar uch guruhga bo'lingan [8]:

1) Xon madrasalari — xon va uning oila a'zolari, saroy amaldorlari tomonidan qurdirilgan yirik madrasalar.

2) Eshonlar madrasalari – islom ulamolari hamda tasavvuf namoyondalari tomonidan qurdirilgan madrasalar bo'lib, ular odatda, eshonlarning shaxsiy mablag'i yoki muridlardan tushgan xayr-ehsonlar evaziga barpo etilgan.

3) Mulkdorlar madrasalari – mulkdorlar tomonidan bunyod etgan madrasalar. Ularning soni juda ko'p bo'lib, ular yirik yer egalari, savdogarlar va boshqa badavlat kishilar tomonidan bunyod etilgan, bu turdagi madrasalar xonlikning shahar va qishloqlarida juda ko'p qurilgan.

Ushbu turdagi madrasalar davlat va diniy tashkilotlar uchun kerakli kadrlarni tayyorlab bergan. Bundan tashqari, ular mamlakat madaniy-ma'naviy muhitini, ilm-fan va san'atning rivoji, hamda ulardagi ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynagan. Jumladan, xonlikning barcha madrasalardagi ta'lim tizimi, o'qitish metodi va darsliklar masalasi barchani birday qiziqtiradi.

Xonlikdagi barcha madrasalarda bir xil ta'lim tizimi shakllangan bo'lib, madrasalarga odatda maktabni bitirgan, boshlang'ich bilimga ega ilmi toliblar qabul qilingan. Madrasa mudarrisi u yerga o'qish uchun kelgan talabalarni imtihondan o'tkazgan. Madrasalarga odatda bolalar 16-20 yoshdan qabul qilinib, 26 va hattoki 36-40 yoshgacha o'qitilgan. [9] Bundan ko'rinadiki, madrasalarda ta'lim olish uchun yosh chegarasi belgilanmagan. Ta'lim olish har bir talabaning o'z imkoniyatidan kelib chiqqan xolda amalga oshirilgan.

Xonlikdagi barcha madrasalarda ta'lim uch bosqichda olib borilgan. Bular quyidagilar:

“Adno” – quyi bosqich hisoblanib, “Avvali ilm” deb nomlangan. Ushbu bosqichda talabalar islom dinining asoslarini o'rgatuvchi savol-javob tarzda tuzilgan, fors tilidagi o'quv qo'llanmani o'rganish bilan boshlangan;

“Avsat” – o'rta bosqich, bu bosqich talabalari “Aqoid”ni tamomlab, “Mulla Jalol” gacha bo'lgan kitoblarni o'qiganlar;

“A'lo” – yuqori bosqich hisoblanib, talabalar “Mulla Jalol” dan “Matni faroiz” gacha bo'lgan asarlarni o'qiganlar.

Madrasalarda ta'limning har bir bosqichda qancha muddat o'qishi uchun qat'iy talab belgilanmagan. Bunda talabaning qobiliyati yoki mudarrisning bilimi va uning talabchangligi katta rol o'ynagan. Talabalar har bir bosqich uchun belgilangan asarlarni qanday o'zlashtirganiga qarab, bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tkazilgan. Odatda, bir bosqichda 3-4 yil o'qilgan. Ba'zi talabalar esa bir bosqichda 10 yillab o'qiganlar. [10] Madrasalarni tamomlaganlar uchun ularning ma'lumotini tasdiqlovchi diplom yoki guvohnomaga o'xshash, talabaning ma'lumotini tasdiqlovchi hujjat berilmagan. Faqat qozilik va devonxona lavozimlariga da'vogar bo'lgan talabalar imtihon qilinib, so'ng ularga nomzodlik guvohnomasi topshirilgan. [11]

Bundan tashqari, madrasalarda o'qitish ikki turga bo'lib olib borilgan [12]: umumta'lim — “mushkulot” va huquqiy – “masala”.

Umumta'lim kurslariga quyidagi fanlar kirgan: mantiq, mantiq kursiga sharh, aqoid⁸, dialektika, metafizika va uning kosmografiya hamda astrologiya bo'limi, ilohiyot, Qur'on va hadis kitoblari.

Huquqiy kursga farz, vojib, sunnat, mustahab, muhob, harom, makruh, mustakrah kabi amallar, ya'ni buyurilgan, man qilingan, ma'qullangan va ma'qullanmagan amallardan tarkib topgan amallar bayon etilgan. Bundan tashqari, ushbu kursda diniy va davlat huquqlari haqida ham bilimlar berilgan. Eng avvalo, ularda diniy ta'lim berishga alohida e'tibor qaratilgan.

Jumladan, barcha ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va uni olib borish uchun mablag' talab etilgan. Bu davrlarda ta'lim maskanlari davlat mablag'lari hisobidan ta'minlanmagan. Shu sababdan ham azaliy odatga ko'ra, madrasa qurdirgan shaxs, uni ta'mirlash yoki xodimlar va talabalarni mablag' bilan ta'minlash maqsadida, o'z hisobidan vaqf mulki ajratib, qozi tomonidan vaqfnoma shaklida rasmiylashtirib qo'ygan. [13]

⁸ Aqoid – “ishonib bog'langan narsalar” islom ta'limoti bo'yicha.

Bunday jarayon Chodak madrasasida ham amalga oshirilgan bo'lib, madrasasini qurdirgan shaxs o'zining Asht tumanidagi Pnuk9 qishlog'idagi yerlarni vaqf qilib bergan. Ushbu vaqf yerlari avval Buxoro xonligi tasarrufida bo'lgan. Keyinchalik ushbu yerlar Qo'qon xonligi tashkil topgach uning tasarrufiga o'tadi. Qo'qon xonlari ham madrasa mutavallisiga bu yerdagi vaqf yerlari hosilini nazorat qilishga ruxsat bergan. Hatto, 1858–1862-yillarda Qo'qon xoni Mallaxon tomonidan madrasa rahbarlariga shunday yorliq berilgan. [14] Lekin Mallaxondan keyin Xudoyorxon madrasa vaqf yerlaridan daromad olish uchun mutavalliga yorliq bermagan. Bunga Xudoyorxonning Mallaxonga nisbatan salbiy munosabati sabab bo'lishi ham mumkin. Ma'lumki, 1858-yili Xudoyorxon siyosatidan norozi bo'lgan xalqqa Mallaxon rahbarlik qiladi va hokimiyatni o'z qo'liga oladi. Xudoyorxon esa Buxoroga qochishga majbur bo'ladi. Mallaxon esa islohotlar o'tkazib, mamlakatda tinchlik o'rnatishga e'tibor qaratib, mamlakat mudofaasini mustahkamlaydi.

Mallaxon o'zini qo'llab-quvvatlagan Chodak ruhoniylariga imtiyozlar beradi va Chodak madrasasi vaqf yerlarini soliqlardan ozod qiladi. 1862-yili Mallaxon o'ldirilgach, 1863-yil Xudoyorxon yana Qo'qon taxtiga ko'tariladi. Biroq, u madrasa vaqf mulklarini soliqlardan ozod qilmaydi va Mallaxon bergan vasiqani ham tasdiqlamaydi. Aynan Chodak ulamolarining Mallaxon bilan iliq munosabatlari, Xudoyorxonning madrasani vaqf yerlaridan tushadigan mablag'dan mahrum qilishiga sabab bo'lgan.

Turkiston Rossiya saltanati tomonidan bosib olingandan so'ng, oq podsho hukumati mahalliy xalq urf-odatlarini, shariat qonunlari bilan hisoblashmay, turli bahonalar bilan vaqf yerlarini davlat mulkiga aylantirib, yer solig'ini joriy qiladi. Podsho hukumati Turkistondagi yer-suv masalalari to'g'risidagi qaror va qonunlarida vaqf yerlarini davlat yerlariga aylantirish va ijaradorlardan soliq undirish yo'lini tutgan. Vaqf yerlariga nisbatan qo'llanilgan siyosat 1886-yil 12-

⁹ Hozir bu joy Tojikiston Respublikasi So'h viloyati hududida joylashgan.

iyunda tasdiqlangan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"da o'z aksini topgan. [15]

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda shuni ko'rish mumkinki, Chodak madrasasi 1863-yili Xudoyorxonning ikkinchi marotaba taxtga o'tirishi va 1876-yilda podsho Rossiyasi tomonidan Namangan bosib olinganidan keyin Pnuk qishlog'idagi vaqf yerlari daromadidan ajralib qolgan. Shundan so'ng madrasa alohida daromad manbasidan ajralgan. Shunday og'ir iqtisodiy tanglikka tushib qolishiga qaramasdan madrasa yana uzoq yillar faoliyat olib borgan. Shu sababdan ham madrasa podsho ma'murlari tomonidan ro'yxatga olinib, uning faoliyati nazorat qilib turilgan. Madrasada 1889-yilga qadar mashg'ulotlar olib borilgan. [16] Madrasada 1888-yili 19 nafar talaba saboq olgan va 54 rubl daromadi bo'lgan. Bu daromad ehtimol, yerdan tashqari do'kon, tegirmon kabi savdo ishlaridan tushib turgan vaqf mablag'i bo'lishi mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Chodak xo'jalari Qo'qon xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotida kuchli ta'sirga ega bo'lganlar. Jumladan, bu yerda istiqomat qiluvchi xo'jalarning kelib chiqish tarixi ham uzoq asrlarga borib taqaladi.

Barcha asrlarda ular Farg'ona vodiysining siyosiy kuch-qudratini belgilovchi oliy martabali diniy ulamolar sifatida nom qozonganlar. Chodak qishlog'i nafaqat Pop tumanining qadimiy qishlog'i bo'libgina qolmay, Qo'qon xonligi hududidagi ilk madrasalardan biri bo'lmish Mullo Bohu oxund madrasasi barpo etilgan maskan sanaladi. Ushbu madrasa uzoq yillar davomida Qo'qon xonligidagi ta'lim-tarbiya rivojiga katta hissa qo'shgan. Shu bilan birga bu yer ilm-fan, madaniyat va ma'rifat markazi vazifasini bajarib kelgan.

Mullo Bohu oxund madrasasi Farg'ona vodiysidagi qadimiy ta'lim markazi bo'libgina qolmay, madrasa noyob arxitektura durdonasi hisoblanadi. Hozirda faqat madrasa majmuasiga kiruvchi masjid saqlanib qolgan. Undagi turli ko'rinishdagi ustunlar, ganchdan o'ymakorlik bilan devorga ishlangan naqshli lavhalar, xona va ayvonning gul solingan shifti katta badiiy qimmatga ega. Madrasa Farg'ona vodiysida o'ziga xos yagona ko'rinishga ega bo'lganligi sabab,

bebaho yodgorlik sifatida e’tirof etilib, 1992-yil 8-dekabrda Saidjalolxo‘ja nomi berildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanib, ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Ushbu tarixiy yodgorlik tarixini o‘rganish orqali yoshlarga Chodak qishlog‘i tarixiy o‘tmishi, unda shakllangan madaniyat, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyot haqida bilim va tushunchaga berish. Har bir xalq o‘z tarixini yaxshi bilishi va anglashi, uning kelajak avlodida vatanparvarlik, milliy g‘urur, iftixor, tarixiy o‘tmishga xayrixohlik tuyg‘ularini shakllantirish bilan bir qatorda, uning tarixiy o‘tmishni chuqurroq o‘rganish va izlanishga bo‘lgan qiziqishni orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Voxidov Sh.X. XIX – XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. Tarix fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasidan. – Toshkent.: 1999. – B.: 240.
2. Muhammad Mufti Ohangaroniy. Mavlono Lutfulloh manoqibi / nashrga tayyorlovchi f.f.d. Sh. Sirojiddinov. – Toshkent: 2002. – B.: 220.
3. Voxidov Sh.X. XIX – XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. T.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasidan. – Toshkent.: 1999. – B.: 240.
4. Nozilov D.A. Markaziy Osiyo me’morchiligida interyer. – Toshkent: Fan, 2005. – B.: 561.
5. Mardonova G. Istiqloldan yashnayotgan yurt. – Toshkent: Nihol, 2011. – B.: 187.
6. Бейсембиев Т.К. «Тарихи Шахрухи» как исторический источник. – Алма-Ата: Наука, 1987. – С.: 236.
7. Alimov I.A. XVI – XVIII asrlarda Namangan bekligidagi madrasa, qorixona va maktablar tarixidan // O‘zbekiston tarixi jurnali. – Toshkent: 2010. – B.: 4.
8. Rasulov B.M. O‘zbekistondagi musulmon maktab va madrasalari tarixidan (XIX asr oxiri — XX asrning 20 — yillari): Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasidan. – Andijon: ADU, 1996. – B.: 187.
9. Alixojiyev M.O. Qo‘qon xonligida ta’lim tizimi va unda vaqf mulklarining tutgan o‘rni. Toshkent., 2013. – B.: 332.
10. Остроумов Н.П. Исламоведение. Введение в курс исламоведения. – Ташкент: Издания Туркестанских ведомостей, 1914. - С. 191-200.

11. Alixojiyev M.O. Qo‘qon xonligida ta’lim tizimi va unda vaqf mulklarining tutgan o‘rni. Toshkent., 2013. – B.: 334.
12. Alixojiyev M.O. Qo‘qon xonligida ta’lim tizimi va unda vaqf mulklarining tutgan o‘rni. Toshkent., 2013. – B.: 335.
13. Alimov I.A. XVI – XVIII asrlarda Namangan bekligidagi madrasa, qorixona va maktablar tarixidan // O‘zbekiston tarixi jurnali. – Toshkent: 2010. – B.: 5.
14. O‘zR MDA. 19-fond, 1-ro‘yxat, 12206-ish, 145-varaq.
15. O‘lmas Bahromzoda. Chodak (qishloq tarixidan lavhalar). – Namangan: 2000. – B.: 155.
16. Alimov I.A. XVI – XVIII asrlarda Namangan bekligidagi madrasa, qorixona va maktablar tarixidan // O‘zbekiston tarixi jurnali. – Toshkent: 2010. – B.: 7.

MADRASALARDA BIOLOGIYA VA ZOOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHGA OID MA’LUMOTLAR

Ro‘zmatova Sharofatxon Toshmatjonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: sharofatrozmatova@gmail.com

Madrasalar qadimdan oliy o‘quv yurti maqomida bo‘lgan. Ularning paydo bo‘lishi o‘qitishda yangi usullarning vujudga kelishi bilan uzviy bog‘liqdir. VIII-IX asrlarda talabalar, asosan, masjidlarda o‘qitilar, ularda musulmon dini aqidalari, islomiy ilmlar (naqliy ilmlar) bilan bir qatorda, aniq fanlar (aqliy ilmlar) o‘qitilar edi. Ushbu guruh madrasalarda ilmi naqliya – diniy ilmlar ancha chuqur o‘rgatilgan, shu bilan birga, ilmi aqliya – tabiiy fanlardan umumiy ma’lumot berilgan. Bunday madrasalar kichikroq shaharlarda, tumanlarda, ba’zan katta mahallalarda ham bo‘lgan. Biologiya va zoologiya kabi tabiiy fanlar ilmi aqliya fanlar tarkibiga kiritilgan. O‘quv kunlari haftaning dushanba, seshanba, shanba, yakshanba kunlari bo‘lgan. Qolgan kunlar o‘tilgan darslarni takrorlash, tabiiy ilmlar bilan shug‘ullanish, badiiy asarlarni o‘qishga bag‘ishlangan.

Abu Ali ibn Sinoning “Donishnoma” (“Bilimlar kitobi”)da va ushbu masalaga bag‘ishlangan “Aqsom al-ulum al-aqliyya” (“Aql-idrokka asoslangan ilmlar

bo‘limlari”) nomli maxsus asarida bayon qilingan. Ibn Sino nazariy falsafani uch guruhga bo‘ladi:

Quyi ilm: U tabiiyot deb ataladi hamda mavjudligi moddiy borliq va harakat bilan belgilanadi. Bu guruh o‘z navbatida sakkizta asosiy qismlarga bo‘linadi:

1. Tabiatning umumiy masalalari;
2. Olam asosini tashkil etuvchi jism holati;
3. Tashkil topish va yo‘q qilib yuborish tushunchasi;
4. Turli harakatlar natijasida to‘rt elementda ular qo‘shilishidan oldin paydo bo‘ladigan holatlar;
5. Noorganik olam;
6. O‘simlik olami;
7. Hayvonot olami;
8. Nafsi va hayvonlar, alaxsus, inson fahmlagan kuchlarni bilishni o‘rganadi. Bu guruh quyidagi yetti tarmoqqa ega: tibbiyot, astrologiya, fiziognomonika, tushni ta’birlash ilmi, tumorlar haqidagi ilm, sehrgarlik, alkimyo. [1]

Ibn Sinoning “Tirik organizmlar klassifikatsiyasi haqida kitob” asarida tabiatshunoslik borasida to‘plangan materiallarni, ularni umumlashtirish, tabiatni o‘rganish metodlarini ayniqsa, izchillik bilan ta’riflaydi. O‘simlik va hayvon turlari, nomlarining tarkibi, xarakterli xususiyatlarini tavsiflaydi. Ayni shu asarida aniq fanlar qatorida botanika, fiziologiya kabi tabiiy fanlarga doir faktik materiallar bayon etilgan.

Abu Nasr al-Farobiy ham barcha fanlar qatorida tabiiy fanlarga ulkan hissa qo‘shgan. Jumladan, uning “Inson a’zolari haqida risola (“Risala fi-lada al-insaniya”)” nomli risolasi odam va uning salomatligi fanining manbalarida biri hisoblanadi. [2] Shuningdek, alloma botanika, zoologiya, odam anatomiyasi va tabiatshunoslikning boshqa sohalari bo‘yicha fikr yuritgan. U hayvonot dunyosini fikrlovchi va fikrlamaydigan xillariga ajratgan. [3]

Markaziy Osiyo tabiiy fanlar, xususan, zoologiya fanining rivojlanishi Sharqning buyuk allomalari nomi bilan bog‘liqdir. Abu Rayhon Beruniy 101 ta hayvon va ulardan olinadigan dori-darmonlar to‘g‘risida yozib qoldirgan. Uning “Hindiston” asarida bu o‘lkaning hayvonlari to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar keltiriladi. U hayvonlar va o‘simliklarning yil fasllariga qarab o‘zgarishini ta’riflaydi. Beruniy birorta hayvon yoki o‘simlik turi yer yuzini butunlay qoplab olsa, boshqalarning ko‘payishiga o‘rin qolmaydi. Shuning uchun dehqonlar ekinlarini o‘toq qiladilar, asalarilar asalni bekorga yeydigan o‘z jinsdoshlarini o‘ldiradilar, deydi. [4]

Beruniy 1116 tur dorini ta’riflaydi. Ulardan 750 tasi o‘simlik, 101 tasi hayvonlardan tayyorlanadi. Dorivor o‘simliklar qatoriga bodom, gulxayri, mavrak, mingdevona, qizilmiya, sachratqi, yalpiz kabilarni kiritadi.

Najmiddin Qazviniyning “Tabiiy fanlar va metafizika”ga bag‘ishlangan ilmiy asari va boshqalar. [5]

A.Shukurov o‘z maqolasida maktab va madrasalarning musulmon dunyosidagi mavqesiga yuqori baho berish bilan birga ularning XVIII – XIX asrlarga kelib tor, soxta bilim yo‘nalishiga tushib qolgani, tabiiy hamda aniq fanlarga e’tibor susayganini ta’kidlab o‘tadi. Shuningdek, maqolada o‘quv jarayonining tashkil etilishiga oid masalalar va o‘qitilgan darsliklar tahlil qilingan. [6]

Subhonqulixon tibbiyot sohasiga alohida e’tibor qaratib, Dorush-shifo madrasasini qurdirishi Mirzo Ulug‘bekning o‘z davrida tabiiy fanlar rivojiga yuksak ahamiyat berishi muhim tarixiy voqea edi. Bu borada jiddiy tadqiqotlar olib borilsa, ko‘plab muhim va qiziqarli yangi ma’lumotlar chiqishi tayin.

Bir kuni tanish musavvir ijodxonasida suhbatlashib qoldik. U: “Qaysidir xorijlik sayyoh amirlik zamonida Buxoroga kelib, bozorda turli o‘t va giyohlardan tayyorlangan to‘rt yuzdan ortiq dorilarni ko‘rib hayron qolganini yozgan ekan. Uni ancha yillar ilgari o‘quvdim. Hozir u kim va o‘qiganim qanday kitob ekanini

eslolmayapman. Uni topib, ma’lumotlaringizga qo‘shib qo‘ysangiz yaxshi bo‘lardi”, – dedi. [7]

Tabiblarni tayyorlashga ixtisoslashgan Dorush-shifo madrasasida Abu Ali ibn Sino, Abu Hasan Ali ibn Rizvon Misriy, Subhonqulixon kabi tabiblarning asarlarini o‘qitish joriy etilgan. Bundan tashqari, 1511-yilda yozilgan, 101 sahifadan iborat Muhammad Yusufning “Tibbi Yusufiy” deb nomlangan risolasi tibbiyotga taalluqli ma’lumotlar haqida bo‘lib, tabiblarni tayyorlaydigan madrasalarda darslik sifatida o‘qitilgan. [8]

Tibbiyotni o‘rganishda avvalo tabiatshunoslik, botanika, zoologiya fanlarini chuqur bilishi lozim. talabalar bu ilmlarni o‘rganmasdan turib, tibbiyotni tushuna olmasligi, aniq. Shu bois, tibbiyotning asosida tabiiy fanlarni o‘qitishga keng o‘rin berilgan. Bunday madrasalarda tahsil olgan talabalar keyinchalik shu sohaga oid risolalar yozib, mudarrislik qilgan. Jumladan, Ja’farxoja ibn Nasriddinxo’ja Husayniy Hazoraspiy 1823-yilda turli kasalliklar va ularni davolash uslublari hamda dori vositalari xususidagi “Tibbiy ma’lumotlar to‘plami” asarini yozgan. Junaydulloh ibn Hoziq ham tabib bo‘lgan. U 1843-yilda Muhammad Sharif Buxoriyning “Mezon at-tib” nomli asariga sharh yozgan. [9]

Xullas, O‘rta Osiyo o‘rta asrlar davrida ilmlarni rivoji, bevosita biologiya, zoologiya fanlarga ham e’tibor qaratilgan. Bu haqda, Birinchi Renessans davri allomalari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy va boshqalarning ilmiy merosida berilgan. Ikkinchi Renessans davri, ya’ni Amir Temur va temuriylar davrida ham tabiiy fanlarni madrasalarda o‘qitilgan. Bevosita odam va uning salomatligi bilan bog‘liq bo‘lgan biologiya va zoologiya fanlariga haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Hatto, Dorush-shifo nomli madrasa ham tashkil qilinib, bu madrasada o‘simliklar va hayvonlar bilan bog‘liq ilmlar o‘qitilgan. Xonliklar davriga kelgan, barcha dunyoviy fanlar kabi biologiya va zoologiya fanlarini o‘qitish birmuncha sust kechgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bahodirov R. M. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – B.: 65.
2. Abduhalimov B. “Bayt ul-hikma”ning va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati (IX – XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar). – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004. – B.: 203.
3. Hamdamov I.H., Abilova S.A. Hozirgi zamon tabiiy fanlar konsepsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – B.: 11.
4. Hamdamov I.H., Abilova S.A. Hozirgi zamon tabiiy fanlar konsepsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – B.: 12.
5. Абдирашидов З. Исмаил Гаспиринский и Туркестан в конце XX века: связи – отношения – влияние. – Ташкент: Академнашр, 2011. – С.: 77-78.
6. Шукуров А. Мусульманские школы в Туркестане // Наука и просвещение. – Ташкент: 1922. № 1. – С.: 33.
7. Jumanazarov A. Buxoro ta’lim tizimi tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – B.: 244.
8. Asrorova L. Q. Buxoro madrasalari tarixidan. Ahmadxon ibn Ismoilxon merosi. – Toshkent: Hilol, 2017. – B.: 27.
9. O‘zbekiston hududida tabiiy fanlar yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqot va ekspeditsiyalar (XIX – XX asr boshlari). Loyiha rahbari Dono Ziyayeva. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B.: 416.

**ASHTARXONIYLAR DAVRI MADRASALAR ME’MORCHILIGI TARIXI
MANBASHUNOSLIGI**

Imomov Oybek Ismoilovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Samarqand filiali 2-bosqich talabasi

E-mail: imomovoybek202@gmail.com

Vatanimiz tarixida Ashtarxoniylar (1601-1757) hukmronligi davom etayotgan davrda ham ko‘plab masjid va madrasalar, bozorlar, xonaqohlar, karvonsaroylar kabi inshootlar hukmdorlar, saroy amaldorlari, yirik boylar va ulamolar mablag‘lari hisobiga qurilgan.

Ashtarxoniylar hukmdori Abdulazizxon (1614-1681) tomonidan Buxoroda barpo qilingan me’moriy yodgorlik-Abdulazizxon madrasasi Ulug‘bek madrasasi janubiy tomonida me’morlar-Muhamad Solih, naqqosh-husnixatchi Mavlono binni Xo‘ja Muhammad Amin, kulol-sirchi Hoji bobolar tomonidan 1652-yilda qurilgan. Ular madrasani katta peshtoqli, ikki qavat galereyalı, keng hovlilı, ichida to‘rtta peshtoq, ikki ayvon, yozgi va qishki masjid va katta darsxonadan iborat qilib qurganlar hamda to‘rt burchagida guldastalar bunyod etganlar. Madrasa tuzilishi oddiy va hujralari ikki oshiyonli. Chorsi hovlining har tarafi o‘rtasida peshtoqli ayvon bor. Ayvon xilma-xil naqshlar, muqarnas va osma sharafa bilan bezatilgan. Umuman madrasa bezaklari yuksak san‘at va mahorat bilan ishlangan. Katta peshtoq nafis va nodir koshinkori naqshlar bilan ziynatlangan. Islimiy naqshlar qatorida afsonaviy jonivorlar tasviri ham berilgan. Madrasa hujralari, ayniqsa, janubiy ayvon peshtoqi turli-tuman naqshlar bilan bezatilgan. Gumbaz shipining ganchli muqarnaslari orasida islimiy naqshlar va zarhal bezagi bor. Hujra devorlarida tabiat manzaralari va imoratlar tasviri ham uchraydi. Naqshlar, asosan, moviy rang bo‘yoqlar bilan chizilgan. [1]

Qishki masjid ichida solingan gullarda esa ustalar odam suratini bo‘yoqlar yordamida yashirin holda chizganlar. Shunisi qiziqki, mehrobdagi sharafani odam boshidagi sallaga o‘xshatib yasaganlar. Shuning uchun ham nur tushgan paytda

kishi uzoqdan turib mehrobga qarasa, u yerda boshiga salla o‘ragan, oq to‘nli, soqolli bir “chol”ni ko‘rish mumkin.

Ammo unga yaqinlashib borgan sari nurlar tarqalib, haligi “chol” ko‘rinmay qoladi. Bu mo‘jizani faqatgina Abdulazizxon madrasasida ko‘rish mumkin. Madrasa XVII asr Buxoro mahobatli me’morligining yetuk namunasi. Madrasa asosan juz’iy ta’mirlar (bosh peshtoq muqarnasini Usta Shirin Murodov 1930-1931-yillarda ta’mirlagan) asosida tartibga keltirilgan. Hovlisida sayyohlar uchun milliy musiqa va folklor tomoshalari ko‘rsatiladi. Shimoli-sharqiy burchagidagi miyonsaroyda Buxoro yog‘och o‘ymakorligi namunalaridan iborat ko‘rgazma tashkil etilgan. [2]

Ashtarxoniylar Imomqulixon (1611-1642) devonxonasining boshlig‘i Nodir devonbegi (Nodir mirzo Tog‘ay ibn Sulton) tomonidan 1622-1623-yillarda qurilgan Nodir devonbegi madrasasi Labihovuz ansamblining sharqiy qismida joylashgan. Dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan, xonning qarori bilan madrasaga aylantirilgan. Unda madrasalarga xos ayvon, masjid va katta darsxona yo‘q, hovli atrofi to‘rt tomondan ikki qavatli kichik hujralar bilan o‘ralgan. Hujralarga o‘ymakori usulida bezatilgan eshiklar, eshiklar tepasidagi tobadonga panjaralar o‘rnatilgan.

Hovliga pishik g‘isht yotqizilgan. Bosh tarzi maydonga qaragan. Old tomonida hovuz bor. Peshtog‘i o‘ziga xos mahobatli va serhashamdir. Undagi o‘simliksimon naqshlar orasida kuyoshga intilayotgan afsonaviy Xumo qushi va bug‘uning o‘tlab yurgan tasviri koshinkori bezaklari yorqin bo‘yoqlarda aks ettirilgan. Hoshiyalariga, kitobasiga arabiy yozuvlar bitilgan. Ustungo‘shasi buramasimon. Peshtog‘ining ik yon qanotidagi ikki qavatli uchmadan chuqur ravoqli peshayvon alohida zeb berib pardoqlangan. Burchaklaridagi ikki guldasta ravoqlardagi naqshlar bilan o‘zaro uyg‘unlashgan. Madrasa tarhi 52x49 metr, hovli 34x30 metr. Nodir devonbegi madrasasi bir necha marta ta’mirlanib, gumbaz, ravoq va devorlaridagi namlik yo‘qotilib, buzilib ketgan hujralari qayta tiklandi. Samarqand va Buxoro ustalarining sa’y-harakatlari bilan bosh tarzi kayta jilolandi.

Samarqandda 1630-1635-yillarda Nodir devonbegi o'z mablag'idan Xo'ja Ahror Valiyga bo'lgan e'tiqod ramzi sifatida Shayx mozori yonida me'mor Do'stmuhammad rahbarligida ham madrasa qurdiradi. Ushbu madrasa Xoja Ahror xonaqohi yonida joylashganligidan ba'zan xalq orasida Xoja Ahror madrasasi hamda ohularni ov qilayotgan sherlar tasviri tushirilgani uchun kichik Sherdor madrasa nomi bilan ham yuritiladi. Nodir devonbegi madrasasi bir qavatli, hovlisining ikki tomonida ayvon, hujralar, masjid va darsxona joylashgan. Bosh tarzidagi peshtoq ayvon bezaklariga o'zaro uyg'unlashtirib feruza, yashil va sariq ranglarda mayda va jimjimador naqshlar bilan nafis bezatilgan. Gumbaz osti toqi va bag'allari bezagida ustaning ijodiy erkinligi ko'zga tashlanadi. XX asr boshida qurilgan darvozaga "Dunyoda nimaiki istasang, shu yo'ldan topasan" mazmunidagi yozuv bitilgan. [3]

Samarqanddagi Nodir devonbegi me'moriy majmuasining yaratilish tarixi XV-XX asrlarda barpo etilgan bir nechta imoratlar bilan bog'liq. Majmuaning g'arbiy tomoni yuksak badiiy naqsh-bezaklar va o'ymakor yog'och ustunlar bilan ziynatlangan yozgi va qishki imoratlar bilan o'ralgan. Hovlining o'rtasida hovuz va XV asrda qurilgan minora mavjud. Hovli qadimgi qabriston bilan tutash.

Madrasa rejasi shu tipdagi me'moriy inshootlardan birmuncha farq qilishi tadqiqotchilar diqqatini tortdi. Arxeologik zondajning ko'rsatishicha, madrasa to'g'ri burchakli rejasini o'zgartirish bejizga bo'lmagan. Chunki majmuaning janubi-sharqiy burchagidan Xoja Ahror Vali qabriga boradigan yo'l o'tgan va u ziyoratchilar nazdida muqaddas hisoblangan. Yo'lning to'sib qo'yilishi esa, ziyorat marosim udumlariga daxl qilardi. Ikkinchi tomondan esa, madrasaning qurilishini mashhur shayx Xoja Ahror nomi bilan bog'lash istagi buyurtmachini madrasa qurilishini arxitektura qoidalaridan voz kechishga majbur qilgan. Shu tarzda madrasa biroz noan'anaviy reja asosida bunyod etilgan.

Sankt-Peterburgdagi Ermitaj arxivi fondidan Nodir devonbegi madrasasining 1870-yil bilan sanalangan juda noyob foto dalillarni olishga muvassar bo'lindi. Fotosuratlardan birida madrasaning kirish qismidagi sharqiy peshtoq aks ettirilgan

bo'lib, unda sher va ohularni ov qilinayotgani tasvirlangan. Lekin, Sherdor madrasasi peshtoqidagi manzaradan farqli o'laroq, bu yerda quyosh tasviri yo'q bo'lib, uning o'rnini islami naqsh egallagandi. Ta'mirlovchilar o'tgan asrda ishlangan oq-qora fotosuratni diqqat bilan sinchiklab o'rganishlari natijasida Nodir devonbegi madrasasi kirish qismidagi peshtoqning asl ko'rinishini tiklashga muvassar bo'lindi.

Mustaqillik davrida madrasada juda samarali qayta tiklash, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari olib borildi. Nodir devonbegi madrasasidan endilikda xalq hunarmandchiligi ustaxonasi sifatida foydalanilmoqda. [4]

Hozirgi kunda Samarqandning Registon ansambli tarkibida kiruvchi Sherdor madrasasi Mirzo Ulug'bek xonaqohi o'rnida Samarqand hokimi Yalangto'shbiy Bahodir tomonidan 1619-1636-yillarda qurilgan. Madrasa tarhi to'rtburchak, ikki qavatli. Bosh tarzining ikki qanotida qovurg'ali gumbaz va minoralar joylashgan. Peshtoq ravog'i ichkarisidagi koshinkori bezak orasida qora zaminli koshinga oq harflar bilan me'mor Abdujabbor nomi yozilgan. Qanoslaridagi qizg'ish zarhal tusli sher oq ohuni quvmoqda. Quyosh bodomqovoq, qiyiq ko'zli qilib tasvirlanib, yuzi zarhal tusli yog'du bilan hoshiyalangan. Madrasa nomi shu tasvirdan kelib chiqqan. Binoning serhashamligi shu peshtog'ida. Peshtoqning ikki tomonida gumbazli darsxona va masjid joylashgan. Hovli atrofidagi ikki qavatli hujralar(ellik to'rtta)ning oldi ravoqli ayvon. Ayvonlar yozda darsxona vazifasini o'tagan. 1960-1964-yillarda peshtoq-qanoslaridagi koshinkori naqshlar qayta tiklangan.

Mirzo Ulug'bek davrida bunyod etilgan Mirzoyi karvonsaroyi o'rnida Yalangto'shbiy Bahodir tomonidan 1641-1646-yillarda madrasa va jome masjid barpo etiladi. Karvonsaroy asosi ustiga madrasa (shimoli-sharqiy qismida), hujralar o'rnida peshtoq gumbazli masjid (g'arbida) joylashgan. Dastlab "Yalangto'shbiy kichik madrasasi" deb nomlangan. [5]

Keyinchalik masjid bezagida boshqa bir obida qurilishiga yetadigan miqdorda oltin sarflangani uchun "tillakori" (tilladan ishlov berilgan) deb yuritila

boshlangan. Tillakori madrasasidan shahar jome masjidi va madrasa sifatida foydalanilgan. Shuning uchun madrasa (63x22 metr) katta va serhashamligi bilan boshqa madrasalardan ajralib turadi. Madrasaga (70x70 metr) g'arbiy peshtoq orqali kiriladi. Peshtoq chuqur ravoqli, ikki qanotining oldi ravoqli, ikki qavatli hujralar, burchaklarini teng hajmdagi guldasta-mezanalar egallagan. Masjid xonaqohining (10,8x10,8 metr) poygumbazi baland, uzoqdan ko'zga tashlanib turadi. Uning gumbazi nihoyasiga yetkazilmagan. Xonaqoh to'riga marmardan mehrob va zinapoyali minbar ishlangan.

O'z davrida zarhal naqshlar bilan jozibador bezatilgan xonaqohning ikki yonini oldi ravoqli, gumbaz tomli ayvonlar egallagan. Peshtoq ravog'idagi marmar taxtachada bezak ishlari 1659-1660-yillarda bajarilganligi yozilgan. Tillakori madrasasi bir necha bor ta'mir qilingan.

1817-yilda amir Haydar buyrug'i bilan zilziladan zarar ko'rgan peshtog'i qayta tiklanishi jarayonida shakli buzilgan. 1885-yildagi ta'mir vaqtida zarhal naqshlar oddiy bo'yoqlar bilan almashtirilgan. Madrasada 1930-yilda Samarkand ta'mirlash ustaxonasi tashkil etilib, koshinlarning qadimgi rangini topish yo'lida tadqiqot ishlari olib borilgan. Tillakori madrasasidagi yo'qolib ketayozgan noyob zarhal naqshlarni ustalar ilmiy o'rganib, 1970-yilda qayta tikladilar. Binokorlar madrasaning Registonga qaragan peshtog'ini Sherdor va Ulug'bek madrasasi bilan moslashtirib qayta qurganlar. Peshtoq ravog'i va ravoq ichidagi qalqonsimon bag'ali, guldastasi hamda xonaqoh gumbazi, ichidagi tilla halli bo'rtma naqshlari 1974-yilda qayta jilolandi. Baland poygumbazi ustiga feruza rang koshin bilan qoplangan gumbaz o'rnatildi.

Bosh tarzidagi bezak mavzularining boyligi, ichki va tashqi naqshlarning serhashamligi, peshtoq qanosi va tokchasidagi iroqi kashtani eslatuvchi bezaklar, bo'rtma yozuvlar o'ziga xosdir. Ravoq burchaklari, bezakli toqilarni to'ldirishda koshinpaz ustalar turli usullarni qo'llashgan (g'ishtlarning mayda naqshlari koshinlarning handasiy va islmiy naqshlari bilan moslashtirilgan). Koshinkori ravoqlarda yashil tangachalar, sarg'ish yaproqlar va feruza poyalar aks ettirilgan.

Xonaqoh izorasi koshin-namoyon, devori, gumbazi va bag'ali kundal uslubidagi serhasham naqshlarga boy. Mehrob ravog'i va bag'ali muqarnas kosachalar bilan to'ldirilib, zarhal berilgan hamda Qur'on oyatlaridan olingan bo'rtma yozuvlar bilan hoshiyalangan. Eshiklar murakkab naqsh va yozuvlar bilan yog'och o'ymakorligida pardoqlangan. Hovli sahniga (50x50 metr) marmar yotqizilgan. Atrofidagi hujralarga eshik, tobadoniga panjaralar ishlangan.

Hujralar yoz kunlari ham salqin bo'ladi. Hozirda Tillakori madrasasida muzey tashkil etilgan bo'lib, unda madrasani ta'mirlashga oid narsalar saqlangan. [6]

Ashtarxoniylar davri oliy ta'lim me'morchiligining yorqin namunalaridan biri Buxoro shahrining G'oziyon mahallasida 1730-1740-yillarda Mulla Muhammad Sharif tomonidan qurilgan, qadimiy ko'rinishi ikki qavatli, 92 hujradan iborat bo'lgan madrasa hisoblanadi. Katta peshtoqli bu madrasaning uzun fonusli guldastalari bo'lib, to'rtburchakli obi g'isht bilan bunyod etilgan. Peshtoqning oldingi qismlari sirli g'ishtchalar bilan bezatilgan. Kiraverishda, o'ng tomonda masjid, chap tomonda darsxona bo'lib, ichkarisi ichki peshtoqlar bilan qurilgan to'rtburchakli hovlidan iborat bo'lib, hujralari har xil naqshlar bilan bezatilgan. Bosh peshtoqning ichidagi ayvon xalq me'morlari tomonidan yaratilgan badiiy me'morlikning go'zal shakllari hamda iroqi muqarnasning girih usuli bilan jilo berilgan. Kirish darvozasi iroqi usuli hamda besh qirrali o'yma gullar bilan bezatilgan.

Mulla Muhammad Sharifning qabri madrasaning o'ng guldastasidan shimolda, chamasi 30 metr uzoqlikda joylashgan. 1990-yilda shu mahallada yashagan usta-me'mor F.O'rinov qabrni qayta ta'mirlab, ustiga tug' o'rnatgan. XX asrning 20-30-yillarida G'oziyon madrasasi mahalliy qamoqxonaga aylantirilib, 1948-yilga qadar bu yerda juda ko'p mahbuslar saqlangan hamda og'ir azob-qiynoqlarga solingan. Aravalarga yuklangan jasadlarni Xoja Ismat mozoriga eltib ko'mganlar. Qamoqxonaga aylantirilgan davrda mahbuslar qochib ketmasligi bahonasida madrasaning ikkinchi qavatdagi o'ttiz bitta hujrasi buzib tashlangan. Turma

sharoitiga moslashtirilib, faqat tashqi devorlari qoldirilgan. Ming afsuski madrasa hozirgi kunda ayanchli ahvolga kelib qolgan. [7]

Ashtarxoniylar davrida xonlikning boshqa shaharlari shu jumladan Qarshi shahrida qurilgan Xo'ja Qurbonbiy madrasasi murabba tarhli (21,25x21 metr), bosh tarzi peshtoq bilan ajratilgan, pishiq g'ishtdan (21x24x4 sm) qurilgan. Kichik hovli (10,7x9,1 metr) atrofi hujralar bilan o'ralgan; hujralar murabba tarhli, balxi gumbazli. Peshtoqdan gumbazli miyonsaroy orqali hovliga o'tiladi. Miyonsaroyga faqat bir tomondan murabba tarhli darsxona tutash (darsxona devorlariga tokchalar ishlab kengaytirilgan, gumbazi qalqonsimon bag'allarga tayangan), darsxonaning qarama-qarshi tomonini bir juft tor hujralar egallagan.

Xo'ja Qurbon madrasasi sirti silliqlangan g'ishtlar bilan tekis ishlangan. Shu davrga oid shahardagi yana bir madrasa Shermuhammadbiy tomonidan barpo etilgan bo'lib, u chorsi tarhli, bosh tarzi besh xonadan iboratdir. Markazida miyonsaroy, ikki yonida darsxona joylashgan, burchaklariga guldastalar ishlangan. Guldastalar tepasi fonusli, miyonsaroy orqali hovliga chiqiladi. Hovli atrofi oldi ravoqli hujralar bilan o'ralgan. Bezagida ganch o'ymakorligi va chaspak uslubida girih naqshlar qo'llanilgan.

Hozirgi Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani markazida taxminan 1625-yilda qurilgan Yodgor Valloma madrasasi barpo etilgan. Madrasa mahalliy bek mablag'iga qurilgan va uning nomi bilan atalgan. Hozirda madrasa bosh tarzining asosiy qismi va yon devorlaridan biri saqlangan. Madrasaning janubi-sharqiy qismida Yodgor Vallomaning sag'anasi bor. [8]

Xulosa qiladigan bo'lsak, oliy ta'lim tizimini o'quv binolari bilan ta'minlash, talabalarga yetarli miqdorda shart-sharoitlar yaratish maqsadida Ashtarxoniylar davrida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ahmedov B.A. O'zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: 2001.
2. Ergashev B.E. Tarixshunoslik // Darslik. – Samarqand: 2019.
3. Kattaev K. Samarqandnoma. – Samarqand: 1994.

4. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Toshkent: 2008.
5. Pugachenkova G.A. Samarqand va Buxoro. – Moskva: 1968.
6. Sa'dullaev A.S. O'zbekistonning qadimiy tarixi manbalari. – Toshkent: 1996.
7. Valixo'jaev B. Samarqand oliy ta'lim – madrasa – universitet tarixidan parchalar. – Samarqand: 2001.
8. Pardayev K.K. XVI-XVIII asrlarda Miyonqol. – Toshkent: 2014.

XIVA TUMANIDAGI MUQADDAS QADAMJOLAR

Zaripboyeva Umida

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

Xorazm viloyatining Xiva tumani azaldan o'zining tarixiy obidalari va ziyoratgohlari bilan ko'plab sayyohlarni, ziyoratchilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. O'z navbatida yurtimizning noyob me'moriy durdonalarini o'zida saqlab kelayotgan Ichan qal'ada ham ko'plab tarixiy obidalar va ziyoratgohlar saqlanib qolgan. Bugungi kunda bu ziyoratgohlarga nafaqat yurtimiz aholisi, balki chet eldan ham ko'plab sayyohlar, ziyoratchilar tashrif buyuradi. Ana shunday ziyoratgohlardan biri – Sayid Alouddin ziyoratgohi hisoblanadi.

Hazrati shayx Alovuddin boboning maqbarasi Xiva shahrining Ichanqal'asida joylashgan bo'lib, hijriy 702-yilda vafot etgan, "Barcha ilmlarning kalitdori" nomini olgan, Sayid Alouddinga bag'ishlab, shogirdi, naqshbandiylik tariqatining mashhur vakili So'fi Amir kulol tomonidan qurilgan. XIX asr tarixchilaridan Ahmad Roziy xorazmlik mashhur shayxlar ro'yxatiga Sayid Alouddinni ham kiritib, uning Shayx Najmiddin Kubrodan keyingi yirik shayx bo'lganligini yozib qoldirgan. Bu so'zlarni Jomiy va Navoiy asarlarida ham uchratish mumkin. Hazrat Pahlavon Mahmud yoshlik chog'larida, u kishidan ta'lim olgan. Shu bois Pahlavon Mahmud pirlik darajasiga erishgach: "Har kim bizni ziyorat qilish uchun kelsalar, avval aziz ustozimiz Sayyid Alouddin pirni ziyorat qilsinlar, so'ngra bizning oldimizga kelsunlar", der ekanlar. [1]

Sayid Alouddin maqbarasi "Ichanqal'a" yodgorliklari ichida eng qadimiylaridan biridir. Maqbara bitta ziyoratxona va go'rxonadan iborat bo'lib,

1957-yildagi arxeologik qazish ishlardan so‘ng to‘la ta’mirlanib hozirgi holatga keltirilgan. Bugungi kunda Sayid Alouddin maqbarasi nafaqat Xorazm vohasi ahli uchun balki butun respublikamiz aholisi uchun muqaddas ziyoratgohga aylangan.

Xivaning mashhur qadamjolaridan yana biri – Oq shayx Bobo ziyoratgohi hisoblanadi. Bu ziyoratgoh – “Ichan qal’a” majmuasining Ko’hna Ark hududi ichida, uning g‘arbiy devoriga tutashgan qismida joylashgan. Rivoyatlarga ko‘ra, XIV asrda yashab o‘tgan Shayx Muxtor Valining qadamjosi bo‘lgan.

1984 – 1985- yillarda M.Mambetullayev va V.Yagodinlar boshchiligidagi Oq Shayx Bobo tepaligi yonida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida olingan ma’lumotlarga ko‘ra, tepalik VI – VIII asrlarda barpo etilgan. Bu inshootni barpo etishda kvadrat shakldagi (35-39x35-39x8-9 sm) xom g‘ishtlardan foydalanilgan bo‘lib, bunday hajmdagi g‘ishtlar Xorazmdagi ilk o‘rta asr inshootlarining qurilishida keng foydalanilgan. Mazkur inshootni o‘rganish jarayonida madaniy qatlamlardan topilgan sopol buyumlar ham Xorazmning ilk o‘rta asrlar yodgorliklarida keng tarqalganligi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotchilar xulosasiga ko‘ra, bu tepalik qal’a ichida barpo etilgan ilk o‘rta asrlarga xos bo‘lgan mustahkamlangan feodal qo‘rg‘oni sifatida ta’riflanadi. Shunga o‘xshash qo‘rg‘on kvadrat shaklda (11,5x11,5 m) Ichan qal’aning janubiy-sharqiy burchagida ham aniqlangan. [2]

Xiva shahrida joylashgan ana shunday qadamjolaridan biri – O‘g‘lon Aziz boboning qabri hisoblanadi. Bu qadamjo Xiva shahrining Dishanqal’asida, ya’ni hozirgi 20-son mehribonlik uyining sharqiy qismida joylashgan. Mahalliy xalq orasida tarqalgan rivoyatlarga qaraganda, Hazrati O‘g‘lon aziz bobo asli Arabistondan kelgan Ismomut otaning o‘g‘li bo‘lib, 15 yoshlarida shu joyda vafot qilgan. Xivaliklar bu muhtaram zot dafn qilingan joyni muqaddas bilib, unga e’tiqod qilib, nazar-niyoz, xayr-ehsonlar qilishgan. So‘ngra uning qabri ustiga peshtoqli gumbaz, qorixona qurib, tug‘, alamlar tiklashgan. Xiva xoni Eltuzarxon davrida o‘g‘lon Aziz boboning qabri ustida, bir masjid, bitta qorixona qurilib, katta miqdorda vaqf yerlar ajratilgan. [3] Bu majmua yillar davomida Xiva xonlari

tomonidan shakllantirilgan. Asta-sekinlik bilan majmua kengayib, XVII asrda balandligi 12 metrlik minora qurilgan, minora va boshqa inshootlar XIX asr o‘rtalarida va 1996-yilda ta’mirlangan.

Shohi Mardon daxmasi – Xivadan 3 km shimolda joylashgan Shixlar qishlog‘i, Shohimardon ko‘chasida XIX asrda barpo etilgan ziyoratgoh. Ziyoratgoh turli davrlarda qurilgan maqbara, machit, qorixona, tahoratxona, oshxona, ziyoratchilar va mullalar uchun yotoqxonalardan iborat majmuani tashkil qiladi. Majmua atrofiga xon oilasi avlodlari va aslzodalarning maqbaralari qurilgan.

Daxma yaqinida kichik minora ham mavjud bo‘lgan. Islom olamining mashhur vakili hisoblangan Hazrat Ali g‘assoslar piri hisoblanadi. Xorazm g‘assoslari shu yerga ziyoratga kelib, qurbonliklar keltirishgan va ular uchun alohida dafn joylar bo‘lgan. [4] Bugungi kunda Hazrat Alining qadamjosi hisoblangan maqbara ziyoratgohga aylangan. Maqbara madaniy-tarixiy meros obyekti sifatida davlat himoyasiga olingan.

Hazrati Zayn Al-Obiddinning qabri – Xiva shahrining Ichanqal’asining Tosh darvoza yaqinida joylashgan qadamjodir. Maqbara asli arab millatiga mansub bo‘lgan Hazrati Alining nabiralaridan biri bo‘lgan Hazrati Zayn Al-Obiddin sharafiga qurilgan. Maqbara joylashgan qabriston juda qadimiy hisoblanib, tarixiy manbalarga ko‘ra, bu qabriston atrofida aholi “qizilgul” marosimini o‘tkazgan. Bu bayram har yili erta bilan yigit va qizlar yangi ochilgan qizil guldanda tayyorlashdan boshlangan. [5] Aholi o‘rtasida yana bir rivoyatga ko‘ra, bu tabarruk zot oliy martabali insonlardan bo‘lib, atrofiga so‘fiylar va toliblarni yig‘ib, xalq orasida amr-u ma’ruf yuritgan va xalq e’tiborini qozongan buyuk zot bo‘lgan. Bobo Voris gumbazi va yozgi masjidi hozirda mavjud bo‘lib, atrofi obod qilingan.

Xiva tumanidagi mashhur ziyoratgohlardan yana biri – Hazrat Ismoil otaning qabri hisoblanadi. Hazrat Ismoil otaning qabri Xiva tumanining Go‘ja qishlog‘ida joylashgan. Bu muhtaram zot Said Otaning muridlaridan biri bo‘lgan. Rivoyat qilishlaricha, Ismoil ota avvallari bir mamlakatda podshoh ekanlar. Bir voqeadan keyin qayerda mulklari bo‘lsa barchasini Said otaga nazr qilib beribdilar.

Shuningdek, Xonqa tumanidagi Qoraqosh qishlog‘ida va hozirgi Bog‘ot tumanidagi yerlar ham Hazrati Ismoil Otaning mol-mulki bo‘lib, o‘zlarining haqiqiy qabrlari Hozirgi Xiva Tumanidagi Go‘ja qishlog‘ida ekan. Said ota qolgan umrini Said otaga baxsh etgan. Shunda Said ota hazratlari: “U mavzening yerlari o‘zingizga go‘jalik uchun qolsin” – debdilar va hozirgi kunda bu mavze Go‘ja deb nomlanadi. Ismoil ota qabristoni hozirgi kunda obod qilinib, undagi xonaqoh va gumbazlar qayta ta’mir lanib, tevaragida shu qishloqning tabarruk insonlari uchun katta qabriston tashkil qilingan. [6]

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, bugungi kunda Xorazm viloyati Xiva tumanida joylashgan ziyoratgohlarning barchasiga hukumatimiz tomonidan alohida e’tibor berilib, davlat muhofazasiga olingan. O‘z navbatida yurtimizda saqlanib kelayotgan ziyoratgoh va qadamjolarni asrash barchamizning burchimiz sanaladi. Istiqlol sharofati bilan o‘zining buyuk kelajagini yaratish yo‘lida mehnat qilayotgan xalqimizning haqiqati o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi kabi boy va qadim o‘tmish borligini, umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi bo‘lgan o‘ziga xos urf-odat, an‘analarga ega ekanligini o‘rganish, shunga doir tegishli tadqiqotlarni olib borish bugungi avlod uchun juda muhim bo‘lib, yurtimizning yanada ravnaq topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qamariddin Eshon, Komiljon Durdi. Tazkirat ul-avliyo, yoxud Xorazm diyorida madfun bo‘lgan avliyolar. – Urganch: “Xorazm”, 1997. – B 45.
2. Oq Shayx bobo qasri / <https://meros.uz/object/oq-shayx-bobo-qasri>
3. Umid Bekmuhammad. Xorazm tarixidan sahifalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B.: 113.
4. Karomatov X. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. – Toshkent: 2008. – B.: 395.
5. Qilichev T. Xorazm xalq teatri. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1988. – B.: 28.
6. Abdurasulov Abdulla, Abidova Zaynab. Xorazm qadamjolari va ziyoratgohlari. – Toshkent: Yangi nashr, 2016. – B.: 76.

**III. SHO‘BA: “O‘ZBEKISTONNING YANGI VA ENG YANGI TARIXI
MANBASHUNOSLIGI”**

**NIKOLAY OSTROUMOVNING TURKISTON O‘LKA MADRASALARI
TO‘G‘RISIDAGI MA‘LUMOTLARI**

Ergashev Baxtiyar Ergashevich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası mudiri

Tarix fanlari doktori, professor

E-mail: baxergashev@mail.ru

O‘rta asrlar davri ta’limining institutsional rasmiylashuvi tarixida o‘lkaga islom madaniyatining tarqalishi va mahalliy halqning turmush tarziga singib ketishi eng muhim omil sanaladi. Bu davrda musulmon madaniy o‘ziga xosligi shakllanishida ta’lim institut sifatida muayyan ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekiston hududida islom dini falsafiy-nazariy yo‘nalishga ega bo‘lib, xalq ta’limining o‘ziga xos rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Bu Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekiston hududida keng tarqalgan boshlang‘ich *maktablar*, va oliy ta’lim muassasasi – *madrasalar* ko‘rinishidagi ta’lim tizimining tashkiliy tuzilmasida namoyon bo‘ldi. Ta’lim jarayonining bunday shakli uzoq davr mobaynida o‘z samaradorligini saqlab qoldi. Buning isbotini dunyoviy va diniy fanlar sohasida ilmiy maktablarning vujudga kelishi, jahon ilmiga buyuk olim va mutafakkirlarni yetkazib berganligida ko‘rish mumkin.

1907-yil yanvar oyida Rossiyaning xalq maorifi vazirligining yangi qismida Nikolay Petrovich Ostroumovning «Медреце в Туркестанском крае» nomli risolasi nashr qilindi. Muallif Movarounnahrda musulmon ta’lim tizimi arab bosqinidan keyin tarqalganligini e’tirof etadi. Shuni ta’kidlash joizki, tadqiqotlarda xalq ta’limi va musulmon ta’limi degan iboralar ishlatilgan.¹ [1 – 12-13 betlar] Xalq ta’limi nisbatan qadimiy hisoblanib Turkiston Movarounnahrda qadimiy ta’lim dars berish uslublari tarixi bilan bog‘liq. Qadim davrda insonning ijtimoiy hayot davomiyligini ta’minlash uchun tajribalarni avlodlar uchun meros qoldirish jarayoni ta’limi keyinchalik ta’lim tarixi shakllandi.

Zardushtiy ochiq havoda, maxsus maktablar vixaralarda olib borilgan darslar, davrlar o‘tishi bilan maxsus binolar jamoa tomonidan tashkil etilgan. Mahalliy aholi maktab madrasa kabi ta’lim maskanlari to‘g‘risida ijtimoiy zarurat sifatida qabul qilishgan. Konferensiya asosiy talablari doirasida XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshida madrasalar ta’lim tizimi manbashunosligiga oid N.P.Ostroumov Turkistondagi madrasalar nomli risolasida Turkiston o‘lkasidagi Samarqand, Toshkent, Farg‘ona vodiysi madrasalari tarixiga oid ma’lumotlar beriladi. Ushbu xabarlar 1907-yildagi holat to‘g‘risida bo‘lsa, ayrim tanqidiy fikrlari madrasalarga bo‘lgan e’tibor asosan uch yo‘nalishda: 1) Davlatning munosabati 2) Vaqflar 3) Madrasa boshqaruv tizimidagi ijobiy va tanqidiy ma’lumotlar beriladi.

O‘quv jarayoni to‘g‘risida N.P.Ostroumov quyidagi ma’lumotlarni tahlil qiladi: o‘quv yili sentyabr oyidan boshlangan va yozning issiq kunlari tugashi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘quv jarayoni may oyigacha davom etgan, Ramazon va hayit bayramlari davrida darslar bo‘lmagan. Har haftaning chorshanba, payshanba, juma kunlari o‘qish kunlari hisoblanmagan bu kunlari talabalar mustaqil ta’lim bilan shug‘ullanganlar, ular asosan o‘qiladigan fanlarga oid darsliklar va kitoblarni o‘qishgan. Bu jarayon madrasa qoshidagi maxsus o‘rgatuvchilar (Ostroumov ularni – repetitor deb eslatgan – B.E.) qolgan vaqtlarda talabalar kitoblarni ko‘chirib yozish bilan shug‘ullanganlar va bu darsliklarning bir qismini boshqa madrasalarga sotish uchun foydalanganlar. Yoz oylarida talabalar erkin mehnat bilan shug‘ullangan.² [1 – 15-bet]

Asosiy mashg‘ulot – dars ertalabki bomdod – Fajr (Quyosh chiqishiga qadar) dars kunlari madrasada doimiy bo‘lgan o‘qituvchi ertalabki nonushtadan keyin darsxonada (auditoriya deb yozilgan – B.E.) bo‘lgan va tinglovchilarni kutib turganlar. O‘quvchilar 10 kishigacha bo‘lgan guruhlardan tashkil topgan. Ayrim madrasalarda guruhlar soni biroz ko‘proq bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin bo‘lgan. Guruhlar dars xonaga kirib o‘qituvchi bilan salom berish jarayonidan keyin uning yonida yarim doira shaklida joylashgan. O‘qituvchi qarama qarshisida qori-kitobni

yaxshi o'qiyoladigan talaba o'tirgan. Qisqa duodan keyin o'qituvchi darsligini o'qishni davom ettirish to'g'risida topshiriq bergan qori darslik yoki kitobdan qiroatni boshlagan va ma'lum belgi ishoradan keyin tanaffus qilgan, bu davrda o'qituvchi qori o'qib bergan matning mohiyatini tushuntirib izoh bergan.

Talabalar sukunat saqlagan holda savollarni daftar hoshiyalariga yozib borishgan. Talabalar ushbu savollarni yuqori bosqich talabalari bilan o'rganishgan (dars davomida o'qituvchiga to'g'ridan-to'g'ri berishmagan – B.E.) va keyinchalik dars beruvchi o'qituvchi – mudarrisga murojaat qilishgan. Birinchi guruh bilan dars ikki soat davom etgan keyin ikkinchi guruh va keyingi guruhlar ham shu tartibda kirishgan. Kunning yarmida dam olishga ruxsat berilib bu davrda Peshin – Zohr namozi o'qilgan. Namozdan keyin o'qituvchi mudarris yana darsxonaga kelib Asr namozigacha yuqoridagi tartibda o'qish davom ettirilgan, taxminan to'rt soat davom etgan. Namozdan keyin talabalar choy va nondan iborat tushlik qilishgan darslar bo'lmagan vaqtlarda ovqat palov yeyishgan.

Bunday tartib kam holatlarda o'zgarishi mumkin bo'lgan talabalar kech soat 11-12 largacha mustaqil ta'lim bilan shug'ullangan. Madrasada qolgan mudarris ertangi darslarga tayyorgarlik ko'rgan yoki madrasaga kelgan qiziquvchilar bilan suhbat olib borgan.

Talabalarning yangi darslikning o'zlashtirish boshlanganida ham takrorlangan. Keyingi bosqich talabalari ham shunday jarayonni takrorlaganlar, Biroq to'planadigan mablag' miqdori yuqori bo'lgan. Ular tashkil etgan dasturxonlari kengroq bo'lib, boshqa madrasalardan mudarrislar ham taklif etilgan. Tamom qilgan talaba (Manbada kursni tugatgan deyilgan – B.E.) Nisbatan xarajati ko'proq bo'lgan dasturxon – Xatim to'yi bergan. To'yga mahalla vakillari, boshqa madrasalarni o'quvchi va o'qituvchilari ham taklif qilingan. Madrasalarning holatiga qarab mudarrislariga turli sovg'a-salomlar berishgan, ularning miqdori Mutavvaliga (iqtisodchi) bog'liq bo'lgan. Madrasa talabalari tabaqalarga qarab maosh olishgan, miqdori kam bo'lganligi sababli daromadi kam bo'lgan oiladan bo'lgan talabalar mardikorlik bilan shug'ullanganlar.³ [1 – 19-bet]

Madrasalar ta’lim tizimida o‘tiladigan fanlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quv kurslari tarkibiga eng avvalo tilshunoslik ya’ni arab va fors tillarini o‘rganish mantiq, dinshunoslik, shariat qonunlarini o‘rganish, Quronni o‘rganish, Muhammad s.a.v ta’limotini o‘rganishdan iborat dastlabki bosqich. Tillarni o‘rganish asosiy fanlar va yo‘riqnomalar bilan tanishish uchun tillar yordamchi sifatida o‘rgatilgan. Jami ilm olish uchun yigirma yil vaqt ajratilgan bo‘lib, ular uch bosqich quyi, O‘rta va oliy bosqichlardan iborat bo‘lgan. Ta’limdagi bosqichlar tizimi talabalarning ajratilgan darslarning o‘zlashtirishiga bog‘liq bo‘lgan.

Masalan Birinchi quyi Adno bosqichida ta’lim 9-10 yil davom etgan va quyidagi vazifalardan iborat bo‘lgan: Qisqacha musulmon ta’limini bilish, qisqa va undan keyin to‘liq, arab grammatikasi, qisqa musulmon huquqi va mantiqni bilish, Mantiq ikki bosqich Shamsiya va Sulmoliye kabi qismlarni o‘rganishdan iborat bo‘lgan. Avsat ikkinchi bosqichda o‘qish sakkiz yil davom etgan. Diniy ta’lim Aqqoidni o‘rganishdan iborat bo‘lib, asosiy darslik Imom Umar Nasafiyning darsligi hisoblanadi.

Muallif bu darslik asosan Xayoli, Mulla Ahmad, Mulla Abdulhakimlarning asarlarini mukammal o‘zlashtirilgandan keyin amalga oshirilgan. O‘zlashtirish qiyin jarayon hisoblangan va darslar davomida birinchi bosqichdagi o‘tilgan fanlar takror o‘tilgan — bu jarayon to‘rt yil davom etgan.

Shu bosqichda 5-6 yillarda mantiqning kengaytirilgan kurslari “Tahzib” va “Talxis” lar o‘tkazilgan, bu darslar to‘g‘ri mantiqiy xulosa va muloqot madaniyati asoslarini o‘rgatgan. Yaxshi o‘zlashtirganlar qo‘shimcha sifatida Xo‘ja Jamol, Oxun Shayx, Mirza Zohid, Oxun Kalon va Qozi muboraklarning asarlarini o‘qishganlar. 7 va 8 yillarda Hikmatul-ayn metafizikasini o‘rganishgan. Oxun Kamol va Mirzajonlarning kitoblari asosida so‘nggi a‘lo bosqichida asosan musulmon huquqiga oid “Hidoya” asarini o‘rganishlari qo‘shimcha Xonaqohi va Tatima kabi asarlarni ham o‘rganishgan. Layoqatli talaba ilmi faroiz ya’ni mulki

meros huquqini o‘rganish kerak bo‘lgan. To‘liq fanlar bo‘yicha ilmga ega bo‘lish asosida oliy madrasa bitiruvchilari qozi va muftiy lavozimiga tayinlanganlar.

N.P.Ostroumov madrasalarda umum ta’lim yo‘nalishidagi arifmetika, planimetriya ya’ni, geometriyaning yengillashtirilgan formasi, ular asosan mulkni to‘g‘ri va aniq taqsimlash uchun kerak deb hisoblangan, ya’ni murakkab oliy matematika va geometriya chuqur o‘rganilmagan. Bu davrda mustamlaka imperiya tushunchasidagi matematika, fizika, kimyo, tarix va geografiya fanlari o‘tilmagan.⁴ [1 – 19-26 betlar]

Ushbu keltirilgan ma’lumotlar imperiya ma’muriyati vakili, Turkiston ta’limi sohasi tadqiqotchisi N.P.Ostroumovning fikrlarini o‘rganish orqali yurtimiz XIX asr madrasalar ta’lim tizimiga oid ma’lumotlardan birining tahlili hisoblanadi. Madrasalar ta’lim tizimi tarixi bilan ko‘plab o‘zbek olimlari orasidan taniqli tarixchi olim R.Shamsutdinov va B.Rasulovlarning o‘quv qo‘llanmalari ma’lumotlari ham foydali hisoblanadi. Olimlar madrasalar ta’lim tizimi tarixiga oid bo‘lgan manbalarni o‘rgangan holda XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshida tarixiy davrga oid ma’lumotlarni keltirishadi.⁵ [2-10 adabiyotlar]

Turkiyalik tarixchi olim Tuba Tombulog‘lu 2023-yilda “Temuriylar sivilizatsiyasiga doir izlanishlar (maqolalar to‘plamida)” “G‘iyosiddin Koshiyning har safar ma’rukzalari yakunlanib, muhokamalar boshlanganida, men ham mahokamalarda qatnashardim.... Tekshiruv chog‘ida ularning e’tiborini tortmaganba’zi jig‘atlariga e’tibor qaratardim, joyida tanqid qildim va ba’zi tafsilotlarni to‘xtalib tushuntirdim”.⁶ [11 – 63-bet]

“Ulug‘ boshliq (Ulug‘bek) g‘ar bir necha kunda darsliklarda hozir bular va ular huzurida matematika fanlaridan ma’ruzalar o‘qishni afzal ko‘rar edi”.⁷ [11 – 63-bet]

Tadqiqotchi Turkiyada nashr etilgan Sasiliy va bilnixonlarning ma’lumotlariga manba sifatidaasoslangan holda Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasida Matematika Astronomiya geometriya kabi fanlar o‘qitilganligini ta’kidlab o‘tgan.⁸ [11 – 96-97 betlar]

XIX-XX asrlargacha tabiiy fanlar arifmetika (hisob) geometriya kabi fanlar ham o‘qitilgan.⁹ [1 – 65-bet]

N.P.Ostroumov va o‘zbek olimlarining zamonaviy tadqiqotlari o‘z mohiyatiga ko‘ra Markaziy Osiyoning XIX – XXasrlardagi madaniyat va ta’lim rivojida aks etdi. Bu sohada sodir bo‘lgan jarayonlarni eskilik va yangilik kurashi, og‘riqli, halokatli, ammo bir vaqtning o‘zida bunyodkor, yaratuvchanlik sifatida tavsiflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Н.П. Отроумов. Медресе в Туркестанской области. Журнал министерства народного Превещения. Новая серия. Глава VII. 1907. Январь. – СПб.: Сенатская типография. – С: 12-13.
2. Serbov P.I. Nikiforov A.D. O‘zbekistonda xalq maorifi. – Samarqand: 1927. – B: 3.
3. Turkistondagi madrasalarning islom nuri madaniyatidagi roli. – Anqara: 1993. Vaqf haftasi kitobida. – B: 79-83.
4. Наливкин В.П. Швеция о сохранении туземных мидраси Сирдаринской области в 1899-1891 году. – Ташкент: 1916.
5. Грамениские С. Очерк развития народного образования в Туркестанском крае. – Ташкент: 1896.
6. Керенские Ф.М. Медресе в Туркестанской области. – СПб: 1892.
7. Raxim Sh. O‘zbek maorifining o‘tgandagi va hozirgi holati. – Toshkent: 1928.
8. Бендириков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924). – Москва: 1960.
9. Islom ikki o‘t orasida. – Toshkent: 1992.
10. Abu Toxirxuja. Samariya. Meros turkumi. – Toshkent: 1991.
11. Tuba Tombulog‘lu. Temuriylar sivilizatsiyasiga doir izlanishlar (maqolalar to‘plami). – Samarqand: 2023. – B: 93, 96-97.
12. Shamsutdinov R., Rasulov B. Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri- XX boshlari) / O‘quv uslubiy qo‘llanma. – Andijon: 1995. – B: 65.

TURKISTON TA’LIM TIZIMI VA ADABIYOTLARI TAHLILI

Ergashev Baxtiyar Ergashevich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasi mudiri,

Tarix fanlari doktori, professor

E-mail: baxergashev@mail.ru

Ergashev Suxrob Muxiddinovich

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: suxrob-muxiddinovich@mail.ru

Tarix silsilasida Markaziy Osiyo xalqlari ta’lim-tarbiyasida maktab va madrasalar alohida ahamiyat kasb etgan. Maktab va madrasalar ta’limini tugatib, jahon ilm-faniga o‘z hissasini qo‘shgan buyuk allomalar yetishib chiqqan. Bu Turkiston maktab va madrasalari faoliyati, dars o‘tish me’zonlariga alohida yondashishni talab qiladi.

Ta’lim muassasalaridagi dars uslubi, adabiyotlari masalasida XX asr davomida mafkuraviy yondashuv tufayli ko‘pchilik tadqiqotlarda xolisona ilmiy baho berilmagan. Sovet davri tadqiqotlarida eski maktab va madrasalarda diniy mutassaddilar tayyorlashi, fan va madaniyatdan begona ekani kabi g‘oyaviy qarashlar hukmron edi. Zero, Abdullo Avloniy: “ilm diniy va fanniy qismlar ila ikkiga bo‘linur. Diniy kishi bo‘lmak uchun ulumi diniya o‘qimak ila barobar hisob, handasa, tarix, hikmat, kimyo, tib, ziroat ilmlari kabi fanniy ilmlarni ham bilmak, chin olim bo‘lmak lozimdir”, – deb da’vat etgan. [1]

Ma’lumki, o‘quv va tarbiya maskani sifatida tanilgan ta’lim muassasalaridagi darslik va o‘qish davomiyligi quyidagilardan iborat bo‘lgan: [2][3]

Maktablar	Fan	Vaqt
Maktabxona	Arab alifbosi, Qur’onni hijjalab o‘qish	
Daloilxona	Qur’on, Daloil ul-xayrot	2-3 oydan hatto1 yil
Qorixona	Qur’onni tilovat qilish	10 yoshdan kattalar (3-4 yil)

Otinoyi	Fors-turkiy o‘zbek va arab alifbosidagi diniy matnlar, Qur’on o‘qish	
---------	--	--

O‘g‘il bolalar uchun maktabxona va qizlar uchun otinoyi muassasalarida o‘qish davomiyligi o‘quvchining qobiliyati va ma’lumotlarni qabul qilish salohiyatiga bog‘liq bo‘lgan. Maktablar har bir shahar, qishloq va ovullarda mavjud bo‘lgan. Turkiston o‘lkasida rasmiy statistik ma’lumotlar bo‘yicha an’anaviy maktablar 1894-yilda 6445 ta, 1905-yilda 6938 ta, 1911-yilda 7070 va 1913-yilda 7666 tani tashkil etgan. [4]

Ammo Turkiston maktablari to‘g‘risida mustamlaka hukumati tadqiqotchilaridan D.M.Gramenidskiy, N.S.Kulchanov, V.P.Nalivkin va M.N.Virskiylar qator salbiy munosabat bildirib, asosan “savodsizlar” yetishib chiqqanini yozishgan. [5]

K.Ye.Bendrikov o‘zining tadqiqotida ota-onalar farzandlarini maktabga 6 yoshida berishlari va o‘qish 14 yilgacha davom etishini qayd etsa [6], P.I.Serbov va A.D.Nikiforovlar o‘qish 6-15 yil deb ma’lumot berishgan. [7] Shuningdek, ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan darsliklar, uning davomiyligi haqida to‘xtalib o‘tgan.

Tarixiy tadqiqotlarda keng tahlil qilingan eski maktablarda o‘quv jarayoni ikki bosqichda davom ettirilgan. Ta’lim quyidagi darsliklar asosida olib borilgan: [8][9]

№	O‘quv bosqichi va darsliklar
1	Kalimai shahodat yodlatilgan, harflar o‘rgatilgan
	Abjadxonlik- hisob va ko‘paytirish o‘rgatilgan
	Haftayak
	Kalomi sharif
	Chor kitob
	Sabot ul-ojizin (So‘fi Olloyor),
	Mantiq ut-tayr (Farididdin Attor)
	Hofiz Sheroziy, Fuzuliy, Bedil, Alisher Navoiy va Mashrab devonlari.
2	Yozish uchun qo‘llanma va darsliklar (“Badoi ul insho”, “Munshaot”,

	“Dastur ul Quzot”, “Mufradot” (Saidsalohiddinxo‘ja ibn Oloviddinxo‘ja), “Savodi ta’limiy” (Shermuhammad ibn Avazbek o‘g‘li Munis)) dan foydalangan
--	--

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho qo‘lyozma asar-darsliklar ta’lim muassasalari yoshlariga o‘rgatib kelingan. Tarixiy voqea va hodisalar, ko‘hna madaniyat va ma’naviyatni o‘zida aks etgan bu kitoblar tolibi ilmni ona vatan, tabiat va jamiyatga mehr-muhabbat bilan yondashishga da’vat etgan.

K.Ye.Bendrikov yuqori bosqich maktab ta’limida o‘tiladigan darslar ichida fors-tojik tilidagi Hofiz Sheroziyning (1300-1389) Xo‘ja Hofiz devoni, turkiy-o‘zbek tilida Fuzuliy, Bedil, Alisher Navoiy va So‘fi Allohyor devonlari hisoblanganini qayd etgan. [10]

Ko‘pgina maktablarda yozish ishlari o‘rgatilmagan. 2-3 yil davomida o‘quvchi o‘qish ko‘nikmasini o‘zlashtirgach, o‘qituvchi xohishi bo‘lgan talabalarga yozish san’atini o‘rgatgan. Aksari maktablarda o‘quvchilar arifmetikadan, oliy ta’lim olish uchun madrasaga kirmoqchi o‘quvchilar arab tili grammatikasidan ilm olishgan.

P.I.Serbov va A.D.Nikiforovlar an’anaviy ta’limda o‘quvchilar bilimi va davomatini qayd etish uchun jurnal yuritilmagani, dars guruh tartibida o‘tilmay, asosan yakka-individual holatda olib borilishini yozishgan. [11]

Mualliflar eski maktabda Chor kitob bilan birga husnixat yozishni ham olib borilganini qayd etishadi. Chor kitobni tugatgach, Xo‘ja Hofiz Fuzuliy, Bedil, Alisher Navoiy va So‘fi Allohyor devonlari, ayrim hollarda Favzun Najot va boshqa adabiyotlar o‘qitilganini ma’lum qilgan.

Oliy ta’lim bosqichi-madrasada o‘quvchilar barcha yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur bilim olishgan. Ko‘plab tadqiqotchilar madrasada o‘quvchilarga bir xil – adno (quyi), avsad (o‘rta) va a’lo (yuqori) kabi uch bosqichli ta’lim asosida bilim berilganini qayd etishgan. P.I.Serbov va A.D.Nikiforovlar bu bosqichning 1-yilida: fors va arab tilidagi manbalardan arab tili grammatikasi, mantiq, qisqartirilgan islom huquqi va musulmon rasm-rusum hamda marosimlarini o‘rganishgani; 2-

yilda: qisqartirilgan ilohiyot kursi, shariat qonun-qoidalarini to'g'ri sharhlashni o'rganishgan. 2-kursdagi asosiy tartib Sharhi Viqoyadan masalalar o'zlashtirgan; 3-kursda: ilohiyot va huquq yo'nalishlari o'rgatilgan. [12]

Ta'lim muassasasining madrasa bosqichida o'quv darsliklar quyidagilardan iborat bo'lgan: [13]

Darslik	Muallif
Avvali ilm	
Bidon, Kofiya	
Hadis	Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy
Kitob at-Tavhid	Abu Mansur Motridiy
Al Hidoya fi-sharhal-bidoya	Burhoniddin Marg'inoniy
Al risola ash shamsiya fi-l qavoid al mantiqiya	Ali ibn Umar Qazviniiy
Al-Favoid ad-diyoiya	Abdurahmon Jomiy
Viqoyat ar rivoya fi masoil	Mahmud ibn Ahmad Mahbubiy
An-Nuqoya (Muxtasar al-viqoya)	Ubaydulloh ibn Mas'ud Mahbubiy
Falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, jug'rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me'morchilik asoslari, xattotlik, musiqa.	

Ushbu qo'lyozma-darsliklar orqali ma'naviyati buyuk xalqning avlodlari ekanligimizni anglash mumkin. Qadimiy nodir darslik, qo'lyozma-asarlar orqali ilm-fanning turli tarmoqlariga oid ma'lumotlar avlodlarga o'rgatib kelingan.

Ushbu qo'llanmalarni o'rganish jarayonida tafakkur sohibi bo'lgan har bir inson bu zaminda yashab o'tgan xalq naqadar ulug' tarix va ilmiy-madaniy merosga ega ekanligini guvohi bo'ladi.

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi kitoblar xazinasida ushbu adabiyotlarning ayrimlari saqlanib kelinmoqda. Ayni vaqtda aholi tomonidan markazning manbalar xazinasida kitoblarni saqlash va keyingi avlodga qoldirish uchun bir qator qo'lyozmalar taqdim qilinmoqda. Ilmiy xodimlar tomonidan kitoblarning 900 dan ziyodi kataloglashtirilgan. Shundan – 234 dona jild

qo‘lyozma kitob bo‘lib, ularda – 530 ta asar jamlangan. Ularning 64 tasi Qur’oni Karim va tajvidga oid asarlar nusxasi hisoblanadi.

Shuningdek, tafsirga oid 4 ta, hadisga oid 12 ta, kalom ilmiga 78 ta, fiqhga oid 111 ta, tasavvufga oid 14 ta, mantiq ilmiga oid 31 ta, arab grammatikasiga oid 116 ta, adabiyotga oid 74 ta va boshqa fanlarga oid 10 dan ortiq qo‘lyozma asarlarning nusxalari mavjud. Manbalar xazinasida 400 dan ortiq toshbosma asarlar hamda 125 dan ortiq davriy nashrlar saqlanadi. Bu kitoblarning aksari haqida ma’lumot berib o‘tsak.

Davriy nashri nuqtayi nazardan manbalar xazinasida saqlanayotgan eng “ko‘hna” qo‘lyozma nusxa (inv. 31) Mahmud ibn Umar Zamaxshariy Xorazmiyning (vafoti 1144-yil) “Kashshof an haqoyiq at-tanziyl” asari bo‘lib, uning qo‘lyozma shakldagi ikkinchi juzi mavjud. Mazkur qo‘lyozma “Maryam” surasidan boshlab “Soffat” suralari bayon qilingan. Afsuski, asarning birinchi va ikkinchi juzlaridagi “Soffat” surasidan keyingi suralar bizdagi qo‘lyozmada mavjud emas. [14]

Yana bir e’tiborli qo‘lyozma bu (inv. 78) Ubaydulloh ibn Mas’udning (vafoti 1346-yil) “Muxtasar al-viqoya” asarning turkiy tarjimasi bo‘lib, 1628-1629-yillarda Ibn Abdurahmon tomonidan ko‘chirilgan. Xazinadagi hanafiy fiqhiga oid (inv. 7) Burhoniddin Marg‘iloniy (vafoti 1187-yil) qalamiga mansub “Al-Hidoya” asarining qo‘lyozma nusxasi ham saqlanadi. Hidoya asari hanafiy fiqhiga oid eng mo‘tabar asar hisoblanib, asrlar mobaynida butun islom olamida madrasalarda hanafiy fiqhi o‘qitish bo‘yicha qo‘llanma sifatida o‘qitilgan. [15]

Markaziy Osiyo madrasalarida asosiy darslik sifatida foydalanilgan Abdulqohir ibn Abdurahmon Jurjoniyni (vafoti 1078-yil) “Al-avomil al-mia (fi an-nahv)” kitobi grammatikaga oid asari hisoblangan. Arab tili grammatikasiga oid ushbu kitobda oyatlar grammatik tahlil qilingan. Mia (yuzta) omil, munoajat (chaqiruv) harflari, zarf az-zamon va zarf al-makon, an-naqisot (ismlarning bosh kelishikda, kesimning esa fatha kelishigida kelishi), fe’llarni jazm (sukun) qilishi tahlil qilingan. [16]

Nasta’liq xatida bitilgan ushbu kitob 42 varaqdan iborat. Sharq qog‘ozida qora, bob va fasllari qizil siyohda 5 qator tartib bilan qolipdan chiqmagan holda, matni qizil ramka ichiga olingan (matn o‘lchami: 100x60 mm; varaq o‘lchami: 190x120 mm. varaqlar sharqona raqamlanmagan) tartibda bitilgan. Kitobning muqovasi malla rangli, bosma naqshli, sharq muqovasi, turunj va lola tushirilgan. Tayakisi charmdan bo‘lgan ushbu kitob sahhofti (muqovasoz) Muhammad Amin ibn Mullo Muhammad hisoblanadi. Boshqa bir arab va fors tilida bitilgan Isomiddin Ibrohim ibn Muhammad Isfaroyiniyning (vafoti 1544-yil) grammatika oid “Hoshiyat Isomiddin a’la al-favoidu az-ziyo’iyya li-j-Jomiy” alohida ahamiyat kasb etgan. Mazkur asar Markaziy Osiyo madrasalarida oliy bosqich kursi talabalariga arab tili grammatikasini o‘zlashtirish uchun asosiy darslik sifatida foydalanilgan. Asar Abdurahmon Jomiyning “Favoid az-ziyo’iyya” asariga Isomiddin Ibrohim ibn Muhammad Isfaroyiniy ayrim izohtalab so‘zlarga hoshiya uslubida sharh yozgan. [17]

Nasta’liq xatida bitilgan ushbu kitob 182 varaqdan iborat. Kitobda xattot mashqi va forscha g‘azallar, Fuzuliy g‘azallari, Masnaviy ma’naviydan misralar, grammatikaga sharh keltirilgan. Shuningdek, “Mushkilot” hazrat Mavlaviy Jomiy nazmi, Fuzuliyning ishq haqida turkiy misrasi, grammatikaga oid yozuvlar, aqidaga tegishli bitiklar, hamd-u sano, salovotlar va islomdagi amallar haqida ma’lumot va to‘rt qator forscha nazm ham kiritilgan. Sharq qog‘ozida qora siyohda 23 qator tartib bilan qolipdan chiqmagan holda (matn o‘lchami: 135x80 mm; varaq o‘lchami: 185x120 mm; varaqlar sharqona raqamlangan) yozilgan.

Lug‘at ilmiga oid Muhammad ibn Fasihiddin Dashtboyaziyning “Sharhu nisob as-sibyon” asari ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Lug‘at Markaziy Osiyo, Hindiston va Eron madrasalarida asosiy darslik sifatida foydalanilgan. Kitoblik mashhur olim, filolog Abu Nasr Mas’ud ibn Abu Bakr ibn Husayn ibn Ja’far Faraxiy (vafoti 1242-yil) ning “Nisob al-Sibyon” asariga yozilgan sharh hisoblanadi. Arab-fors tilidagi so‘zlardan iborat ushbu asar hajman keng sharhlardan biri hisoblanadi. [18]

Allomalar tomonidan bu asarga atab ko‘plab sharh, hoshiyalar yozilgan. Nasta’liq xatida bitilgan ushbu asarda “Fiqh al-akbar” asaridan parcha, burj nomlari va abjad hisobi, namoz vaqtlariga oid fiqhiy masalalar va Huvaydo g‘azallaridan parchalar keltirilgan. Shuningdek, arab va forsha lug‘at duo va turkiy baytlar ham yozilgan. Varaqlar sharqona raqamlangan ushbu asar sharq qog‘ozida matn o‘lchami: 220x100 mm, varaq o‘lchami: 255x140 mm tartibda bitilgan. [19]

Xullas, ajdodlarimiz maktab va madrasa hamda mustaqil bilim olish uchun ulkan meros qoldirishgan. Insoniyat paydo bo‘lgandan buyon kishilik jamiyatida mavjud bo‘lgan ilmlarning har bir sohasida benazir ijod namunalarning barchasini bobolarimizning ilmiy merosi bo‘lgan ushbu darslik-qo‘lyozma asarlardan topish mumkin. Xoh u falakiyot ilmi bo‘lsin, xoh dehqon-u chorvadorga taalluqli ilmlar bo‘lsin, xoh e’tiqod xoh ibodatga, xoh falsafa, xoh odob-axloqqa oid ilmlar bo‘lsin, barcha-barchasi ushbu tarixiy meros – qo‘lyozma asar-darsliklarda mujassamdir. Darhaqiqat, darslik-qo‘lyozma asarlar shunday ulkan meroski, butun bir xalqning, millatning tarixini, madaniyati va ma’rifatini hamda kelajagini o‘zida aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. – B.: 11.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: 2006. 12-tom. – B.: 369.
3. Бендриков К.Е. Очерк истории народного образования в Туркестане (1865-1924). — Москва: 1960. — С.: 47.
4. Сербов П.И., Никифоров А.Д. Народное просвещение в Узбекистане. – Самарканд-Ташкент: 1927. – С.: 7.
5. Бендриков К.Е. Очерк истории народного образования в Туркестане (1865-1924). – Москва: 1960. – С.: 45.
6. Бендриков К.Е. Очерк истории народного образования в Туркестане (1865-1924). – Москва: 1960. – С.: 37.
7. Сербов П.И., Никифоров А.Д. Народное просвещение в Узбекистане. – Самарканд-Ташкент: 1927. – С.: 8.
8. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: 2006. 12-tom. – B.: 39.

9. Бендриков К.Е. Очерк истории народного образования в Туркестане (1865-1924). – Москва: 1960. – С.: 39.
10. Бендриков К.Е. Очерк истории народного образования в Туркестане (1865-1924). – Москва: 1960. – С.: 39.
11. Сербов П.И., Никифоров А.Д. Народное просвещение в Узбекистане. – Самарканд-Ташкент: 1927. – С.: 8.
12. Сербов П.И., Никифоров А.Д. Народное просвещение в Узбекистане. – Самарканд-Ташкент: 1927. – С.: 11.
13. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: 2003. 5-tom. – B.: 377.
14. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi qo‘lyozmalar katalogi. – Samarqand: 2017. – B.: 7.
15. O‘sha katalog. – Samarqand: 2017. – B.: 7.
16. O‘sha katalog. – Samarqand: 2017. – B.: 277.
17. O‘sha katalog. – Samarqand: 2017. – B.: 317.
18. O‘sha katalog. – Samarqand: 2017. – B.: 365.
19. Ulug‘bek Dolimov. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Universitet”, 2006. – B.: 65.

TURKISTON – TA’LIM O‘CHOG‘I (AFG‘ON TALABALARI MISOLIDA)

Mattiyev O‘tkir Begmatdulobovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası mudiri (PhD)

E-mail: mattiyevutkir@gmail.com

Tarixiy manbalarning ko‘rsatishicha, Afg‘oniston va O‘rta Osiyo xalqlari o‘rtasidagi aloqalar bir necha asrlik tarixga ega bo‘lib, ushbu aloqalar turli davrda turlicha ahamiyat kasb etganligi bilan ahamiyatlidir. Tarixan Xuroson nomi bilan atalib kelgan bu hudud Turkiston diyori bilan yagona geosiyosiy maydon hisoblanib, har ikkala hududlar aholisi o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarga hech qanday monelik bo‘lmagan. Mustaqil Afg‘oniston davlatining tashkil topishi bilan aloqadorlik jarayonida muayyan uzilish yuzaga keldi. Lekin bu davlatlararo aloqalarning butkul uzilishini anglatmaydi. Aloqalar davlatlararo dushmanlik yuzaga kelgan taqdirda ham davom etavergan. Shu boisdan ham Turkiston zaminida ko‘plab afg‘on fuqarolarini uchratish mumkin edi.

Turkistonda yashagan afg'onlarning mahalliy aholi bilan ziddiyatlarga borganligi to'g'risidagi ma'lumotlar manbalarda uchramaydi. Chunki ular ham islomiy xulq-atvor va axloqqa ega bo'lganlar. Jumladan, afg'on shahzodasi Abdurahmon shunday go'zal fazilatlar egasi bo'lgan. Hali sardor maqomidagi bo'lajak afg'on amirining shaxsiyati, fazilatlarini haqida ko'plab faktlar mavjud. Shulardan biri uning yonida yurgan rus zobiti Aleksandr Chernevskiyning ma'lumotlaridir. Uning yozishicha, sardor o'z ishiga juda ham puxtaligi bilan zobitni hayron qoldirgan. O'zaro suhbatlar ham yoqimli tarzda o'tgan. Shahzoda zobitni ko'p bora o'zi bilan mamlakatiga ketishga da'vat qilgan. [1]

Afg'onlarning Turkiston zaminiga kirib kelish sabablaridan biri sifatida ta'lim olish bilan bog'liq jihatni ko'rsatish mumkin. Ta'lim olish bilan bog'liq jarayonlar ham afg'onlarning mintaqaga kirib kelishiga asosiy sabablardan biri bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Tarixiy tahlillarning ko'rsatishicha, o'lkadagi afg'on fuqarolari ta'limi yetarli darajada o'rganilmagan.

Adabiyotlarda keltirilishicha, Turkistonda tahsil oluvchi talabalar soni 30 ming atrofida bo'lib, ularning tarkibida mahalliy millat vakillaridan tashqari, Turkiston bilan chegaradosh bo'lgan xalqlar qatorida afg'onlar ham bo'lgan. [2]

O'rta Osiyoga o'rta asrlardagi ilmiy taraqqiyot sababli xorijlik talabalarning kirib kelganligini K.Ye. Bendrikov ham ta'kidlab o'tgan. [3]

Madrasa ta'limini tugatish ijtimoiy-iqtisodiy sabablar tufayli hammaga ham nasib yetavermagan. Buning o'ziga xos siyosiy sabablari ham yetarli edi. XIX asrda O'rta Osiyo madrasalarini bitiruvchilar soni 15-16 ming kishini tashkil etgan. [4]

Bu raqam faqat mahalliy millatni anglatmaydi. O'rganilayotgan davr ta'lim tizimida afg'onlarning ham o'рни bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand shahridagi Shayboniyxon madrasasining doimiy talabalari orasida afg'on fuqarolari ham bo'lgan. [5]

Buxoro amirligi madrasalarida azaldan ta'lim olish uchun kelgan afg'on talabalari faoliyat yuritganlar. [6]

Manbalarda keltirilishicha, Turkistonda XX asrning dastlabki o'n yilligida 6-7 ming nafar afg'onlar istiqomat qilgan. Ularning ba'zilari bu yerda o'zining ikkinchi oilasiga ega bo'lganlar, ko'pincha ijara xonadonlarda yashaganlar. Ularning farzandlari mahalliy musulmon, rus va yangi tipdagi maktablarda tahsil olgan. Afg'onlarning diniy e'tiqodi, turmush tarzidagi yaqinlik bu borada qo'l kelgan. Bundan tashqari, mazkur davr hujjatlarida afg'onlarning rus boshlang'ich maktablari va rus gimnaziylarida ham tahsil olganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar uchraydi. [7]

1917-yil voqealaridan keyin ham Afg'onistondan muhojirlar oqimi davom etavergan. Bu faqat yangi hukumatning kuchli nazorati ostida davom etgan. Masalan, 1918-yilning o'zida 2 ming nafar afg'on fuqarosi mamlakatga kiritilgan. [8]

Mamlakatga kirib kelayotgan afg'on fuqarolari ayrim sabablarga ko'ra qayd etilmagan. Keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, afg'onlarning O'rta Osiyoga kirib kelish sabablari tadqiqot davriga kelib o'zining avvalgi mazmun-mohiyatini o'zgartirdi.

XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrdagi migratsiyalar sababi tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur davrda afg'onlarning diyorimizga kirib kelishi siyosiy ahamiyat ham kasb eta boshladi.

Buning bosh sababi Afg'oniston va O'rta Osiyo masalasidagi ingliz-rus raqobatining natijasi edi. Ingliz-rus raqobatining O'rta Osiyo va Afg'oniston masalasida keskinlashuvi mintaqa aholisini ham yo'lboshlovchi yoki ayg'oqchi sifatida muammoga jalb qilinishiga olib keldi. Ular ingliz va rus hukumatiga xizmat qilish jarayonida mintaqada yashab, o'lka aholisi, hududning siyosiy ahvoli to'g'risida ma'lumotlar to'pladilar.

Afg'on fuqarolarining elchilik missiyalari tarkibida kuzatuvchi va yo'lboshlovchi sifatida kelishi ularning o'lka geografik joylashuvidan xabardor ekanligining isbotidir. Tarixiy aloqadorlik nuqtayi nazaridan e'tibor qaratiladigan bo'lsa, O'rta Osiyodagi afg'on fuqarolari aksariyatining turmush kechirish darajasi

yaxshi bo‘lmagan. Ular yashab qolish ilinjida taklif qilingan har qanday ishga rozilik bildirganlar. O‘z mamlakatlaridagi iqtisodiy ahvolning O‘rta Osiyoga nisbatan og‘irligi ularni vatanlariga qaytib ketishiga yo‘l qo‘ymagan.

Shunga qaramasdan, yaxshi hayot kechirish maqsadida ikkala mamlakat o‘rtasida qatnab yurgan afg‘onlar ham bo‘lgan, bu esa Turkistondagi afg‘onlarning soni bo‘yicha aniq ma’lumotlar olishga to‘sqinlik qiladi. Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘z yurtiga qaytishni istagan afg‘on fuqarolari ortiga qaytib ketgan, mamlakatda yashab qolganlari esa assimilyatsiya jarayoniga tortilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана. Том II. – Москва: 1965. – С.: 29.
2. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. – Москва: 1958. – С.: 218.
3. Бендриков К.Е. Очерки истории народного образования в Туркестане (1865-1924). М.изд. Академии педагогических наук РСФСР. – Москва: 1960. – С.: 16.
4. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. Изд. Императорская Академия наук. – СПб: 1843. – С.: 223.
5. Muxiddinov S. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqand viloyati maorifi. Dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand: 2020. – B.: 17.
6. “O‘zbekiston tarixi”. – Toshkent: 2005. – B.: 255.
7. Этнический атлас Узбекистана. Институт «Открытое Общество» - Фонд «Содействие Узбекистана». – Ташкент: 2002. - Б.: 452.
8. Является иллюстрацией Странисы с. Совместное издание «ИООФС — Узбекистан». – Ташкент: 2002. - Б.: 39.

Sadriddin Ayniyni Samarqand tarixiga oid ilmiy tadqiqotlari

Temirov Farrux Umedovich

Buxoro Davlat Univeriteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi mudiri

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: f.u.temirov@buxdu.uz

Sadriddin Ayniy (1878-1954) o‘zbek hamda tojik adabiyoti va tarixi rivojiga katta hissa qo‘shgan zukko olim va adibdir. Sadriddin Ayniy o‘zining qariyb oltmish yillik ilmiy-ijodiy faoliyati davomida o‘zidan boy madaniy va ma’naviy meros qoldirdi. Uning ilmiy merosi ilm va ma’rifat ixlosmandlari uchun o‘ziga xos mahorat va ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning ilmiy merosi ilm va ma’rifat ixlosmandlari uchun o‘ziga xos mahorat va ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Olimning Samarqand tarixi, Amir Temur va temuriylar davri tarixi masalalariga ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ham O‘zbekistonda ilmiy temurshunoslikka qo‘l urilgan dastlabki ilmiy ishlardan hisoblanadi.

Buxorodagi siyosiy jarayonlar, amirlik hukumati tomonidan Yosh buxoroliklar, jadidlarni ta’qib etishi tufayli 1917-yilda Samarqandga ko‘chib o‘tgan Ayniy o‘zining keyingi faoliyatini faqat ilmiy – ijodga bag‘ishladi. Olim Samarqandda yashagan yillarida shahar tarixini, me’moriy obidalarini va osori – atiqalari bilan qiziqib, yaqindan tanishdi. Ilmiy safarlarda bo‘ldi. Samarqand tarixining jonli guvohi sifatida, nodir qo‘lyozma manbalarni o‘rgandi. O‘z davrining o‘lkashunos olimi sifatida ham tanildi. Tarix yaratib bergan imkoniyatdan unumli foydalangan adib, Samarqandda ko‘plab asarlar va maqolalarini yozishga muvaffaq bo‘ldi. [1]

1917-yil Buxorodagi aprel voqealaridan keyin Sadriddin Ayniy ijodida yangi bosqich boshlandi, deyish mumkin. Chunki, adib Buxorodan Samarqand shahriga ko‘chib o‘tdi. 1917-yil noyabrda Sadriddin Ayniy Buxorodan Samarqandga hijrat qilishi, ko‘chib o‘tishi munosabati bilan “Samarqandu Buxoro” she’rini yozadi. [2]

Olim Samarqandda kelganida Turkiston jadidlarining yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy, shuningdek, Saidrizo Alizoda, Siddiqiy Ajziy, Saidahmad Vasliy, Abduqodir Shakuriy, Hamid Azamatov, Muhammad Rajab Muqimzoda kabi o‘z davrining taniqli mahalliy ma’rifatparvar ziyolilar kutib olib, bilan yaqindan tanishib, ularning hammaslagiga aylandi. Xasta Sadriddin Ayniyni bular qo‘llab-quvvatlab, ham moddiy ham ma’naviy jihatdan ham yordam berishadi. Shundan keyin zullisonayn adibning 36 (1917-1954) yillik hayotining

asosiy qismi Samarqand shahrida kechdi. Sadriddin Ayniy 1917-yil 3-iyunda Samarqandga ko'chib kelgandan keyin bir muncha vaqt do'stlarinikida yashadi. U Samarqandning mashhur va birinchi pedagoglaridan Abduqodir Shakuriy va Ismatulla Rahmatullayevlarning xonadonida yashaydi, keyinroq do'stlari uni jadic Vadud Mahmudning singlisi Salohatbegimga uylantirishadi. [3]

Ikkinchi Sharq Uyg'onish davri - XIV-XVI asrlardagi ikkinchi "Temuriylar Renessansi"dir. Bunda Amir Temur bunyod etgan ulug' saltanatning o'rne va ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi davrda jahonga "hali-hanuz o'z ta'sirini o'tkazayotgan O'rta Osiyo sivilizatsiyasi asoschisi", qolaversa, tarixda ham o'chmas iz qoldirgan buyuk davlat arbobi, muzaffar sarkarda, mohir diplomat, jonkuyar ilm-fan homiysi, buyuk bobokalonimiz Amir Temur asos solgan saltanat o'ziga xos salmoqli o'ringa egadir.

Temuriylar Renessansi-Musulmon Renessansi Sharq tamadduni tojidagi javohirlardan biri sanalib, uni o'rganishga bag'ishlangan ba'zi tadqiqotlar yaratildi. Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida tarixda birinchi marotaba: "Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman", - deb ta'kidlagani bejiz emas.

Sadriddin Ayniyning Amir Temur va temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan tarixiy tadqiqotlari, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekistonda temurshunoslikka qo'l urilgan dastlabki ilmiy ishlar deyish mumkin. O'sha yillarda Samarqand osori atiqalarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etgan. Sadriddin Ayniy ham o'zining "Amir Temur binolaridan. Bibixonim xarobasi ila musohaba", "Samarqand shahri", "Eski osorlar. Chilustun, Ko'ksaroy, Chinnixona va Ko'ktosh", "Tarixiy tasxeh", shuningdek, "Ulug'bek rasadxonasi" va "Tarixiy yodgorliklarning buzilib ketilishiga yo'l qo'yilmasin" kabi maqolalarida Samarqand shahrining tarixiy-me'moriy yodgorliklariga va tarixiy topografiyasiga keng to'xtaladi. [4]

Muallif Amir Temur va temuriylar davrida Samarqandda yuz bergan o'zgarishlar, obodonchilik ishlari, barpo etilgan me'moriy obidalar, maqbaralar ta'rifiga keng o'rin ajratgan. Tasvir mazmunidan bu ishlarning barchasi yoki muayyan qismi Amir Temur xizmatlari mahsuli ekanligi, sohibqiron hokimiyat tepasiga kelgunga qadar Samarqand xaroba holga tushib qolganligi, Amir Temur esa shaharning aksar qismini qayta tiklashga jazm etganligi to'g'risidagi fikrlarni ilg'ab olish qiyin emas. Shu bilan birga Sadriddin Ayniy Amir Temurning shon-shuhratiga hech qanday shubha qilmagan holda, u qurdirgan imoratlarning tarixiy-

badiiy jihatlarini ochib bergan. Go'ri Amir kompleksining tavsifini berayotganda, uning Amir Temur qudratiga mos va muvofiq ekanligini ochiq yozgan.

Sadriddin Ayniy "Samarqand shahri" nomli maqolasida esa, Samarqand shahrining qadimgi davridan Amir Temur taxtga kelgunga qadar bo'lgan tarixiga qisqacha to'xtalib o'tadi. Uning "Samarqand shahrining birinchi binosi" nomli bo'limida, Iskandar Zulqarnaynning O'rta Osiyoga qilgan yurishi davrida Qadimgi Sug'diyona davlati va uning poytaxti bo'lgan Maroqandda (Samarqand) shahri tarixi haqida muhim ma'lumotlarni keltiradi. "Hikoya kitoblari Bog'i shamol tomonda bo'lgan hozirgi "Devori qiyomat" va "Devori Ko'ndalang"larni ham Iskandarga nisbat berilar. Eski zamonlarda (hozirgi Samarqand bino bo'lgandan burun) Oq va Qora daryolarning oralarida Dobid qishlog'i o'rni, "Sug'd" qavmining markazi bo'lub, "So'g'diyon" deb atalgan bir shaharning borligini rivoyat qilinadi". [5]

Olim Amir Temurning bunyodkorlik faoliyatini yuqori baholab uning tomonidan Samarqand, Shahrisabz, Turkistonda qurilgan monumental obidalarining benazirligini, Amir Temurdan keyin musulmon sharqida bular darajasidagi badiiy mukammal binolar qurilmaganligini alohida ta'kidlaydi. Bibixonim masjidi esa Amir Temur shon-shuhratining cho'qqisi sifatida e'tirof etiladi. "Temurning katta imoratlaridan biri, Xonim (Bibixonim – F.T.) me'moriy yodgorligidirkim bugungacha xarobasi ko'zlarni qamashtiradi, Xonim masjidi 801 hijriyda (1399) boshlanib, 806 hijriyda (1405) bitdi. Bu binoning ichidagi ayvonlari pishiq g'isht bilan yopilib, marmar toshdan yo'nilgan 80 ustun ustiga solingan edi".

Sadriddin Ayniy temuriylar davrida yashab ijod etgan mashhur allomalar, mutafakkirlar, yirik diniy ulamolar hayoti va faoliyati to'g'risida ham muhim tadqiqot ishlarini olib borgan. Uning yozishicha, Sohibqiron Amir Temur o'z davrida Samarqanddagi Shayx Nuriddin Basir va Shayx Burhoniddin Sag'aji (Sog'arjiy) kabi olimlar sharafiga maqbaralar qurdirgan (ayrim manbalarda yozilishicha, Sohibqiron Amir Temur bu har ikkala ulamoni o'zining piri sifatida bilgan (xuddi Ahmad Yassaviy singari – F.T). Bularning birinchisi so'fiylik oqimi vakili bo'lib, ko'proq "qutbi – Chohardahum", ya'ni "14-qutb" (sufiylikdagi diniy unvon) nomi bilan mashhur bo'lgan Shayx Nuriddin Basir maqbarasidir. [6]

Sadriddin Ayniyni "Qutbi chohardahumning ko'rinishi" ("14 – Qutbning ko'rinishi"). maqolasida, Amir Temur tomonidan Shayx Nuriddin Basir qabri ustiga maqbara qurganligi, uning atrofini obod qilganligini aytib: "Amir Temur o'z hukumati zamonida Shayx Nuriddin Basirga hurmati va e'tibori yuzasidan uning mozorini ark qo'rg'oni ichida olgan, ham qabri ustida yuksak bir gumbaz yasatib, gumbaz ustidan oltindan qubba qo'ydurib o'tquzg'ondir".

Muallifning fikricha, Shayx Nuriddin Basir Toshkentda tug'ilib, keyinchalik Samarqandga ko'chib o'tgan va shu yerda dafn etilgan. "Shayx Nuriddin Basir Samarqanddagi Ko'kmachit mahallasida o'lub, shu mahallaning yovuqlaridan oqadigan "Jo'yi Chashmayi Navadon" ("Navadon bulog'i arig'i") bo'yida Samarqand arkining (hozirgi Tuproq qo'rg'on) kunchiqar tomonida ko'milgandir".

Sadriddin Ayniyning yozishicha, Amir Temur o'z davrining mashhur muridlaridan bo'lgan Shayx Burhoniddin Sag'aji vafotidan so'ng uning maqbarasini qurishga farmoyish beradi. Bu maqbara Ruhobod nomi bilan atalgan. O'rta Osiyo me'moriy obidalarining mohir tadqiqotchisi, tarixchi olim, akademik G.A.Pugachenkovaning qayd etishicha, Ruhobod nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu maqbara bir xonali, gumbazli hashamatli g'ishtin bino bo'lib, murabba' tarhli, uning charxi gumbazida darchalar ishlangan. Bosh tarzidagi ravoqsimon darvozaxona o'yma-o'yma parchinlar bilan qoplangan. "Shunisi e'tiborga sazovorki, bir-birida ancha masofada qurilgan uchta hashamatli maqbara – Qutbi-Chohardahum, Ruhobod va Go'ri Amir bir-biriga o'xshashdir. Ularning gumbazlari Samarqandda serob bo'lgan ko'm-ko'k daraxtlar osha qad ko'tarib turibdi". [7]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Sadriddin Ayniy adabiyotshunos, tarixchi, o'lkashunos va sharqshunos olim sifatida Samarqand tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari, asarlari va ilmiy maqolalari o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, bu izlanishlar shahar tarixining ayrim o'rganilmagan jihatlarini yoritishga xizmat qila oladi. Shuningdek, temuriylar davrida yashab o'tgan mashg'ur olimlar, allomalar, mutafakkirlarining ilmiy-ijodiy faoliyati, ilmiy merosini chuqur o'rgangan, katta-kichik asarlar, ilmiy-adabiy va tarixiy maqolalar yozgan, ular tomonidan qoldirilgan boy ilmiy merosni turkiy va fors tillaridan tarjima qilishda, tahrir qilib nashr ettirgan.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati:

1. Sadriddin Ayniy. Samarqandu Buxoro // Shu'lai Inqilob, 1919, № 11, 26-iyun. – B.: 6.
2. Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни. (краткий хронологический очерк). - Душанбе: Дониш, 1982. - С.: 51.
3. Sadriddin Ayniy. Amir Temur binolaridan Bibixonim xarobasi ila musohaba // Bolalar yo'ldoshi. 1919, № 2, 23-may. – B.: 3.
4. Sadriddin Ayniy. Ulug'bek rasadxonasi // Lenin yo'li. 1948, 9-iyul; Uning o'zi: Tarixiy yodgorliklarning buzilib ketilishiga yo'l qo'yilmasin // Qizil O'zbekiston. 1948, 12-iyun, Lenin yo'li, 1948, 15-iyul.

5. Sadriddin Ayniy. Samarqand shahri // Maorif va o'qituvchi, 1928, № 10. – B.: 47-50.
6. Sadriddin Ayniy. Qutbi chahordahumning (14-qutb) ko'rinishi. // Maorif va o'qituvchi. 1926, № 5. – B.: 31-32.
7. Пугаченкова Г. Архитектурное наследие Темура. - Ташкент: 1996. - Б.: 34-36.

ВЛИЯНИЕ ТУРКЕСТАНСКОГО ОТДЕЛА РУССКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА НА МУСУЛЬМАНСКУЮ СИСТЕМУ ОБРАЗОВАНИЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ

Мулладжанова Хосият Яздонкуловна

Самаркандский институт экономики и сервиса

Преподаватель кафедры Социальных дисциплин

В распространении образования в Средней Азии в конце XIX – в начале XX вв. большую роль играли мечети, которые являлись центром религиозной жизни мусульман. В Средней Азии была сформирована мусульманская система образования, также были разработаны методы обучения. Мечети в крупных городах Средней Азии функционировали в качестве религиозных учебных заведений, которые в свою очередь были разделены на два типа школы и медресе. В школах обучение проводилось на арабском языке определенного возраста в группах не имело значения и здесь обучались мальчики в возрасте от пяти до пятнадцати лет. Они изучали арабский алфавит, а также наизусть Коран. В медресе изучали наряду с религиозными знаниями как богословие, фикх, тафсир и хадисы также изучались светские науки такие как алгебра, геометрия. Школы и медресе были полностью сосредоточены в руках духовенства.

В медресе не использовалась предметная система обучения занятий проводились по специальным книгам, время для изучения каждой книги не было установлено. После завоевательных походов Царской Россией на Среднюю Азию, одним из главных вопросов царского правительства стало образование и просвещение, в духе имперской идеологии. Одним из

реформаторов по развитию образования в Туркестане являлся генерал - губернатор К.П. Кауфман. [1]

Проекты и планы по организации школьного образования в Туркестане были отражены в идеях К. П. Кауфмана, Н.И. Ильминского, Н.П. Остроумова и других туркестанских реформаторов. Кауфман всячески привлекал российскую общественность и научные общества к идее развития школьного образования в Туркестанском крае. Для дальнейшего развития образования огромную роль сыграл Туркестанский отдел Русско-географического общества. Определяя историческую роль Туркестанского отдела в развитии научной мысли в Туркестанском крае, следует отметить его исключительное влияние на развитие просвещения и культуры.

В Туркестанском крае наравне с другими научными и общественными учреждениями, управление Туркестанского отдела занималось разработкой методической учебной литературы по географии и истории Туркестанского края, организовывало открытые общие собрания Туркестанского отдела для учителей школ и гимназий. [2]

Изначально были открыты русско-туземные школы начального образования Туркестанского края, для обучения детей местного населения нерусских национальностей. При канцелярии Туркестанского генерал губернаторства была организована особая комиссия, с целью составления единой учебной программы, в местных и русских классах для всех русско-туземных школ края. [3]

Ценно являлась приобщение к ценностям европейской русской культуры, имея ввиду подготовку из них в последующем чиновников низового звена администрации края. Первая школа была открыта в 1884 году в Ташкенте. В этой школе предусматривалась четырехлетний срок обучения возраст составлял от 7 до 17 лет. Сначала обучались мальчики и юноши, позже были открыты двухклассные женские русско-туземные школы. Учащиеся в этих школах делились по классам – русский и туземный. В

школе работали русские преподаватели как правило были выпускники Ташкентской учительской семинарии, которые преподавали в школе русский язык и арифметику, и учителя местной национальности – мулла который обучал местному языку, арабскому языку и письменности, преподавал основы мусульманского вероучения. Первые два часа занятия проводил русский преподаватель, который занимался чтением, письмом и просто беседовал с учащимися на русском языке, а вторые два часа велись занятия на местном языке. [4]

В русско-туземных школах, в отличие от местных школов занятия проходили по определенным программам. Уроки проводились по четко указанному расписанию с указанной продолжительностью каждого урока. Занятия шли с 1 августа по 1 июня следующего года. Были определены также неурочные дни в процессе учебного года. Об этом свидетельствует табель не учебных дней в русско-туземных школах Туркестанского края. Школы состояли из трех отделений классов, а учебная неделя продолжалась шесть дней. Российские программы не соответствовали местным условиям и образу жизни. [5]

В задачу Туркестанского отдела входило объединить всех ученых и преподавателей, связанных с преподаванием учебных предметов на местном материале, для подготовки специальной учебной литературы и программ. Данные обстоятельства заставляли видоизменять учебные программы, применительно к местным условиям.

Следует отметить важную роль Туркестанского отдела в создании научной литературы, а также учебников по географии и краеведению для средних школ. Реализация образовательных программ в Туркестане способствовало с одной стороны созданию диалога между учеными общественными деятелями и педагогами туркестанского края по вопросам культурной, научной и образовательных сфер, с другой стороны создало почву для развития среднего и высшего образования. Таким образом

образование стало прочной основой в введении русской грамоты и культуры в Туркестанском крае. Оно повлияло на развитие научной школы, социально-экономическую и культурную жизнь народов Туркестанского края.

Список использованной литературы

1. Бартольд В.В. «История культурной жизни Туркестана». – Ташкент: 1875. – С.: 83.
2. Селиванов А.Ф. «О русско-туземных школах в Туркестанском крае. Школьное образование. – Москва: 1891. – С.: 65.
3. Граменицкий С.М. «Очерк развития народного образования в туркестанском крае». – Ташкент: 1896. – С.: 49.
4. Граменицкий С.М. «Очерк развития народного образования в туркестанском крае». – Ташкент: 1896. – С.: 50.
5. Думенко М.Ф. «Русско-туземные школы Туркестана». – Ташкент: Мин-во просв. УзССР. – С.: 87.

TURKISTON JADIDLARI TAFAKKURIDA YOSHLAR MASALASINI METODOLOGIK ASOSDA O‘RGANISH

Musaxonov Sayidmuhammad Yo‘ldoshxon o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Tarix fakulteti 4-kurs talabasi
E-mail: musaxonovs19@mail.ru

Yangi O‘zbekistonda tub o‘zgarishlar yo‘liga o‘tganidan so‘ng o‘ziga xos milliy rivojlanishining strategiyasi asosida yetakchi birlamchi vazifa sifatida yuksak ma’naviyatga, ma’naviy sog‘lom jamiyatni shakllantirishga erishishni maqsad qilib belgilab oldi. Ma’naviy komillik, milliy madaniyatni tiklash, mustahkam ma’naviy tushunchalarga, umumjahon gumanitar va milliy qadriyatlarga tayanuvchi erkin demokratik tafakkurning shakllanishi yangi hayot sari harakatning, barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashning asosiy yo‘nalishi va zarur shartidir. Madaniy-ma’naviy yuksalishning mas’uliyatli vazifalarini amalga oshirishda tarix fani alohida o‘ringa ega.

Tarix fanining rolini kuchaytirishga qaratilgan keng qamrovli tadbirlar majmuasi, tarixiy haqiqatning tiklanishi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida belgilab berilgan edi. Unda hozirgi tarix fanining markaziy vazifalaridan biri “o‘zbek xalqining haqqoniy tarixini o‘rganish”, shu jumladan “...davlatchilikning turli davrlarida qadimdan to hozirgi kungacha hududimizda yashagan xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’naviy hayoti masalalarini o‘rganishdir” deb ko‘rsatilgan. [1]

Shuni ta’kidlash kerakki, yaqin rivojlanish yillarida jadidchilik tarixini yoritishga bag‘ishlangan salmoqli ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Shunga qaramasdan, qaytadan ilmiy tahlil etishni va qaytadan konseptual baho berishni talab qiluvchi anchagina sahifalar mavjud. Ular orasida Turkiston jadidlarining yoshlar masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan qarashlari ham bor. Uning sistemali o‘rganilishiga bo‘lgan ijtimoiy zaruriyat haddan tashqari katta. Bu, eng avvalo, jadidlarning yoshlar va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha g‘oyalarining hozirgi mustaqil O‘zbekistonning barkamol yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan, tub o‘zgarishlar amaliyoti bilan ko‘p jihatdan hamohangligi bilan belgilanadi.

Ma’lumki, jadidlar Turkistonning gullab-yashnashini mustamlaka zulmidan ozod bo‘lish, mustaqillikka erishish va ijtimoiy tuzumni boshqarish sistemasini isloh qilish yo‘li bilan demokratik davlat tuzish, iqtisodiy qoloqlikni yengish va jahon sivilizatsiyasi yutuqlarini egallash bilan bog‘laganlar. Yetilgan muammolarni yechishni ular, ayniqsa, o‘zlarining dastlabki davrdagi faoliyatlarida, ma’rifatda deb bilgandi.

Shu bilan birga jadidlar milliy davlatning tiklanishida, Turkistonning tarixiy taraqqiyotning ilg‘or marralariga chiqishidagi jarayonida asosiy o‘rinni ilg‘or, ma’naviy boy va siyosiy toblangan yoshlarga ajratganlar. Bu g‘oyalar bugunga kelib O‘zbekistonda o‘z taraqqiyotini topdi va hayotga tadbiq etilmoqda. Yangi O‘zbekistonda yosh yoshlar masalalari davlat siyosatining markazida bo‘ldi. Shavkat Mirziyoyev mustaqil O‘zbekistonning ilgarilab borayotgan taraqqiyotida

yoshlarning roliga to‘xtalib, shunday ta’kidlagan edi “Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”. [2]

Jadidlarning hayoti va ilg‘or ijodiy izlanishlari yoshlarni istiqlol, Vatanga muqaddas muhabbat ruhida tarbiyalashga ularning hozirgi tub o‘zgarishlar jarayonidagi ishtirokini faollashtirishga yordam beradi. Nihoyat, jadidlarning yoshlar masalalari bo‘yicha qarashlarini har tomonlama o‘rganish jadidchilik tarixining yana bir sahifasini to‘ldirishga, uning milliy-ma’naviy xazinasiga qo‘shgan hissasini to‘laroq baholashga imkon beradi. Jadidlarning yoshlar masalasi yo‘lidagi qarashlarini o‘rganish tarix haqiqati to‘g‘risidagi ilmiy bilimlardan ma’naviy va axloqiy yangilanish jarayonlarini kuchaytirishda, yosh avlod O‘zbekistondagi yangi jamiyat qurishning ijodiy dasturini amalga oshirishdagi ijtimoiy rolini oshirish yo‘llarini izlashda foydalanish uchun imkon yaratishi ham muhim ahamiyatga ega.

Jadidlar chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi chiqib, Turkiston jamiyatini ijtimoiy-siyosiy qayta qurish, milliy davlatchilikni tiklash, xalq maorifi borasidagi qarashlarini o‘zlarining “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Oyna”, “Sadoi Turkiston”, “Kengash”, “Hurriyat” va boshqa shu kabi gazeta va jurnallar sahifalarida yoritib bordilar. Ular jadidchilik g‘oyalarini faqatgina ma’rifat bilan emas, balki uning siyosiy mavqesini tubdan o‘zgartirish, mustaqillikka erishish bilan ham bog‘lab targ‘ibot qilgan edilar. Hozirgi kunda bu nashrlar jadidchilik harakatini o‘rganishda, jadidlarning o‘lka ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy hayotidagi rolini aniqlashda eng muhim manbalardan hisoblanadi. [3]

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingina xolisona ilmiy tahlilga keng imkoniyatlar ochib berildi. Totalitar tuzumning keskin yemirilishi, marksistik metodologiyaning rad etilishi, milliy ma’naviyatning tiklanishi vatan tarixini yoritishga haqiqiy ilmiy, siyosatdan xoli bo‘lgan

munosabatlarning shakllanishiga, shu jumladan jadidchilik haqidagi tarixiy haqiqatning tiklanishga imkon berdi. Jadidlar harakati tarixi va milliy ma’rifatparvarlarning boy ijodiy merosi to’g’risidagi ilmiy tasavvurlarning kengayishiga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tomonidan nashr qilinadigan vaqtli to’plamlar ham ta’sir ko’rsatdi.

Jumladan, “O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar” to’plamida jadidlar faoliyatining ma’rifat, ta’lim va yoshlarni tarbiyalash sohasidagi faoliyati xolis tahlil qilib berilgan. Jadidlarning ma’rifatparvarlikdan siyosiy harakatgacha bosib o’tgan yo’li “Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash” to’plamida aks ettirilgan. Unda jadidchilikning tarixiy asoslari va uning jahon tarixidagi o’rni, ma’rifatparvarlar g’oyalarining milliy davlatchilikni tiklashdagi ahamiyati, Buxoro jadidlar harakatining o’ziga xos xususiyatlari, Turkiston jadidlarining mustaqillik uchun kurashdagi roli kabi kam o’rganilgan masalalarga e’tibor qaratildi. [4]

Tarixshunoslik tahliliga umumiy yakun yasab, shunday xulosaga kelish mumkinki, umuman, hozirgi paytga kelib jadidlar harakatini xolis yoritishning tarixshunoslik asoslari solingan jadidlarning jamiyatni sistemali zamonaviylashtirish, tarixiy jarayonni tezlashtirish va milliy davlatchilikni tiklash bo’yicha dunyoqarashi va ularning vatanparvarlik faoliyatini ilmiy baholashning adekvat konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Lekin Turkiston jadidlarining yoshlar muammosiga bo’lgan qarashlari kam o’rganilganicha qolmoqda.

O’rganilayotgan mavzuning turli aspektlari bo’yicha muhim manbaviy materiallar Alisher Navoiy nomidagi Davlat kutubxonasining noyob kitoblar va qo’lyozmalari bo’limidan, Samarqand viloyat madaniyat va san’at tarixi muzeyidan, S.Ayniy uy-muzeyi fondlaridan, shuningdek, SamDU ilmiy kutubxonasining qadimiy qo’lyozmalar bo’limidan olish mumkin. Ushbu maqola xulosalaridan milliy mafkuraning tarixiy asoslarini ishlab chiqishda, o‘zbek xalqi ma’naviy hayotining asosiy muammolari, barkamol yosh avlodni tarbiyalash jarayonlarida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston tarixi. 1999. № 1. – B.: 15-17.
2. Behbudiy M. Xayrul umuri avsataho. // Xurshid. 1906. 11 okt.; Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi. // Oyna. 1914 19-iyul; Muzaffar A. Ong umidlari. // Sadoi Turkiston. 1915. 29 yanv.; 27 fev.; So‘fizoda M. O‘qinglar, onalar. // Sadoi Turkiston. 1915. 17-may.
3. O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar: Davriy to‘plam. № 2. / Tahrir hay’ati Dilorom Alimova (mas’ul muharrir) va boshq. – Toshkent: 1999.
4. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to‘plam, № 1. – Toshkent: 1999.

**XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA IMPERIYASIDAN
TURKISTONGA KO‘CHIRILGAN AHOLINING TA’LIM TIZIMI**

Ravshanov Sherbek Tursunovich

Sharof Rashidov nomidagi Samraqand davlat universiteti

Samarqand tamadduni tarixi kafedrası mudiri

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E-mail: sherbek.ravshanov111@mail.ru

Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko‘chib kelgan aholining ta’lim tizimi ham o‘ziga xos tarzda yo‘lga qo‘yildi. Chunki imperiya hukumatining o‘zbek xonliklarini mustamlaka etib, Turkistonda o‘zining siyosiy mavqei va tayanchi sifatida amalga oshirilgan ko‘chirish siyosati orqali bu yerda o‘ziga xos madaniyatni shakllantirishi zarur edi. Buning uchun ko‘chirilgan aholining ta’lim tizimini rivojlantirish – muhim ustuvor masalalardan biri edi. Chunki bu yerda nafaqat rus ta’lim tizimini o‘rnatish, saqlash va rivojlantirish, balki ta’lim orqali mustamlaka xalqlarning hayotiga rus madaniyati va tilini singdirish zarur edi.

Kiplingning “Sharq va G‘arb hech qachon uchrashmaydi” degan mashhur iborasi bir necha bor o‘z tasdig‘ini topgan bo‘lsada, bir necha bor yangi davr tadqiqotchilari tomonidan inkor ham etildi. Vaholangki, mazkur jarayonni ko‘proq sun’iy yo‘llar bilangina amalga oshirish mumkin hisoblanadi. Ya’ni, Rossiya imperiyasi tomonidan Markaziy Osiyoning mustamlakaga aylantirilishi va

keyinchalik sovet tarixchi-tadqiqotchilari tomonidan “qo‘shib olindi, bu yerga madaniyat va sivilizatsiya olib kelindi” deb talqin qilingan bo‘lsa-da, aslida esa mustamlaka natijasida Turkiston hududi va iqtisodiyoti qullikka, qaramlikka muhtalo etildi. [1]

Rossiya imperiyasining Turkiston xalqlarini doimiy mustamlaka(qullik)da saqlab qolishning yagona yo‘li, bu xalqni mafkurasini uzgartirish, ya‘ni xalqqa Yevropadan o‘zlashtirilgan madaniyatini “rus madaniyati” sifatida ta‘lim orqali singdirish asosiy uslub sifatida qaralgan edi. Imperiya hukumati Turkistonda shakillangan ming yillik ta‘lim tajribasini dastlab, o‘lkaga ko‘chirilgan rus aholisi orqali targ‘ib qilishni boshladi. Shuningdek, Turkistonda yashayotgan rus aholisini mahalliy til va ta‘limni o‘zlashtiridan chuchigan bo‘lsa, boshqa jihatdan, rus ta‘limi orqali bosqichma-bosqich mahalliy aholi farzandlarini qamrab olish bo‘ldi.

Turkistonda tashkil etilgan rus manzilgohlarining ko‘pchiligida boshlang‘ich maktablari mavjud bo‘lgan. Ko‘chib kelgan aholi uchun tashkil etilgan qishloq maktablarida o‘quvchi o‘g‘il bolalar 7 – 13 yoshgacha – 65 %, qiz bolalarda 7 – 11 yoshgacha – 51 % tashkil etib, maktablarda ta‘lim olgan. Bitiruvchilar soniga e‘tibor berilsa, ularning soni bir muncha kamchilikni tashkil etar edi. Maktablarda o‘quvchilar va bitiruvchilar soni keskin farq qilib, ba‘zida 7-8 nafar bitiruvchi, gohida 2-3 nafar bitiruvchi kuzatildi. Masalan, Namangan uyezdining Golovachev va Uspensk posyolkalaridagi maktabning tashkil etilganiga 12 yil bo‘lsada, birorta ham bitiruvchi qayd etilmadi. O‘quv yili kech kuzda boshlanib, erta bahorgacha davom ettirilgan, bu esa o‘quv yilining 80 kundan – 100 kungacha davom etganligini ko‘rsatadi. [2]

Tashkil etilgan ta‘lim muassasalaridagi, maktablardagi mavjud muammolardan biri – o‘qituvchilarning bilimsizligi deb ko‘rsatilsa, boshqa sababi – ota-onalar va o‘quvchilarning o‘qishga befarqligi bilan izohlanadi. Aslida esa, mazkur muammoning yechimi imperiya hukumatining o‘zida ekanligi qayd etiladi. Palenning taftish davrida kuzatilgan ma‘lumotlarida barcha tashkil etilgan posyolkalarda maktablar mavjud ekanligi ko‘rsatilsa, 1910-yildan keyingi davrda

tashkil etilgan rus posyolkalarida maktablarning yo'qligi ko'rsatilgan. Masalan, Farg'ona viloyatida tashkil topgan 14 posyolkada maktablar bo'lmaganligi va 1915-1917-yillar oralig'ida mazkur posyolkalarda 14 ta maktab qurilishi zarurligi ko'rsatilgan. Shuningdek, Andijon uyezdining Ivanov va Mixaylov posyolkalaridagi ikkita maktabda 6 yil davomida bittagina bitiruvchi borligi ko'rsatiladi. Ota-onalar buning sababini o'qituvchi hodimlarning qobiliyatsizligi bilan izohlaydi, o'qituvchilar esa ota-onalarni ayblab, o'quvchilarni yil davomida uy va dala ishlari bilan band bo'lganligini aytadi. Haqiqatdan ham, Farg'ona viloyatining vodiylar hududlarida o'qish mavsumi 2-3 oy, tog'li hududlarida 4-5 oy davom etar edi. Chunki bu yerda ko'chib kelgan aholining katta qismi, ayniqsa, eski, o'ziga to'q xo'jaliklar mahalliy aholi yerlarini ijaraga olib, fevral - mart oylaridan to dekabrgacha dala va uy ishlarida maktab yoshidagi bolalar mehnatidan foydalanib, buning ortidan katta daromad olgan. Shuningdek, hukumat tomonidan ta'limni nazorat qilish qoniqarsiz bo'lib, maktabdagi sharoit yaxshi bo'lmagan. Maktablarda o'quv qurollari va adabiyotlar bo'lmagan. Maktablarda eskirgan qog'oz, qalam, daftarlar qayta ishlatilgan va o'qish kitoblari esa o'ntachani tashkil etib, ahvoli achinarli bo'lgan. [3]

N.P. Ostroumovning ta'kidlashicha, Turkistonda xalq ta'limini tashkil etish va rivojlantirish imperiya hukumatining oldida turgan muhim maqsadlaridan biri edi. O'lkada maorifni rivojlantirish orqali musulmon xalqlar orasida umumrus madaniyati va fuqaroligini mustahkamlash asosiy maqsad qilindi. 1868-yilda o'lkaning birinchi general-gubernatori K.P. fon Kaufman tashabbusi bilan Turkistonda milliy diniy, ya'ni musulmon yoki pravoslav aholi uchun bir xilda Rossiya fuqarosi sifatida ta'lim olishi kerakligi ta'kidlandi. 1870-yilda Turkiston o'lkasida maorif bo'limini tashkil etish bo'yicha maxsus komissiya tashkil etildi. Xalq ta'limi imperiya manfaatlariga xizmat qilishi, mahalliy aholining diniy maktablarda ta'lim olishini to'xtatishi, kelajakda mustamlaka xalqlar rus davlatchiligining iqtisodiy taraqqiyotida birgalikda xizmat qilishi zarurligi belgilandi. [4]

1876-yilda Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Turkiston maorif boshqarmasi tashkil etildi. 1879-yilda o'qituvchilar seminariyasi tashkil etilib, unga N.P.Ostroumov rahbar etib tayinlandi. 1886-yil 20-iyundan boshlab o'lkadagi mahalliy aholi farzandlarini rus-tuzem maktablarida o'qitish bo'yicha qaror qabul qilindi. 1886 yida Turkistonda 21 ta rus-tuzem maktablari tashkil etildi. 1895-yilda 23 ta rus-tuzem maktablarida 515 nafar o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1905-yilda 82 ta rus-tuzem maktabida 2 500 nafar o'quvchi qayd etildi. [5]

Birinchi rus-tuzem maktabi Toshkent shahrida 1884-yilda Sayid Azimboy honadonida tashkil etilib, unda uning oila a'zolari - farzandlari, nevaralari va yaqinlaridan iborat 30 nafar o'g'il bolalar dastlabki boshlang'ich bilimlarini olgan. Mazkur maktabda o'zbek tilini va urf-odatini yaxshi bilgan V.P. Nalivkin o'qituvchilik qilgan. 1887-yilda bu maktabda 8-15 yoshlardagi 33 nafar bola ta'lim olgan. Bu yerda rus tili gramatikasi, yozuv va dastlabki arifmetik bilimlar o'qitilgan. [6]

1916-yilda Turkiston o'lkasida rus-tuzem maktablari soni 212 tani tashkil etib, ulardagi o'quvchilar soni 7 ming nafarni tashkil etdi. [7]

Shuningdek, Turkistonda ruscha ta'limni rivojlantirish maqsadida har-xil mutaxassisliklarga ixtisoslashtirilgan bilim yurtlar va gimnaziyalar faoliyat ko'rsatgan. Dastlab, 1876-yil 15-avgustda Toshkent shahrida to'rt sinfli erkaklar gimnaziyasi tashkil etildi. 1910-yilgacha bu yerda 500 tacha o'quvchi ta'lim olgan. Gimnaziyada ruslardan tashqari 10% yahudiy, 4% arman va 2% musulmon bolalari ham o'qigan. [8]

Mazkur gimnaziyada bolalar soni yildan-yilga oshib bordi. Gimnaziyada oxirgi 6 yil, ya'ni 1899-1905-yillar davomida tarbiyalanuvchilar soni 310 nafardan 474 nafarga, ya'ni 53% ga o'sgani kuzatildi. [9]

Gimnaziyada 10% yetimlar va 1906-yilda 117 nafar o'quvchi bepul ta'lim olayotganligi qayd etiladi. [10]

Shuningdek, 1876-yil 1-oktyabrda ayollar gimnaziyasi tashkil etilib, 1877-yilda 7 ta sinfdan iborat bo'lib shaxsiy xonadonda faoliyat yuritdi. 1879-yilda

Konstantin xiyobonidagi hukumatga qarashli 3 ta korpusli binoga ko'chirildi. Mazkur to'liqsiz o'rta ta'lim muassasasida o'quvchilar soni keskin ko'payib, 1910-yilgacha 700 nafar qizlarga 51 ta o'qituvchi ta'lim bergan. Bu gimnaziya sinflar soni 16 taga yetib, 7 % yahudiy, 1% musulmon va 0,5% arman qizlari ta'lim olgan. [11]

Gimnaziyaning asosiy ta'minoti davlat mulklari hisobidan amalga oshirilgan bo'lib, 1901-yilda 7 000 rubl miqdorda pul mablag'i ajratilgan edi. 1906-yilda 8 ta va 1907-yilda 9 ta yangi parallel sinflar tashkil etildi. Shuning uchun ayollar gimnaziyasi uchun qo'shimcha binolar qurish zaruriyati tug'ildi. 1912-yilda gimnaziya ma'muriyati mazkur muammoni bartaraf qilish maqsadida xalq maorifi vazirligiga 7 061 rubl miqdordagi mablag' bilan ta'minlanishini so'radi. [12]

Mazkur masala o'rganib chiqilib, Turkiston general-gubernatori A.V. Samsonov tomonidan 1913-1915-yillar davomida mazkur ta'lim muassasalari uchun yiliga 4 000 rubl miqdorda pul mablag'lari ajratish to'g'risida qaror qabul qildi. [13]

Shuningdek, 1911-yilda Toshkent uyezdi Zangi Ota qishlog'ida mahalliy yoshi kattalar uchun rus-tuzem bilim yurti qoshida tungi kurslarni ochish uchun 300 rubl miqdordagi pul mablag'i so'raldi. [14]

1904-yilda qurilishi yakunlangan Marg'ilon uyezdi "Russkoye selo"da 2-sonli Turkiston xalq bilim yurti qoshidagi birinchi toifali ayollar (cherkov) bilim yurti 1898-yildagi Andijondagi (Dukchi eshon) tartibsizliklar uchun mahalliy aholidan undirilgan tovon puli hisobidan amalga oshirildi. Biroq bu bilim yurtida o'qish jarayonlarini olib borish uchun davlat mablag'lari hisobidan ta'minot ajratilishi zarur hisoblandi. Mazkur ayollar bilim yurtida o'qish uchun 7-13 yosh oralig'idagi 90 nafar qiz bola mavjudligi va ulardan 60 nafari o'qish istagida ekanligi bayon etiladi. [15]

Mazkur qizlar bilim yurti viloyatlar ichida yagona hisoblangan. Bu yerda faqat ikkita o'qituvchi faoliyat yuritib, biri huquqiy ta'lim va ikkinchisi hunarmandchilik (chevarchilik) yo'nalishida dars bergan. Maktablarni tashkil etish,

tashkil etilganlarini mablag' bilan ta'minlash, nazorat qilish, ta'mirlash, moliyalashtirish va rivojlantirish ishlari kabi muammolarni bartaraf etishga imperiya hukumati ancha oqsaganligini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham maktablardagi ta'lim sifati ancha past darajada bo'lgan. Ko'chib kelgan aholining katta qismi yozishni, o'qishni bilmagan, ayrimlari boshlang'ich savodini chiqarib, maktabni tashlab ketar edi. Ta'lim sohasida o'qitish sifatining pastligi sababli maktablar barcha aholini qamrab olmagan, qizlar maktablarga deyarli bormagan. [16]

Turkistonga ko'chib kelgan aholi uchun ta'lim sohasini rivojlantirish va yangi ta'lim muassasalarini ochish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Moliya vazirligiga qator yozishmalar natijasida mahalliy mablag'lar hisobidan 21 156 rubl miqdorida loyiha ishlab chiqilishi so'raldi. Qurilishi va ta'mirlanishi zarur bo'lgan ta'lim muassasalari uchun 1907-yil 11-avgustdagi murojaat N.I. Grodekov tomonidan tasdiqlanib, dastlabki 11 622 rubl miqdordagi mablag' ajratish belgilangan edi. [17]

N.S. Lykoshinning qayd etishicha, imperiya hukumati tomonidan Turkiston o'lkasida tashkil etilgan barcha turdagi o'quv muassasalarida ta'lim jarayonlari asosan rus tilida amalga oshirilishga katta e'tibor berildi. Bu kabi ta'lim muassasalarida ko'chib kelgan rus aholisi bolalari qatorida mahalliy aholining farzandlariga ham rus tilini o'rgatish amalga oshirildi. [18]

Rus tili va ta'limini o'rganish ayniqsa, Yettisuv hududi aholisida sezilarli darajada natija berdi va bu yerda yashovchi mahalliy aholi vakillari ichida rus tilini yaxshi biluvchi yoshlar soni bir qadar ko'pchilikni tashkil etib, ular orasidan o'qituvchilar, tarjimonlar, amaldorlar, hatto ofitser va shifokorlar ham yetishib chiqqanligi ta'kidlanadi. Biroq, bu Turkistonning mahalliy viloyatlarida yashovchi o'zbek va tojik aholisi ichida bu kabi kasb egalari kamchilikni tashkil etdi. Chunki bu yerdagi aholi vakillari bolalarini asosan milliy musulmon maktablariga o'qitishni ma'qul bilgan. Ota-onalar o'z bolalarini rus tilli maktablarga

bermasligining sababini milliy an’analar va diniy bilimlardan chalg‘ib qolishini xohlamas edi. [19]

Turkistonda tashkil etilgan ta’lim muassasalari dastlab juda sifatsiz ta’limi va kerakli sharoitning yo‘qligidan imperiya hukumati kutgan natijani bermasada, biroq ma’lum vaqt o‘tishi bilan o‘lkaga ko‘chib kelgan barcha millat va xalqlar orasida, jumladan, mahalliy xalqlar orasida ham o‘z mavqeini tiklab bordi. Ayniqsa, imperiya boshqaruvining so‘nggi davriga kelib, rus tili va madaniyati barcha xalqlar orasida keng targ‘ib qilinib keldi, keyingi sovetlar boshqaruvi davrida esa bu jarayon yanada mustahkamlanib bordi. Hattoki, bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qulga kiritganiga 32 yil bo‘lgan bo‘lsa-da, rus madaniyati va tili o‘z mavqeini saqlab, mustahkamlanib kelmoqda. Ayniqsa davlat boshqaruv organlari tizimi, mahalliy hokimliklar, tashkilotlar, xususiy tarmoq, ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv tili, ayniqsa O‘zbekiston shaharlari maktabgacha va maktab ta’limi tizimida rus tili mahalliy aholi uchun yetakchi til bo‘lib saqlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Алимova Д.А. История как история, история как наука., История и историческое сознание. I том. – Ташкент: “Узбекистан”, 2008. – С.: 165.
2. Пален К.К. Переселенческое дело в Туркестане. – СПб.: 1910. – С.: 336-337.
3. Ўз МА. Фонд: И-163, 1-рўйхат, 9-йиғма жилд, 204-варақ.
4. Остроумов Н.П. Мусульманские мактабы и русско-туземные школы в Туркестанском крае // Журналь министерства народного просвещения. Част I. – СПб.: «Сенатская типография» 1906. – С.: 143-144.
5. Уразбаева Р.Ж. История образования в Каракалпакстане (последняя четверть XIX – начало XXI вв.) // Автореферат дисс. на соискание ученой степени докт. ист. наук. – Ташкент, 2012. – С.: 18-19.
6. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – Ташкент, 1912. – С.: 203-204.
7. Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX - начале XX в. (социально-экономический аспект). – Ташкент: Фан, 1983. – С.: 109.

8. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – Ташкент: 1912. – С.: 224.
9. Ўз МА. Фонд: И-1. 7-рўйхат. 439-йиғма жилд. 33-34-варақлар.
10. Ўз МА. Фонд: И-1. 7-рўйхат. 293-йиғма жилд. 2-варақ.
11. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – Ташкент: 1912. – С.: 226.
12. Ўз МА. Фонд: И-1. 7-рўйхат. 439-йиғма жилд. 33-34-варақлар.
13. Ўз МА. Фонд: И-1. 7-рўйхат. 439-йиғма жилд. 37-варақ.
14. Ўз МА. Фонд: И-1. 7-рўйхат. 439-йиғма жилд. 15-варақ.
15. Ўз МА. Фонд: И-1. 7-рўйхат. 297-йиғма жилд. 1-2-варақлар.
16. Гинзбург А. И. Русское население в Туркестане. – Москва: 1991. – С.: 104.
17. Ўз МА. Фонд: И-1. 7-рўйхат. 297-йиғма жилд. 10-варақ.
18. Равшанов Ш.Т. “Туркистонга Россия империясидан кўчирилган аҳоли ва улар учун ташкил этилган таълим муассасалари ҳолати” // “Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар” халқаро илмий-амалий анжуман илмий ишлар тўплами. Чирчиқ – 2019. – Б.: 412.
19. Лыкошин Н.С. Поль жизни в Туркестане. очерки быта туземнаго населения. – СПб.: 1916. – С.: 228-229.

XIX – XX ASR BOSHIDAGI QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDAGI MAKTAB VA MADRASALAR TARIXI

Ro‘ziboyev Raximbergan Ixtiyorovich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi mutaxassisligi magistranti

O‘rta Osiyoda IX-X asrlarda islom dini kirib kelgandan so‘ng madrasalar qurilishi boshlangan. Narshaxiyning yozishicha, 937-yilgi yong‘inda zarar ko‘rgan “Forjak” madrasasi O‘rta Osiyodagi dastlabki madrasalardandir. Madrasalarning xon madrasalari, eshon madrasalari, xususiy madrasalar kabi turlari bo‘lgan. Madrasa muassislari madrasani ta’minlash uchun maxsus mulk – vaqf ajratishgan va bu mulkni boshqaruvchi mutavvalini tayinlashgan. Madrasalarning vaqf daromadlaridan bir qismi vaqf mulkini saqlab turish, madrasa binosini ta’mirlash uchun ajratilgan, ma’lum qismi mutavvali, mudarrislar, talabalar, masjid imomi, muazzini, sartaroshi, farroshi va boshqa xizmatchilarga berilgan.

XIX asr oxir XX asr boshlarida Qoraqalpog‘iston xududida ham ko‘plab maktab va madrasalarning faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ularni tugatgan ilmi va ma’rifatparvar insonlar qoraqalpoqlar orasida ham ko‘plab bo‘lgan. Qoraqalpoqlar boshlang‘ich ta’limni qishloq va ovullaridagi maktablarda olishgan, so‘ngra Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Chimboy, Xiva, Buxoro kabi yirik shaharlardagi madrasalarga borib o‘qishgan. Har bir ovulning o‘z maktabi bo‘lib, bolalar yetti yoshdan maktablarga borgan va u joyda ta’lim olishgan.

XVIII-XIX asrlarda Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Chimboy, Sho‘raxon, Qipchoq, Mang‘it, Shobboz, Shoraxon, Raximberdiy bozor kabi shahar va qishloq makonlarida maktab-madrasalar bo‘lgan. O‘sha davrda Qo‘ng‘irot shaharida madaniy hayot va ta’lim bir muncha rivoj topgan, shaharda ko‘plab maktab, masjid-madrasalar faoliyat ko‘rsatishgan. XIX asrda Qo‘ng‘irot shaharida sakkizta masjid yoshlarning ilm olish maskanlariga aylangan. Masalan, Xonmasjid Xivada Qo‘ng‘irotliklar sulolasining xoni bo‘lgan Madrahimxon (1807-1826 yy.) davrida asos solingan va o‘sha xonning hurmatiga “Xon masjid” deb nomlangan. Ikkinchi masjid Smetulla eshon masjidi.

Ushbu masjid Balabiy davridan 1918-yilga qadar faoliyat ko‘rsatgan. Uchinchi masjid – Sari eshon masjidi, to‘rtinchisi – Sulton eshon masjidi, beshinchisi – Risim eshon masjidi, oltinchisi – Bayjon oxun masjidi, yettinchisi – Kamol eshon masjidi va sakkizinchisi – Yaqub eshon masjidi bo‘lgan. Shahar atrofida masjidlarning vaqf yerlari bo‘lishgan. [1]

XIX asrda Xo‘jayli shaharida ham beshta masjid va bitta madrasa faoliyat ko‘rsatgan. [2]

Qipchoq shaharida 120 xanodon, bir masjid ham bir maktab, Shabboz shaharida 200 ga yaqin xanodon, 2 masjid va 2 maktab bo‘lgan. [3]

XIX asrdagi Qoraqalpog‘istonning har bir qishloq va ovullarida bitta masjid va maktab bo‘lgan. [4]

O‘sha davrda masjid qavm ma’muriy birlik tizimi mavjud bo‘lgan. Shariyatga muvofiq masjid qavmning imomi o‘sha ovulning bolalarini masjid yonida maktab

ochib o‘qitishi zarur hisoblangan. Qoraqalpoq xalqi ichidan chiqqan Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq kabi mutaffakkirlarning ko‘pchiligi mahalliy maktab va madrasalarda ilm olishgan. XIX asrda qoraqalpoqlar maktab va madrasalarda nastaliq xati asosiy yozuv turi bo‘lgan. Maktabda o‘quvchilar arab alfavitini to‘la o‘rganib bo‘lgandan so‘ng “Haftiyak”ni o‘qishgan. “Haftiyak” Qur’oni-karim suralarining yettidan biri qismidan tuzilgan asar hisoblanadi. [5]

“Haftiyak”ni 1-2 yil o‘qib o‘zlashtirishgandan so‘ng Qur’onni o‘rganishga kirishgan. “Qur’on”dan so‘ng “Chor kitob” asari o‘qitilgan. “Chor kitob”dan so‘ngra “So‘fi Ollayar”ni o‘rganishgan. Bundan so‘ng Navoiy, Fizuliy, Bedil va boshqada Sharq mutaffakkirlar asarlarini o‘rganishgan. Maktablarda arab alfavitida o‘qish, yozuv va arifmetika o‘rgatish bilan bir qatorda diniy ta’limlardan ham ta’lim berilgan. XIX asr oxirida (1898-yil) Amudaryo bo‘limida 843 ta maktab bo‘lgan va ularda 6567 bolalar ta’lim olgan. Xiva xonligiga qarashli Amudaryoning chap sohilida maktablar soni bundan kam bo‘lishmagan.

Maktabni tugatgan yoshlar imkoniyatlariga qarab, keyingi bosqich – madrasalarda ilm olishni davom ettirishgan. XIX asrda Kegeyli va Chimboyda 8 madrasa faoliyat ko‘rsatgan.

Ular: Qaraqum eshon, Matmurod oxun, Qalila oxun, Yembergen oxun, Ayimbet eshon, Sherniyaz oxun, Oyoq-avliyo, Eshon qal’a madrasalaridir. [6]

Ulardan Qaraqum eshon va Eshon qal’a madrasalari Markaziy Osiyoda ma’lum bo‘lgan. Madrasalarda Islom ta’limoti bilan bir qatorda hisob-kitob, badiiy, tarixiy ilmlar, odob-axloq va islom huquqshunosligiga bog‘liq ilmlar ham o‘rgatilgan. [7]

Madrasa kitobxonasi boy bo‘lgan. Unda “Qur’on”, Xoja Axmad Yassaviy, So‘fi Ollayar hikmatlari, Qissa Anbiya (Payg‘ambarlar qissasi), shajaralar, Qissa Rabg‘uziy, Qissa Zulqarnay, Qissa Abu Ali Ibn Sino, Shoxnoma, Yusuf-Zulayho, Hokim ota kitoblari, Navoiyning “Xamsa”si, Xorazmnoma, Jomiy, Qaliyla va Dimna, Qobusnoma, Bedil, Xo‘ja Hofiz vaboshqada kitoblar, ko‘plab qo‘l yozmalar saqlanilgan. Madrasada Kunxo‘ja, Berdaq, O‘tash, Qalandar qissaxon

kabi xalqimizning mashhur mutaffakkirlari ta’lim olishgan. Qoroqalpog‘istonda tasavvuf ta’limotini tarqatishda Qoraqum eshon va Tas madrasalardagi mudarrsilarning xizmatlari katta bo‘lgan. Qoroqalpog‘iston xududidagi mashhur madrasalardan biri Qoraqum eshon madrasasidir. [8]

Ushbu madrasa XVIII – XX asr boshlarida qoroqalpoq xalqining ma’naviy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. Bu madrasa manzili Bozatov tumani “Qoroqalpoq” qishlog‘i hududida joylashgan. O‘z vaqtida ushbu manzil atrofida qoroqalpoq xalqining qo‘ng‘irot ulusining yirik urug‘laridan qoldao‘li, qostamg‘ali, baymaqli, teristamg‘ali, muyten, ashamayli va boshqalar joylashgan. Mana shularning markazida joylashgan Qoraqum o‘rnidan Qutli Xo‘ja Aziz tomonidan masjid va madrasa solinadi. Madrasaning dovrug‘i nafaqat qoroqalpoq yurtida, balki Xorazm, turkman va qozoq xalqlari orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan. Madrasa kutubxonasi juda kitoblarga boy bo‘lgan.

Qoraqum eshon majmuasining 25 ga maydonga yaqin bo‘lgan. Uning tarkibida madrasa, masjid, kutubxona, juvozxona va undan tashqari bir qator qurilishlar bo‘lgan. Majmua qoshidagi Qoraqum eshon qabristonida XVIII-XX asrning boshlarida yurt boshqargan qoroqalpoqlarning taniqli biylari, otaliqlari, ulamolari dafn qilingan. Ularning orasida Kunxoja, Berdaq, Qutli Xo‘ja Aziz, Dabil eshon va boshqalar dafn qilingan.

Bugungi kunda Qoraqum eshon majmuasi qayta tiklanib jamiyatdagi o‘zining o‘rnini egallamoqda. 1874-yili Chimboy shaharida bo‘lgan Rizaquli Mirzaning ma’lumotlariga qaraganda, Chimboy shaharida beshta masjid, ikkita madrasa bo‘lgan. [9]

Madrasalarning har birida 25 tadan ilmi tolib ta’lim olishgan. Madrasalarda forsi, turk, arab va chig‘atoy tillari o‘qitilgan. Ushbu tillarda talabalar yozishni va o‘kishni to‘la o‘zlashtirishgan. “Handasa” darslarida hisob-kitob ishlari o‘rgatilgan. Qag‘oz Buxorodan olib kelingan, qalam qamishdan ishlangan. Rizaquli Mirzaning yoshishicha, madrasalarda Qozon, Buxoro, Chimboy

shaharlarida yozilgan Qur'on, Navoiy, Hofiz Donish asarlari bo'lgan. Maqsum oxun masjid - madrasasi Chimboydagi yirik madrasalardan biri bo'lgan. [10]

Madrasa Aymuxammad eshon tomonidan 1850-yili qurdirilgan. Madrasa binosi o'n yetti hujrali bo'lgan. Unda bosh masjid, darsxona, ta'lim oluvchilarning hujralari, yozgi va qishgi ayvonlaridan ibarat bo'lgan. Madrasaning hajmi 20 x 27 metr. Ushbu madrasada Buxoroda ta'lim olib kelgan Xo'janiyoz eshon, Xivada ta'lim olgan Ahmad oxunlar dars berishgan. Madrasada Abdiqodir shoir, Abbaz shoir kabi so'z san'ati namoyondalari, Qosim Avezov kabi davlat arboblari ta'lim olishgan. Bu madrasa "Ayimbet eshon madrasasi" deb ham nomlanadi. XIX asrda Xo'jayli shaharida Pirimbet eshon madrasasi, Qo'ng'iro't shaharida Yelmurat oxun madrasasi, Ystirtte Bektursin madrasasi, Sho'raxondagi Toshmadrasa, Sho'rtan ko'ldagi Qo'shmuhammad madrasasi, Mang'it shaharida bitta madrasa ham boshqada madrasalar faoliyati ko'rsatishgan. [11]

XIX asr oxirida Amudaryo bo'limida 58 madrasa bo'lib, ularda 1000 dan ortiq yoshlar ta'lim olishgan [Karlybayev M., 2002: B,9,23]. [12]

Amudaryoning chap sohilidagi madrasalar asosan shaharlarda, o'ng sohilda bo'lsa yirik qishloq makonlarida ham madrasalar bo'lgan. Madrasalarda ta'lim oluvchilarning o'rtacha soni 20-25 bo'lgan, katta madrasalarda 50 ga yaqin ilmi toliblar ta'lim olishgan. Demak, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qaroqalpog'iston xududidagi shahar va qishloq makonlarida maktab va madrasalarda an'anaviy ta'lim faoliyati davom etgan edi.

Ta'lim asosan ikki bosqichda: maktab va madrasalarda amalga oshirilgan. Masjid-maktablarda o'qish-yozish, arifmetika, diniy tushunchalardan ilm olishgan, madrasalarda buyuk mutaffakkirlarning asarlari, diniy ulomalarning ta'limotlari, hisob-kitob ilmlari o'rgatilgan. Ularda Xiva va Buxoro shaharlarida ta'lim olishgan ulomalar dars berishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yesbergenov X. Qonirat. Tariyxıy h m m deniy yestelikler. – N kis: 1993. – B.: 13.
2. Карлыбаев М. Медресе в Каракалпакии 19 и 20 веков. - Нукус: Знание, 2002. – С.: 23.
3. Кун А.Л. Культура оазиса низовьев Амударьи от Кунграда до Чимбая // Туркестанский сборник. Том 123. – С.: 236-238.
4.  leo‘ov  . Qaraqalpaqstanda t lim-t rbiyalıq oylardıń q liplesio‘i h m rao‘ajlanio‘i. – N kis: Bilim, 1993. – B.: 289.
5.  leo‘ov  . Qaraqalpaqstanda t lim-t rbiyalıq oylardıń q liplesio‘i h m rao‘ajlanio‘i. – N kis: Bilim, 1993. – B.: 290-291.
6.  leo‘ov  . Qaraqalpaqstanda t lim-t rbiyalıq oylardıń q liplesio‘i h m rao‘ajlanio‘i. – N kis: Bilim, 1993. – B.: 292.
7. Xojaniyaz G‘., Yusupov O. Qaraqalpaqstandag‘ı muqaddes oğınlar. – N kis: 1994. – B.: 33.
8. Xojaniyaz G‘., Yusupov O. Qaraqalpaqstandag‘ı muqaddes oğınlar. – N kis: 1994. – B.: 25.
9. Riza-kuli Mirza. Amudaryo oblastining qisqasha bayanlamasi // Amudaryo jurnal. – N kis: 1992. № 2. – B.: 92-102.
10. Xojaniyaz G‘., Yusupov O. Qaraqalpaqstandag‘ı muqaddes oğınlar. – N kis: 1994. – B.: 10.
11.  leo‘ov  . Qaraqalpaqstanda t lim-t rbiyalıq oylardıń q liplesio‘i h m rao‘ajlanio‘i. – N kis: Bilim, 1993. – B.: 292.

**QARSHI SHAHRI MADRASALARI BA ULARDA TA’LIM
JARAYONLARINING TASHKIL ETILISHI (XX ASR BOSHLARIDA)**

Xo‘jayorov Asilbek Otabek o‘g‘li

Osiyo texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi

E-mail: ilmnuri4105@gmail.com

Hozirgi globallashuv davri shiddat bilan rivojlanishi bizning oldimizga yangi marralarni qo‘ymoqda. Bu marralarni zabt etishda ilm-fanning o‘rni beqiyosdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu

sababli, ushbu sohalarda tub islohotlarni izchil amalga oshirmoqdamiz”. [1] Yurtimizda ta’lim, ilm-fanga e’tibor azal-azaldan davlat siyosati darajasida bo‘lgan. Ming yildan ziyod tarixga ega bo‘lgan va bugunga qadar ko‘pdan-ko‘p olim-u ulamolarni yetishtirib berayotgan madrasalar faoliyatini ilmiy o‘rganish hamda ushbu ilm dargohlaridagi tarixiy tajribani bugungi kun zamonaviy ta’lim tizimida qo‘llash ijobiy natijalarni beradi.

“Madrasa” so‘zi lug‘aviy jihatdan “dars beradigan joy”, “bilimgoh”, “o‘qish joyi” degan ma’nolarni anglatgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” kitobida esa madrasa so‘zi “maktab”, “o‘quv yurti” ma’nolarini anglatishi ta’kidlangan. [2]

An’anaviy ta’lim tizimining yuqori bosqichi-madrasalar haqidagi ilk ma’lumot Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida berilib, Buxoro shahridagi Farjak nomidagi madrasaning 937-yilgi yong‘in paytida yonib ketganligini aytib o‘tiladi. [3] O‘rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat Movarounnahrda, balki Markaziy Osiyo, musulmon sharqida ham mashhur edi. Madrasani muvaffaqiyatli bitirganlardan mamlakat boshqaruvi, huquq-tartibot va ta’lim muassasalari uchun kadrlar, ulamolar yetishib chiqqan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida amal qilgan oliy ta’lim muassasalari savod chiqarish o‘chog‘i sifatidagina emas, balki sud tizimi, masjid, madrasalar uchun kadrlar tayyorlash maskani sifatida, diniy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, jamiyatni ma’naviy qiyofasini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Qolaversa madrasa ta’limi tizimini tarixiy-qiyosiy chuqur tahlil qilish, tegishli xulosalar olish bugungi kunda ham ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Eng yirik madrasalar amirlikning markazi Buxoro shahrida hamda Qarshi, G‘ijduvon, Shahrisabz, Sherobod shaharlarida, Sharqiy Buxoro bekliklari markazlarida faoliyat ko‘rsatgan. Umuman, Buxoro amirligida yuzlab madrasalar mavjud edi. [4]

XX asr boshlarida bu o‘quv dargohlari unda qanday unvondagi mudarris dars berishi va uning moddiy ta’minotiga qarab toifalarga ajratilgan hamda Buxoro madrasalariga o‘xshab oliy, o‘rta va quyi madrasa kabi turlarga bo‘lingan. Oliy

madrasalarda oxund, a'lam va mufti (muftiy) dars o'tgan. O'rta madrasalarda banoraspo'sh mudarrislar, quyi madrasalarda esa dars beruvchilar oddiygina mudarris deyilgan.

Oxund – dars beruvchilarning eng yuqori unvoni hisoblangan. Abdullaxon madrasasida dars bergan.

A'lam – oxundning o'rinbosari, muftiylarning raisi. Madrasayi Oliyda dars bergan.

Mufti – zarurat tug'ilganda muhim masalalarda fatvo chiqarish darajasi va huquqiga ega bo'lgan olimdir. Ular Mir Bekoybiy va Saroy madrasalarida dars bergan.

A'lopo'sh – ta'lim sohasida yetarli tajriba orttirib, ilmida yuqori darajaga ko'tarila olgan mudarrislardir Muftiylar ularning orasidan tanlab olingan.

Mudarris – unvonsiz o'qituvchilar hisoblanib, qolgan madrasa va hujralarda dars bergan. [5]

Oliy o'quv ta'limi tizimida o'qish muddati bir yilda olti oy davom etgan. O'quv mavsumi viloyat Qozi sudurining oliy hukmdorga murojaati bilan boshlangan. Sudur – Buxoro shahri tasarrufidan tashqaridagi madrasalar faoliyatida xuddi sadr kabi vazifalarni bajargan. [6]

Bu davrda Buxoro madrasalarida o'qish kunlari shanba, yakshanba, dushanba va seshanba kunlari hamda ta'til kunlari chorshanba, payshanba va juma kunlari bo'lgan. Juma musulmonlarning bayrami bo'lib, shu kuni hamma ibodatga tayyorgarlik ko'rgan va bu kunni tolibi ilmlar uchun o'ziga xos amaliy mashg'ulot bo'lgan deyish mumkin. O'qish soati esa bomdod namozi va nonushtadan keyin boshlanib, har bir madrasa kun tartibini o'zi belgilagan. [7]

Qarshi bekligida ham XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi ta'lim tizimiga xos madrasa ta'limi shakllangan edi. Bugungi kungacha Qarshida faoliyat ko'rsatgan madrasalar va o'qitish tizimi haqida shu davrning yirik vakillari va tarixchilari Amir Sayyid Olimxon, Muhammad Ali Baljuvoni, A.Fitrat, chet

ellik sayyohlar, jumladan Yu.Skayler, jurnalist V.Sosnin asarlarida ba’zi ma’lumotlar mavjud.

Mustaqillik yillarida esa bu mavzu tarixchi olimlar Q.Rajabov, Sh.Hayitov, A.Jumanazar, F.Bobojonova hamda Q.Nasriddinovlar tadqiqotlar olib borishgan. Bu borada tarixchilardan O.Jo‘raqulov, P.Ravshanovlarning asarlarini ham tilga olib o‘tish joiz.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qarshi shahrida Abdullaxon, Oliy (Yu.Skayler va V.Sosnin asarlarida – “Ali” deb atalgan, lekin bu xato, chunki hujjatlarda madrasaning nomi “ayn-ع”, “lom-ل” bilan emas “alif-ا” bilan yozilgan – muallif izohi), Mir Bekoybiy, Abdusamadboy, Saroy, Xotamboy, Choriboy, Yusuf sayyod, Azim sayyod, Mozorcha, Xoja guzari, Chorsu, Guli, Sharofboy, Shermuhammad, Sulton Arshi, Sulton Farshi, Charimgar, Qo‘rgoncha, Domulla Nur, Hoji Qurbon, Hoji Abdulazizboy, Bekmurodboy, Qilichboy, Qutb shayx, Dodxoh, Navi Oliy, Qozixona, Mir Chaman, Qarbos, Qarluq, Sharshara, Dukchi, Chaqar, Xudoydodi, Eshon shahid, Kat ovul, Saroycha, Saidquliboy, Mirza Abdulg‘affor, Mulla Tursunboqi, Xoja Ubayd Jarroh qorixonasi, Sanoqul attor, Shirin xoja, Misr Muhammadxon, Mulla Rahimso‘fi kabi bir 45 ta madrasa faoliyat ko‘rsatgan.

Manbalarni o‘rganish davomida shaharda XX asrning boshlarida qurilgan yana bir Jumaboy madrasasi mavjud bo‘lganligini ko‘rish mumkin, lekin ushbu madrasa hozirgacha saqlanib qolmagan. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, XX asr boshlarida Qarshi shahrida 46 ta madrasa mavjud bo‘lgan degan xulosaga kelish mumkin. [8]

Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, ushbu 46 ta madrasadan 20 tasi hujra ko‘rinishida bo‘lgan. Hujralar masjidga qo‘shib yoki alohida qurilgan bo‘lib, o‘quv dargohlari hisoblanib, ta’lim berish jihatidan madrasadan farq qilmagan. Abdusattor Jumanazarning “Nasaf” risolasida 1923 – 1924-yillarda madrasalarning o‘n uchtagina saqlanib qolganligi bayon qilinadi. [9]

Qarshi bekligi oliy o‘quv yurtlarining (madrasalar) moddiy ta’minoti asosi vaqf mulklari edi. Vaqf mulkini hujjatda ko‘rsatilgan shartlar asosida mutavalli boshqargan. Uni voqif tayinlagan. Ko‘p hollarda voqifning o‘zi mutavalli bo‘lardi. Vaqf mulklari 3 yilgacha ijaraga berilgan. Vaqf mulklaridan ushr solig‘i olingan hamda boy madrasalardan tushgan tushum vaqfsiz madrasalarga berilgan. Ba’zi hollarda esa mablag‘siz, maoshi kam madrasalarning mudarrislari Qarshining Abdullaxon va Oliy madrasalari hujralarida hujra haqi hisobiga kun kechirganlar. Bu ikki madrasa tom ma’noda Qarshining ilmlar uyi bo‘lgan. [10]

Qarshi madrasalarida, asosan, axloqiy-falsafiy fanlar o‘qitilgan. Darsliklar asosini shu yo‘nalishdagi asarlar tashkil etgan. Lekin qo‘shimcha o‘quv qo‘llanmalar sifatida tarix, adabiyot, jug‘rofiya, hisob (matematika), falakkiyot, tibbiyot kabi bir qancha turdagi asarlar ham o‘qishga tavsiya qilingan.

Madrasalarning har biri o‘z darslik va qo‘llanmalariga ham ega bo‘lgan. Qambar Nasriddinovning “Qarshi Registoni” asarida Abdullaxon madrasasida o‘qitilgan kitoblar va darsliklarni keltirib o‘tadi. Abdullaxon madrasasida ta’lim uch bosqichli usulda o‘tilib, tolibi ilmlar xar bosqichda 3 – 4 yil o‘qigan, madrasani bitirish uchun esa 10 – 12 yil sarf etilgan. Faqat peshvo (a’lochi) toliblargina madrasani tamomlay olgan xolos. O‘rta hol toliblar esa 20-25 yillab o‘qishlariga to‘g‘ri kelgan. [11]

Dastlabki bosqichda – savodxonlik asoslari. arab tili, masalan, “Avvali ilm”, “Bidon”, “Kofiya” darsliklari, keyingi bosqichda shariat va fiqh asoslari – Qur’oni karim va Hadisi shariflar – “Hidoya”, “Fiqhhoi A’zam”, “Sharhi muxtasar viqoya turki”, “Muxtasar viqoya” va boshqa kitoblar asosida o‘rgatilgan va yod olingan. Bundan tashqari, madrasaning so‘nggi bosqichida bu darslarga yana mantiq, Handasa-hisob, tarix, aruz ilmi, hikmat, so‘fiylik ham qo‘shilardi. [12]

Garchi, madrasalarda aniq va tabiiy fanlar o‘qitilgan bo‘lsa-da, ularning o‘zini alohida o‘rgatishga ixtisoslashgan madrasalar bo‘lmagan. Tabiiyki, bu davrda Qarshi bekligidagi madrasalarda foydalanilgan darsliklar Buxoro madrasalaridan farq qilmagan, jumladan Amir Haydar Oliy madrasani qurdirgandan so‘ng unda

maxsus kutubxona barpo etib, unga 60 jilddan iborat 37 ta kitob sovg‘a, ya’ni vaqf qiladi. [13]

Qarshi bekligi madrasalarida dars darajasi va ilmiy doirasi mudarrislarining bilimi darajasi va fanlarga munosabatiga bog‘liq bo‘lgan. Shuning bilan birga ta’lim tizimining bu bosqichida talay muammolar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Muhammad Ali Baljuvoni o‘zining “Tarixi Nofei” asarida ta’kidlaganidek: “Buxoro amirligi madrasalarida tafsir, hadis, fiqh, kalom, usul, sarfu nahv ilmlaridan iborat bo‘lgan shariat ilmlari rivojlangan, hikmat ilmini ham bu yerda zarurat yuzasidan o‘qitadilar. Bu ilmi hikmat mantiq, qismati ilohiylardan iborat bo‘lgan, biroq riyoziy va siyosiy ilmlar azaldan Buxoroda keng tarqalmagan. Shuning uchun Buxoro davlatining siyosati boshqa islomiy davlatlar singari orqada qolgandir” [14].

Buxoro amirligida o‘qitishning yagona tizimi amal qilganligini hisobga olsak, yuqoridagi xususiyatlar Qarshi bekligi madrasalari uchun ham xosdir. Ma’rifatparvar jadidlarning yirik vakili bo‘lmish Fitrat (1885-1938) esa o‘zining “Hind sayyohining qissasi” asarida sayyoh tilidan: “Sizning o‘tmish ajdodlaringiz ushbu madrasalarni bechora, kambag‘al mullabachchalar uchun qurganlar, biroq bugun boylik ilinjida mukkasidan ketgan kishilar, ilm ahliga tegishli katta puldorlar madrasa hujralarini o‘zlarining mollari etib, ularning vaqflarini jig‘ildonlariga urmoqdalar. Ushbu hujralarning asl egalari bo‘lmish bechora-yu miskin tolibi ilmlar esa masjidning burchak-burchaklarida g‘ujanak bo‘lib yotib, qotgan non va sovuq suv bilan kun kechirmoqdalar”, deydi va yana shu asarda adibning: “Qarshi Buxoroning katta shaharlaridan biridir. Ilm maorif anqoning urug‘i. Ko‘pchilik hatto xat savoddan mahrum” degan fikrlarini uchratishimiz mumkin.

Tadqiqotchi F.Bobojonovanning “Buxoro amirligida ta’lim tizimi (XIX asr oxiri va XX asr boshlarida)” nomli dissertatsiyasida: “Ko‘pchilik madrasalarda hujralarning kamligi, darsxonalar va darsliklar kamligi, ularda zamonaviy shart-sharoitlar yetishmasligi, qurilish ishlari loyihalar asosida emas, balki

o‘zboshimchalik bilan bajarilganligi, xonalarda yorug‘likka e’tibor qaratilmaganligi, qator muammolar va noqulayliklarga sabab bo‘lgan. Madrasalar, ularning xizmatchilari va mudarrislar xizmat haqi vaqf daromadlariga bog‘liqligi madrasalardagi ta’lim jarayonida ham o‘z aksini topgan, ularning nufuzini belgilab bergan. Natijada qishloqlar, shahar chetlaridagi madrasalar poytaxt Buxorodagi madrasalardan katta farq qilgan. Bu holat talabalarni o‘tilgan saboqlarni o‘zlashtirishida ham ma’lum darajada rol o‘ynagan” – deb ta’kidlaydi. [15]

Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlarida Qarshi bekligida o‘ziga xos madrasa ta’limi shakllangan bo‘lib, ularda o‘quv jarayonlari Buxoro ta’lim tizimi yo‘nalishida bo‘lgan. Madrasalarning iqtisodiy va uslubiy ta’minoti turlicha bo‘lib, bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayonlariga ta’sir qilgan. Bu davrda madrasalar yaxshi saqlanmagan yoki o‘z vazifasida foydalanilmagan. Qolaversa madrasa ta’limini isloh qilish bo‘yicha, ularda dunyoviy fanlarni o‘qitishni takomillashtirish va chet ellardan mutaxassislarni taklif qilish, o‘quv-uslubiy tajriba almashish kabi takliflarni ilgari surgan jadidlarning fikrlari esa inobatga olinmagan. Dunyoning rivojlangan mintaqalarida ilmiy-texnika inqilobi ro‘y berayotgan bir davrda – XX asr boshlarida mavjud hukmron tuzum ushbu islohotlarni qabul qila olmagan. Bir paytlar ilm o‘chog‘i bo‘lgan Qarshi bekligida bu paytda ilm-fan taraqqiyoti sustlashib qolgan edi. Zero, 46 ta madrasa va dunyo tamadduniga hissa qo‘shgan Nasafiylar ilmiy merosini o‘zida jamlagan bu beklik yanada ko‘pdan ko‘p olim-u ulamo va davlat xizmatchilarini yetkazib berishi mumkin edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Xalq so‘zi”. 2020-yil 26-dekabr
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 2-j. – Toshkent: 2006.
3. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy. Buxoro tarixi. Fors – tojik tilidan A.Rasulov tarjimasini. – Toshkent: “Fan”, 1966.
4. Bobojonova F.H. Buxoro amirligida ta’lim tizimi (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2011.
5. Jumanazar A. Nasaf. – Toshkent: 2007.

6. Jumanazar A. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. – Toshkent: “Akademnashr”, 2017.
7. Jumanazar A. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. – Toshkent: “Akademnashr”, 2017.
8. Qarshi. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2006.
9. Jumanazar A. Nasaf. – Toshkent: 2007.
10. Jumanazar A. Nasaf. – Toshkent: 2007.
11. Nasriddinov Q. Qarshi Registoni. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti”, 2014.
12. Nasriddinov Q. Qarshi Registoni. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti”, 2014.
13. Jumanazar A. Nasaf. – Toshkent: 2007.
14. Baljuvoni M.A. Tarixi Nofei. – Toshkent: “Akademiya”, 2001.
15. Bobojonova F.H. Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2011.

XIX ASRDA TURKISTONDA MAORIF TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

Yarmatov Oybek Shaymanovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrasasi assistenti

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: oybekyarmatov78@gmail.com

1860 yillardan e'tiboran rus mustamlakachilari Markaziy Osiyoning ko'pgina qismini bosib oldilar. Rus mustamlakasiga aylangan Qo'qon xonligini Toshkent shahri Turkiston general gubernatorligiga qarashli yerlarning markazi bo'ldi. Turkistondagi xonlik va amirlik davlatlarida islom dini davlatni boshqarar edi. Rus mustamlakachilarini Turkistondagi keng tarmoqli xalq maorifi o'choqlari: maktablar va madrasalar g'oyat ajablantirgan edi. Istilochilar ularning faoliyati bilan tanishib, mustamlakachilik tadriji uchun o'sha maktab va madrasalarning g'oyatda xavfli ekanini payqadilar. Musulmon ruhoniylari Turkistonning feodal hukmdorlari bilan mahkam bog'langan edi: shu hukmdorlarning yordami tufayli bu yerda musulmonlarning juda ko'p diniy o'quv yurtlari, chunonchi: masjidlar huzuridagi maktablar, madrasalar va shunga o'xshagan o'quv yurtlari bor edi. [1]

Ularda o'qitishning mazmuni o'rta asrdagi darajada bo'lganligidan, ular juda qoloq o'quv yurtlari edi. Turkistonda birinchi general-gubernator bo'lgan o'ta ayyor, pixini yorgan fon Kaufman barcha musulmon muassasalariga nisbatan dastlab, «aralashmaslik» (betaraflik) siyosatini tutdi. Turkistondagi chor ma'murlari shu siyosatga amal qilib, vaqf mulklarni talon-taroj qilgan madrasa boshliqlari ustidan tushgan shikoyatlarni qarashdan bosh tortar edi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, chorizm ruslashtirish siyosatini ayni shu sohadan, ya'ni, maktab-maorifdan boshlash kerakligini anglab, o'z dasturlarini ishlab chiqishga kirishdi. Turkiston general-gubernatorligi mahkamasi bu sohada, ayniqsa, jon kuydirib faoliyat ko'rsatdi. Uning bu sohadagi ishlari behuda ketmadi. [2]

1880-yilda Imperiya Davlat Kengashida Turkistondagi mahalliy aholi bolalarini ruslar bilan birgalikda o'qitish masalasi ko'rilganda Turkiston "savdo-sotiq, dehqonchilikda suyagi qotganligi va yuvosh tabiati" ta'kidlanib, ularning imperiyadagi boshqa musulmonlardan keskin ajralib turishlari qayd qilindi.

Boshida, o'rta asr musulmon maktablarini isloh qilishdan bosh tortgan chorizm, ruslar o'mashgan yerlarda ochilgan rus maktablarini Turkistonda maorif sohasida o'z siyosatining quroli qilib olishga harakat qildi. Chunki 1866-yili Toshkentga ko'chib kelgan ruslarning bolalarini o'qitish uchun dastlabki rus maktabi ochildi. Mustamlakachilar rus bolalari bilan birga o'qish uchun mahalliy aholi bolalarini ham qabul qilar edilar. Turkistondagi bunday maktablarga hali musulmon tabaqalari orasida, uncha tushuncha bo'lmasa-da, bu siyosat darajasidagi maxsus topshiriq edi. [3]

Turkistondagi boshlang'ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Yevropa qismiga qaraganda, ancha ko'proq o'rgatilardi; bundan ko'zda tutilgan maqsadlardan biri mahalliy aholining bolalarini maktabga ko'proq jalb qilish edi. Chorizmning Turkistonda ruslashtirishdan iborat maktab tizimi chorizm tomonidan Volga bo'ylarida yashovchi xalq uchun ma'qullangan «Ilminskiy tizimi»dan farq qilar edi. Qozon pedagogi Ilminskiy Volga bo'yidagi chuvashlar, mariylar va boshqa xalqlar uchun alohida rus va mahalliy aholi maktablari ochgan edi; bu

maktablarda o'qish dastlab bolalarning ona tillarida olib borilar, rus tili esa alohida fan sifatida o'qitilar edi; shu bilan birga, hamma darsliklar xristian dinini targ'ib qilish ruhida tuzilgandi. Bulardan farqli o'laroq, islom dini ta'siri kuchli bo'lgan Turkistonning mahalliy aholisi o'rtasida xristianlar missionerligiga ruxsat etilmasdi; buning ustiga rus maktablarida musulmon dinini o'qitish man etilgandi; rus maktablariga o'qishga kirgan yerli aholi bolalari eng boshdan boshlaboq rus tilida o'qitilardi. Turkistonda dastlabki rus o'rta o'quv yurtlari 70-yillarda ochila boshladi: 1876-yili Toshkentda erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari, Verniyda (hozirgi Olma-otada) ham shunday gimnaziyalar, 1879-yilda o'qituvchilar seminariyasi ochildi. [4]

Gimnaziyaga ham mahalliy aholining bolalari qabul qilinardi. O'qituvchilar seminariyalarida esa mahalliy aholi bolalariga 1-3-o'rin ajratilgan edi. Turkistonda dastlab ochilgan ba'zi rus maktablarida o'quvchilarning to'rtidan birini va ba'zan undan ko'prog'ini mahalliy aholi bolalari tashkil etgan bo'lsa-da, lekin butun Turkiston o'lkasida bunday maktablarda o'quvchi mahalliy aholi bolalari ikki yuzdan oshmas edi; bularning ko'pi qozoq bolalari bo'lib, o'zbek va tojik bolalari juda oz edi, chunki musulmon ruhoniylari «kofirlar» maktablariga qarshi targ'ibot yurgizar edilar. Rus maktablarida, ayniqsa, o'rta maktablarda o'quvchilar o'rtasida o'z ijtimoiy ahvoliga ko'ra boylar va oqsuyaklarning bolalari ko'pchilikni tashkil etardi, lekin rus boshlang'ich maktablari qoshidagi internatlarda mahalliy aholi kambag'al qismlarining bolalari ham bor edi. [5]

Chorizmning maktab sohasidagi siyosati ruslashtirishdan iborat bo'lsa ham, lekin rus bolalari bilan mahalliy aholi bolalarini birgalikda o'qishlari, ular o'rtasida o'zaro do'stlikni tarbiyalardi. Bu millatlarni o'zaro yaqinlashuvi bo'lsa-da, bu yigitchalar o'zbek bolalaridan o'zbekcha o'rganishga imkon tug'dirardi. Rus maktabiga o'qishga kirgan bolalar rus tilini mutlaqo bilmasdilar, natijada darslarni tushunishda ancha qiyinchilik tug'dirardi. Shu bilan birga rus maktablarida o'qiyotgan bolalarning ong va tafakkuri rivojlanmay qolaverardi. Bu hol yerli aholini istibdod iskanjasida saqlash uchun rus istilochilariga kerak edi. Shuning

uchun chor hukumati o‘qish mazmunini bir oz o‘zgartirib, rus maktabiga kirgan, lekin rus tilini mutlaqo bilmaydigan o‘quvchi rus tilida so‘zlashishni bilib olmaguncha, odatda, quyi bo‘limda o‘qir edi; rus tilida so‘zlashishni o‘rganib olgandan keyingina yuqori bo‘limga o‘tkazilardi. Yuqori bo‘limga o‘quv yilining o‘rtalarida ham o‘tkazilardi, chunki maktablar kichkina bo‘lib, bir o‘qituvchi bir xonada, bir vaqtning o‘zida bir necha bo‘lim bilan mashg‘ulot olib borardi. [6]

Rus maktablarida o‘qiydigan qozoq bolalarining ko‘pchiligi internatlarda yashar, xuddi shu internatlarda rus bolalari ham yashardilar; bunday internatlarda rus tili yanada tezroq va puxtarroq o‘rganib olinardi. Toshkentdagi gimnaziya, dastlabki yillarda, mahalliy aholining bolalari rus tili bilan ko‘proq shug‘ullanishi uchun lotin tilini o‘rganishdan ozod qilinardilar. O‘zbek tilini mukammal bilgan, sakkiz yil davomida rafiqasi bilan Nanay qishlog‘ida yashab, o‘zbek xalqi ruhiyatini puxta o‘rgangan, ruslashtirish siyosatining «madaniy» uslubi tarafdorlaridan bo‘lgan sobiq zobit, Turkiston maorifi rahbarlaridan biri V.N.Nalivkin (1857-1918) maslakdoshlari o‘rtasida shunday g‘oyani ilgari surgan: “O‘lkada rus ta’sirini mustahkamlash uchun ikki tomonlama ish olib borish kerak. Aholining ikki asosiy guruhi o‘zaro bir-biriga yaqinlashsin.

Rus tilini mahalliy aholi o‘rtasida keng tarqatish bilan birga ruslar, ayniqsa, xizmatdagi amaldorlarga mahalliy og‘zaki nutqni o‘rgatish kerak”.

Turkistonda qariyb qirq yil xizmat qilib, kichik zobitlikdan general-leytenant unvoniga, shahar hokimi yordamchisi, eski shahar polismeysteri lavozimidan viloyat harbiy gubernatoriga qadar mansab pillapoyalaridan ko‘tarilgan N.S.Likoshin ana shu g‘oyaga amal qilgan amaldorlardan biri edi. U uch yil ichida o‘zbekchani o‘rganib, shu tilda yozadigan, ruschadan-o‘zbekchaga, o‘zbekchadan-ruschaga bimalol va erkin tarjima qiladigan darajaga erishadi. N.S.Likoshin ruslashtirish siyosatining nozik uslubini yoqlab, Turkistonda xizmat qiluvchi har bir rus mansabdori mahalliy tilni bilishi shart deb hisobladi. Likoshin rus zobitlarini o‘zbek tilinigina emas, o‘zbek yozuvini ham o‘rganishga chaqirgan.

Mahalliy ma'muriyat vakillari, aholining nufuzli qatlami, ulamo va ziyolilarni bilish, nazorat qilish, xalq kayfiyatidan vaqtida xabardor bo'lib turish uchun eng yaxshi vosita ekanligini ta'kidlagan. Toshkentning eski shaharida uzoq yillar davomida politsiya boshlig'i lavozimida ishlagan N.S.Likoshinning o'zbek bolalarining bilimga chanqoqligi va tabiiy qobiliyatlariga baho bergani diqqatga sazovordir. «Men, - deb yozgan edi N.S.Likoshin, - eski maktabni bitirib, to'g'ri shahar bilim yurtiga kelgan bolalarni ko'rganman. Ruslar orasida yurgan bu bolalar tezda o'z tengdoshlari bilan chiqishib, ruscha biyron gaplashadigan bo'lib ketishdi. Buning asosiy sababi, mahalliy bolalarning rus bolalari bilan birga bo'lishidadir. O'yinlarda bolalik mashg'ulotlarida og'zaki nutq tez rivojlanadi». [7]

Oliy lavozimdagi mustamlaka ma'murlari ruslashtirish siyosatida Turkiston yoshlariga e'tiborni kuchaytirgani bejiz emas, albatta. Ular mahalliy aholini idora qilish kelajagini yoshlar orasidan tarbiyalanadigan sodiq qullarda ko'rdi va shu maqsadga ta'lim ishlarini qaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Кун А.Л. «Мусульманская школа». Журнал «Туркестанские ведомости», № 37. – Ташкент: 1876.
2. Rasulov B.M. Turkiston madrasalari. "Fan va turmush" jurnali, № 2. – Toshkent: 1996.
3. Rasulov B.M. O'zbekistondagi musulmon maktab va madrasalari tarixidan (XIX asr oxiri va XX asrning 20-yillari). Tarix fanlari nomzodligi uchun yozilgan dissertatsiya. – Andijon: 1996.
4. Djurayev D.U. Turkiston an'anaviy maktablari faoliyati tarixidan (XIX asr ikkinchi yarmi) // Zamonaviy ta'lim // Ilmiy amaliy jurnal. 7-son, 2017 yil.
5. O'zRMA. Fond I-19, 1-ro'yxat, 19060-ish.
6. O'zRMA. Fond I-19, 1-ro'yxat, 18011-ish.
7. Лыкошин Н.С. Полжизни против Туркестана. Очерки быта туземного населения. – СПб.: 1916. – С.: 415.

**XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHI TURKISTON
O‘LKASIDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIY VAZIYAT**

Xasanova Zulhumor Djalolitdinovna

Sharof Rashidov nomidagi SamDU tayanch doktoranti

E-mail: xasanovazulhumor50@gmail.com

Chorizmning XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida O‘rta Osiyoga nisbatan amalga oshirgan strategik rejalari, mustamlakachilik negizlari bosqinchilik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli bu bosqin XIX asrning birinchi yarmidayoq uning uchun zamin tayyorlashdan boshlanganini, keng ko‘lamli qidirish ishlarini olib borish, Qo‘qon xonligining hududiy yaxlitligini vaqti-vaqti bilan buzib turish, uning chegaralariga qo‘pol ravishda bostirib kirish, Sirdaryoning quyi oqimlaridagi Raim (1847), Oqmachit (1857), G‘arbiy Sibir tomondagi Kopal (1847), Olmaota yaqinidagi Verniy (1854) va boshqa strategik jihatdan qulay bo‘lgan mudofaa inshootlarini zabt etish bilan qo‘shib olib borildi.

Harbiylarning tez suratlar bilan kuchayib borgan bosqinchiligi Rossiya tashqi ishlar vazirligi tomonidan bir muncha vaqt “so‘ndirildi”, chunki u o‘z hususiyatiga ko‘ra xalqaro vaziyatga, G‘arb bilan Sharqning jamoatchilik fikriga quloq solishga majbur bo‘ldi, shiddatli harakarlardan tiyilib turish haqida ogohlantirildi. Rossiya Tashqi Ishlar Vazirligi tayyorgarlik bosqichini cho‘zishni diplomatik agentlar, elchixonalar, missiyalar, ilmiy va savdo ekspeditsiyalari orqali (ular “O‘rta Osiyo xonliklari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni jonlantirish” maqsadida doimiy ravishda Sharqqa yuborib turilardi) mintaqada sinchkovlik bilan keng ko‘lamda razvedka ishlari olib borishni talab qildi.

Tashqi ishlar vazirligining Osiyo deportamenti bu kabi ishlarning bevosita tashkilotchisi bo‘ldi. Unga harbiy vazirlik, moliya vazirligi va boshqa idoralar faol yordam ko‘rsatdilar. Masalan, 1858 yili birdaniga uchta ekspeditsiya tuzildi: sharqshunos N.V.Xanikov boshchiligidagi “ilmiy” ekspeditsiya Eron va Hirot vohasiga; CH. Valixonov boshchiligidagi savdo ekspeditsiyasi Qashg‘ar (Janubi-Sharqiy Turkiston)ga va diplomatik ekspeditsiya Xiva hamda Buxoro xonliklariga yuboriladigan bo‘ldi.

Bu ekspeditsiyaga Londondagi rus harbiy agenti, O'rta Osiyoga hujum qilish siyosatining tarafdori, polkovnik N.P.Ignatiev boshchilik qildi. Buxoro va Xivada rus savdosini kengaytirish va yaxshilash, xonlik ishlariga "inglizlarning zararli aralashuvi"ni barbod qilish va ularni o'z tomoniga jalb etish; rus savdo kemalarining Amudaryo bo'ylab erkin suzib yurishiga xonliklarning roziligini olish. IIB yo'riqnomasida: "Sizlarga yuklatiladigan ishlarning eng muximi Amudaryo bo'ylab ochiq kema qatnovini yulga quyishdan iborat. Bu vazifani bajarish uchun imkoni bo'lgan barcha vositalar bilan harakat qilishingiz kerak", [1] -deyilgan edi.

Harbiy vazirlik yul-yulakay topografik statistik va "umuman harbiy ma'lumotlar"; Amudaryo, turkmanlar "ularning harbiy kuchi" va Xivaga munosabati, Xivadan va Buxorodan Eron va Afg'onistonga boriladigan yo'llar, Xiva, Buxoro va iloji boricha Balxning harbiy kuchi va vositalari to'g'risida (har jihatdan) ma'lumotlarni toplashni topshirdi. [2]

Podsho qo'shinlari keng bosqinchilik harakatining tayyorgarlik bosqichi ayni vaqtda O'rta Osiyo xonliklarini iqtisodiy ekspluatasiya qilish bilan qo'shib olib borildi. Bu yangi savdo bozorlari va xom-ashyo manbalariga ehtiyoj sezayotgan Rossiya savdo-sanoat doiralari tomonidan hukumat siyosatining to'la qullab-quvvatlanayotganligini bildirar edi. Rossiya fabrikantlari va zavodchilari O'rta Osiyoga nisbatan amalga oshirilayotgan "qat'iy" siyosatni olqishlab, uni Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olishga chaqirdilar.

Qo'qon xonligining 40-45 yillardayoq bosib olingan ayrim xududlari ular tomonidan Rossiya voqeligining ajralmas qisimlaridan biri bo'lib qolgan qandaydir mavjud narsa deb qaralar, ularning iqtisodiy ko'rsatgichlari va ulardan darhol foyda chiqarib olish imkoniyatlari o'rganilardi. Rossiya to'qimachilik magnati A.Shipov O'rta Osiyo xom ashyosidan foydalanib, ip-gazlama ishlab chiqarishni kengaytirish Rossiya uchun foydali ish bo'lar edi, deb o'ylardi. Shipov o'z fikrining isboti sifatida Amerika paxtasiga qaramlikdan qutulish maqsadida Hindiston va Avstraliyada paxta yetishtira boshlagan Buyuk Britaniyani misol

qilib keltiradi. U “O'rta Osiyoda paxta yetishtirishni qayta tiklash va takomillashtirish uchun butun kuch-g'ayratini sarf etish”ga chaqirdi.

Chunki ip-gazlama sanoati yangi sarmoyalar yaratishga eng ko'p qulaylik tug'dirardi. “Sarmoyalar yetishmayotgan davlatda bu ayniqsa muximdir”, deb yozgan edi. [3]

Rossiyada sanoat kapitalizmining rivojlanishi Amerika Qo'shma Shtatlaridan paxta keltirishga to'la-to'kis bog'liq edi. 1861-1864 yillardagi fuqarolar urushi tufayli to'qimachilik tarmog'i halokat yoqasiga kelib qoldi: 1860-1861 yillarda Amerikadan paxta keltirish 6, O'rta Osiyodan keltirish 3 baravarga qisqardi; bir pud paxtaning narxi 4-5 so'mdan, 7 rubl 50 tiyinga ko'tarildi va oshib borib, 1862 yilda 12-13 so'mga, 1864 yilda 22-24 rublga yetdi. [4]

Chorizm o'z maqsadlarini xoloskorlik deb niqoblash orqasida esa, amalda uning haqiqiy niyatlariga mos keladigan uchta narsa –mintaqani bosib olish, mustamlakaga aylantirish va ruslashtirish hamda yaqin kelajakda “yangi rus Turkiston”ni tashkil etish rejasi yashiringan edi. Bu g'oya 60-yillarning oxirida chor qo'shinlari tomonidan Turkiston, Avliyoota, Chimkent va Toshkent bosib olingandan keyin hamda 1865 yilda Turkiston viloyati tashkil etilgandan so'ng faollik bilan targ'ib etila boshladi. Masalan, chorizmning “yarim norasmiy” organi bo'lgan “Московские ведомости” gazetasi ko'pgina maqolalarida “davlatimiz g'azasining qimmatbaho pullari ana shu yangi chekka o'lkaga sarf etilishi va u yerdagi harajatlar butunlay Rossiyaning mahalliy mablag'lari hisobidan to'lanishi”ga yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb bayon qilgan edi. [5]

Rejalarga muvofiq, chorizmning harbiy harakatlari tufayli o'z hududlarining muayyan qismidan ajralgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi ham Rossiya imperiyasiga qaram davlatlar bo'lib qoldi. Buxoro amirligidan tortib olingan Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on 1868 yilda Turkiston general-gubernatorligining Zarafshon okrugini tashkil etdi. Xiva xonligi Amudaryoning butun o'ng sohilidan ajraldi, bu yerlar Amudaryo bo'limi nomi bilan Turkiston tarkibiga kiritildi (1873).

Har ikkala xonlik Rossiya bojxona tizim tarkibiga kiritildi, ularning iqtisodiyoti chorizm manfaatlariga to'la-to'kis bo'ysundirilgani va Rossiya savdogarlari hamda burjuaziyasining mutlaq hukumronligi ta'minlashini bildirar edi.

Rossiya tazyiqi bilan Buxoroning asosiy valyutasi hisoblangan tanga zarb etishning to'xtatilishi tufayli amirlik mustaqil harakat doirasi yana ham ko'proq toraydi. Tanganing qiymati doimiy ravishda o'zgarib turganligini baxona qilib, chor hukumati 1901-1903 yillarda eski zarb etilgan tangalarning bir qismini va Buxoro amiri 1902 yilda zarb qilgan 24 mln. yangi tangani sotib oldi. Ahvol shu bilan tugadiki, amirlik rus kredit belitlari, oltin va kumush tangalar keltirildi, ular sekin-asta Buxoro bozoridan mahalliy pulni siqib chiqardi. [6]

1868 yilgi savdo shartnomasiga muvofiq Qo'qon xonligi ham chor hukumati tomonidan nazorat qilinadigan, Rossiya maxsulotlari sotiladigan bozor va xom ashyo manbaiga aylantirildi. Biroq, Buxoro va Xivadan farqli o'laroq, Qo'qon ichki siyosiy adovatlar, xalq isyonlari va qo'zg'olonlari bilan larzaga kelgan bo'lib (bular tarixiy adabiyotlarda batafsil yoritilgan) [7], chor qo'shinlarining bosib olish natijasida Turkiston general-gubernatorligi asosini tashkil etdi.

Turkistonni boshqarish strategiyasi harbiy harakatlar jihatidan deyarli baravar bo'lgan ikki tamoyilni bir-biriga muvofiqlashtirishga majbur bo'ldi. Bularning biri – iloji boricha tezroq mintaqada Rossiya tartiblari va qonunlarini o'rnatishga ko'maklashish, ikkinchisi- o'z turmush tarzi, an'analari, diniy an'anaviy poydevorida tub o'zgarishlar bo'lishini mutlaqo o'ziga singdirolmaydigan mahalliy aholi bilan munosabatlarni qanday qilib yulga qo'yishd n iborat edi. Davlat va uning Turkistondagi vakili bo'lgan mustamlakachi ma'muriyat u yoki bu siyosatni tanlab, unga amal qilishlari lozim edi.

Boshqaruvning asosiy tamoyillari metropoliyaning siyosiy,iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlariga tayandi va shularga muvofiq ravishda chorizmning quyidagi asosiy vazifalari belgilab chiqildi: Turkiston xalqlarining yangi rejimga qarshilik ko'rsatishining barcha shakillarini harbiy yo'l bilan bostirish va bu xalqlarni

zo‘rlik bilan mustamlakachilik tizimiga moslashtirish; xonlar, beklar, mahalliy ayonlar boshchiligidagi avvalgi hukumronlik mehanizmlarini yo‘qotish; mahalliy aholining turmushi, urf-odatlar va rasm-rusumlariga aralashmaslik; Turkistonga “aholini to‘g‘ri joylashtirish”ni tashkil etishga yordamlashish; mintaqaning tabiiy boyliklaridan foydalanishning arzon tizimini ta’minlash choralari ko‘rildi.

Ko‘p sonli arxiv xujjatlari, estaliklar, yozishmalar va boshqa materiallarning guvohlik berishicha, mustamlakachilarning aksariyat ko‘pchiligi mahalliy sharoit va aholining kayfiyati bilan hisoblashmasdi, chor armiyasining kuchi va qudratiga va o‘lkadagi boshqaruvning zo‘ravonlik usullariga tayanib, ko‘proq sinab ko‘rish va xatolardan iborat ichki his-tuyg‘u asosida harakat qilishardi. Ulardan biri K.P.Kaufman bo‘lib, u 1867 yildan 1882 yilgacha Turkiston ma’muriyatiga boshchilik qilgan.

U Turkiston bilan ilk tanishuvidan keyin harbiy vazir Milyutinga “... musulmonlar o‘zlarini shu qadar sovuqqonlik bilan tutib, oliy hokimiyat vakillariga shu qadar beparvo, hatto hurmatsizlik bilan munosabatda bo‘lmoqdalarki, bu borada qandaydir o‘zaro kelishuv mavjud bo‘lsa kerak deb taxmin qilish mumkin...Men aql- idrokli kishilarning kayfiyati yaxshi emasligi, rus hokimiyatini yoqtirmasligiga asoslanib, bu yerda undan halos bo‘lish uchun qulay fursatdan foydalanib qolishga xozirlik haqiqatdan ham mavjud ekanligiga aminman” [8], - deb yozgan edi.

Chorizm mintaqaning yer maydonini to‘liq chegaralab chiqdi. Aholiga uch toifadagi- sug‘oriladigan, lalmi va ishlov berilmaydigan yerlar biriktirib qo‘yildi. Ularga og‘ir soliqlar solindi. Mahalliy aholidan “ortiqcha yerlarni” shafqatsizlarcha zo‘ravonlik bilan tortib olish hisobiga Rossiyadan aholini ko‘chirib keltirish muammolari hal qilindi. Paxta chorizm uchun strategik jixatdan muxim ekin bo‘lib, uning paxta sohasida AQSHdan mustaqil bo‘lishini taminlash jihatidan sug‘oriladigan yerlar paxta yetishtirish uchun qayta taqsimlandi.

Chorizm bosqinchiligining hali boshlang‘ich davridayoq kun tartibiga qo‘yilgan mintaqaga “aholini to‘g‘ri joylashtirish” va uni yanada jadalroq

ruslashtirish masalasi alohida kuch bilan avj oldirildi. Ma’naviy sohada musulmon ruhoniylariga, maktablar, madrasalar, islomning ijtimoiy institutlariga qarshi qo‘poruvchilik faoliyati kuchaytirildi, ayni vaqtda, rus-tuzem , cherkov-qavm, yakshanbalik va boshqa maktablarning, provaslav cherkovlari, soborlar , ibodatxonalar, monastrlar va turli missiyalarning faoliyat ko‘rsatishi uchun imkoniyat maydoni kengaytirildi.

Rossiya imperiyasi Davlat Kengashining a’zosi, 1908-1909 yillarda Turkiston o‘lkasini taftish qilgan senator K.K.Palenning hisobotida keltirilgan fikr: ”Rus hukumati o‘z fuqarolariga kirgan boshqa qabilalarni tinchlantirish haqida qayg‘urib, mazkur qabilalarning ahloqiy tushunchalari sohasiga zo‘ravonlik bilan kirib borish va mamlakatdagi urf –odatlarni o‘zgartirish niyatida emaslikligini e’lon qilish bilan chekland. Shu bilan birga, hozircha o‘z kuchida qoldirilgan huquqning, vaqtinchalik tartibi hamisha nazarda tutildi, chunki agar Qur’onda qonun kuchi beriladigan bo‘lsa, aholi aytib o‘tilgan qonunning izohlovchisi bo‘lgan o‘z ruhoniylari tazyiqi ostida bo‘ladi, rus davlatiga hamisha begona bo‘lib qoladi”. [9]

Ya’ni rus hukumati Turkiston aholisining ongi, uning ijtimoiy munosabatlari ko‘p asrlar mobaynida islom ahkomlari va an’analari bilan belgilab kelinganligi, uning tarkibiy qismi bo‘lmish shariat-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, qonun-qoidalarning, huquqiy va ahloqiy an’analarning butun bir majmuidan iborat ekanligini his qilib, bu jamiyatni tabiiy-tarixiy rivojlanish yo‘lidan zo‘rlilik bilan boshqa tomonga burib yuborishni rejalashtirdi. Bu uchun Kaufman davridayoq “diniy urf-odatlar va marosimlarga aralashmaslik to‘g‘risida”gi shovqin-suronlar, safsatalar bilan ruxoniylarning yerlari davlat mulki deb e’lon qilindi va ular arzimagan pulga chor generallari, yuqori amaldorlari, savdogarlari va yangi kapitalistlarga sotib yuborildi, shaxarning ruslar istiqomat qiladigan qisimlarini va boshqa obyektlarni qurishga ajratib berildi.

Shunday qilib, garchi chorizmning mahalliy jamiyat ma’naviy hayotiga tazyiqi yetarli darajada kuchli bo‘lsa ham bu jamiyat chetdan bo‘lgan ta’sirni

osongina va jon-dili bilan qabul qildi va unga moslashib quya qoldi, degan gap emas. Biroq, dunyoning u yoki bu mustamlakachi tuzulma hukum surgan hamma joyida bo‘lgani kabi moslashuv jarayoni asosan iqtisodiy sohada ro‘y berdi. Turkiston jamiyati qarshilik ko‘rsata-ko‘rsata o‘zgartirilgan hayot sharoitini qabul qilishga unga moslashishga majbur bulgan edi. Chunki Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachiligi ayniqsa, XIX asrning oxiri- XX asrning boshlarida faqat rus mustabid hokimiyatining siyosiy hukumronligiga emas, shu bilan birga, Rossiya kapitalining iqtisodiy hukumronligini ham anglatar edi.

Yer ishlari va davlat mulki vaziri Krivosheinning yozishicha, u zarur bo‘lgan paxtani ham, boshqa ko‘pgina iqtisodiy va siyosiy boyliklarni ham berardi. [10]

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Rossiya imperiyasi ma’murlarining O‘rta Osiyodagi strategik rejalarining bevosita mualliflari va ijrochilariga “murojaat qilish”ga imkon beradigan turli manbalarni o‘tmishga qiyosan taxlil qilish va bir asr avvalgi jarayonlarning mohiyatini teran idrok etish mazkur rejalarining begona hududlarni bosib olish, u yerda mavjud bo‘lgan ijtimoiy hayot qonunlari va an‘analarini izdan chiqarish, mahalliy jamiyatning diniy-ma’naviy negizini barbod qilish, milliy madaniyat va ta’limni obro‘sizlantirish va sekin-asta betaraflashtirish, pirovarda natijada “yangi, rus Turkistoni”ni barpo etishni nazarda tutuvchi mustamlakachilik “qadriyatlarni”ni zo‘ravonlik bilan singdirishga qaratilganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mustabit tuzumning O‘zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865-1990-yillar) // loyiha rahbari va ma’sul muharrir: D.A.Alimova. – Toshkent: “Sharq”, 2000. 10-bet.
2. Mustabit tuzumning O‘zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865-1990-yillar) // loyiha rahbari va ma’sul muharrir: D.A.Alimova. – Toshkent: “Sharq”, 2000. 12-bet.
3. Шипов А.П. Хлопчатобумажная промышленность и важность-значения для России. – Москва: 1857-1858. - С: 42.

4. Халфин Н.А. Присоединение Средней Азии к России. – Москва: 1965. Пуд – единица веса, равная 16 кг.
5. Дмитриев Г. Деша Скаялера и проблемы Среднеазиатской политики саризма 70-х гг. XIX в. Материальная история, историография и археология. – СПб: научные труды ТашГУ, № 517 / – Ташкент: 1976. - С: 31.
6. Тухтаметов Т.Г. Русско-бухарские отношения в конце XIX - начала XX века. – Ташкент: Наука, 1966. - С: 59.
7. Ахмеджанов Г.А. Российская империя против Центральной Азии // История и историография колониальной политики царизма в Туркестане. – Тошкент: Фан, 1995.
8. Зияев Х.З. Борьба против русской агрессии и господство в Туркестане. – Ташкент: Шарк, 1998.
9. Кастельская Д. Из истории Туркестанского края. – Москва: 1980. - С: 29.
10. Пален К.К. Отчет по ревизии Туркестанского края. Переселенческое дело. – СПб: 1910. - С: 19.
11. Кривошеин А.В. Записки главноуправляющего землеустроителей и земледелием о поездке в Туркестанский край в 1912 г. Приложение к всеподданнейшему докладу. – СПб: 1912. - С: 80.

MUSTAQILLIK YILLARIDA YURTIMIZDA XOTIN-QIZLAR MADRASALARI FAOLİYATI VA TARIXI

Qurbonov Bekjon G‘ayrat o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0000-0003-4555-6937

E-mail: bekjon.qurbonov@gmail.com

Milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy boy merosimizni tiklash va ularni o‘rganish, uning mazmuni va mohiyatini, ahamiyatini xalqimizga targ‘ib etish, Imom al Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur Motrudiy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Bahouddin Naqshbandiy, Mahmud Zamaxshariy va boshqa yurtimizda yetishib chiqqan buyuk allomalar merosini o‘rganish, yuksak insoniy g‘oyalar va muqaddas qadriyatlarimizni o‘zida saqlagan manbalar ustida ijod etish, ulardan diniy ta’lim, ma’naviy-ahloqiy tarbiya ishlarida foydalanish, diniy xodimlarning malakasi, bilim va tajribasini rivojlantirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy

ishlarini amalga oshirish, yosh avlodning ruhiy va ma'naviy olamini boyitish, qadimiy milliy qadriyatlarimizni saqlash, ulug'lash, faxrlanish va Vatanimiz tarixi zarvaraqlariga oltin harflar bilan yozilgan nodir qo'lyozmalarni kelajak avlodlarga yetkazish va ular qalbida bobolarimiz qoldirgan merosga hurmat, e'zoz, muhabbatni shakllantirish, diyorimizning Buxoro, Toshkent, Samarqand, Urganch, Axsikent, Xiva, Marg'ilon va boshqa shaharlardagi ma'rifat maskanlaridagi madrasalar va hozirgi kunda yurtimiz O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan madrasalar haqida tolibi ilmlarga kerakli ma'lumotlar berib borish bugungi kunning eng dolzarb mavzusidir.

Yurtimizda qadimdan islom ilmlarini o'qitish bo'yicha o'ziga xos tizim mavjud bo'lib, nufuzli madrasalar ko'pligi va undagi ta'lim-tarbiya jarayoni tahsinga loyiq bo'lgan. Madrasalar nafaqat diniy, balki dunyoviy ilmlarni o'rganish va o'rgatishda maktab vazifasini bajargan. Shu tufayli ilm-ma'rifat bilan jahon tamadduniga munosib hissa qo'shgan buyuk allomalar aynan shu zamindan yetishib chiqqani barchaga ayon. Ularning nomi va qoldirgan ilmiy meroslari necha asrlardan beri katta obro'-e'tibor qozonib kelmoqda. Qayd etish kerakki, teologik bilim sohasida o'zbekistonlik olimlar sovet davrida va mustaqillik yillarida ham zarur tajriba to'plagan bo'lib, dinlarning tarixi, e'tiqodiy asoslari, aqidalari, shuningdek, bir-biriga ta'siri kabi jihatlarini har tomonlama o'rgangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Sohada to'plangan ilmiy tajriba amaliyotga jalb etilib, dinshunoslik bilan bog'liq qator maxsus, ilmiy, ilmiy-ommabop, o'quv adabiyoti va ma'lumotnoma tarzida nashrlar chop etilgan. [1]

O'zbekiston musulmonlari idorasi mamlakatimizda nufuzi yuksak nodavlat notijorat tashkilotlardan biridir. Mo'min-musulmonlar birdamligini ta'minlash, toat-ibodatlar uchun zarur sharoitlar yaratish, Islom ahkomlarini aniq va to'g'ri yetkazish, toat-ibodatlar uchun qulayliklar yaratish, musulmonlarning aqidaviy birligini saqlash, ajdodlarimizning tarixiy merosini tadqiq etish, xayriya ishlarini olib borish, jamiyatda totuvlikni ta'minlash O'zbekiston musulmonlari idorasi faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir.

Xususan, diniy idora tasarrufida 10 ta o‘rta maxsus islom bilim yurti (shundan 2 tasi ayol-qizlarniki), 3 ta oliy diniy ta’lim muassasasi (shundan 2 tasida xotin-qizlar ham ta’lim oladi), 1 ta ilmiy tadqiqot markazi hamda 5 ta ilmiy maktablar faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, hududlarda Qur’on kurslari tashkil etilgan bo‘lib, bevosita diniy idoraning ko‘magida xalqqa ziyo ulashmoqdalar. Mustaqillikning dastlabgi yillaridan diniy soha kadrlariga bo‘lgan e’tibor nihoyatda ortdi. Ayniqsa, ayol-qizlar orasida diniy soha vakillari deyarli yo‘q edi. Shu munosabat bilan, mustaqillik davrida birinchi bor ayol-qizlar uchun maxsus madrasa tashkil etilib, ta’lim berish boshlandi.

Bunday madrasalardan biri Movarounnahr musulmonlari diniy boshqarmasining 1993-yil 31-avgustdagi №96-raqamli farmoni bilan “Eshon Boboxon” nomi ostida o‘z faoliyatini boshladi. Keyinchalik, 1998-yil 15-iyulda O‘zbekiston musulmonlari idorasi Oliy hay’atining majlis qarori va №295-sonli buyrug‘i bilan “Xadichai Kubro” ayol-qizlar o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi nomiga o‘zgartirildi. O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning taqdim qilgan litsenziyasi asosida diniy va umumta’lim fanlari uyg‘unligida ta’lim berib kelmoqda.

Ta’lim muassasasi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan nodavlat notijorat tashkilot sifatida 1997, 1998, 2016 va 2019-yillarda ro‘yxatga olingan. “Xadichai Kubro” ayol-qizlar madrasasida yiliga 30 nafar test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan talabgorlar kontrakt asosida qabul qilinadi. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan ayol-qizlar madrasalaridan yana biri, “Jo‘ybori Kalon” ayol-qizlar o‘rta maxsus islom bilim yurti O‘zbekiston musulmonlari idorasi Oliy hay’atining 1992-yildagi qarori bilan tashkil topgan hamda shu yilning o‘zida 2-sentabrdan ta’lim jarayonlari boshlangan. [2]

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 12-avgustda qayta ro‘yxatga olinib, №06 raqamli guvohnoma, 24-oktyabrda diniy ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanish uchun №0000011 raqamli maxsus ruxsatnoma berilgan. Bilim yurtlarining asosiy maqsadi dinlar tarixi va nazariyasini chuqur

egallagan, islom dini asoslarini o'zlashtirgan, insonparvarlik, xalqparvarlik va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalangan, o'rta maxsus ma'lumotli islomshunos mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. O'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar", "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston musulmonlari idorasi qaror va ko'rsatmalari asosida olib boradi. Talabalarni qabul qilish O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. 18 yoshga to'lgan kollej, litsey yoki 11-sinfni tugatgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hujjat topshirish imkoniyatiga egadirlar. [3]

Ayol-qizlar uchun ta'lim olish muddati 3 yil bo'lib, bilim yurti o'rta ma'lumotli Boshlang'ich arab tili murabbiysi, Diniy ma'rifiy va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari maslahatchisi tayyorlaydi. Ta'lim muassasasini tamomlagan talabalarga o'rta maxsus ma'lumotli arab tiliga ega islomshunos ixtisosligi bo'yicha diplom beriladi. O'quv rejasi va talablarini to'liq bajargan, bitiruv imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan talabalarga, shu bilim yurtini bitirganlik to'g'risida diplom beriladi. Bilim yurti bitiruvchilari ehtiyojidan kelib chiqib, O'zbekiston musulmonlari idorasi yo'llanmasi bilan ishga taqsimot qilinadi.

Hozirgi kunda ayol-qizlar madrasalarida mudarris-u mudarrisalar dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda Qur'on, hadis, fiqh, islom tarixi, aqoid, arab tili (sarf, nahv), xattotlik kabi fanlardan saboq beryaptilar. Shu jumladan bilim yurti talabalari Respublika miqyosida o'tkazib kelinayotgan qorilar musobaqasi, fan olimpiada, "Barkamol avlod" sport musobaqalarida va anjumanlarda qatnashib faxrli o'rinlarni olib kelmoqdalar. Shuningdek, talabalarga pazandalik, bichish-tikish, to'qish kabi hunarlar ham o'rgatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Usmonov M.A. Islom. – Toshkent: O‘zbek Sovet ensiklopediyasi, 1989. – B.: 335.
2. Alimov U. O‘zbekiston musulmonlari idorasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2020. – B.: 47.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon yerkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi 699-sonli qonuni.

XULOSA

O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi mamlakat ta’lim tizimi evolyutsiyasida yangi va muhim bosqich bo‘ldi. Bu davrda sohaga, bir tomondan jahon ta’lim jarayonlarining eng yaxshi natijalari joriy etilgan bo‘lsa, boshqa tarafdin, ko‘p asrlik va milliy xususiyatlar inobatga olingan tajribalar qo‘llanila boshladi.

Hozirgacha O‘zbekistondagi ta’lim tizimi tarixiy nuqtai-nazardan bunday katta davriy kesimda, uning mohiyati va xususiyatlari rivojining barcha jihatlarini o‘zida mujassam etgan yaxlit tadqiqot sifatida o‘rganilgan emas. Muammoning tarixshunosligi maxsus o‘rganilmagan, uni tahlil etish faqatgina ta’lim tarixi jarayonlarini har tomonlama o‘rganish orqali amalga oshiriladi.

“O‘zbekiston hududida ta’lim tarixi va tarixshunosligi: tajriba, muammolar, rivojlanish” fundamental loyihasi doirasida nafaqat ta’lim rivojidagi jarayonlar, balki uning institutsional tuzilmasi, mazmuni, o‘zgarishlardagi tendensiyalar va sotsio-madaniy manzarasini tadqiq etish maqsad qilingan.

Tarix va tarixshunoslik tadqiqiga bog‘liq bu muammolar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Shuning uchun mintaqadagi tarixiy va amaldagi ta’lim jarayonlaridagi yutuq hamda kamchiliklarni o‘rganish, tahlil qilish hamda kamchiliklardan to‘g‘ri xulosa chiqarishda masalaga tarixshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazardan yondashishni bugungi kunning dolzarb muoammolaridan hisoblab, ushbu konfrensiyada o‘rta asrlar, xususan, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Mang‘itlar, Qung‘irotlar, Minglar, Rossiya imperiyasi bosqini davri, sovet davri hatto qisman mustaqillik davri ta’lim tizimidagi jarayonlar, uning yutuq va kamchiliklarini yoritish bilan bir qatorda tizimning Tarixshunosligi va manbashunosligini ham atroflicha yoritib berishga harakat qilingan.

Mazkur to‘plamda o‘rta asrlardan mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ta’lim tizimi tarixining u yoki bu jihatlarini yoritib berishga harakat qilingan. Bu yerda ta’lim tizimi tarixining barcha yunalishlari aks etmagan. Faqat tizimning

transformatsiyasi, har bir davrdagi o'ziga xos yutuq va kamchiliklari siyosiy tizim va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'lik jihatlarni inobatga olingan holda ko'rsatib berildi. Shu sababli kelgusida bu masalaga ta'luqli konfrensiyalarni xalqaro miqyosida tashkil qilishni rejaga kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

To'plam talabalar, o'qituvchi mutaxassislar, keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'lib, o'z mazmuniga ko'ra jamiyatning to'laqonli taraqqiyotida ta'limning beqiyos ahamiyatga ega ekanligiga jamoatchilik e'tiborini qaratgan.